

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**  
**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI**  
**“SOLIQ HUQUQI”**

**FANIDAN**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Ta'lim sohasi:** 230000 • Iqtisod

**Ta'lim yo'nalishi:** 5230800 • Soliqlar va soliqqa tortish;



**TOSHKENT–2018/2019**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

- Tuzuvchilar:** Jo'rayev A.S. - TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası mudiri, i.f.d., professor
- Artikov N.A. - TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası katta o'qituvchisi
- Taqrizchilar:** Xudoyqulov S.K. - TDIU, "Moliya va soliqlar" kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent
- Shirinov S.E. - TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası dotsenti, i.f.n.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi kafedraning 2018 yil 14-iyundagi 20-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**Jo'rayev A.S.**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Sug'urta fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2018 yil \_\_-iyundagi \_\_-sonli qarori).

**Fakultet dekani**

**Safarov G'.A.**

**Kelishildi:**

**O'quv ishlari bo'yicha**

**prorektor**

**Qo'ziyev I.N.**

## MUNDARIJA:

T/r	Nomlar	Betlar
1.	O'quv materiallar	4
2.	1-modul. Soliq huquqining asosiy tamoyillari (IV semestrning 1-3 haftalari)	5
3.	1-mavzu. Soliq huquqi fanining predmeti , tizimi va uni boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro bog'liqligi	5
4.	2- Mavzu. Soliq huquqining manbalari, prinsiplari hamda ularning umumiy tavsifi	19
5.	3 – Mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi, ularning mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari	29
6.	4-Mavzu. Soliqqa oid huquqiy munosabatlar hamda soliq to'lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlari	43
7.	5- Mavzu. Soliq tizimini boshqarishdagi davlatning vakolatli o'rganlari	50
8.	6 – Mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi	67
9.	7 – Mavzu. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi	75
10.	8 – Mavzu. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar	87
11.	9 – Mavzu. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari	95
12.	2-modul. Soliq huquqining amaliy holati (IV semestrning 10-18 haftalari)	
13.	10 – Mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi	102
14.	11 – Mavzu. Soliq nazoratining huquqiy asoslari	111
15.	12-Mavzu. Davlat boji va bojxona to'lovlarini huquqiy tartibga solish	126
16.	13-Mavzu. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik sub'ektlarini me'yoriy huquqiy tartiblash	134
17.	14-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari	163
18.	15-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy amaliyotni yuritish tartibi	172
19.	16-Mavzu. Soliqqa oid nizolarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari	182
20.	17– Mavzu. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati o'rganlarining huquqiy maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari	195
21.	18-Mavzu. O'zbekiston Respublikasining soliq sohasidagi xalqaro hamkorligi	202
22.	Amaliy mashg'ulot mavzulariga oid materiallar	
23.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	237
24.	Glossariy	246
25.	Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati	256
26.	Ilovalar: -fan dasturi -ishchi fan dasturi -testlar	

# O'QUV MATERIALLAR

# **1-modul. Soliq huquqining asosiy tamoyillari (IV semestrning 1-9 haftalari)**

## **MA'RUZALAR MAVZULARI**

**1-mavzu. Soliq huquqi fanining predmeti , tizimi va uni boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

**Reja:**

- 1. Soliq tushunchasi va jamiyatdagi ahamiyati**
- 2. Soliq huquqi predmeti, usuli va manbalari**
- 3. Soliq huquqiy munosabatlari**

**Tayanch so'z va iboralar:** asosiy ish joyi, asosiy faoliyat turi, davlat soliq xizmati organlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliq munosabatlarining subyektlari, soliq huquqi, budjetdan ajratiladigan subsidiya, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, taqsimlangan foyda, yuridik shaxs, aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati, beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, yuridik shaxs, beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, ijarachi, hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati .

### **1. Soliq tushunchasi va jamiyatdagi ahamiyati**

Avvalo, soliqlarning paydo bo'lishi, ularning ilk ko'rinishlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish har bir insonni qiziqtirishi tabiiydir. Soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot tarixiy kitoblarda uchramasada, soliqlar tarixini yorituvchi manbalarning guvohlik berishicha, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zururiy bo'g'iniga aylangan. Davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi ham doimo o'zgarib turgan. Soliqlarning ilk ko'rinishi sifatida qurbonlik qilingan noz-ne'matlar e'tirof etiladi. Buning xususiyati shundan iboratki, qurbonlik qilish majburiy bo'lmay, balki ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgandir. Qilingan qurbonliklar esa kambag'allarga, nochorlarga, yetimlarga, muhtojlarga ulashib berilgan. Keyinchalik joriy etilgan soliqlar esa bevosita qabila hamda urug'lar o'rtasida davom etib turgan urush-janjallarga bog'liqdir. Bunday soliqlar natura shaklida bo'lib, bir qabilani bosib olish yoki o'zini muhofaza qilish uchun safarbar etilgan. Soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'ringa chiqishiga, avvalambor, davlatning shakllanishi, jamoalarning sinflarga bo'linishi, qadimgi ijtimoiy tuzumning vujudga kelishi hamda ularning ma'lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari sabab bo'lgan. Ingliz iqtisodchisi S.Parkinson so'zi bilan aytganda: "Soliqlar ko'hnadir – huddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo'mondon o'z hududida joylashgan daryo yoki tog'dan savdogar hamda sayohatchi o'tsa ulardan haq olishi sabab bo'lgan". Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari ham o'zgarib kelmoqda. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar asosan pul shaklida undirilayotgan bo'lsa, ular qadimda bir qancha ko'rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pulli shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi. Soliqlarning rivojlanish tarixi. V.M.Pushkaryova soliqlar rivojlanish tarixini 3 bosqichga ajratib ko'rsatadi. Ularning har biri u yoki bu xususiyatlari hamda afzalliklari bilan ajralib turadi. Birinchi bosqichda soliqlarning rivojlanishi qadimgi va o'rta asrlar qishloq xo'jaligi tizimiga

xos bo'lib, u tartibsiz hamda asossizligi bilan ajralib turadi. Shu davrdan e'tiboran soliqlar va ularni undirish mexanizmi joriy etildi. Soliqlarning joriy etilishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning amal qilishiga davlat apparatining shakllanishi, armiya, sud va ularning moliyaviy manbalar bilan ta'minlash zaruriyati, tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi kabi omillar sabab bo'lgan. Ilk soliqlar tizimsiz to'lovlar ko'rinishida bo'lib, ular natura shakliga ega bo'lgan. Aholi soliqlarni ekinlar hosilidan, savdo-sotiqdan hamda ovlagan hayvonlaridan to'laganlar. Hozirgi davr soliq tizimiga mohiyatan o'xshash ilk soliq tizimi qadimgi Rimda shakllangan. Bu soliqlar faqat urush xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan. Rim aholisi o'zining mol-mulki, turmush darajasi hamda oilaviy ahvolidan kelib chiqqan holda soliq to'lashgan. Soliq summalari maxsus shaxslar tomonidan hisob kitob qilingan. XVII asrgacha Yevropada soliqlar tartibsiz undirilganligi uchun yagona tizimga ega bo'lmagan. Ularning taqdiri urush natijalariga bog'liq bo'lib, goh kamayib, goh ko'payib ketar, natijada aholining tinkasini quritar edi. Faqatgina XVII asr oxiri XVIII asrboshlariga kelib soliqlar rivojlanishining ikkinchi bosqichi boshlandi. Ikkinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlar davlat budjetini shakllantirishning asosiy manbasi sifatida ko'rilgan. Soliq obyektlarini aniqlash va soliqqa tortish qonun-qoidalarini tartibga soluvchi ilk soliq tizimi yuzaga kelgan. To'g'ri va egri soliqlar ilk bor ajratilib, bu soliqlarning muhim va ahamiyatli jihatlari ochib berilgan. Soliqlar ichida asosiy o'rinni aksizlar egallagan. Bular qonuniy ravishda shahar darvozalarida mamlakatga kiritiluvchi yoki undan chiqariluvchi tovarlardan undirilib, hamma daromadlar va tushumlar soliqqa tortilgan. Evropa mamlakatlarida demokratiyaning rivojlanishi natijasida soliqlarni hisoblash va undirish borasida aholining haq-huquqlarini himoya qilish masalalari o'rtaga tashlandi. Natijada 1689 yil Angliyada qabul qilingan "Huquqlar tog'risidagi bill"da qat'iyon xalq vakillari organlariga davlat daromadlari hamda xarajatlari to'g'risida ma'lumot berishi belgilandi. Fransiyada esa faqatgina 1791 yil "Ulug' Fransuz revolyusiyasi"dan keyin davlat budjeti va soliqlari haqida ma'lumot berila boshlandi. Uchinchi bosqichning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda soliqlarning kamayishi hamda soliqlarni o'rnatish va undirishga oid qonun-hujjatlarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanadi. XIX asrning ikkinchi yarmida ko'p mamlakatlar yangi ilmiy nazariyalarni hayotga tatbiq etishga uringanlar, lekin faqatgina birinchi jahon urushidan so'ng yangi ilmiy qarashlarning samarasi o'laroq soliq solish tamoyillari hozirgi mukammal ko'rinishga ega bo'lgan. Ayni shu vaqtda zamonaviy soliq tizimining poydevori qurila boshlandi, to'g'ri soliqlarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda budjet daromadlari ulushining katta qismini to'ldiruvchi jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqlarni progressiv stavkalari joriy etildi. Shu bilan birga tan olish lozimki, shu vaqtgacha biror bir davlatda mukammal soliq tizimi amal qilmaydi. Markaziy Osiyoda soliqlarning paydo bo'lishi. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bevosita davlatchilik munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bog'liq bo'lib, uning sababi sifatida shuni qayd etish lozimki, davlatning mavjud bo'lishi, davlat xarajatlarini moliyalashtirish zaruratini келтириб чиқарди. Ma'lumki, davlatchilik munosabatlarining ilk ko'rinishlaridan tortib hozirga qadar ham davlat xarajatlarini moliyalashtirishning soliqlardan boshqa samarali mexanizmi mavjud emas. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Markaziy Osiyo hududida davlatchilik munosabatlari eramizdan avvalgi ming yillik boshlariga borib taqalib, uning hududidagi eng qadimgi davlatlar sifatida Katta Xorazm, Baqtriya va So'g'diyona davlatlari qayd etilgan. Ushbu davlatlarni boshqarish tizimi, ularda amal qilgan soliqlar borasida aniq ma'lumotlar saqlanmagan bo'lsada, aytish lozimki, shak-shubhasiz u yoki bu ko'rinishdagi soliqlar amal qilgan. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga doir munosabatlar Markaziy Osiyo hududida ham dunyoning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi davrlar nuqtai-nazaridan oddiylkdan murakkablik tomon rivojlanib borgan. Miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko'chmanchilik sharoitida, o'zlari uchun qulay joy izlab yurgan ko'plab urug' va qabilalar, yer maydonlari, suv, o'tloqlarni egallash maqsadida kurashib kelganlar, ayrim hollarda esa o'zlaridan kuchliroq, yirik qabilalarga yer solig'i, ya'ni o'lpon to'lab turganlar. Tarixiy manbalar podshoh xazinasining dastlabki asosiy

manbai sovg'a-salom bo'lganligidan dalolat beradi. Lekin Doro hukmronligi davriga kelganda soliqlar joriy qilinadi. "Doroni forslar savdogar deyishlariga sabab, u birinchi bo'lib soliqlarni joriy etganligidadir" deb yozgan edi Gerodot. Doro soliq tizimini faqat o'z mamlakatida emas, balki zo'rlik bilan qaram qilib olgan mamlakatlarga ham joriy etdi. Soliq miqdori satin pul birligi talant hisobida aniqlangan. Ahamoniylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalardan soliqlar salkam ikki asr mobaynida yillik xiroj va harbiy otryadlar yetkazib berish shaklida undirilgan. Bu davrda soliq turlari ham har xil bo'lgan. Masalan, sak va kasbiylar kabi qabilalar 250 talant (1 talant 25 kg. 248 gr. Sof oltinga teng bo'lgan), ya'ni 6312 kg. miqdorida, parfiyaliklar, xorazmiylar, so'g'dlar va oriylar 300 talant, ya'ni 7575,4 kg. miqdorida xiroj to'lashgan. Qat'iy belgilangan xirojlardan tashqari har xil sabablarni ro'kach qilib qo'shimcha soliqlar ham joriy etdilar va ular suv yo'lini to'sib qo'yish yoki boshqa xil zo'ravonlik kabi tahdidlar orqali undirib olinar edi. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni bosib olib, uni o'z saltanati tarkibiga kiritgach, bu yerda istiqomat qiluvchilar soliqlarni yunonlar tamoyili bo'yicha to'lay boshlaganlar. Yunonistonda soliqqa tortish Markaziy Osiyodagidan farq qilib, soliqlar daromad solig'i va ehsonlardan iborat bo'lgan. Daromad solig'i daromadning o'ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan va jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadlari yo'lida ishlatilgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoda asosan Ahamoniylar barpo etgan davlat apparati tuzilmasini saqlab, mahalliy zodagonlar tarkibidan satraplar hokimiyatini tuzgan. Maxsus soliq xizmati joriy qilmagan, soliq undirish vazifasi muayyan kishi zimmasiga yuklatilgan. Ular esa soliq to'lovchilardan xazina bilan tuzilgan shartnomada belgilangandan ko'ra ko'proq soliqlar yig'ib, o'z manfaatlarini uchun ham qo'shimcha mablag'lar to'plab olishgan. Eramizdan oldingi 140 yilda Yunon-Makedon mamlakati barham topdi. I asrning oxiridan boshlab to hozirgi eramizning IV asr o'rtalarigacha Markaziy Osiyoda Kushon podsholigi hukmronlik qildi. Bu davrda soliqlarni hisoblash va undirish tartibi haqida yetarli ma'lumot bo'lmasa ham, lekin ayrim arxeologik topilmalar soliqlar oltin bilan hisoblanishini, undagi hujjatlar soliqlarni qabul qiluvchi xazinabon lavozimi bo'lganligidan darak beradi. 651 yildan boshlab mamlakatimiz hududida arablar hukmronligi o'rnatildi. Soliqqa tortish tizimi bir muncha murakkablashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq - zakot (mol-mulkdan 2,5 foiz miqdorida) ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo'ljallangan, kambag'allar, yetimlar va yo'lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan. Bundan tashqari, quyidagi soliqlar mavjud edi, vazifa - o'lpon, 21 juzya - jon solig'i, xiroj - yer solig'i. Xiroj quyidagi shakllarda undirilgan: Misaha - ishlov beriladigan maydon birligidan qat'iy stavkalarda; Muqota - qat'iy belgilangan summada; Muqosama - hosilning muayyan ulushida (1/3 qismi). Xiroj Navro'z bayrami arafasida yig'ib olingan. Juzyani musulmon bo'lmagan fuqarolar (ozod erkaklar) to'laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, kambag'allar va qullar bu soliqni to'lashdan ozod qilingan. Juzyani hisoblashda o'ziga to'qlik darajasi hisobga olingan va soliq pul yoki natura shaklida undirilgan. Yuqoridagi soliqlardan tashqari chorvadorlardan, hunarmandlardan va savdogarlardan soliqlar olingan. Movaraunnahrda IX-X asrlarda yerlarni soliqqa tortish ular kimga tegishli ekanligiga bog'liq edi. Yerlar uch toifaga bo'lingan: Birinchi toifa yerlar - sultonga tegishli bo'lib (mulki sultoniy), bunday yer ustidan nazorat keyinchalik "Mulki devoniy" deb nomlangan devon (mahkama) amaldorlari tomonidan amalga oshirilib, ushbu toifadagi yerlar haddan tashqari ko'p edi. Bunday yerlarga asosan dehqonlar yerlari kirgan. Ikkinchi toifa yerlar - shaxsan hukmron sulolaning ayrim a'zolari, qadimiy dehqon zodagonlar, shunchaki boy dehqonlarga, sayyidlar (Muhammad (s.a.v.) payg'ambar xonadoni avlodlari), ayrim ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo'lgan xususiy mulk yerlar. Uchinchi toifa yerlar - musulmon diniy muassasalariga, ya'ni masjid, madrasa, xonaqoh maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun berilgan vaqf yerlar. Xiroj uchala toifa yerlaridan ham olingan bo'lib, ular "mulki xiroj" deb atalgan, lekin bunda oliy musulmon ruhoniylarga, avvalo sayyidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan to'liq yoki qisman ozod qilingan. X asr boshlarida Movaraunnahrda "iqta" soliq yig'ishning asosiy manbaiga aylangan. "Iqtadorlar"


o‘z navbatida dehqonlarning oddiy jamoatchiga aylanishiga zamin yaratdi. Yerlar muayyan muddatga “Iqtadorlar” foydasiga muayyan daromadni to‘liq yoki qisman olish huquqi bilan sovg‘a qilingan. “Iqta” sohiblari dehqonlardan maxsus qaror bilan belgilangan soliqlariga olishi mumkin edi. “Iqta”ga nafaqat yerdan, balki soliqqa tortishning boshqa obyektlaridan (tegirmon, hammom, bozordagi do‘konlar) olinadigan soliqlar va daromadlar ham berilishi lozim edi. 1221 yilda O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar hokimiyati o‘rnatildi. Bu hududlarda soliq siyosatini olib borish maqsadida ular tomonidan qurultoyda taklif etilgan tadbirlar hayotga tatbiq etila boshlandi va Mahmud Yalavoch boshchiligida o‘lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlarni undirar edilar. “Kalon” solig‘i dehqonlardan yig‘iladigan asosiy soliq bo‘lib, u hosilning o‘ndan bir qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan “ko‘pchur” solig‘i olingan bo‘lib, uning miqdori har yuz bosh qoramoldan birga teng edi. Bundan tashqari “Yaso” qonuni bo‘yicha aholidan davlat foydasiga “shulsi” deb atalgan soliq undirilgan. Ushbu soliq turining miqdori har bir otardan ikki yashar qo‘y va har mingotdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan. Shuningdek, mamlakatdagi savdo yo‘llarida joylashgan bekat – “yom” (jom) larning xarajatlari ham aholi zimmasiga yuklatilib, ularning miqdori shu darajada ko‘payib ketar ediki, ba‘zi hollarda har bir “yom” uchun 20 ot-ulov, so‘yish uchun qo‘ylar, sog‘ish uchun sog‘uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-xarajatlar ajratilgan. Mo‘g‘ullar istilosi davrida dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi, chunki yer solig‘ini to‘lashdan tashqari dehqonlar turli xil majburiyatlar va xizmatlarni bajarishardi. Hunarmandlar, ayniqsa, qurol tayyorlab berish kabi majburiyatlarni olgan edi. Feodal va zadogonlarga xonzoda va xon xotinalari yorliq hamda payzalar tarqatgan, bu unvonlar dehqon va hunarmandlardan turli xizmat hamda majburiyatlarni bajarishni talab qilish huquqini bergan. Payza ko‘rsatilganda mahalliy aholi, masalan sayohat qiluvchini ovqatlantirishi va unga xona, otiga em berishi va boshqa qulayliklar yaratishi shart edi. Yil sayin aholining yashash sharoiti og‘irlashib borishi mamlakatning ko‘p joylarida qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olonlar zudlik bilan bostirilgan bo‘lsada, lekin mo‘g‘ul hukmdori Munnexon Movaraunnahrda soliq to‘lovchilar amalga oshirayotgan tartibsizliklar va suiste‘molliklarga tegishli farmon chiqardi. Unga ko‘ra boy kishi 10 dinor, kambag‘allar esa 1 dinor to‘laydigan bo‘ldi. Chorva solig‘i 100 tuyoqdan bir bosholinishi belgilandi. Musulmon, xristian va butparastlar ro‘honiylari, shuningdek, keksa va ishlashga noqobil kishilar soliq to‘lamaydigan bo‘ldilar. Chig‘atoy ulusida yer solig‘i o‘ndan bir hajmda belgilangan. Soliqlar hatto sharob, guruch, go‘sht hamda ot emishi tarzida ham har bir xo‘jalikdan undirilgan. Yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo‘g‘ullar bilan yaqinlashib, katta imtiyozlarga ega bo‘lganlar, har xil yorliqlar olganlar. Oliy mansabdorlar soliq to‘lamaganlar. Soliq yig‘ishga mas‘ul etilgan Mahmud Yalavoch qo‘zg‘olonidan so‘ng o‘z lavozimidan bo‘shatildi va Movaraunnahrdan haydab yuborildi. Soliq yig‘uvchi va noib etib uning o‘g‘li Mas‘udbek tayinlanib, u bu lavozimda 51 yil xizmat qildi. U mo‘g‘ullarga o‘lpon va soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab turdi. Natijada mo‘g‘ullar Movaraunnahrni boshqarish ishiga aralashmaganlar. Bunday holat Amir Temur hokimiyati o‘rnatilguncha davom etdi.<sup>1</sup>

## **2. Soliq huquqi predmeti, usuli va manbalari**

---

<sup>1</sup> Soliq nazariyasi: O‘quv o‘llanma / Mual.: Jo‘raev A., Meyliev O., Safarov G‘. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. – 166 b.






**Soliq huquqining predmeti.** O‘zbekiston Respublikasida amaldagi holatdan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq huquqining mustaqil soha sifatida shakllanayotganini ko‘rishimiz mumkin. **Soliq huquqi** - bu soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, to‘lash hamda soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir. Soliq huquqining mazmunini ochib berishda u orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi (predmeti), tartibga solish uslubi, tizimi va manbalari to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘lish lozimdir. Soliq huquqi ma‘lum bir ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga solib, mazkur munosabatlar uning predmetini tashkil etadi. Soliq huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarga, ya‘ni predmetiga (O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga tayanib) quyidagilarni kiritish mumkin: 1) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 2) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy etish bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 3) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 4) Davlat budjetiga soliqlarni to‘lash bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 5) Davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlarni to‘lash bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 6) soliq majburiyatlarini bajarish (javobgarlikni belgilash) bo‘yicha yuzaga keladigan munosabatlar. Qayd etilgan barcha ijtimoiy munosabatlarda davlat organi ishtirok etadi. Bu qonuniydir, chunki soliq solish davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllaridan biridir. 37 Soliq sohasida davlat nomidan

harakat qiladigan va uning xohishirodasini ifodalaydigan davlat organi (mansabdor shaxs)ning ishtirokisiz, soliq huquqi predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar bo'lishi mumkin emas. Shu sababli ikki fuqaro o'rtasida vujudga keladigan, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida shartnoma munosabatlari soliq huquqi predmetiga kirmaydi. Chunki ular tegishli huquq sohalari normalari bilan tartibga solinadi.

**Soliq huquqining predmeti** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tashkil etadi.

Soliq huquqining usuli. Huquqiy tartibga solishning maxsus usulini, xususan, davlat-hokimiyat ko'rsatmalari usuli soliq munosabatlarini tartibga solishga ham to'liq darajada xosdir. "Pozitiv majbur qilish, man etish, ba'zan ruxsat berish usulini qo'llashda ifodalangan maxsus yuridik tartibot"<sup>2</sup> soliq huquqida ham foydalanaladi. Soliq huquqi ham boshqa huquq sohalari singari o'zining tartibga solish uslubiga egadir. Soliq huquqi tartibga solish funksiyasini amalga oshirib, soliq solish jarayonidagi munosabatlar ishtirokchilarining xulqatvorini tartibga soluvchi huquqiy vositalar yoki uslublarning muayyan majmuidan foydalanadi.



Tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi bo'yicha, ya'ni predmet bo'yicha amaldagi huquq tarmoqlari ko'pincha o'zaro juda yaqin bo'lib, ayrim hollarda o'zlarining asosiy ko'rinishlarida hatto bir-biriga mos ham keladi. Huquqning har qanday tarmog'i huquqning o'z tabiatida joylashgan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etishning uch uslubidan foydalanadi, bular: -yozma buyruq, ko'rsatma - huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatni amalga oshirish, ya'ni boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri yuridik majburiyatni zimmaga yuklashdir. (Masalan, soliqlarni to'lash majburiyatini yuklanishi); -man etish, taqiqlash - amalda bu ham ko'rsatma, ammo u teskari, ya'ni huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni amalga oshirmaslik bo'yicha yuridik majburiyatni zimmaga yuklashdir. (Masalan, soliqlarni natura shaklida to'lanishini taqiqlanishi); -ruxsat berish - huquq normasida nazarda tutilgan sharoitlarda u yoki bu harakatlarni o'z xohishi bo'yicha amalga oshirish uchun yuridik ruxsat berilishidir. (Masalan, soliq solishni

<sup>2</sup> Хван Л.Б. Налоговое право - Т., 2001 г.


soddalashtirilgan tizimini joriy etilishi. Masalan, soliq to'lovchi soliqlarni to'lashda yoki umumbelgilangan soliqlarni to'lashi yoki soddalashtirilgan soliq solish tizimiga ko'ra soliqlarni to'lashi mumkin. Ikkala holatda ham soliqni albatta to'laydi, faqat to'lash usulini o'zi tanlash imkoniyati beriladi). Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning ko'rsatilgan usullaridan huquqni u yoki bu tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, foydalaniladi.

Soliq huquqining tartibga solish usuliga davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan chiqariladigan ko'rsatmalar xosdir. Soliq munosabatlarining boshqa tomoni ushbu ko'rsatmaga bo'ysunishga majburdir. Bu shuni anglatadiki, davlat organining hokimiyat ko'rsatmalari yordamida davlat amalda o'zining soliq sohasidagi vakolatlarini amalga oshiradi. Demak, davlat nomidan harakat qiladigan va soliq munosabatlarida uning manfaatlarini ifoda etadigan, davlat organlarining o'z xohishirodasini bildirishi – bir tomonlama va majburiy bo'lishi yaqqol ko'rinadi. Bunda, soliq sohasida tomonlarning yuridik jihatdan tengsizligi vujudga keladi. Aynan mana shu sababli soliq huquqining asosiy usuli, ya'ni soliq munosabatlari ishtirokchilarining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish uslub va vositalari – davlat-hokimiyat ko'rsatmalari usuli hisoblanadi. Ushbu usulning qo'llanishi jamiyatning muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan soliq tizimini tashkil etish zarurati bilan belgilanadi. Soliq huquqini huquq tizimida tutgan o'rni. Soliq tizimi murakkab va ko'p qirrali jarayonlardan biri bo'lganligi sababli, huquqshunos olimlar o'rtasida uning qaysi huquq sohasi normalari bilan tartibga solinishi bo'yicha yagona fikr mavjud emas. Yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlarning ikki xildagi qarashlari mavjud bo'lib, soliq solish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar – moliya huquqi yoki huquqning mustaqil sohasi hisoblangan – soliq huquqi tomonidan tartibga solinishi ko'rsatib o'tilgan. Moliya huquqi predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarning muayyan doirasi soliqlarni belgilash va undirib olish bilan bog'liq. Ular moliya huquqining normalari bilan tartibga solinib, bu normalar majmui uning institutlaridan biri - soliq huquqini tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda, soliq huquqi deganda, soliqlarni belgilash va undirib olish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy normalar majmuini tushunish qabul qilingan. Hozirgi vaqtda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda soliqlar rolining ortib borishi bilan ko'pgina tadqiqotchilar soliq huquqini huquqning mustaqil tarmog'i sifatida ko'rib chiqishga moyildir. Soliqlarni belgilash va undirib olish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos muayyan xususiyatlari bo'lishi tabiiydir, bunday o'ziga xos xususiyatlar budjet, bank va boshqa moliyaviy munosabatlarga ham xos bo'lib, shunga qaramasdan, ular moliya huquqi predmeti doirasidan chetga 40 chiqmaydi. Ushbu barcha munosabatlar, oxir-oqibatda davlatning moliyaviy faoliyati bilan bog'liqdir. Davlat moliyaviy faoliyati sohasi huquqning boshqa tarmoqlari normalari ta'siridan ajratilmagan bo'lib, ular vositasida moliya huquqi predmeti bilan qamrab olinmaydigan, unda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Shu tariqa huquq turli tarmoqlarining o'zaro ta'siri yuzaga keladi. Shu jihatdan soliq huquqi moliya huquqi bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, soliq huquqi moliya huquqidan tashqari konstitutsiyaviy huquq, budjet huquqi va ma'muriy huquq bilan ham uzviy bog'langandir. Konstitutsiyaviy huquq huquqning barcha tarmoqlari, shu jumladan soliq huquqi uchun asosiy negizga ega. Konstitutsiyaviy huquq normalari davlatning soliq tizimlarining huquqiy asoslari, shuningdek soliq sohasidagi davlat vakolatli organlari va ijroiya hokimiyati vakolatlarini belgilaydi. Xususan, mamlakatimizning ushbu Asosiy qonuni 123- moddasida respublika hududida yagona soliq tizimi amal qilishi, soliqlarni joriy qilish huquqi esa, faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tegishli ekanligi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 51- moddasida fuqarolarning qonunchilik bilan belgilangan soliqlarni to'lash majburiyati mustahkamlab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash huquqini berish bo'yicha alohida vakolatini ham mustahkamlab beradi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 78-modda 8-bandi, 100- modda). Ushbu qoidalar soliq huquqi normalarida aniqlashtirib berilgan. Shunday qilib, konstitutsiyaviy huquq nafaqat umuman soliq huquqi dastlabki asoslarni mustahkamlab beradi.

Ma'muriy huquq davlat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan soliq sohasida amalga oshiriladigan ijroiya hokimiyati sohasida tarkib topadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Moliya qonunchiligi ichida budjet huquqi normalari ajratiladi, ko'pincha esa, ular moliya huquqining davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini tartibga soluvchi boshqa normalari bilan qo'shib ketadi. Masalan, soliq huquqi normalari budjet huquqining davlat budjeti daromadlari xususiyati, tarkibi va hajmi, ularning kelib tushish tartibi (belgilangan soliqlarni to'lash tartibi va muddatlari)ni aks ettiruvchi qismi tomonidan qamrab olsa, budjet huquqi budjet qurilishi va davlat budjet tizimi; budjet tizimi daromadlar va xarajatlar tuzilmasi, ularni budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash tartibi; umuman davlat va uning subyektlari (budjet sohasidagi ma'muriy-hududiy tuzilmalar) vakolatlari (budjet huquqlari); budjet jarayonini tashkil etish, ya'ni budjetni 41 shakllantirish tartibi hamda uning ijrosi to'g'risidagi hisobot; budjet nazorati<sup>13</sup>. Soliq huquqi huquqning ayrim boshqa tarmoqlari (mehnat huquqi, yer, jinoyat va h.k. huquq) bilan muayyan o'xshashlikka va farqqa ega. Ammo barcha hollarda respublika huquq tizimining boshqa tarmoqlaridan soliq huquqini ajratishning asosiy mezonini bo'lib uning predmeti va u bilan belgilanadigan huquqiy tartibga solish usulining o'ziga xos xususiyatlari xizmat qiladi. Soliq huquqining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uni huquqning boshqa tarmoqlaridan ajrata bilish juda katta amaliy ahamiyatga egadir, chunki bu, uning o'ziga xosligi va mazkur faoliyatga xos bo'lgan umumiy prinsiplarini hisobga olgan holda, soliq tizimini aniq tashkil etishga imkon beradi, soliq huquqiy normalarni to'g'ri tushunish va qo'llashga yordam beradi.

Soliq huquqining tizimi. Soliq solish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalariga ham ularning o'zaro uzviy bog'liqligi xos bo'lib, bu bog'liqlik nafaqat ularni chiqargan hokimiyat va boshqaruv organlarining holati hamda ushbu normalarni qo'llash sohasi bilan, balki huquqiy tartibga solish predmetining ichki tuzilmasi qonuniyatlarini bilan ham belgilanadi. Demak, soliq huquqi o'zining ichki tuzilmasi yoki tizimiga, ya'ni ko'plab bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan elementlarga ega bo'lib, ularda soliq huquqi normalari muayyan izchillikda birlashadi va joylashadi. Soliq huquqi – huquqiy normalarning bir butun (yaxlit) tizimi bo'lib, predmet, maqsad, prinsiplar, tartibga solish usulini birlashtiradi. Huquqiy normalar bir-biriga mos kelishi, Yagona prinsiplarga asoslanishi, yagona atamalarni qo'llashi lozim. Huquq tarmog'i ichida turli yuridik kuchga ega bo'lgan, umumiy va maxsus huquqiy normalarning subordinatsiyasi (bo'ysunuvi) mavjud bo'ladi. Soliq huquqi tizimi deganda – uning soliq solish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar bilan obyektiv belgilangan ichki tuzilishi, soliq huquqi normalarining muayyan izchillikda birlashishi va joylashishini tushunish lozim. Soliq huquqi tizimi – soliq huquqi normalari va institutlarini birlashtiradi. <sup>13</sup> Финансовое право. Учебник/ под ред. проф.О.Н.Горбунова - М.: Юристъ,1996. - 105-стр.; Финансовое право. Учебник. /под ред. проф.Н.И.Химичева. - М.: БЕК, 1996. - 114-стр. 42 - soliq huquqi normalari – soliq huquqining boshlang'ich elementi bo'lib, davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki tasdiqlanadigan hamda soliq huquqi munosabatlari ishtirokchilarining xulq-atvorini (xatti-harakatini) belgilab beradigan qoidalardir; - soliq huquqi institutlari – soliq huquqining alohida guruhi bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Odatda, soliq huquqi institutlari – soliq huquqi normalarining uncha katta bo'lmagan barqaror guruhi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir turini tartibga solishga qaratiladi. Soliq huquqi o'z ichiga bir qator institutlarni oladi va ular tarmoqning tarkibiy qismi, bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda ular muayyan mustaqillik xususiyatiga ega. Zero, soliq huquqi institutlari ma'lum darajada mustaqil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Soliq huquqi tizimi ham umumiy va maxsus qismlardan iborat. Umumiy qism soliqlar tushunchasi, soliq huquqi tushunchasi, predmeti, manbalari; soliq huquqiy munosabatlari, subyektlari; soliq tizimi, prinsiplari; soliq majburiyati va soliq nazorati; soliq sohasidagi huquqbuzarlik va javobgarlik hamda boshqa umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan soliq huquqiy me'yorlarini birlashtiradi. Maxsus qism esa, alohida soliq va boshqa majburiy to'lov va ularning elementlarini o'z ichiga olgan soliq huquqiy me'yorlarini birlashtiradi.

*Soliq huquqining manbalari.* Soliq huquqi normalari ko‘p sonli huquqiy hujjatlarda (manbalarda) mustahkamlangan. Respublikamizda mulkchilikning xilma-xil shakllarini vujudga keltirish va ularga teng shart-sharoitlar yaratib berish, korxonalar, muassasa va tashkilotlar o‘rtasida raqobatni avj oldirish, boshqarishning oldingi (ma‘muriy-buyruqbozlik) uslubidan butunlay voz kechish, iqtisodiy omil va vositalarni keng joriy etish – bozor munosabatlarining tub negizini tashkil etdi. Ushbu jarayonda soliq tizimini tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, uning asosini - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Bizga ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 8 dekabrda bo‘lib o‘tgan o‘n ikkinchi chaqiriq o‘n birinchi sessiyasida qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – soliq huquqining asosiy manbasi sifatida, soliq tizimining boshlang‘ich huquqiy asoslarini va asosiy prinsiplarini belgilab bergan. 43 Jumladan, Konstitutsiyaning 51-moddasiga binoan fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar. Konstitutsiyaning 78-modda 9-bandi va 123-moddalariga binoan esa O‘zbekiston Respublikasi hududida Yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli. Konstitutsiyaning 100-moddasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy soliqlar va yig‘imlarni belgilash bo‘yicha vakolati ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya bilan barcha sohalarga, shu jumladan soliq tizimiga bevosita taalluqli bo‘lgan asosiy prinsiplar – davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas‘uliyatini (2-modda), demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishini (13-modda), qonuniyligni (15- modda), fuqarolarning tengligini (18-modda) va boshqa asoslarni belgilab bergan. Soliq huquqining manbasi sifatida xalqaro shartnomalar ham namoyon bo‘ladi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 4-moddasiga binoan agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.



Soliq huquqining asosiy manbalaridan yana biri – bu O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrda qabul qilingan hamda 2008 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidir. Soliq kodeksi – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 26 iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan soliq ma‘muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlari belgilab berildi. Xususan, davlat soliq xizmati organlarini soliq to‘lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan idoraga aylantirish vazifasi qo‘yildi. Bunda eksterritoriallik prinsipi asosida soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi talab etiladi. Biznesni qonuniy, shaffof va qulay yuritish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratiladi. Soliq ma‘muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimiga asos solinadi.

Shuningdek, korrupsiyaviy omillarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha preventiv va oldini olish choralari qo‘llaniladi. Soliq to‘lovlarning o‘z vaqtida, bir xildagi tushumi ta‘minlanib, ma‘muriy tartib-taomillar maksimal darajada kamaytiriladi, soddalashtiriladi. Soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga byudjetlarning daromad qismi barqaror shakllantiriladi. Bundan tashqari, tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma‘lumotlarni to‘liq yig‘ish va qayta ishlashni ta‘minlaydigan zamonaviy, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choralari yanada kuchaytiriladi. Davlat soliq xizmati organlari xodimlariga korporativ etika singdirilib, ularning strategik maqsad va vazifalariga erishish uchun o‘z xizmat faoliyati samaradorligini oshirish motivatsiyasi tizimi joriy etiladi.

Soliq huquqi manbalari jumlasiga boshqa bir qancha kodekslarni ham kiritishimiz mumkin. Jumladan, 2016 yil 20 yanvarda qabul qilingan va 2016 yil 22 apreldan kuchga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksidir. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga binoan O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi hisoblanuvchi Yagona bojxona siyosati amalga oshiriladi. Bojxona kodeksining alohida bo‘limi bojxona to‘lovlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o‘tish vaqtida - boj; qo‘shilgan qiymat soligi; aksiz solig‘i va boshqa bojxona to‘lovlari undiriladi. 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 apreldan kuchga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlikni belgilovchi bobining bir necha moddalari soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlikni belgilashga qaratilgandir. Jumladan, soliqlar va boshqa to‘lovlar to‘lashdan bo‘yin tovlash (O‘zR MJtK 174-m.); soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek to‘lov intizomini buzish (O‘zR MJtK 175-m.); buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish (O‘zR MJtK 175-1-m.); soliq to‘lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo‘llanish tartibini buzish (O‘zR MJtK 175-3-m.) va boshqalar. 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan va 1995 yil 1 apreldan kuchga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi - soliq sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning mazmunini va ular uchun qo‘llaniladigan jinoiy javobgarlikni belgilab beradi. (JKning 184-moddasi soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikni belgilagan.) Soliq huquqining manbalaridan yana biri – bu 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonun davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beradi. Qonunga binoan, davlat soliq xizmati organlari soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida budgetga tushishini ta‘minlash maqsadlarida tuziladi. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri soliq nazorati bo‘lib, u soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonun

hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iboratdir. 2016 yil 13 aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga binoan buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir. Qonunda soliq hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlar tayyorlanishi hamda hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash korxonasi, muassasa va tashkilot rahbari zimmasiga yuklatilganligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasida soliq munosabatlarini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank va boshqalar)ning normativ-huquqiy hujjatlari ham ma'lum bir ahamiyatga egadir. Jumladan, har yili qabul qilinadigan O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida kelayotgan yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi, Davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalarning asosiy 46 parametrlari, soliq va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, tegishli budjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari tushumlaridan ajratmalar normalari va boshqa ko'rsatkichlar tasdiqlanadi. 2015 yil 15 mayda qabul qilingan "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unda tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to'sinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslarning javobgarligini jinoiy javobgarlik darajasigacha oshirish; xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma'muriy va jinoiy qonunchilikni liberallashtirish jarayonini davom ettirish; barcha turdagi ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillari yanada soddalashtirish; xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitini yaxshilash nazarda tutilgan.<sup>3</sup> Demak, soliq huquqi manbalari – bu soliq huquqi normalarini o'zida ifoda etgan qonun va qonun osti hujjatlari hisoblanadi.

### **3. Soliq huquqiy munosabatlari.**

Soliq huquqiy munosabatlari tushunchasi. Soliq solish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarga boshqa barcha huquqiy munosabatlar singari umumiy xususiyatlar xosdir. Soliq solish jarayonida turli-tuman munosabatlar vujudga kelib, turli huquq tarmoqlari bilan tartibga solinadi. Jumladan soliq solish sohasidagi aksariyat huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, bank va boshqa huquq tarmoqlarining normalari asosida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar o'rtasida soliq huquqiy munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq huquqiy munosabatlari – bu soliq huquqiy normalari asosida vujudga keladigan munosabatlardir. Soliq huquqiy munosabatlari o'zining tuzilishiga ko'ra, munosabat subyekti, obyekt va mazmuniga ega. Soliq huquqiy munosabatlarining subyekti bo'lib, unda ishtirok etuvchi tomonlar, ya'ni soliq solish jarayonida ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan (davlat organlari, mansabdor shaxslar) yoki boshqacha soliqhuquqiy maqomiga ega bo'lgan shaxslar (jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar) hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabatlarining obyekt bo'lib esa, soliq

---

<sup>3</sup> "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 20-son, 251-modda.

huquqi munosabatlari subyektlarining harakatlari (qarorlari), ularning ijobiy yoki salbiy xulq-atvori hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabatlarining mazmunini – soliq huquqi munosabatlari subyektlarining huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, taqiqlar, cheklovlar tashkil etadi. Soliq huquqiy munosabatlarining mazmuniga yuqoridagilardan tashqari, ularni amalga oshirish, ijro etish, ularga rioya etish va himoya qilishning protsessual-huquqiy tartibini ham kiritish mumkin. Demak, soliq huquqiy munosabatlari huquqiy munosabatlarning bir turi bo‘lib, o‘zining mazmuni, xususiyatlari va ishtirokchilari bilan boshqa huquqiy munosabatlardan ajralib turadi. Soliq huquqiy munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari (yana bir konsepsiyaga binoan) quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: a) bu munosabatlar – soliq solish sohasida vujudga keladi; b) bu munosabatlarning majburiy subyekti bo‘lib davlat nomidan ommaviy-huquqiy manfaatlarni ko‘zlab harakat qiluvchi davlat organlari hisoblanadi; v) bu munosabatlar - hokimiyat-bo‘ysinuvining mavjudligi hamda tomonlarning yuridik teng emasligi bilan tavsiflanadi; g) bu munosabatlar - ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida boshqaruv vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bo‘yicha vujudga keladi; d) bu munosabatlar - qonuniylikni ta‘minlashning alohida huquqiy tartibi va o‘zining huquqiy himoyasi bilan ajralib turadi.

<b>Soliq huquqiy munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari</b>
Soliq solish sohasida yuzaga keladi
bu munosabatlarning majburiy subyekti bo‘lib davlat nomidan ommaviy-huquqiy manfaatlarni ko‘zlab harakat qiluvchi davlat organlari hisoblanadi;
bu munosabatlar - hokimiyat-bo‘ysinuvining mavjudligi hamda tomonlarning yuridik teng emasligi bilan tavsiflanadi;
bu munosabatlar - ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida boshqaruv vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bo‘yicha vujudga keladi;
bu munosabatlar - qonuniylikni ta‘minlashning alohida huquqiy tartibi va o‘zining huquqiy himoyasi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilarga asoslanadigan bo‘lsak, soliq huquqiy munosabatlari – soliq solish sohasida vujudga keladi; munosabatning majburiy ishtirokchisi bo‘lib davlat organlari namoyon bo‘ladi; munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari munosabat turini belgilab beradi. Demak, soliq huquqiy munosabatlari – bu soliq solish jarayonida vujudga keladigan, soliq huquqiy normalari bilan tartibga solingan huquqiy munosabatlarning bir turidir.


Soliq huquqiy munosabatlari soliq huquqi normalarida nazarda tutilgan sharoitlar mavjud bo‘lganida vujudga keladi. Soliq huquqiy normalari o‘z-o‘zidan bevosita soliq huquqiy munosabatlarini vujudga keltirmaydi. Balki, soliq huquqiy munosabatlari vujudga kelishining shartlarini, holatlarini va mezonlarini belgilab beradi. Bu – yuridik faktlar bo‘lib, norma talabidan kelib chiqqan holda tomonlar o‘rtasida ma‘lum bir huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi holatlardir. Yuridik faktlar soliq huquqiy munosabatlarining zaruriy sharti, aniq talabi sifatida maydonga chiqadi. Jamiyatda turli-tuman holatlar va shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, ularning hammasi ham yuridik fakt bo‘lib hisoblanmaydi. Muayyan hodisa va holatlarni yuridik fakt deb e‘tirof etish, davlatning xohish-irodasiga bog‘liqdir. Yuridik faktlar nafaqat soliq huquqi munosabatlarini vujudga keltirish, balki o‘zgartirishi yoki bekor qilishi ham mumkin. Yuridik faktlar huquqiy norma bilan huquqiy munosabat o‘rtasidagi bog‘lovchi vositadir. Soliq huquqiy munosabatlari harakatlar va hodisalar singari yuridik faktlardan vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi mumkin.

*Soliq huquqiy munosabatlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lish asoslari:*

Harakatlar – bu huquq subyektlari tomonidan o‘z xohish-irodalarini ifodalashning natijasidir. Aksariyat soliq huquqi munosabatlari harakatlardan vujudga kelib, ular subyektning faol xulq-atvori



bilan bog'liq bo'ladi. Harakatlar ikkiga bo'linadi: a) qonuniy harakatlar – hamma vaqt soliq huquqi normalari talabiga mos keladi. Bunda yuridik fakt sifatida munosabat ishtirokchilarining qonunga muvofiq harakati namoyon bo'ladi. Qonuniy harakatlar o'z navbatida ikki ko'rinishga ega: - davlat organlarining huquqiy aktlari. Huquqiy aktlar normativ yoki yakka (individul, ma'muriy) aktlarga bo'linadi. Huquqiy aktlarda qonunga muvofiq harakatlar muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishini nazarda tutib sodir etiladi. Bunday harakatlarda – huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga qaratilgan iroda ifodalanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, "Soliq maslahati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni asosida soliq maslahati sohasidagi munosabatlar yuzaga keladi. Jumladan, soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga mijozga shartnoma asosida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish borasidagi munosabatlari. "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori asosida mazkur yil uchun tasdiqlangan stavkalar asosida soliq va boshqa majburiy to'lovlar undirib olish yuzasidan munosabatlar yuzaga keladi.



- yuridik xatti-harakatlar; Masalan, soliq to'lovchida u hisobga qo'yilganidan keyin yer solig'i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (jismoniy shaxslar uchun esa mol-mulk solig'i ham) to'lash bo'yicha soliq majburiyati hisobga qo'yilgan joydan tashqarida vujudga kelgan taqdirda, soliq to'lovchi soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida obyekt bo'yicha hisobga qo'yilishi; b) qonunga xilof harakatlar – soliq huquqi normalari talablariga mos kelmaydigan, ularni buzadigan harakatlardir. Masalan, soliq sohasida sodir etiladigan huquqbuzaliklari yoki jinoyatdir. Jumladan, soliqlar va boshqa to'lovlar to'lashdan bo'yin tovlash; soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek to'lov intizomini buzish; buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish; soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzish. Shaxsning harakatsizligi ham aynan mana shu guruhga kiradi. Soliq huquqi munosabatlarining vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga asos bo'ladigan ikkinchi yuridik fakt – bu hodisalardir. Hodisalar odamlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'ladigan faktlardir. Masalan,

insonning tugʻilishi bilan biron bir mol-mulkka egalik qilish huquqini oʻtishi, maʼlum bir yoshga yetganda daromad olish imkoniyatiga ega boʻlishi bilan soliq toʻlash majburiyatini yuzaga kelishi, shuningdek insonning oʻlishi bilan uni soliq toʻlash majburiyatini tugatilishi yoki bohqa shaxsga oʻtishi kabilar boʻlishi mumkin.

## **2- mavzu. Soliq huquqining manbalari, prinsiplari hamda ularning umumiy tavsifi**

### **Reja:**

1. Maʼmuriy - huquqiy normalar tushunchasi va xususiyatlari
2. Maʼmuriy - huquqiy normalarning tasnifi
3. Soliq toʻgʻrisidagi qonun elementlarining huquqiy ahamiyati va tushunchalari
4. Davlat soliq yurisdiksiyasi predmeti

**Tayanch soʻz va iboralar:** Norezidentning Oʻzbekiston Respublikasidagi Doimiy Muassasasi, Kredit Tashkilotlari, Grant, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, yuridik shaxs, Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati, : hujjat bilan tasdiqlangan , egri soliqlar , yutuq, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bogʻliq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.

### **1. Maʼmuriy - huquqiy normalar tushunchasi va xususiyatlari.**

Давлат ва ҳуқуқ назарияси фанига кўра, ҳуқуқ – ижтимоий муносабатларга таҳсир етувчи восита сифатида, доимо муайян хулқ-атвор, хатти-ҳаракат қоидаси сифатида ўзини намоён этади.

Ҳар қандай ҳуқуқ тармоғининг мазмун-моҳияти ва ижтимоий йўналиши ҳуқуқий нормалар хусусияти билан белгиланиб, уларнинг йиғиндиси ҳуқуқ тизими у ёки бу тармоғининг мазмунини ташкил этади.

Ҳуқуқий норма (“норма”) сўзи лотинча сўздан олинган бўлиб, “қоида”, “намуна” маъносини англатади. Ҳар бир ҳуқуқ нормаи ўзида бiron-бир хатти-ҳаракат, хулқ-атвор, муайян юриш-туриш қоидасини ифодалайди.

Ҳуқуқнинг ҳар бир тармоғи, шу жумладан маъмурий ҳуқуқнинг нормалари ҳар қандай ҳуқуқ нормаи учун хос бўлган умумий белгиларга, шунингдек, ўзига хос бўлган хусусиятларга ега.

Маъмурий-ҳуқуқий нормалар – муайян хатти-ҳаракат қоидаларидан иборат бўлиб, давлат томонидан белгиланади, бошқа ижтимоий нормалардан, масалан, ахлоқ нормаларидан фарқланади. Шу сабабли, уларга риоя этиш мажбурий бўлиб, улар бузилган ҳолларда, давлатнинг мажбурлов чоралари қўлланилади.

Бошқа ҳуқуқ тармоқларининг нормалари каби, маъмурий-ҳуқуқий нормалар ушбу муносабатлар субъектларининг юридик ва мажбуриятларини аниқлаш, шунингдек, улар

томонидан ҳуқуқлар бузилган ва мажбуриятлар бажарилмаган ҳолларда жавобгарликни белгилаш йўли билан ижтимоий муносабатларни тартибга солади.

Маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг ўзига хос хусусиятлари – маъмурий ҳуқуқ предмети ҳамда ҳуқуқий тартибга солиш услубининг хусусиятлари билан белгиланади.

Маъмурий-ҳуқуқий нормалар – Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқ тизими бошқа тармоқларининг нормаларидан фарқли равишда, махсус қўлланиш соҳасига ега бўлиб, бу давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш жараёнидаги ижтимоий муносабатлардир. Шу сабабли, маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг мазмунини давлат бошқаруви жараёнида амал қилиниши шарт бўлган хатти-ҳаракатлар доираси ташкил етади. Улар ёрдамида давлат органлари, мансабдор шахслар, хўжалик юритувчи субъектлар, жамоат ташкилотлари ва жисмоний шахсларнинг давлат бошқаруви соҳасида қачон ва қандай тартибда ҳаракат қилганларида қонунчилик талаблари аниқ ва мақсадга мувофиқ бўлиши белгиланади. Шу билан бирга, маъмурий-ҳуқуқий нормаларда қандай ҳаракатларни амалга ошириш мумкин ва қайсиларидан ўзини тийиш кераклиги кўрсатилади.

Маъмурий ҳуқуқ нормаларида амалга оширилиши лозим бўлган ҳаракатнинг бирорта ҳолатига кўрсатма берилади ёки унга белгиланган шарт-шароитларда риюя етилганида руҳсат берилади ва ниҳоят, муайян ҳаракатларни амалга ошириш ман етилади. Шу тариқа, давлат бошқаруви соҳасидаги ижтимоий муносабатлар иштирокчиларининг давлат, жамият ва шахс манфатларига мувофиқ келадиган ҳуқуқлари ва мажбуриятларини белгилаш орқали, улар хатти-ҳаракатининг ўрнатилган ҳуқуқий тартиби яратилади.

Маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг бошқа бир хусусияти шундан иборатки, улар хусусий эмас, балки оммавий манфаатларни амалга ошириш воситаси ҳисобланади.

Маъмурий ҳуқуқнинг тартибга солиш услуби билан белгиланган маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг алоҳида хусусиятларига императивлик (буйруқ бериш) хусусияти киради, уларда муайян ҳаракатларни амалга ошириш учун қатъий ёзма буйруқлар, кўрсатмалар мавжуд бўлади.

Маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг императивлиги яна шунда ифодаланадики, муносабатлар иштирокчилари ўз ихтиёри билан унинг кўрсатмаларини ўзгартириш ҳуқуқига ега эмас.

Бундан ташқари, давлат бошқаруви соҳасида норматив ва давлат ҳокимият хусусиятга ега бўлган кўрсатмалар мавжуд бўлмаса, маъмурий-ҳуқуқий нормаларни амалга ошириб бўлмайди.

Маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг императивлиги турли шаклларда ифодаланиб, *биринчидан*, маъмурий муносабатлар ва уларни тартибга солиш мақсадларига; *иккинчидан*, ушбу муносабатлар субъектлари ҳуқуқий мақомининг ўзига хос хусусиятларига боғлиқ бўлади.

Айрим ҳолларда маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг императивлиги тўғридан-тўғри бериладиган кўрсатма шаклида ифодаланиб, маъмурий муносабатлар субъектлари зиммасига айнан шундай ҳаракат қилиш мажбуриятини юклайди ва шу билан бевосита иштирокчилар томонидан муносабатлар шартлари ҳамда хусусиятини ўзгартириш имкониятини йўққа чиқаради.

Бошқа ҳолларда императивлик нисбатан енгил шаклларда намоён бўлади. Бунда маъмурий ҳуқуқ нормалари бажарилиши шарт бўлган ҳаракатнинг бир хил маҳнодаги моделига ега бўлмайди ва у давлат бошқаруви соҳасида тартибга солинаётган ижтимоий муносабатларнинг у ёки бу субъект томонидан амалга оширилиши мумкин бўлган ҳаракатини назарда тутлади. Бу *биринчидан*, маъмурий ҳуқуқ нормаларида назарда тутилган ҳолатлардан бирини танлаш имкониятини бериш; *иккинчидан*, ўз ихтиёри бўйича ҳаракат қилиш ёки ҳаракат қилмаслик имкониятининг берилиши, яхни маъмурий ҳуқуқ нормаларида назарда тутилган ҳаракатни амалга ошириш ёки уни амалга оширишдан воз кечишдир.

Демак, маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг давлат бошқаруви соҳасидаги ижтимоий муносабатларга, уларнинг турли иштирокчиларига бўлган тартибга солиш таҳсири - фаол ҳаракат қилишни аниқ белгилаш, шунингдек, ўз ихтиёри бўйича, умумий қоидалар доирасида, ҳаракат қилиш имкониятини беришдан иборатдир.

Юқоридагиларни инобатга олиб, **маъмурий-ҳуқуқий нормалар** – бу давлат томонидан ўрнатилган, давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш жараёнида вужудга келадиган ижтимоий муносабатларни тартибга солиш мақсадида ушбу муносабатлар субъектларининг юридик ҳуқуқлари ва мажбуриятларини белгилайдиган, шунингдек, ҳуқуқлар бузилганда ёки мажбуриятлар бажарилмаганда уларнинг жавобгарлигини ўрнатадиган ва мажбурий чоралар билан таҳминланадиган хулқ-атвор қоидаларидир.

*Маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг тузилиши.* Маъмурий-ҳуқуқий нормалар, ҳуқуқнинг ҳар қандай тармоғи сингари ўзининг ички мантикий тузилишига ега бўлиб, айти пайтда улар ўзаро бир-бири билан боғлиқдир.

Юридик адабиётларда маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг тузилиши (таркиби) бўйича турлича ёндошувлар мавжуд бўлиб, уларнинг аксариятида ҳуқуқий нормалар уч қисмга бўлинган:

### **1) маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг гипотезаси.**

**Гипотеза** – ҳуқуқий норманинг ҳаракатга келишини ва унинг диспозицияси қандай шароитларда амалга оширилишини, шунингдек, ҳаётий шароит ва мавжуд ҳолатларни белгилаб беради.

Гипотезада шартлар шаклланиб, улар мавжуд бўлган ҳолларда норма талабларига асосланиш лозим.

*мутлоқ аниқ гипотеза* – бунда ҳуқуқий норманинг қандай ҳолатда ҳаракатга келиши аниқ кўрсатиб ўтилади.

Масалан, ЎзР МЖТКнинг 13-моддасида “*Маъмурий ҳуқуқбузарликни содир этган пайтда 16 ёшга тўлган шахслар маъмурий жавобгарликка тортиладилар*”, деган норма назарда тутилган. Мазкур норма – мутлоқ аниқ гипотезада берилган бўлиб, норманинг қайси вақтда ҳаракатга келиши аниқ белгиланган (ушбу мисолимизда гипотеза “*16 ёшга тўлган*”);

*нисбий аниқ гипотеза* – бунда норманинг ҳаракатга келиши аниқ кўрсатиб ўтилмай, норманинг ҳаракати бошқа норманинг амалга оширилишидан вужудга келади.

Масалан, ЎзР МЖТКнинг 25-моддасига биноан “*Жарима - маъмурий ҳуқуқбузарлик содир етишида айбдор бўлган шахсдан давлат ҳисобига пул ундиришидир*”. Мазкур норма – нисбий аниқ гипотезада берилган бўлиб, у маъмурий ҳуқуқбузарлик учун маъмурий жазо чорасини белгиловчи нормаларнинг амалга оширилиши билан ҳаракатга келади.

Демак, гипотеза – ҳуқуқий норманинг таркибий қисми бўлиб, унинг қачон ва қандай вазиятда ҳаракатга келишини белгилаб беради. Шу ўринда алоҳида таҳкидлаб ўтиш лозимки, аксарият маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг гипотезаси нисбий аниқ ҳолатда берилади.

### **2) маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг диспозицияси.**

**Диспозиция** – ҳуқуқий норманинг бир қисми бўлиб, унда ҳуқуқ тармоғи тартибга соладиган ижтимоий муносабатлар иштирокчиларининг ҳуқуқлари, мажбуриятлари, хатти-ҳаракатлари доираси кўрсатиб ўтилади.

Ҳуқуқий норма диспозициясида – кўрсатма, руҳсат бериш, ман етиш, яхни маъмурий муносабатлар иштирокчилари хулқ-атворининг мазмуни кўрсатиб ўтилади.

Ҳуқуқий нормалардаги диспозиция қисми турли кўринишларда ифодаланган бўлиши мумкин:

а) ҳуқуқий норма - гипотеза, диспозиция ва санкциядан иборат бўлиши мумкин.

Масалан, ЎзР МЖТКнинг 41 моддасига биноан “*Ҳақорат қилиш, яхни шахснинг шахни ва қадр-қимматини қасддан камситиш, - енг кам иш ҳақининг бир бараваридан икки*

бараваригача миқдорда жарима солишига сабаб бўлади”. Мазкур норма учала қисмдан ҳам иборат;

б) ҳуқуқий нормада диспозиция қисми билан бир қаторда, унинг қайси ҳолатда ҳаракатга келиши (гипотеза) назарда тутилган бўлиши мумкин

Масалан, ЎзР МЖТКнинг 39-моддасига биноан “*Маъмурий жазони қўлланиш маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахсни бажарилмаганлиги учун маъмурий жазо қўлланилган вазифани бажаришдан озод этмайди*”. Ушбу норма гипотеза ва диспозициядан иборат;

в) ҳуқуқий нормада фақатгина диспозиция қисми кўрсатиб ўтилган бўлиши мумкин.

Масалан, ЎзР МЖТКнинг 1-моддасига биноан “*Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Кодекс, Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари, Қорақалпоғистон Республикаси қонунлари, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг ва Вазирлар Кенгашининг қарорлари, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг қарорларидан иборатдир*. Мазкур нормага еҳтибор берадиган бўлсак, у фақатгина диспозициядан, яъни давлат кўрсатмасидан иборат.

### **3) маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг санкцияси.**

Кўпгина ҳуқуқшунос олимларининг фикрича, ҳуқуқий нормаларнинг санкцияси – бу маъмурий-ҳуқуқий нормалар диспозициясида мавжуд бўлган талабларнинг бажарилмаганлиги учун жавобгарлик чораларини назарда тутувчи таркибий қисм сифатида таҳрифлашади. Улар ҳуқуқий нормалар санкцияси мазмунининг бир томонлама хусусиятини, яъни фақатгина жавобгарликдан иборат эканлигини кўрсатишади. Мазкур қарашларнинг тарафдорлари “*ҳуқуқий норма санкцияси*” ва “*жавобгарлик санкцияси*” тушунчаларини бир ўринга қўйишади.

Бизнингча, санкция – бу ҳуқуқий норма диспозицияси қисмида кўрсатиб ўтилган хатти-ҳаракатга нисбатан таҳсир чораси бўлиб, ҳам салбий (негатив), ҳам ижобий (позитив) хусусиятга ега бўлиши мумкин.

Ҳуқуқий норма санкцияси турлича бўлиши мумкин. Жумладан, давлат ва ҳуқуқ назарияси фанига биноан, ҳуқуқий нормаларнинг санкцияларида диспозиция қисмида кўрсатиб ўтилган талабларни бажармаганлик учун қўлланилиши мумкин бўлган жавобгарлик ёки тавсия етилган ҳаракатни содир этганлик учун рағбатлантириш тури ва ўлчови ифодаланган бўлади.

Демак, **санкция** – бу ҳуқуқий норманинг таркибий қисми бўлиб, унда диспозицияси қисмида белгиланган талабнинг бажарилиши ёки бажарилмаганлиги учун қўлланиладиган таҳсир етиш чоралари назарда тутилади.

Мисол №1. ЎзР МЖТКнинг 47-моддасига биноан “*Ота-оналар ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар томонидан вояга етмаган болаларни тарбиялаш ва уларга таълим бериш борасидаги мажбуриятларни бажармаслик, шу жумладан вояга етмаган болаларнинг маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этишига олиб келиши, - энг кам иш ҳақининг иккидан бир қисмидан уч бараваригача миқдорда жарима солишига сабаб бўлади*”. Ушбу норма санкцияси жавобгарлик хусусиятига егадир.

Мисол №2. ЎзР Меҳнат кодексининг 180-моддасига биноан “*Ходимлар меҳнат соҳасида давлат ва жамият олдидagi алоҳида хизматлари учун давлат мукофотларига тақдим этилиши мумкин*”. Мазкур норма санкцияси рағбатлантириш хусусиятига эгадир.

Шундай қилиб, маъмурий-ҳуқуқий нормалар ҳар қандай ҳуқуқ тармоғининг нормалари сингари маҳлум бир таркибий қисмга егадир. Ҳуқуқий нормалар гипотеза, диспозиция ва санкциядан иборат бўлади.

## **2. Маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг таснифи.**

Маъмурий-ҳуқуқий нормалар ўзининг тартибга солиш йўналиши ва унга мувофиқ ҳолда юридик мазмуни билан ниҳоятда хилма-хилдир. Шу сабабли давлат бошқаруви соҳасидаги ижтимоий муносабатларни тартибга солишда маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг ўзига хос хусусиятларини тушуниш учун уларни таснифлаш катта аҳамиятга эгадир.

Юридик адабиётларда ҳуқуқий нормаларнинг турлича таснифи мавжуд бўлиб, уларнинг айримлари тўла равишда асослангирилмаган. Масалан, ҳуқуқ тармоғи томонидан бажариладиган функцияларга қараб ҳуқуқий нормалар тартибга солувчи ва муҳофаза этувчи нормаларга ажратилади. Ҳуқуқий нормаларни ҳуқуқий тартибга солиш жараёнида қандай фаолиятни бажаришига қараб, яъни уларни ихтисослашуви бўйича таснифлаш ҳам жиддий еҳтирозларга сабаб бўлади. Ушбу тасниф бўйича, масалан, дефиниция-нормалар ва принцип-нормалар фарқланади. Ушбу тасниф ҳуқуқ нормаининг асл мазмун-моҳияти билан боғлиқ бўлган объектив реалликни акс еттирмайди.

Аксарият ҳуқуқшунос олимлари маъмурий-ҳуқуқий нормаларни икки гуруҳга: *моддий* ва *процессуал* нормаларга бўлади. Бундай таснифлаш мезони сифатида айрим ҳолларда маъмурий-ҳуқуқий нормалар мазмуни, бошқа ҳолларда еса, маъмурий-ҳуқуқий тартибга солиш предметининг ўзига хос хусусиятлари кўриб чиқилади.

**Моддий маъмурий-ҳуқуқий нормалар** - давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш бўйича бўладиган муносабатлар иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳажми ва мазмунини, шунингдек, уларнинг жавобгарлигини белгилайди. Масалан, “Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги қонуннинг 7-моддасига биноан “*Вазирлар Маҳкамаси вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар ва давлат бошқаруви бошқа органларининг фаолияти устидан назоратни амалга оширади*”. Мазкур норма моддий ҳуқуқий норма бўлиб, ЎЗР Вазирлар Маҳкамасининг ваколатини белгилаб берган.

**Процессуал маъмурий-ҳуқуқий нормалар** - тартибга солинаётган ижтимоий муносабатлар иштирокчилари учун моддий маъмурий-ҳуқуқий нормаларда назарда тутилган, давлат бошқаруви соҳасидаги юридик ҳуқуқ ва мажбуриятларни амалга ошириш тартибини белгилайди. Бошқача айтганда, улар давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш бўйича фаолият тартибини белгилайди ва амалдаги қонунчилик билан белгиланган ушбу фаолиятдаги жараён қоидаларига риоя етилишини талаб қилади. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонуннинг 22-моддасига биноан “*Маҳаллий ижроия ҳокимияти органлари (ҳокимликлар) бошқармалар, бўлимлар ва бошқа бўлинмалардан иборат бўлиб, уларнинг структураси, уларни ташкил етиш тартиби ва фаолияти Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тасдиқлайдиган тегишли низомлар билан белгиланади*”. Ушбу норма маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ваколатлари ва мажбуриятларини бевосита амалга оширишга кўмаклашувчи процессуал ҳуқуқий норма ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқ тизимининг бошқа тармоқларидан фарқли равишда, маъмурий ҳуқуқда, одатда, моддий ва процессуал нормалар ягона манбаларда кўрсатиб ўтилади. Жумладан, маъмурий ҳуқуқбузарликлар учун маъмурий жавобгарликни белгиловчи моддий ва процессуал нормалар ягона қонун ҳужжатида – Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда ўз ифодасини топган.

Маъмурий-ҳуқуқий нормаларни уларнинг аниқ юридик мазмунига қараб таснифланиши алоҳида аҳамият касб етади. У ҳуқуқнинг барча тармоқлари учун умумий бўлган ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш услубининг у ёки бу доираси: кўрсатма бериш, ман етиш ва руҳсат беришга асосланади. Шу нуқтаи назардан маъмурий-ҳуқуқий нормаларнинг уч тури ажратилади: *мажбурият юқловчи, тақиқловчи ва ваколат берувчи* нормалар.

**Мажбурият юқловчи маъмурий-ҳуқуқий нормалар** ушбу нормалар гипотезасида назарда тутилган шароитлар мавжуд бўлган ҳолларда, муайян ҳаракатларни албатта амалга ошириш лозим бўлган юридик ҳокимият кўрсатмаларини ўз ичига олади.

Мажбурият юкловчи маъмурий-ҳуқуқий нормалар шахсни қандайдир хатти-ҳаракатни содир етишга мажбур қилади. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 48-моддасига биноан *“Фуқаролар Конституция ва қонунларга риоя етишга, бошқа кишиларнинг ҳуқуқлари, еркинликлари, шахни ва қадр-қимматини ҳурмат қилишга мажбурдирлар”*.

**Тақиқловчи маъмурий-ҳуқуқий нормалар** - ушбу нормалар у ёки бу ҳаракатларни амалга оширишнинг тақиқланишини назарда тутлади. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг “Нотариат тўғрисида”ги қонуннинг 6-моддасига биноан *“Нотариуснинг, нотариал ҳаракатларни амалга оширувчи бошқа мансабдор шахсларнинг, шунингдек, амалга оширилаётган нотариал ҳаракатлардан хизмат вазифасини бажариш муносабати билан хабардор бўлиб қолган шахсларнинг ўзларига маҳлум бўлган ахборотларни ошкор қилиши, шу жумладан меҳнат шартномаси бекор қилинганидан кейин ҳам ошкор қилиши тақиқланади”*. Мазкур ҳуқуқий норма орқали нотариус ёки тегишли шахс томонидан маҳлумотларни ошкор қилиш мумкин эмаслиги (тақиқ) белгиланган.

А.Лининг кўрсатиб ўтишича, тақиқловчи нормалар – бевосита ва воситали хусусиятларга ега бўлиши мумкин. Бевосита шаклдаги нормаларда тақиқ тўғридан-тўғри кўрсатиб ўтилади. Воситали шаклдаги тақиқ еса, барча ҳуқуқий нормаларда мавжуд бўлиб, уларда у ёки бу ҳуқуқбузарликнинг юридик таркиби назарда тутилади.

**Ваколат берувчи маъмурий-ҳуқуқий нормалар** - давлат бошқаруви соҳасидаги ижтимоий муносабатлар иштирокчиларига юридик ҳокимият кўрсатмалари доирасида ўз ихтиёри бўйича ҳаракат қилиш имкониятини назарда тутлади, яхни бу ерда тўғридан-тўғри кўрсатмалар ҳам, ман етишлар ҳам йўқ. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 13 декабрда қабул қилинган “Фуқароларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги қонуннинг 3-моддасига биноан *“Ўзбекистон Республикаси фуқаролари давлат органларига аризалар, таклифлар ва шикоятлар билан мурожаат етиши ҳуқуқига ега”*. Мазкур нормада кўрсатиб ўтилган ҳуқуқ бевосита фуқаронинг еркига боғлиқ бўлиб, унинг хоҳиш-иродаси билан амалга оширилиши мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, ваколат берувчи ҳуқуқий нормаларда шахсининг ҳаракат қилиш доираси аниқ кўрсатиб ўтилади. Шахс фақатгина мана шу доирада ҳаракат қилиб, ўзининг хоҳиш-иродасини ифода етиши мумкин.

Маъмурий-ҳуқуқий нормаларни *асосий (дастлабки)* ва *ҳосила* нормаларга бўлишимиз мумкин. Агар нормада умумий хусусиятга ега бўлган қоидалар мустақкамланган бўлса – **асосий**, умумий қоидаларни ривожлантиришга, аниқлаштиришга қаратилган нормалар – **ҳосила** нормалар ҳисобланади. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида кўрсатиб ўтилган аксарият нормалар (асосий) Ўзбекистон Республикасининг жорий қонунлари билан (ҳосила), жорий қонунларнинг нормалари (асосий) қонуности норматив ҳужжатлар билан (ҳосила) аниқлаштирилади ва ривожлантирилади.

Мисол, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 5-моддасига биноан *“Ўзбекистон Республикаси қонун билан тасдиқланадиган ўз давлат рамзлари - байроғи, герби ва мадҳиясига ега”*. Мазкур норма асосий норма ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 10 декабрда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг Давлат мадҳияси тўғрисида”ги қонуннинг 2-моддасига биноан еса *“Ўзбекистон Республикасининг Давлат мадҳияси Ўзбекистон Республикаси Давлат суверенитетининг рамзидир. Ўзбекистон Республикасининг Давлат мадҳиясига зўр еҳтиром билан қараши Ўзбекистон Республикаси ҳар бир фуқаросининг ватанпарварлик бурчидир”*. Мазкур норма ҳосила норма ҳисобланади.

Бундан ташқари, ҳуқуқшунос олимлар ҳуқуқни муҳофаза қилувчи нормалар санкцияларининг аниқлигига қараб – *мутлақ аниқ* ёки *нисбатан аниқ* нормаларга бўлишади. **Мутлақ аниқ санкцияли норма**да аниқ битта давлатнинг мажбурлов чораси кўрсатиб ўтилади. Масалан, ЎзР МЖТКнинг 51-моддасига биноан *“Қонунда назарда тутилган ҳолларни*

*истисно етганда, меҳнатга бирон бир шаклда маъмурий тарзда мажбурлов, - энг кам иш ҳақининг бир бараваридан уч бараваригача миқдорда жарима солишига сабаб бўлади”.*

**Нисбатан аниқ санкцияли норма** еса, турли хил жазо чораларининг бирини ёки ҳуқуқий таҳсир чораларининг бирини қўллашни назарда тутати. Масалан, ЎзР МЖТКнинг 183-моддасига биноан *“Маида безорилик, яҳни жамоат жойларида уятли сўзлар билан сўкиниш, фуқароларга ҳақоратомуз ишлқимлик қилиш ҳамда жамоат тартибини ва фуқароларнинг осойишталигини бузувчи шу каби бошқа хатти-ҳаракатларда ифодаланган жамиятда юриш-туриш қоидаларини қасддан менсимаслик, энг кам иш ҳақининг уч бараваридан беш бараваригача миқдорда жарима солишига ёки ўн беш суткагача муддатга маъмурий қамоққа олишига сабаб бўлади”.* Бундай санкциялар муқобил санкциялар деб ҳам аталади.

Маъмурий-ҳуқуқий нормаларни муносабат субъектларига нисбатан ҳаракатига қараб ҳам умумий ва махсус нормаларга бўлиш мумкин. **Умумий нормалар** барча ҳуқуқ субъектларига тааллуқли бўлади. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20-моддасига биноан *“Фуқаролар ўз ҳуқуқ ва еркинликларини амалга оширишида бошқа шахсларнинг, давлат ва жамиятнинг қонуний манфаатлари, ҳуқуқлари ва еркинликларига путур етказмасликлари шарт”.*

**Махсус нормалар** еса, аҳолининг муайян гуруҳига ёки аниқ белгиланган доирадаги субъектларга тааллуқли бўлади. Масалан, мансабдор шахсларга, вояга етмаган шахсларга, ҳарбий хизматчиларга ёки бошқа шахслар доирасига қаратилган нормалар мавжуддир.

Демак, маъмурий-ҳуқуқий нормалар турли асосларга кўра таснифланади ва маъмурий ҳуқуқ томонидан тартибга солинадиган ижтимоий муносабатлар иштирокчиларининг хатти-ҳаракатини, ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилаб беради.

### **3. Soliq to'g'risidagi qonun elementlarining huquqiy ahamiyati va tushunchalari.**

Soliq huquqining huquq tizimidagi tabiatini aniqlovchi me'zonlardan biri huquqiy tartibga solish metodidir, ya'ni bu degani ijtimoiy munosabatlarga huquqning ta'sir etuvchi usul va turlarining yig'indisidir.

Huquqiy tartibga solish metodlarining har biri o'ziga xos xususiyatga ega va ularni umumlashtirgan vaqtdagina huquqiy tartibga solishning maqsad va vazifalari amalga oshadi.

Soliq huquqiy tartibga solinadigan munosabatlar tizimini tahlil qiladigan bo'lsak shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Soliq munosabatlarini tartibga solish metodining o'ziga xos tomoni shundaki, unda tomonlardan biri davlat hokimiyati tomonidan ish ko'radi.

Ushbu metod hokimiy bo'ysinish asosiga qurilgan va huquqning boshqa tomonlariga ham xosdir, ammo bu erda soliq munosabatlaridan kelib chiqadigan xususiyatlari mavjuddir.

Soliqlar korxonaga, birlashma va tashkilotlar hamda aholining har xil guruhlariga daromadlarini qayta taqsimlashning iqtisodiy vositasidir. Soliqlar orqali davlat bozor infrastrukturasi rivojlanib, xilma-xil mulk shakldagi korxonaga va tashkilotlar yaratilsa, soliqlardan byudjetga tushumlar ko'p bo'ladi va davlatning o'z funktsiyalarining bajarishga keng imkoniyat yaratadi. Soliqdan kompleks foydalanish xalq xo'jaligi strukturasi qayta qurishga, xo'jaliklar va alohida tovar sotib olish qobiliyatini boshqarib turishga va inflyatsiya jarayonini jilovlab turishga imkon beradi.

Soliq to'lovchining daromadlari, muayyan tovarlar, mol-mulk qiymati, qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar, tabiiy resurslardan foydalanish va haqozolar, ya'ni pul mulkiy shakllarda mavjud bo'lgan moddiy ne'matlar soliq huquqiy munosabatlarning ob'ekti hisoblanadi.

Endi «soliq tizimini huquqiy tartibga solish» tushunchasining o'zini ko'rib chiqamiz. Soliq tizimini huquqiy tartibga solish – soliq munosabatlarini tartibga solishni shunday shaklidirki, uning vositasida ular ishtirokchilarining xatti-harakatlari, ya'ni soliq huquqiy sohadagi qonun



me'yorlarini ko'zda tutilgan talablariga majburiy talablari va huquqqa yo'l qo'yishlari ko'rinishida namoyon bo'ladigan davlat idorasi o'z ifodasini topadigan o'z huquqi va majburiyatlarining soliq huquqi sub'ektlari tomonidan bajarilishiga muvofiqlashtirdi. Soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solish o'z ichiga huquq me'yorlari, huquqiy munosabatlar, yuridik ma'suliyat, huquqiy ong va boshqa shu kabi tarkibiy unsurlarni oladi. Soliq huquqi sub'ektlari davlat idorasining talablari va yo'l qo'yishlariga munosabat bildiradi, ya'ni ularning ijobiy munosabati belgilangan huquq-tartibotga muvofiq keladigan huquqiy xatti-harakatlarni hosil etadi. Salbiy munosabat esa huquqiga zid bo'lgan xatti-harakatni, ya'ni huquqbuzarliklarni hosil etadi. 1992 yil 8 dekabrda, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasi soliq qonunchiligi uchun yuridik baza bo'lib hisoblanib, unda shunday deyilgan: «fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburlar»; uning 123-moddasida bunday deb ta'kidlanadi: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi».

Respublikamizda soliq tizimini huquqiy tartibga solishda taraflarning huquq va burchlari bobida bir tomondan soliq to'lovchi va ikkinchi tomondan soliq idoralari o'zaro munosabatlari tizimiga alohida e'tibor berilgan. Zero soliq munosabatlarining u yoki bu ishtirokchilarining huquq va burchlarini e'lon qilish hamda yozib qo'yishning o'zi yetarli emas, balki barcha munosabatlar kafolatlanishi, burchlarini bajarish esa huquqqa zid xatti-harakatlarning oldini olish bilan ta'minlanishi ham zarurdir.

Soliq munosabatlarining har bir ishtirokchisi o'z burchlariga nimalar kirishini va u yoki bu harakatlarni qilganda qanday huquqlarga ega bo'lishini, muayyan holatlarda kiritilgan va ishlay boshlaydigan vositalar hamda rasm-qoidalar qandayligini bilish soliq to'lovchi o'z burchini bajarmagan yoki nohalol bajarganda soliq idoralari u yoki bu sanksiyalarni, ya'ni ta'sir ko'rsatishning muayyan usullarini, misol uchun bank hisobvaraqlari bo'yicha hisob – kitob operatsiyalarini to'xtatib qo'yish mablag'larni to'lovchining hisob varaqlaridan so'zsiz hisobdan chiqarish va boshqa usullarni qo'llashi mumkin bo'lgan hollarda juda muhimdir.

Soliq tizimi muvaffaqiyatli ishlashi uchun soliq qonunchiligining aniq tartibini ishlab chiqish hamda belgilash zarur. Uning hujjat va me'yorlari soliqni tartibga solishning barcha zarur unsurlarini o'z ichiga olishi kerak. Bunda bosh omillar – soliq huquqiy munosabatlari muayyan sohasining to'liq yuridik boshqarilishi va soliq amallarining batafsil tartibga solinishi hamda ular mazmunini ta'minlashdir.

Soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlar soliq sub'ektlari bo'lib hisoblanadi. Amaliyotda ko'pincha soliq sub'ekti deganda soliq to'lovchilarning o'zi tushuniladi. Ammo hech qanday soliq munosabatisiz bo'lmaydi. Munosabat bo'lish uchun esa kamida ikki tomon bo'ladi. Demak, soliq sub'ektlari bu soliq to'lovchilar va soliq undiruvchilardir yoki soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida munosabat bo'ladi. Shu munosabatda qatnashuvchilar sub'ektlar bo'ladi va sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va yaxshilash soliqqa tortishning muhim vazifalaridan biridir, hokimiyatga ega bo'lgan soliq idoralari va soliq to'lovchining munosabatlar sub'ektlaridir.

Soliq to'lovchilar – zimmasiga soliqlar, yig'implar va bojlar to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

O'z mulkiga, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqarishida alohida imtiyoz va xususiyatlarga ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va (O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 39-moddasi). yuridik shaxs mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishi kerak. Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki ana shunday maqsadi bo'lmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin. (O'zbekiston Respublikasi FK 40-moddasiga ko'ra).

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va muassasa mulkdori moliyaviy ta'minlanadigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Tijoratchi bo'lmagan tashkilot o'z ustavida belgilangan maqsadlarida mos miqiyosda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'unlanishi mumkin. Yuridik shaxslar uyushmalari (ittifoqlar)ga birlashishi mumkin. Yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, korxonalar ustavi va boshqa ta'sis hujjatlari asosida ish olib boradi.

Yuridik shaxslar o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Yuridik shaxs huquq layoqati tashkil etilgan paytda yuzaga keladi (O'zbekiston Respublikasi FK 44-moddasining 4-qismi) va uni tugatish yakunlangan paytda to'xtatiladi (O'zbekiston Respublikasi FK 55-moddasi 3-qismi). Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Yuridik shaxs qonunda ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'unlanish mumkin.

Yuridik shaxsning huquqlari faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Yuridik shaxsning huquqlarini cheklash haqidagi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Yuridik shaxs mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan vakolatli organ farmoyishi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi (O'zbekiston Respublikasi FK 42-moddasi.). Mulkdorlar, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi sub'ekti yohud ular vakil qilgan shaxslar yuridik shaxslarning muassislari hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushiniladi (O'zbekiston Respublikasi FK 16-moddasi). Jismoniy shaxsning huquq layoqati fuqarolik va burchlarga ega bo'lish layoqatidir. Ular barcha fuqarolar uchun teng darajada e'tirof etiladi. Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi (O'zbekiston Respublikasi FK 17-moddasi). Soliqqa oid huquq layoqatini shaxslarning o'z harakatlari bilan soliq solishga imkon yaratadigan, ya'ni daromad olish sharoitini yaratish layoqati deb belgilash mumkin. Yuridik me'yorlarga muvofiq bu layoqat 18 yoshda, ya'ni balog'at yoshiga yetganda yuzaga keladi.

#### **4. Davlat soliq yurisdiksiyasi predmeti.**

Qonuniylik demokratik davlat tuzumining asosidir. Bu barchaning qonun oldida tengligi, jamiyatning xar qanday a'zosi, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisining unga bir xil buysunishi demakdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq qonuniylikning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Yuridik hujjatlar tizimida qonunlarning ustunligi, ya'ni ushbu hujjatlarning qonunlarga muvofiq bo'lishi;

davlat boshqaruvi organlari qonunlar asosida va ularni bajarish yuzasidan chiqargan qarorlarning davlatning quyi organlari va mansabdor shaxslar hujjatlaridan ustun bo'lishi;

mahalliy organlar markazvy hokimiyat organlarining huj-jatlarini qat'iy bajarishi, joylarda qonunlarga muvofiq borayotgan operativ faoliyatga markaziy organlarning aralashishiga yul qo'yilmasligiga;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini og'ishmay amalga oshirish, davlat va mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarga nisbatan biron-bir zo'ravonlik qilinishiga yul qo'yilmaslik;

fuqarolarning jamiyat, davlat va boshqa fuqarolar oldidagi o'z huquqiy burchlarini qattiq, turib bajarishlari.

Qonuniylik jamiyat normal faoliyatining asosi, mustaqil davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishning zarur sharti va g'oyat muhim shartdir. Uning yashashi xuddi ana shunga bog'liq, qonuniylikning jamiyat hayotidagi real roli xuddi ana shundan iborat. U ijtimoiy munosabatdagi barcha ishtirokchilarning harakat birligini, intizom va huquqiy tartibni ta'minlaydiki, bularsiz iqtisodiyotni shakllantirish va mustahkamlashni tasavvur etib bulmaydi.

Demokratizm qoidalarini (mansabdor shaxslarning xalq, tomonidan nazorat qilinishini va h.k.) buzish qonunsizlik va o'zboshimchalikka, fuqarolarning demokratik huquqbuzarlari kamsitilishiga ularning tashabbuskorligi va faolligi pasayishiga olib keladi. Lekin chinakam xalq, hokimiyatini qonunlarning fuqarolar, ularning tashkilotlari va birlashmalari tomonidan bir xil tushunilishi va og'ishmay bajarilishini ham tasavvur etib bo'lmaydi. Demokratiyasiz qonuniylik yuq, lekin qonunsizlik demokratiya ham yo'q.

Qonuniylikni mustahkamlashning asosiy maxsus vositalari ishontirish, oldini olish, qonunni buzuvchilarga bevosita jamoat ta'siri ko'rsatish, qonuniylikning yuridik kafolatlarini takomillashtirishchdan iboratdir. Qonuniylikni buzishlarga qarshi kurashda huquq, talablarini bajarishga davlat tomonidan majbur qilishdan ham zarur darajada foydalaniladi.

Yuridik javobgarlik - bu talablarning eng asosiy ifodasidir. U tartibbuzarlarga nisbatan qonuniy huquqiy sanksiyalarni qo'llashdan iboratdir. Jinoiy javobgarlik (jinoiyat sodir etganlik uchun), ma'muriy, intizomiy va fuqaroviy-huquqiy javobgarlik (ma'muriy huquqbuzarlik uchun, xizmatda yoki ishda intizomiy nojo'ya harakat, fuqarolik huquqbuzarligi) farqlanadi.

.Yuridik javobgarlik-murakkab huquqiy hodisa bo'lib uning mohiyati tushunchasi va mazmuni haqida huquq fanida uzoq va jo'shqin bahslar bormoqda. Ushbu bahslarning mohiyatiga chuqurlashmagan holda yuridik javobgarlik - jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqiy norma sanksiyasida nazarda tutilgan huquqbu-zarlikni sodir etganlik uchun muayyan shaxsiy yoki mulkiy nomaqbul oqibatlarini boshdan kechirishga majburligidir.

Huquqshunoslikda huquqning biron-bir sohasiga mansubligiga qarab, yuridik javobgarlikning quyidagi turlarini farqlash odat bo'lgan: a) intizomiy javobgarlik, b) yollanma mehnat kishilarining moddiy javobgarligi; v) ma'muriy; g) jinoiy; d) fuqaroviy-huquqiy javobgarlik.

Yuridik javobgarlik quyidagi belgilari va jihatlari bilan ajralib turadi.

1. Yuridik javobgarlik davlat tomonidan uning vakolatli organlari orqali tegishli huquqiy hujjatlar - asosan qonunlar, ayrim hollarda esa - qonun asosidagi hujjatlarni chiqarish yuli bilan joriy etiladi.

2. U vakil qilingan organlar va mansabdor shaxslar tomonidan qattiq belgilangan protsessual tartibda qo'llaniladi,

3. Yuridik javobgarlik davlat tomonidan majbur qilishning bir turi bo'lib, javobgarlik huquqiy normalarning sanksiyalari bilan joriy etilishida ifodalanadi va davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarning o'z hukmini o'tkazishi, majbur qilishi vositasidagina amalga oshirilishi mumkin. Aybdor hatto chiqarilgan qarorni ixtiyoriy suratda bajargan yoki o'zi keltirgan zararni tulagan taqdirda ham davlat ko'rgan choralarning majburiyligi o'zgarmaydi.

4. Yuridik javobgarlikka huquqbuzarlik, ya'ni sodir etganlik uchun qonunlarda, boshqa normativ hujjatlarda u yoki bu javobgarlik turi nazarda tutilgan aybli, qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik sabab bo'ladi. Intizomiy javobgarlikka intizomiy nojuya harakat, moddiy javobgarlikka moddiy ziyon etkazish, ma'muriy javobgarlikka ma'muriy huquq bo'zarlik, jinoiy javobgarlikka jinoiyat, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka fuqarolik muomalasi sohasidagi mulkiy munosabatlarga, shuningdek shaxsiy nomulkiy munosabatlarga tajovo'z qiluvchi huquqqa xilof harakatlar asos bo'ladi.

5. Yuridik javobgarlik hamma vaqt qonunbuzarga nisbatan muayyan salbiy oqibatlar keltirish bilan bog'liq bo'lib, salbiy oqibatlar deganda har qanday noqulay natija - masalan litsenziya yoki erkinlikdan maxrum qilish, jarima yoki ishdan bushatishni va xokazolarni tushunmok kerak.

Soliq, to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun soliq to'lovchilar (xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularning mansabdor shaxslari, fuqarolar), ham davlat soliq organlari (ularning mansabdor shaxslari) ham yuridik javobgar bo'lishlari mumkin. Bu hol O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq organlari to'g'risidagi Nizomda, O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda, respublikaning ayrim soliq, turlari to'g'risidagi qonunlarda nazarda tutilgan.

Biroq yuqorida aytilganlardan sanab o'tilgan sub'ektlar javobgarlikning barcha turlariga jalb qilinadilar, degan ma'no chiqmaydi. Masalan, intizomiy va jinoiy javobgarlik sub'ektlari faqat jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Ma'muriy javobgarlik sub'ekta faqat jismoniy shaxslar (fuqarolar va mansabdor shaxslar) gina emas, balki korxonalar, muassasa, tashkilotlar ham bo'lishi mumkin deb aytilish uchun hamma asoslar mavjud.

Soliq to'g'risidagi qonunlar buzilishi munosabati bilan intizomiy, moddiy va fuqaroviy-huquqiy javobgarlik masalasi hal qilish chog'ida tegishli O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, ba'zi boshqa qonun hujjatlari joriy qilgan umumiy huquqiy tartibot amal qilishini nazarda tutish kerak. Xususan, O'zbekiston Respublikasining davlat soliq organlari to'g'risidagi Nizomning 6-bandi "i" kichik bandiga muvofiq mazkur korxonalar, muassasa, tashkilot va fuqarolar qonunsiz bitimlardan va qonunda belgilanmagan asoslar buyicha olgan mablaglarini davlat daromadiga undirish haqida tegishli sudlarga da'vo bilan murojaat qilish huquqi berilgan. Bunday hollarda O'zbekiston Respublikasi Xujalik protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining normalari qo'llanilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik esa O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks (MJK) va O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan.

Ma'muriy javobgarlik - soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlikning hammadan ko'p qo'llaniladigan turidir.

### **3 – Mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi, ularning mohiyati hamda o'iga xos xususiyatlari**

#### **Reja:**

1. Soliqlarning yuridik mohiyati
2. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar
3. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar

**Tayanch so'z va iboralar:** O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, yuridik shaxs, beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, ijarachi, ) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari, Insonparvarlik yordami, beg'araz berish, soliq solish obyekti, mol-mulk, soliq solinadigan baza, soliq tekshiruvi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, soliq huquqiy munosabatlari, savdo faoliyati, davlat soliq xizmati organi, muayyan soliq to'lovchi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, hisoblab chiqarish, soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliq agentlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz.

#### **1. Soliqlarning yuridik mohiyati**

Umuman olganda soliq hamma davrda ham davlat xazinasini to'ldirish hamda amaldorlar yoki davlat vazifa va funksiyalarini amalga oshirish hamda jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida yig'ilgan. Shuningdek, davlat daromadining asosiy manbai bo'lgan.

Hozirgi vaqtda davlatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida eng dolzarb muammolardan biri - bu soliq munosabatlarini tartibga solish masalasidir. Biron bir davlat soliqlarsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Soliqlar, ma'lum bir ma'noda, davlatning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov soliqlarning jamiyat hayotidagi o'rni, inqirozga qarshi choralar dasturini hayotga tatbiq qilish borasida ta'kidlaganidek, "Dastur doirasida amalga oshirilgan yana bir muhim tadbirimiz – soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir".<sup>4</sup> Iqtisodiy nuqtai nazardan soliqlar pul munosabatlari tizimidan iborat bo'lib, ular vositasida, bir tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar, ikkinchi tomondan, davlat bilan davlat mablag'larini shakllantirish bo'yicha munosabatlar amalga oshirilgan. Soliqlar hisobiga davlat moliyaviy resurslarining asosiy qismi shakllantiriladi, ular davlat budjetiga kelib tushadi va jamiyat ehtiyojlari uchun foydalaniladi. Soliqlar – davlat budjetining daromad qismiga o'tkaziladigan, yuqori qonunchilik hokimiyat organlarining hujjatlariga asosan yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan beg'araz, muayyan miqdorda va belgilangan muddatlarda umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun to'lanadigan majburiy to'lovdir.<sup>5</sup> Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi eng muhim xususiyatlar soliq to'lovlarining beg'arazligi, bu to'lovlarning majburiyligi, ularni joriy etish va undirib olish tartibi, soliqning aniq miqdorini hamda uni amalga kiritishning aniq muddatini belgilashdan iborat.<sup>6</sup>

Soliq to'lovlarining beg'arazligi shuni anglatadiki, soliqlar shaklida budjetga kiritiladigan pul mablag'lari maqsadli yo'nalishga ega emas. Ular yuridik va jismoniy shaxslardan davlat mulkiga beg'araz o'tkaziladi hamda davlat tomonidan iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, mudofaani moliyalashtirish, davlat apparatini saqlash uchun yo'naltiriladi. Davlat soliq to'lovchilarga ular tomonidan budjetga kiritilgan mablag'lar uchun hech qanday bevosita kompensatsiyalarni bermaydi, ya'ni soliq to'lovchi davlatga soliq to'laganda to'g'ridan-to'g'ri hech qanday manfaat kutmaydi. Ammo soliq to'lovlarining beg'arazlik xususiyati davlat soliqlarni olib, ularni to'lovchilarga muayyan moddiy ne'matlarni bermaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Soliqlar boshqa shaklda insonlarni o'zlariga qaytariladi. Masalan, bepul ta'lim olish, tibbiy xizmat ko'rsatish, pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy ta'minlash va h.k. uchun mablag'lar asosan davlat budjetining soliqlar hisobidan shakllantiriladigan daromad qismidan ajratiladi. Har bir soliq to'lovchi uchun davlatga to'lanadigan soliqlar hajmi bilan undan olinadigan moddiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri, ko'zga ko'rinadigan aloqaning yo'qligi uning soliqqa go'yoki zimmasiga tushadigan bir yuk sifatida qarashi uchun sabab bo'ladi, zeroki soliq to'lovchilar ushbu mablag'lar hisobidan moliyalanadigan davlat harajatlari yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin. Ayrim to'lovchilarning soliq to'lashdan qochishi, o'z daromadlarini kamaytirib ko'rsatishga intilishi mana shundandir. Soliq yuridik mohiyatining majburiylik xususiyati shundan iboratki, soliq to'lovchilar qonun kuchi bilan muayyan shart-sharoitlarda soliqlarni to'lashi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyat konstitutsiyaviydir. Soliqlar majburiyati hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tegishli organlar orqali davlat kuchi bilan ta'minlanadi va shu sababli soliqlarni to'lash ixtiyoriy emas, balki majburiylik

<sup>4</sup> I.Karimov. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Ma'ruza. "Soliq va bojxona xabarlari" gazetasi. 2010 yil 1 fevral 5 Химичева Н.И.Финансовое право: учебно-методический комплекс – М. Норма, 2007.

<sup>5</sup> А.Ли О'zbekiston Respublikasining moliya huquqi. Darslik. / Mas'ul muharrir: M.H.Rustamboev. – T.: TDYUI, 2004. – 398 b.

<sup>6</sup> Химичева Н.И.Финансовое право: учебно-методический комплекс – М. Норма, 2007.

xususiyatiga ega. Pol Mari Godmening fikriga ko'ra, "soliq tushunchasida majburiylik elementi shunchalik buyukki, bu majburiylik xususiyatiga ega bo'lmagan tushumlarning soliq sohasidan istisno etilishiga olib keladi". Ayrim mamlakatlarning hozirgi zamon soliq tizimida qonun kuchi bilan majburiy bo'lmagan soliqlar ham mavjud bo'lib, bu - cherkov solig'i hisoblanadi. Ularni ijro etish diniy me'yorlar bilan ta'minlanadi. 25 Masalan, musulmon davlatlari (Yaman, Saudiya Arabistoni, Pokiston va boshqalar) da davlat dini yetarlicha rivojlangan bo'lib, davlat tomonidan sanksiyalangan diniy soliq me'yorlari umumdavlat me'yorlari bo'lib qolmoqda. Xususan, bunday to'lovlardan bo'lgan islom soliqlari (zakot, zakot al fitr, ushr) Qur'onga muvofiq ravishda undirib olinadi va ular chet ellardagi musulmon jamoalarini qo'llab-quvvatlash, kam ta'minlanganlarga yordam berish va boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi.<sup>7</sup> Soliqlarning muhim yuridik belgisi ularni belgilash va joriy etish tartibi hisoblanadi. Soliqlarni belgilash hamda ularni undirib olish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan qonunchilikda nazarda tutilmagan har qanday majburiy to'lovlar soliq hisoblanishi mumkin emas. Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi yana bir belgisi shundan iboratki, ularni to'lash orqali oldindan qonunchilikda belgilangan tartibda daromadning bir qismi davlat foydasiga undirib olinadi. Davlat davlatning budjet tizimi daromad qismiga o'tkaziladigan soliqlar miqdori va ularni to'lash muddatlarini belgilaydi, qonunda belgilangan ko'rsatmalarni buzgan soliq munosabatlari subyektlariga nisbatan javobgarlik choralari qo'llaydi. Ko'pgina mamlakatlar qonunchiligida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham, soliqlarni va ularning miqdorlarini belgilash vakolati faqat yuqori qonunchilik hokimiyatiga tegishli ekanligi belgilangan. Hech kim qonunda belgilanmagan tartibda o'z xohishiga ko'ra soliqlarni yoki boshqa majburiy to'lovlarni o'rnatishi, ularning miqdorini belgilashi mumkin emas. Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish zarurligi muhim ustuvor vazivalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti o'z ma'ruzalarida soliq to'lovchiga soliqqa tortish tizimida qo'shimcha imtiyozlar va preverensiyalar berish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq qonunchiligini barqarorligini ta'minlash hamda ushbu yo'nalishda ilg'or mamlakatlar ijobiy tajribalaridan foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tganlar.<sup>8</sup>

<b>Soliqlarning xususiyatlari</b>				
<b>Soliq beg'arazligi</b>	<b>to'lovlarining</b>	<b>Soliq to'lovlarining majburiyligi</b>	<b>Soliq to'lovlarining aniq miqdori va amalga kiritishning aniq muddatlari</b>	<b>Soliq to'lovlarini joriy etish va undirib olishning aniq tartibi</b>

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib, soliq tushunchasiga 2007 yil 25 dekabrda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida quyidagicha ta'rif berilgan.

**Soliqlar deganda** – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

<sup>7</sup> А.Козырин Налоговое право зарубежных стран: вопросы теории и практики.-М.: Манускрипт, 1993.-20- стр.

<sup>8</sup> "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2005 yil 29 yanvar - №20 (3565)

Shu bilan bir qatorda Soliq kodeksida **boshqa majburiy to'lovlarning** tushunchasi ham mustahkamlab qo'yildi: Boshqa majburiy to'lovlar deganda esa - Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'implar, davlat boji tushuniladi.

Soliq funksiyalari. Har qanday davlatda soliqlarning roli ular bajaradigan funksiyalar bilan belgilanadi. Soliq funksiyasi deganda, uning mohiyatining harakatda namoyon bo'lishi, uning xususiyatlarini ifodalash uslubi tushuniladi. Funksiya ushbu iqtisodiy kategoriyaning qiymatni taqsimlash va daromadlarni qayta taqsimlash vositasi sifatidagi ijtimoiy vazifasi qay tarzda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Soliqlarga fiskal, rag'batlantirish, tartibga solish va qayta taqsimlash funksiyalari xosdir. Soliqlarning fiskal funksiyasi ular tabiatining o'zi bilan belgilanadi, ular majburiy tartibda va beg'araz davlat daromadiga kelib tushadi hamda davlat tomonidan o'z xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladi. Fiskal funksiya vositasida soliqlarning bosh ijtimoiy vazifasi amalga oshiriladi - budjet tizimi va budjetdan tashqari jamg'armalarda to'planadigan davlat moliyaviy resurslari shakllantiriladi hamda ular davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun foydalaniladi. Soliqlarning fiskal funksiyasi davlatga moliyaviy mablag'larning asosiy qismini yo'naltirish uchun imkon beradi. Fiskal funksiya davlat budjetini shakllantirishda soliqlarni rolini belgilaydi. Lekin soliq siyosatining vazifasi faqat budjetni to'ldirish bo'lishi kerak emas. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Soliq siyosatining vazifasi – bir tomondan, budjet daromadining barqaror savarbarligini ta'minlashdan, ikkinchi tomondan – korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqirishni rag'batlantirishdan iborat".<sup>9</sup> Davlat ayrim sohalarni, tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish maqsadida ma'lum bir yengilliklar, soliq imtiyozlarini berish orqali rag'batlantirish funksiyasini amalga oshiradi. Masalan, Soliq kodeksining 158-moddasiga asosan yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi: protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi; shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi; tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi. Shuningdek mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek oxirgi yillarda mamlakatimizda soliq to'lovchilarga yengillik berish maqsadida soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirishga, soliqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni liberallashtirishga hamda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2015 yil 15 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unda: xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma'muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayonini davom ettirish; barcha turdagi ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash;

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.Ozbekiston.1998.B.65 28

xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish (soliq tekshiruvini kamaytirish) va boshqa masalalar inobatga olingan. Shundan kelib chiqib, 2015 yil 20 avgustda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan mazkur subyektlarga bir qator yengilliklar berildi.

<b>Soliqlarning funksiyalari</b>			
Fiskal	Rag'batlantirish	Tartibga solish	Qayta taqsimlash

Soliqlarning tartibga solish funksiyasi shundan iboratki, ular ijtimoiy ishlab chiqarish, uning tuzilmasi va dinamikasiga, fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliqlar vositasida ishechanlik faolligini rag'batlantirish yoki, aksincha, uni cheklash mumkin. Soliqlar yordamida proteksionistik iqtisodiy siyosatni olib borish yoki tovar bozoriga erkinlikni ta'minlash mumkin. Soliqlarni tartibga solish funksiyasi orqali iqtisodiyot, ishlab chiqarish va aholining daromadlari tartibga solinadi. Masalan, aksiz solig'ini belgilash orqali ayrim iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilishni tartibga solish; iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish maqsadida soddalashtirilgan soliq tizimini joriy qilish; aholining daromadlarini tartibga solish maqsadida jismoniy shaxslarning daromadiga o'sib boruvchi shkala asosida soliq solish (ya'ni eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdordagi daromad summasiga 0 foiz; eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so'm) besh baravarigacha miqdordagi daromadiga eng kam ish haqi miqdorining bir baravaridan oshadigan summaning 7,5 foizi; eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdordagi daromadiga besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summaning 17 foizi; eng kam ish haqining o'n baravaridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdordagi daromadiga esa o'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summaning 23 foizi soliq stavkalarini belgilanishi) Tub iqtisodiy islohotlar sharoitida soliqlarning tartibga soluvchilik roli kuchayib boradi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining o'z modelini tashkil etishning eng muhim elementlaridan biri ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvidan chetga chiqish, tovar ishlab chiqaruvchilarning o'zlariga, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqqan holda, qanday faoliyat bilan shug'ullanish va qanday mahsulot ishlab chiqarishni belgilashda erkinlik berish hisoblanadi. Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyatining tartibga soluvchi bosh dastaklaridan biri soliqlar bo'lib qoladi. Shuni aytish kerakki, soliqlardan iqtisodiyotni tartibga soluvchi vosita sifatida foydalanish konsepsiyasi dastlab 1936 yili ingliz iqtisodchisi J.Keyns tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq soliqlar jamiyatda iqtisodiy munosabatlarni faqat tartibga solish uchun mavjud. Biroq ushbu konsepsiya iqtisodiyotni ma'muriybuyruqbozlik uslublariga asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarish sharoitlarida o'z ifodasini topa olmas edi va tabiiyki, u fanga qarshi burjua nazariyasi sifatida keskin tanqidga uchradi. Soliqlardan tadbirkorlikni tartibga solishning samarali vositasi sifatida foydalanish qayishqoq soliq siyosatini olib borishni talab qiladi, uning mohiyati, bir tomondan, budjet daromadlari to'ldirilishini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantirish, korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, tadbirkorik va investitsion faoliyatni rivojlantirishdan iborat. Soliqlarning tartibga soluvchilik funksiyasi iqtisodiyotni rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatilishi uchun muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. Bu tadbirlar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasiga va davlat budjeti daromadlari o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Soliq chora-tadbirlari investitsion faoliyatni rag'batlantirish (masalan, foydaning investitsiyalarga ajratiladigan qismiga soliq solinmaydi), mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda keng qo'llanadi. Jumladan, soliqlar




yordamida ishlab chiqarish, masalan ma'lum bir ishlab chiqaruvchilarga nisbatan imtyozlarni belgilash, iste'mol masalan, aksiz solig'ini joriy qilish, aholining daromadlari esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga nisbatan o'zgaruvchan stavkani, ya'ni jismoniy shaxslarning daromadi oshib borishi bilan soliq stavkasini oshib borishi orqali tartibga solinadi. Iste'mol masalan, aksiz solig'ini joriy qilish orqali tartibga solinishi mumkin. Soliqlarning qayta taqsimlash funksiyasi mavjudligi shu narsa bilan belgilanadiki, "soliq tizimi yalpi milliy mahsulotni qayta taqsimlashni amalga oshiradi va bu bilan u iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish, aholiga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashda bevosita ishtirok etadi".<sup>10</sup> Soliqlar yordamida davlat yuridik va jismoniy shaxslarning foydasi (daromadi)ni, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun yo'naltirib, qayta taqsimlaydi. Eng yuqori daromadlarga soliq solishning o'zgaruvchan shkalasini belgilab, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarni soliqlardan qisman yoki to'liq ozod qilish-soliqlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini anglatadi. Soliq solish orqali "ayrim ijtimoiy guruhlar daromadlari o'rtasidagi farqlarni kamaytirib, yo'qotib borish maqsadida nisbatlarni o'zgartirish yo'li bilan ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlashga erishiladi".<sup>11</sup> Soliqlar funksiyalari doimiy ravishda rivojlanib boradi va bunda ular bir-biriga juda bog'liq bo'lib, bir vaqtda amalga oshiriladi. Ushbu holat ular o'rtasida muayyan qarama-qarshiliklarni ham yuzaga keltiradi. Davlatning soliqlarni oshirish yo'li bilan keyinchalik ularni budjet orqali iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani rivojlantirishga ta'sir etish uchun o'z qo'lida imkon qadar ko'proq moliyaviy mablag'larni to'plashga bo'lgan intilishi ularning fiskal funksiyasini kuchaytirishga olib keladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan soliqlar yordamida qancha ko'p mablag' olinsa, foyda (daromad) olish maqsadidagi faol ish-faoliyatga bo'lgan qiziqish shunchalik kamayadi, ya'ni tartibga soluvchi funksiya samaradorligi pasayadi. Demak, soliqlarning fiskal va rag'batlantiruvchi mohiyati o'rtasida muvozanat bo'lishiga rioya qilinishi shart. Bir tomondan, ular budjetga moliyaviy mablag'larning eng ko'p darajada kelib tushishini ta'minlashi, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yordam berishi lozim. Soliqlarning tasnifi. Yuridik mohiyatiga ko'ra soliqlar o'zlarining bir-biriga o'xshash va o'zaro farq qiladigan umumiy (muhim) belgilariga qarab bir qancha mezonlar bo'yicha tasniflanishi mumkin. Iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda soliqlarni tasniflash bo'yicha eng ko'p tarqalgan mezonlar ularni undirib olish uslubi, qo'llaniladigan stavkalar xususiyati, soliqlarni belgilash, bekor qilish va joriy etish bo'yicha davlat organlari vakolatlarining hajmi, subyektlar (soliq to'lovchilar) turlari va h.k. belgilar bo'yicha guruhlarga ajratish hisoblanadi. Soliqlarni undirib olish uslubi mezoni bo'yicha ular to'g'ri va egri soliqlarga ajratiladi. To'g'ri soliqlar soliq to'lovchining daromadi yoki mulkidan bevosita undirib olinadigan soliqlar bo'lib, bu soliq solishning boshlang'ich shakllaridan hisoblanadi. To'g'ri soliqlardan dastlab yer solig'i, uy solig'i kabi soliqlar paydo bo'lgan. Hozirgi vaqtda bizning mamlakatimizda to'g'ri soliqlarga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va yuridik shaxslarga ham, jismoniy shaxslarga ham solinadigan yer solig'i va mol-mulk solig'i kiradi.

---

<sup>10</sup> I.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.O'zbekiston, 1995.-188-b.

<sup>11</sup> I.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.O'zbekiston, 1995.-188-b. 11 Л.Ходов. Функции налоговой Учебник. М. БЕК, 1994 г. – 309 – стр.



O'z navbatida, to'g'ri soliqlar shaxsiy soliqlar va aniq (real) soliqlarga bo'linadi. Bu soliqlar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, birinchi holda amalda olingan daromad yoki mulk, ikkinchi holda esa muayyan iqtisodiy, ba'zan esa, tabiiy sharoitlarga qarab tahminiy o'rtacha daromad soliqqa tortiladi. Jahon amaliyotida shaxsiy soliqlarga daromad solig'i, korporasiyalar foydasiga solinadigan soliq, pul kapitallaridan tushgan daromadlardan olinadigan soliq, meros va hadyalardan olinadigan soliq va h.k. misol bo'la oladi. Bizning respublikamizda to'g'ri soliq obyekt, masalan, yuridik shaxslardan olindigan foydasi va jismoniy shaxslarning daromadlari (ularga berilgan imtiyozlar hisobga olingan holda), amaldagi daromad hisoblanadi. Masalan, aniq (real) soliqlargamol-mulk solig'i va yer solig'i kiradi. Bunda aniq (real) soliq belgilari yer uchastkalariga soliq solishda yaqqol namoyon bo'ladi. Yer solig'i stavkalari soliq solish obyekt (1 ga yer)dan olinadigan taxminiy o'rtacha daromad hisoblanib, tuproqning sinfi va tabiiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Egri soliqlar tovarlar, ishlar va xizmatlarga narx yoki tarifga qo'shimcha shaklida belgilanadigan soliqlardir. Ular to'g'ri soliqlardan shunisi bilan farqlanadiki, soliq to'lovchining daromadi yoki mulki bilan 32 bevosita bog'lanmagan. Egri soliq solinishi kerak bo'lgan tovarlar ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar soliq summasini sotiladigan tovarlar, ko'rsatiladigan ishlar, xizmatlar qiymatiga kiritadi, ya'ni o'z mohiyati bilan ular soliq yig'uvchilar bo'ladi. So'nggi soliq to'lovchi yoki soliq egasi bo'lib tovarlarni yoki xizmatlarni u yoki bu turdagi egri soliqni o'z ichiga olgan, oshirilgan narxlar yoki tariflar bo'yicha oluvchi iste'molchi qatnashadi. Ko'pgina davlatlarning hozirgi zamon soliq tizimlarida egri soliqlarning aksizlar, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona boji kabi turlari qo'llanadi. Masalan, uyali aloqa kompaniyalari iste'molchilarga xizmat ko'rsatayotganda xizmat haqqini ichiga o'zlari to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'ini ham qo'shib undirib oladilar. Bu yerda soliq egasi iste'molchi bo'ladi. Soliq stavkasi va soliq solish obyekt o'rtasidagi o'zaro aloqaga qarab mutanosib va o'zgaruvchan soliqlar ajratiladi. Mutanosib soliqlarda soliq stavkasi daromad miqdoridan qat'i nazar o'zgarmasdan qoladi. O'zgaruvchan soliqlarda daromad ortishi bilan soliq stavkasi ham o'sib boradi: daromad qancha ko'p bo'lsa, undan ushlab qolish foizi ham shuncha ko'p bo'ladi. O'zgaruvchan soliqlarni qo'llash uchun murakkab progressiyadan foydalaniladi, unga asosan soliq to'lovchining daromadi qismlarga bo'linadi va ularning har biri uchun soliqning o'z stavkasi belgilanadi. Soliq to'lovchilar doirasidan kelib chiqqan holda soliqlar uch guruhga bo'linishi mumkin: 33 -yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar. (Masalan, obodonlashtirish va ijtimoiy

infratuzilmani rivojlantirish solig'i); -jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar. (Masalan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i); -yuridik va jismoniy shaxslarga umumiy bo'lgan soliqlar. (Masalan, yer solig'i, mol-mulk solig'i va h.k.lar). Soliqlarni boshqa asoslarga ko'ra ham tasniflash mumkin: -soliqlarning kelib tushish manbasiga ko'ra: a) davlat budjetiga o'tkaziladigan davlat soliqlari; b) mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan mahalliy soliqlar; -foydalanish xususiyatiga ko'ra: a) umumiy ahamiyatga ega bo'lgan soliqlar; b) maqsadli soliqlar; -budjet darajasiga ko'ra: a) mustahkamlangan soliqlar; b) tartibga solinadigan soliqlar.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlarini uning prinsiplarida ko'rishimiz mumkin. Har qanday davlat faoliyati singari soliq solish ham ma'lum bir prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi. Soliq tizimi prinsiplari obyektiv qonuniylikni aniqlashning va undan aqlidrok bilan foydalanishning shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. Agar soliq tizimi prinsiplari buzilsa, u bevosita amaliy vazifalarni xal etishga to'sqinlik qiladi. Soliq tizimi prinsiplari turli-tuman bo'lib, bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida soliq qonunchilik hujjatlari quyidagi prinsiplarga asoslanadi: - soliq solishning majburiyligi. Soliq to'lovchi – yuridik va jismoniy shaxslar Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart (bu holat konstitutsiyaviy norma talabidan kelib chiqadi); - soliq solishning aniqligi, ya'ni har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq bilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi lozim. (Masalan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan, Jismoniy shaxslarning molmulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Soliq stavkasi tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktabriga qadar amalga oshiriladi).

- soliq solishning adolatligi. Soliq solish umumiy bo'lib, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas. Masalan, yakka tadbirkor A.Axmedovga yoki "Sharq" ishlab chiqarish korxonasini molmulk solig'i yoki boshqa soliq va majburiy to'lovlardan ozod qilish yuzasidan imtiyoz berish mumkin emas.Imtiyoz ma'lum bir toifani, masalan, urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning yer solig'idan ozod qilinishi yoki ma'lum bir ishlab chiqaruvchilarni, masalan, davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarini foyda solig'idan ozod qilinishi kabi imtiyozlar belgilangan; - soliq tizimining yagonaligi. Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi; - soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi. Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Barchaning e'tibori uchun rasmiy e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas; - soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi -

solliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar solliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

## **2. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Solliq kodeksining 305-315-moddalari)**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy ta'minotga muhtoj bo'lganda, ya'ni pensiya yoshiga etganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisin yo'qotgan hollarda ijtimoiy yordam olish olish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda 1993 yil 3 sentabrda qabul kilgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida"gi Qonunida belgilab berilgan. Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar solliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritiladigan bo'ldi hamda Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash tartibi buzilganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llanilishi, shu jumladan to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yildi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag'lar to'plash tartib qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrdagi "Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 498-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 2004 yilgacha amalga oshirilib keldi. Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrdagi 567-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni hisoblash va to'lash tartiblarini soddalashtirish maqsadida, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamg'armasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiy to'lov nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. Hozirgi kunda mazkur jamg'arma faoliyati, daromad manbanlarini shakllantirish va Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish tartibi 2010 yil 19 fevralda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Solliq kodeksiga asosan ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar tarkibiga yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar kiradi.

*Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (O'zbekiston Respublikasi Solliq kodeksining 305-311-moddalari).*

Yagona ijtimoiy to'lov O'zbekistonda 2004 yildan amal qilib kelinmoqda. Solliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi rezidentlari; O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonolari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari. Jismoniy shaxslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston 170 Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi. Yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarini hisoblash uchun obyekt

bo'lib, ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun baza imtiyoz sifatida belgilangan to'lovlar chegirib tashlangan ish haqi tarzida to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi. Soliq solish obyekti – ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ektidir. Bunda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvotaqilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ekti ularning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilguniga qadar oxirgi ish joyi bo'yicha olingan, O'zbekiston Respublikasida byudjet muassasalari xodimlari uchun ish haqi oshirilishi hisobga olingan holda qayta hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs — O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish ob'ektidir. ish haqi tarzidagi daromadlar O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham Yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish obyektidir. Soliq solinadigan baza – mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasi sifatida belgilanadi, bunda yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lovlar mustasno. O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida aniqlanadi, biroq bu summa O'zbekiston 171 Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga doir xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lmasligi lozim. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2016 yil uchun budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari stavkasi 7,5 foiz miqdorida belgilangan. Yagona ijtimoiy to'lov stavkalari (2015 yil uchun)

Imtiyozlar – Soliq kodeksiga asosan yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lovlar hamda yagona ijtimoiy to'lov hisoblab chiqarilmaydigan to'lovlar va daromadlar belgilangan. Jumladan, ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi: mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun Soliq kodeksi 171-moddasi ikkinchi qismining 9-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar; yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar; quyidagi grant mablag'lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar: davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari; O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'lari; O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag'lari. Shuningdek, yagona ijtimoiy to'lov quyidagilarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi: O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitsyerlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minotiga, pul mukofotlariga va boshqa to'lovlarga; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan

xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga. 172 Soliq davri – kalendar yilidir. Hisobot davri – yil oyidir. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi – yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yil yakunlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallariga doir hisob-kitob hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini to'lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari. Sug'urta badallari soliq to'lovchining kalendar` oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, majburiy tartibda quyidagicha to'lanadi: yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda; yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan — oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida; yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan: yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan — oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda; oilaning boshqa a'zolari tomonidan (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar bundan mustasno) — oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligining boshlig'i sug'urta badallarini majburiy tartibda, 173 boshqa a'zolari esa, ixtiyoriylik asosida to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi. yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan yuqorida ko'rsatilgan, shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironi bo'lgan shaxslar uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan eng kam miqdoring kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq kalendar` yil davomida vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi. Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi: yakka tartibdagi tadbirkorlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan — har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25- kunidan kechiktirmay; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan — hisobot yilining 1 oktyabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi. Sug'urta badallarini to'lash majburiyati yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun — oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining; yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun — ushbu xodimlar bilan mehnat

shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi. To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Bunda oila a'zolari — oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar 174 bo'yicha to'lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a'zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohidaalohida yoziladi. Agar to'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun — yil) uchun to'langan deb hisoblanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar sug'urta badallarini jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, sug'urta badallarini to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy ravishda to'laydi. Bunda mazkur shaxslar tomonidan sug'urta badallarini to'lash jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddatlarida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning sug'urta badallarini to'lash bo'yicha majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi. Sug'urta badallarini to'lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun sug'urta badalini hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga sug'urta badallarini hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi. Agar faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini davlat soliq xizmati organiga belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha sug'urta badallarini hisoblash to'xtatilmaydi.

*Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar (312-315-moddalar).*

Soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs. Bunda quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarining to'lovchilari bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno; yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar. Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno. Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza. Sof tushum budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarining soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq obyektlari (2015 yil uchun)

Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2016 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari yuqorida belgilangan soliqqa tortish obyektlaridan 1,6 foiz miqdorida belgilangan. Soliq davri – kalendar

yilidir. Hisobot davri – yil choragidir. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish va ularni to'lash tartibi – Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi: budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

### **3. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 316-325-moddalari)**

2007 yil 2 oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo'llari to'g'risida”gi qonuniga muvofiq yo'llarni moliyalashtirishga doir ishlar (umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarni loyihalash, qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash) yo'l jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 2003 yil 19 avgustdagi PF-3292-son Farmoniga binoan tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi maxsus normativ hujjat bilan tartibga solinadi. Respublika yo'l jamg'armasiga ikki turdagi majburiy to'lovlar undiriladi. Bular, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hamda Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implardir. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar (316-319- moddalar). Soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs. Bunda quyidagilar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno; yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar; umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno. Soliq solish obyekt. Soliq solinadigan baza – sof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekt va soliq solinadigan bazasidir. O'zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo'llari to'g'risida”gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi OKA, 1992 y., №9, 353-m. 178 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish obyektleri (2016 yil uchun)

Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2016 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari yuqorida belgilangan soliqqa tortish obyektlaridan 1,4 foiz miqdorida belgilangan edi. 179 Soliq davri – kalendar yildir. Hisobot davri – yil choragidir. Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisobkitobini



taqdim etish va ularni to'lash tartibi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

*Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 319-325-moddalar).* Soliq kodeksining 54-bobiga asosan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalardan tashqari yig'imlar ham to'lanadi. Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi: - avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im; - chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im. Soliq to'lovchilar – Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir. Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilardir. 180 Soliq solish obyekti – avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish; chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish. Soliq solinadigan baza – olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati; O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va ajratmalar stavkalari (2016 yil uchun)..

*Imtiyozlar.* Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar: ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar; yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar; faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari - yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari 182 bo'yicha (engil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari); yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha; homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek budget hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari; yuridik shaxslar - avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda; qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris va boshqalar. Yig'imlarni to'lash tartibi – avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular


O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi: 1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda; 2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda; 3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda, imtiyozlar nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi; 4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda. Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi. Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun 183 yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

#### **4-mavzu. Soliqqa oid huquqiy munosabatlar hamda soliq to'lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlari**

- 1. Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari**
- 2. Soliq majburiyati tushunchasi va amalga oshirish tartibi**
- 3. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning hisobini yuritish.**

**Tayanch so'z va iboralar:** O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, notijorat tashkilotlari, : hujjat bilan tasdiqlangan , egri soliqlar , yutuq, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.

**1. Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari .** Yuridik adabiyotlarda huquq subyektlari bo'yicha turlicha fikrlar bildirilgan. Aksariyat huquqshunos olimlarining fikricha, soliq huquqi subyektlari ikkiga bo'linadi: individual subyektlar va jamoa subyektlar.




Individual subyektlar – bu fuqarolar, xorijiy davlatning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek, davlat xizmatchilaridir. Jamoa subyektlariga – turli ko‘rinishdagi davlat va nodavlat tashkilotlari kiradi. Birinchi guruhga - davlat organlari kirsa, ikkinchi guruhga esa tijorat va notijorat tuzilmalar kiradi. Ko‘pgina yuridik adabiyotlarda soliq huquqining subyektlari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan: a) davlat organlari (mansabdor shaxslar); b) soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) Soliq huquqi subyekti hamma vaqt huquq subyekti hisoblanadi. Huquqning subyektlari bir vaqtning o‘zida bir necha huquq munosabat subyekti sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, fuqaro bir vaqtning o‘zida ma‘lum bir daromadga ega bo‘lib soliq, davlat boshqaruv organlari bilan munosabatga kirishib ma‘muriy, fuqarolik shartnomalar tuzish orqali fuqarolik yoki ma‘lum bir tashkilotda ishlab mehnat huquqi tomonidan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar subyekti bo‘lishi mumkin. Soliq huquqiy munosabatlarning mohiyati – huquq layoqati tushunchasi, uning xususiyati, mazmuni va hajmi orqali yoritib beriladi. Soliq huquq layoqati va muomala layoqati – subyektlar soliqhuquqiy holatining asosini tashkil etadi. Subyektning huquq layoqati uning yuridik huquq va majburiyatlarini o‘z ichiga oladi. Odatda, u aniq bir shaxsning subyektiv huquq va subyektiv majburiyatga ega bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Soliq huquq layoqati – bu ma‘lum bir huquqlarga ega bo‘lish va majburiyatlarni bajarish, harakatlarni amalga oshirish va qarorlar qabul qilish, soliq qonunbuzilishlari bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish, huquqiy normalarni buzish va qonun bilan o‘rnatilgan talablarga rioya etmaganlik uchun javobgarlikka tortilish qobiliyatiga ega bo‘lishdir. Shunday qilib, soliq huquq layoqati aniq bir soliq huquqiy munosabatlarining vujudga kelishida, mazkur huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining aniq huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishida xizmat qiladi. Soliq huquqi subyektlari tomonidan huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishi – huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi yuridik faktlar bilan ta‘minlanadi.

Soliq huquqiy munosabatlari faqatgina uning subyektlari huquq layoqatiga ega bo‘lganidagina, ya‘ni huquqiy munosabatlarga kirishish uchun asos bo‘ladigan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lganida vujudga kelishi mumkin. Qonunchilik hujjatlari bilan ma‘lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan soliq huquqi munosabatining har bir ishtirokchisi – soliq huquqining subyekti sifatida tan olinadi.


Soliq huquqi normalari bilan o‘rnatilgan huquq layoqatiga ega bo‘lgan subyektlar, ularga berilgan huquq layoqatini amalda ro‘yobga chiqarishlari orqali, soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilariga aylanadilar. Shu sababli, soliq huquqi subyektlari soliq huquqi layoqati bilan bir vaqtda soliq muomala layoqatiga, ya‘ni ularga tegishli bo‘lgan soliq sohasidagi huquqlarni amalga

o'shinish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Jismoniy yoki yuridik shaxsning muomala layoqati – bu ularning o'z qarorlari va harakatlari (harakatsizligi) bilan huquqlarga ega bo'lishi 56 va amalga oshirishi, o'zlariga va boshqa shaxslarga majburiyatlarni vujudga keltirishi, ularni bajarishi hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lishidir. Soliq huquqi subyektlarida muomala layoqati turlicha vujudga keladi. Muomala layoqati vujudga kelishining asosiy sharti bo'lib, subyektlar huquqlari, majburiyatlari va vakolatlarining xususiyatlari hisoblanadi. Muomala layoqatiga ega bo'lishning huquqiy asoslari normativ huquqiy aktlarda o'rnatiladi. Demak, jismoniy va yuridik shaxslarning, davlat organlari va davlat xizmatchilarining soliq huquqi subyekti sifatida namoyon bo'lishi hamda soliq huquqiy munosabatlarida ishtirok etishi ko'p jihatdan huquq layoqati va muomala layoqatining mavjudligiga bog'liqdir. Masalan, yuridik shaxslar tashkil qilingan vaqtdan boshlab ham soliq huquqi subyekti, ham soliq huquqiy munosabat subyektlari bo'lishi mumkin. Jismoniy shaxslar tug'ilishlari bilan huquq subyekti bo'ladilar, qachonki ular soliq to'lash majburiyati yuzaga kelganda ular munosabat subyektlariga aylanadilar. Jismoniy shaxslar soliq sohasida fuqarolik qonunchiligi bo'yicha 14 yoshdan mustaqil daromadga yoki yoshidan qat'i nazar mol-mulkka, yerga egalik qilib, mehnat huquqi normalari bo'yicha esa 16 yoshdan yuridik salohiyatga ega bo'ladilar, chunki shu davrdan boshlab ular tegishli soliq to'lovlari obyekt bo'lgan daromadlar va mulkning egalari bo'lishi mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek soliq huquqiy munosabat subyektlari bo'lib soliq to'lovchilar va vakolatli davlat organlari hisoblanadi. Bundan tashqari, soliq agentlari hamda soliq to'lovchining vakillari ham soliq huquqiy munosabat subyektlaridir. Amaldagi soliq qonunchiligiga asosan, soliq to'lovchilar – zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir. Soliq agentlari – zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir. Soliq to'lovchining vakillari esa qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir.

*Soliq huquqiy munosabatlarining turlari.* Soliq solish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar turli-tuman bo'lib, ularni bir necha asoslarga ko'ra tasniflash (guruhlash, turlarga bo'lish) mumkin.




Soliq huquqiy munosabatlarning vazifasi va funksional belgilanishiga qarab, ularni ikkiga bo'lish mumkin: a) tartibga soluvchi munosabatlar, ya'ni huquq subyektlarining mo'tadil xulq-atvori, huquqqa muvofiq xatti-harakatlarining natijasida vujudga keladigan munosabatlar; b) muhofaza qiluvchi munosabatlar, ya'ni huquqbuzarlikni sodir etish va bu uchun davlatning majburlov choralarini qo'llash zaruriyati asosida vujudga keladigan munosabatlar




Soliq huquqi munosabatlari shartli ravishda quyidagilarga bo'lish ham mumkin: a) vertikal soliq huquqiy munosabatlari – soliq huquqi tartibga solishning mohiyatini ifoda etib, boshqaruv subyekt va obyekti o'rtasidagi subordinatsiyaviy aloqalarni anglatadi. Vertikal soliq huquqi munosabatlari aynan hokimiyat munosabatlaridir. Mazkur munosabatlar bo'ysunuv mavjud bo'lgan tomonlar o'rtasida vujudga keladi hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farq qilgan holda, ularda tomonlarning tengligi mavjud emas. Vertikallik deganda – bir tomonda yuridikhokimiyat vakolatlari mavjudligini, ikkinchi tomonda esa bunday vakolatlarning mavjud emasligini yoki vakolat doirasi torroq ekanligi tushunish lozim. Soliq solish sohasida soliq huquqi munosabatlarning vertikaligini anglatuvchi quyidagi xususiyatlarni ko'rsatib o'tish mumkin: - vertikal munosabatlarning asosiy ko'rsatkichi hisoblangan – “tomonlar tengsizligi”ning mavjudligi; boshqaruv subyektida yuridikhokimiyat vakolatlarining mavjudligi; - tomonlarning tengsizligi bir tomoning ikkinchi tomonga bo'ysinishi, ya'ni “hokimiyat - bo'ysinuv”ga asoslanishi; - soliq huquqi munosabatlarida bo'ysunuv hamma vaqt ham aniq namoyon bo'lmaydi; - vertikal xususiyatdagi aksariyat soliq huquqi munosabatlari bo'ysinuv mavjud bo'lmagan tomonlar o'rtasida ham vujudga kelishi mumkin. Lekin bu holda ham, bir tomon o'z vakolati doirasida o'ziga bo'ysunmagan ikkinchi tomon uchun majburiy bo'lgan huquqiy akti qabul qilishi mumkin; - soliq solish sohasida kontrol-nazorat faoliyati keng doirada amalga oshirilib, uning subyektlari sifatida davlat organlari (mansabdor shaxslar)ning o'zi namoyon bo'ladi. Demak, vertikal soliq huquqi munosabatlari turli ko'rinishlarga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv ta'sirini amalga oshirish hamda bir tomon yuridik-hokimiyat irodasining ustunligi bilan ifodalanadi. (Masalan, soliq xizmati organi bilan soliq to'lovchi o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar). b) Gorizental soliq huquqi munosabatlarida bir tomonning ikkinchi tomonga nisbatan yuridik-hokimiyat irodasining ustunligi mavjud emas. Ma'lum bir ma'noda, gorizental soliq huquqi munosabatlarida tomonlar teng hisoblanadi. Gorizental soliq huquqi munosabatlari vertikal soliq huquqi munosabatlari singari ko'p tarqalgan emas. Chunki ular qaysidir ma'noda soliq huquqi tartibga solish doirasidan chetga qolgan. Lekin soliq solish sohasida bunday munosabatlarning vujudga kelishi mumkin. Bu birinchidan, tomonlar

o'rtasida bo'ysunuvning mavjud emasligi, tomonlarning bir xildagi huquqiy darajaga ega ekanligi, yuridik tenglikning formal emas, balki haqiqatda mavjud bo'lishi; ikkinchidan, boshqaruv munosabatlarida bu ikkala xususiyat (bo'ysunuvning mavjud emasligi va yuridik tenglik)ning bir vaqtda mavjud bo'lishi; uchinchidan, bir tomonning ikkinchi tomonga qaratilgan yuridik-hokimiyat irodasining bo'lmasligi. Masalan, Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, ya'ni soliqlarni yg'ib olish yuzasidan ma'lum bir ko'rsatma, nizom va boshqa qonun osti hujjatalarini birga qabul qilishi.




Ko'pgina yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabatlarning moddiy va protsessual turlarga bo'linishi ham ko'rsatib o'tilgan. Moddiy huquqiy munosabatlar – bu moddiy soliq huquqi normalari asosida vujudga keladigan hamda huquq subyektlari tomonidan huquq va majburiyatlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir. Protsessual huquqiy munosabatlar – davlat-hokimiyat xususiyatiga ega bo'lib, huquqiy munosabat subyektlarining protsessual huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi.



## 2. Soliq majburiyati tushunchasi va amalga oshirish tartibi.

Amaldagi qonunchiligimizda soliq to'lovchining majburiyati va soliq majburiyati kabi tushunchalar mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi; qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi; davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi; soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga



soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi; davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart. Yuqorida ko'rinib turibdiki, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish – bu soliq to'lovchining majburiyati hisoblanadi.

**Soliq majburiyati** – soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatidir.

Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi: Soliq kodeksida belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi; soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi; moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart. Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi. Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan

bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi. Mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo'lgan soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin. Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash choralari qo'llaniladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari bajarilishini ta'minlash choralari jumlasiga davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to'lovchiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati tugaganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmasdan, jismoniy shaxslarga, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarga esa, o'ttiz kundan kechiktirmasdan yuboriladigan, soliq to'lovchi majburiyatini bajarishi zarurligi hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko'riladigan choralar to'g'risidagi talabnoma kiradi. Soliq majburiyati Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi kerak. Soliq to'lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun) o'tishi bilan belgilanadi. Muddatning o'tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo'yilgan voqea yuz berganidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so'nggi kuni soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi kerak. Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi. Jismoniy shaxsning soliq majburiyati uning vafot etishi bilan va uni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan tugatiladi. Yuridik shaxsning soliq majburiyati esa u tugatilganidan keyin hamda u qo'shib olish (qo'shib olingan yuridik shaxsga nisbatan), qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin tugatiladi. Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin. Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli. Masalan soliq to'lovchi ayrim soliq turlarini, jumladan amalda ko'p uchraydigan mol-mulk yoki yer solig'ini ko'p to'lab yuborgan va bu haqda soliq davri tugagandan so'ng oradan 4 yil o'tib, ma'lum bir holat tufayli aniqlab qolgan. Shunday holatda soliq to'lovchi shu davr mobaynida ortiqcha to'lagan soliqlarini qaytarib olishi mumkin. Yoki soliq organlariga ma'lum soliq to'lovchi bir necha yildan beri soliq to'lamaganligi aniqlanganda soliq organlari soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichidagi soliqlarni undirib olishi mumkin.

**3. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning hisobini yuritish.** Soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha soliq solish obyekti hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlar soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadi. Soliq to'lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo'qotilgan yoki yo'q qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini soliq to'lovchi to'g'risida, shuningdek shunga o'xshash boshqa soliq to'lovchilar to'g'risida o'zlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda hisob-kitob qilish orqali aniqlashi mumkin. 67 Soliq kodeksida soliq solishning turli tartibi nazarda tutilgan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritishlari shart. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida yuritiladi.



Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli orqali yuritilishi mumkin. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobini yuritish usuli yuridik shaxsning butun kalendar yilga mo'ljallangan hisob siyosati bilan belgilanadi hamda yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas. Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar realizatsiya qilishdan olingan sof tushumning umumiy summasidagi faoliyatning muayyan turlari bo'yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi. To'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli qo'llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lsa, shu turga kiritiladi. Bunda faoliyatning biron turiga kiritish mumkin bo'lmagan daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.

**Soliq hisoboti.** Soliq hisoboti soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisobkitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjatidir.

Hisobot O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi. Soliq hisoboti qog'ozda va elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi. Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u kichik 68 tadbirkorlik subyekti bo'lmagan yuridik shaxs bo'lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to'lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxs – soliq to'lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to'lovchiga soliq davri boshlanganidan e'tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo'lgan davr yuzasidan tegishincha topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoxud tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Mazkur hisobot topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi tasdiqlangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi. Ushbu qismning qoidalari o'zgartirish, shuningdek boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan to yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo'lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuziladi. Soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik soliq to'lovchining zimmasiga yuklatiladi. Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Soliq hisoboti soliq to'lovchi hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdagi soliqlar bo'yicha soliq hisoboti ham Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda obyektlar bo'yicha hisobga qo'yilgan joy bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi. Tadbirkorlik sub'ekilari uchun qulaylik tug'dirish maqsadida tadbirkorlik sub'ekilari uchun soliq hisobotlarini faqat elektron shaklda taqdim etilish bo'yicha qoida joriy qilingan. Masalan, Jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar, yuridik shaxslar yer solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha soliq hisobotini esa obyektlar joylashgan joyda hisobga qo'yilgan joy bo'yicha taqdim etadilar. Soliq hisoboti davlat soliq xizmati organlarida va soliq to'lovchida Soliq kodeksida belgilangan soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati mobaynida saqlanadi.

## 5- Mavzu. Soliq tizimini boshqarishdagi davlatning vakolatli o'rganlari

### Reja:

1. Davlat boshqaruv organi tushunchasi va uning huquqiy holati. Davlat organlari tizimida davlat boshqaruv organlarini tutgan urni.

2. Davlat boshqaruv organlarining tizimi. Davlat boshqaruvining markaziy va mahalliy organlari.

3. Soliq tizimini boshqarish tushunchasi, soliq sohasini boshqarishdagi vakolatli davlat organlar va ularning vazifalari

**Tayanch so'z va iboralar:** aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad, aksiyalar nominal qiymati, ijara (lizing) obyektining qiymatini, egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari bo'la oladigan moddiy obyektlar, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari, ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi, qo'shimcha aksiyalar qiymati, qo'shimcha aksiyalar qiymati oshishi tarzida olingan daromadlar, ulushlar, paylar, hissalar, ijara (lizing) to'lovi summasi.

### 1. Davlat boshqaruv organi tushunchasi va uning huquqiy holati. Davlat organlari tizimida davlat boshqaruv organlarini tutgan urni.

Davlat – ўз ҳокимиятини амалга ошириш имконини берувчи ташкилий-моддий кучга, я'ни давлат механизмига егадир. Механизм давлатнинг нимадан ташкил топганлигини кўрсатувчи таркибий ва предметли ифодасидир. *Давлат механизми* - давлат органлари ва бошқа ташкилотларининг давлат ҳокимиятини, вазифа ва функцияларини амалга оширишнинг яхлит иерархик, яхни бўйсинувга асосланган тизимидир.

Давлат механизмининг бошланғич ва асосий таркибий элементларидан бири – бу давлат органларидир. *Давлат органлари* - давлат функцияларини амалга оширадиган ва ҳокимият ваколатига ега бўлган давлат механизмининг бўғинидир.

Давлат ва ҳуқуқ назарияси фанига кўра, давлат органларининг мазмун-моҳиятини очиб берувчи хусусиятларга қуйидагилар киради:

1) *давлат органи* – давлат механизмининг бир бўлаги сифатида, маълум бир мустақилликка (автономияга) егадир. Давлат органлари давлат механизмида ўз ўрнига ега бўлиб, унинг бошқа қисмлари билан ўзаро алоқада бўлади;

2) *давлат органи* – турли муносабатларда давлат номидан ҳаракат қилувчи хизматчилардан иборат бўлади. Айнан давлат хизматчиларининг ҳаракатларида у ёки бу давлат органининг фаолияти намоён бўлади;

3) *давлат органлари* ички таркибий тузилмага егадир, яхни улар ягона мақсад атрофида бирлашган бўлинмалардан иборат бўлади;

4) *давлат органлари* маълум бир ҳажм ва моҳиятга ега бўлган давлат-ҳокимият ваколатига егадир;

5) *давлат органларининг* функцияларини – давлат томонидан молиявий маблағ ажратиш орқали тахминланади;

6) *давлат органлари* – давлатнинг вазифа ва функцияларини амалга ошириш учун, маълум бир шакл ва услублардан фойдаланади.

Давлат органи ўзининг моҳиятига кўра қандайдир ташкилотни, фуқароларнинг жамоасини англатади. Бундай фуқароларнинг жамоаси давлат фаолиятининг у ёки бу турини амалга ошириш учун давлат томонидан ташкил етилади.

Давлат ўз органларини бевосита ташкил этади ёки уларни ташкил этиш тартибини белгилайди, уларнинг функцияларининг асосий қоидаларини ўрнатади, давлат номидан ва давлат манфаатини кўзлаб ҳаракат қилиши учун уларга маълум бир ваколатларни бериб қўяди.

Давлат органларининг барчаси, ягоналикда - *давлат аппарати*ни ташкил этади. Давлат аппарати орқали давлат олдида турган вазифа ва функциялар амалга оширилади.

Давлат – фуқароларнинг сиёсий ташкилоти бўлганлиги сабабли, ташкил қилинадиган давлат органлари ҳокимият ваколатига ега бўлади.

Турли ҳуқуқ соҳалари мутахассисларининг давлат органлари ва хусусан давлат бошқаруви органлари тушунчаси, мазмуни ва аҳамияти муаммоларига бағишланган кўпдан-кўп илмий изланишлари мавжуддир. 90-йилларнинг бошларидан, яхни собиқ Иттифоқнинг парчаланиши, янги давлат тузилмаларининг шаклланиши ва ривожланиши билан, бу муаммога бўлган эҳтибор янада кучайиб борди. Бу айниқса давлатлар томонидан Асосий қонуннинг ишлаб чиқилиши ва қабул қилиниши билан янада жонланди.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси асосида давлат ҳокимиятининг бўлиниши принципининг ўрнатилиши билан, давлатнинг – қонун чиқарувчи, ижро етувчи ва суд ҳокимияти органларига бўлиниши мустақамланди.

Аксарият “Маъмурий ҳуқуқ” дарсликларига маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг субъекти сифатида ижро ҳокимияти органлари кўрсатиб ўтилади.

Ижро ҳокимияти органлари - давлат аппаратининг бир бўғини бўлиб, давлатнинг вазифа ва функцияларини амалга ошириш мақсадида ташкил этиладиган ҳамда давлат-ҳокимият ваколатларига ега бўлган сиёсий ташкилотдир.

Ижро ҳокимияти органлари – қонунлар ва бошқа норматив ҳужжатларни ижро этиш ва ижросини тахминлаш мақсадида давлат томонидан ташкил этиладиган, бошқарув ҳаракатларининг махсус шакл ва услубларидан фойдаланиб, давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида бошқарув функцияларини амалга оширадиган, тегишли тузилишга, компетенцияга, давлат-ҳокимият ваколатларига ва давлат хизматчилари штатларига ега бўлган ташкилотдир.

Ижро ҳокимияти органларининг тушунчаси ҳокимият бўлиниши принципидан келиб чиқади, унинг мазмуни еса – ижро ҳокимиятининг хусусиятлари билан белгиланади.

Ю.М.Козловнинг фикрича, ижро ҳокимияти органлари – мазкур давлат ҳокимиятини амалга оширувчи асосий субъект бўлиб, унинг иштирокисиз давлат-бошқарув фаолиятини рўёбга чиқариш, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларни вужудга келтириш мумкин эмас. Бундан ташқари, маъмурий ҳуқуқ бошқа субъектларининг маъмурий ҳуқуқий ҳолати, айнан мана шу давлат органларининг фаолиятида намоён бўлади.<sup>12</sup>

Ижро ҳокимияти органи, Б.Н.Габричидзенинг фикрича, ижро ҳокимияти механизми (тизими)нинг таркибий қисми бўлиб, ижро ҳокимияти соҳасида давлат кўрсатмасига кўра ва давлат номидан ҳаракат қилади; ижро этиш ва фармойиш бериш хусусиятидаги фаолиятни амалга оширади; ўзининг компетенциясига ега; ўзининг тузилишига ега; фаолиятнинг ўзига хос бўлган шакллари ва услубларини қўллайди.

Ижро ҳокимияти органлари – давлатнинг ижро ҳокимияти амалга оширилишини тахминлайди. Мазкур органлар мазмуни ва услубларига кўра, ўзига хос бўлган давлат фаолиятини – *давлат бошқарувини* амалга оширадилар.

Ижро ҳокимияти органлари ўзининг *давлат-ҳуқуқий табиати*га кўра, ўзини ўзи бошқариш органларидан, *функционал аҳамияти*га кўра еса, давлат ҳокимиятининг бошқа органларидан, шунингдек, давлат корхона ва муассасаларидан фарқланади.

Ижро ҳокимияти органлари – ҳуқуқий актлар билан белгиланган ваколат доирасида, маълум бир тартибда ва ўрнатилган ҳуқуқий шаклларда ҳаракат қилишлари мумкин.

---

<sup>12</sup> Козлов Ю.М. Административное право: Учебник. – 2-йе изд., перераб. и доп. – М.: Юрист', 2003. 75-80-б.лар

Ижро ҳокимияти органлари ҳуқуқий ҳолатининг муҳим хусусиятларидан бири – бу улар фаолиятининг қонуности хусусиятига ега эканлигидадир. Улар ўз фаолиятларида Конституция ва қонунларнинг талабларига қатъий риоя қилишлари, бажаришлари ва ўз ваколатлари доирасида уларнинг бошқалар томонидан бажарилишига кўмаклашишлари лозим.

Демак, **ижро ҳокимияти органи** – бу ҳокимият бўлиниши принципига асосланиб, давлат томонидан жамиятнинг хўжалик, ижтимоий-маданий ва маъмурий-сиёсий ҳаётининг турли соҳаларида ижро етиш ва фармойиш бериш фаолиятини амалга ошириш юклатилган ҳамда маълум бир давлат-ҳокимият ваколатига ега бўлган давлат ҳокимияти механизмининг бўғини ҳисобланади.

Юридик адабиётларда, ижро ҳокимияти органлари тизимини ташкил етиш ва улар фаолиятининг асосий принциплари турлича кўрсатиб ўтилган.

Мазкур принцип ижро ҳокимияти органларини ташкил етишда ва улар фаолиятини амалга оширишда, давлат бошқарув фаолиятининг муҳим масалаларини ҳал етишда жамоа фикрининг ҳисобга олинишини таҳминлайди. Шу мақсадда, ижро ҳокимияти органлари тизимида турли хилдаги маслаҳат, мувофиқлаштирувчи кенгаш ва ҳайҳатлар ташкил етилади. Масалан, Ўзбекистон Республикасида деярли барча вазирликлар ва давлат кўмиталари тизимида Кенгаш ва Ҳайҳатлар фаолият кўрсатади.

Шу билан бирга ижро ҳокимияти органлари фаолиятида яккабошчилик ҳам мавжуддир. Яккабошчилик - ижро етиш ва фармойиш бериш фаолиятини амалга оширишда, шунингдек, тегишли бошқарув тартибини ўрнатишда зарур бўлган интизомни таҳминлашга хизмат қилади.

Коллегиаллик – бошқарув қарорларини қабул қилишда фойдалидир, яккабошчилик еса – давлат-бошқарув фаолиятининг ажралмас белгисидир.

Ижро ҳокимияти органларини ташкил етиш ва улар фаолиятининг асосий принципларига *халқ ҳокимиятчилиги, ошкоралик, инсонлар ва фуқаролар ҳуқуқлари ва еркинликларини таҳминлаш, жавобгарлик* каби принципларни ҳам киритишимиз мумкин.

Ижро ҳокимияти органларининг турли даражаларда ташкил етилиши сабабли ва фаолиятининг кенг қамровли хусусиятга ега эканлигини инобатга оладиган бўлсак, уларни бир неча асосларга қараб гуруҳларга ажратиш, яҳни таснифлаш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига асосланиб, ижро ҳокимияти органларини қуйидаги турларга бўлиш мумкин:

1) **фаолиятининг ҳудудий доирасига кўра** ижро ҳокимияти органлари уч гуруҳга бўлинади:

а) *олий ижро ҳокимияти органи* (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси);

б) *марказий ижро ҳокимияти органлари* (бунга республика миқёсида фаолият кўрсатувчи вазирликлар, давлат кўмиталари, корпоратсия, ассотсиатсия, компания ва бошқалар);

с) *маҳаллий ижро ҳокимияти органлари* (марказий ижро ҳокимияти органларининг бошқарма ва бўлимларини, ҳоким бошчилик қиладиган ижроия аппаратни киритиш мумкин);

2) **ташкил етиш асосларига кўра** ижро ҳокимияти органлари қуйидагиларга бўлинади:

а) *Ўзбекистон Республикаси Конституцияси асосида ташкил етиладиган органлар* (масалан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси);

б) *Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари асосида ташкил етиладиган органлар* (масалан, вазирликлар, давлат кўмиталари).

Баҳзи адабиётларда<sup>13</sup>, ижро ҳокимияти органларининг ташкил етилишига кўра бўлиниши қуйидагича кўрсатиб ўтилган:

- *Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан ташкил етиладиган давлат органлари*. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 93-моддасига кўра, Президент ижро

<sup>13</sup> Қаранг: Худойбердийева В., Ҳожийев Е.Т. Ма'мурий ҳуқуқ. О'қув қўлланма. Тошкент, 2000.

етувчи ҳокимият девонини тузади ва унга раҳбарлик қилади; республика олий ҳокимият ва бошқарув органларининг баҳамжихат ишлашини тахминлайди; вазирликлар, давлат қўмиталари ҳамда давлат бошқарувининг бошқа органларини тузади ва тугатади;

- *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан ташкил этиладиган давлат органлари.* “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида”ги қонун<sup>14</sup>га биноан Вазирлар Маҳкамаси ўзи ташкил қиладиган хўжалик бошқаруви органлари тизимига бошчилик қилади;

- *вазирликлар, давлат қўмиталари ва хўжалик бошқаруви органлари (корпоратсия, ассотсиатсия, компания ва бошқалар) томонидан ташкил этиладиган давлат органлари.* Амалдаги қонунчиликка биноан, марказий давлат органларига ўзларининг олдида турган вазифа ва функциялардан келиб чиққан ҳолда, маълум бир тузилмаларни, масалан, бошқарма, бўлим ва бошқа бирликларини ташкил этишлари мумкин;

- *маҳаллий органлар томонидан ташкил қилинадиган органлар.* Ўзбекистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонуни<sup>15</sup>дан келиб чиқадиган бўлсак, маҳаллий ҳокимият органлари ўз тузилмаларида турли хилдаги органларни, комиссияларни ташкил этишлари мумкин;

3) ***ижро ҳокимияти органлари ваколатларининг ҳажми ва хусусиятига кўра***, улар қуйидагиларга бўлиниши мумкин:

а) *умумий ваколатли давлат органлари.* Бу гуруҳ давлат органларига - Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамаси ва ҳокимларни киритиш мумкин. Бу давлат органлари, ваколат доирасида, барча соҳаларга тааллуқли бўлган қарорларни қабул қилишлари мумкин. Масалан, амалдаги қонунчиликда, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг иқтисодий, ижтимоий-маданий жараёнларни бошқариши кўрсатиб ўтилган бўлиб, унинг ваколоти мана шу соҳалар доирасида амалга оширилади;

б) *соҳавий ваколатга ега бўлган давлат органлари.*

Бу давлат органларини икки гуруҳга бўлиш мумкин: биринчидан, *бир соҳа бўйича ваколатли давлат органлари* - бу органлар ўз фаолиятини аниқ бир соҳа бўйича амалга оширади; иккинчидан, *соҳалараро ваколатли давлат органлари* - бу органлар бир неча соҳалар бўйича ҳаракат қилиш ваколатига ега бўлади.

Кўпгина юридик адабиётларда, бир соҳа бўйича ҳаракат қилувчи давлат органларига – вазирликлар, соҳалараро ваколатли давлат органларига – давлат қўмиталари киритилган.

Лекин ҳозирги шароитда вазирликларнинг - соҳалараро ҳаракатини, давлат қўмиталарининг еса – бир соҳа бўйича ҳаракатланишини кузатиш мумкин.

Бундан ташқари, юридик адабиётларда *махсус ваколатга ега бўлган давлат органлари* ҳам, кўрсатиб ўтилган.

Ўзбекистон Республикаси қонунчилигидан келиб чиқадиган бўлсак, ижро ҳокимияти органлари ваколатининг хусусиятига кўра, уларни махсус ваколатли органларга бўлиш мумкин. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги кўпгина давлат органлари (инспекциялар ва бошқа давлат идорлари) махсус ваколатларга егадир;

4) ижро ҳокимияти органлари ***ташкилий-ҳуқуқий шаклига кўра*** қуйидагиларга бўлинади: *Ҳукумат* (Вазирлар Маҳкамаси); *вазирликлар*; *давлат қўмиталари*; *агентликлар*; *қўмиталар*; *комиссиялар*; *марказлар*; *давлат акционерлик компаниялари*; *давлат уюшмалари*; *давлат корпоратсиялари*; *давлат ассотсиатсиялари*; *департаментлар*; *инспекциялар* ва *бошқалар*;

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 №9-10, 138-м.

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993, №9, 320-м.

5) *ижро ҳокимияти органларида раҳбарликни амалга ошириш шаклига кўра* улар қуйидагиларга бўлинади: а) *яккабошчиликка асосланган органлар*; б) *коллегиал органлар*; с) *яккабошчилик ва коллегиал раҳбарлик уйғунлашган (яъни аралаш шаклдаги) органлар*.

Ўзбекистон Республикасида аксарият ижро ҳокимияти органларида яккабошчилик билан коллегиал раҳбарликнинг уйғунлашганлигини кўриш мумкин;

б) *маблағ билан тахминланишига кўра* ижро ҳокимияти органлари иккига бўлинади:

а) *давлат ва маҳаллий бюджет маблағларидан молиялаштириладиган органлар*. Мазкур давлат органлари ишлаб чиқариш ёки моддий бойликларнинг муомаласи билан бевосита боғлиқ бўлмай, мулкий мустақилликка ега эмас; уларнинг мажбуриятлари учун давлат жавобгардир;

б) *хўжалик ҳисобидаги органлар*. Ушбу давлат органлари мулкий мустақилликка ега бўлиб, асосий ва муомала воситаларига ега; ўз мажбуриятлари бўйича ўзларининг мулки билан бевосита жавобгар бўладилар; уларнинг фаолияти моддий бойликларни ишлаб чиқариш, пулли хизматлар кўрсатиш билан боғлиқдир.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳуқуқий мақоми Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва 2003 йил 29 августда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида»ги қонуни<sup>16</sup> билан тартибга солингандир.

Қонунга биноан *Ўзбекистон Республикасининг Вазирлар Маҳкамаси* – Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати, Ўзбекистон Республикасида иқтисодиётнинг, ижтимоий ва маҳнавий соҳанинг самарали фаолиятига раҳбарликни, Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишлари ижросини тахминловчи ижро етувчи ҳокимият органидир.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси давлат бошқаруви органлари тизими ва ўзи ташкил этадиган хўжалик бошқаруви органлари тизими бошчилик қилади, уларнинг ҳамжиҳатлик билан фаолият кўрсатишини тахминлайди.

Вазирлар Маҳкамаси ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси олдида жавобгардир.

Вазирлар Маҳкамаси қонунчилик ташаббуси ҳуқуқига ега.

*Вазирлар Маҳкамаси ўз фаолиятида:*

- коллегиаллик;

- демократия ва қонунийлик;

- Ўзбекистон Республикасида яшовчи барча миллат ва елатларнинг манфаатларини ҳисобга олиш принципларига асосланади.

Вазирлар Маҳкамаси таркибига Ўзбекистон Республикаси Бош вазири, унинг ўринбосарлари, вазирлар, давлат кўмиталарининг раислари қирадилар. Қорақалпоғистон Республикаси ҳукуматининг бошлиғи ўз лавозими бўйича Вазирлар Маҳкамаси таркибига қиради.

Вазирлар Маҳкамасининг таркиби Ўзбекистон Республикасининг Президенти томонидан шакллантирилади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Бош вазир номзодини кўриб чиқиш ва тасдиқлаш учун Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталарига тақдим этади ҳамда уни вазифасидан озод қилади.

Вазирлар Маҳкамасининг аҳзоларини Бош вазир тақдими билан биноан Ўзбекистон Республикаси Президенти тасдиқлайди ва вазифасидан озод қилади.

Вазирлар Маҳкамаси янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси олдида ўз ваколатларини зиммасидан соқит қилади.

*Вазирлар Маҳкамаси ўз ваколатлари доирасида:*

---

<sup>16</sup> О'збекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 №9-10, 138-м.

иктисодий, ижтимоий-маданий жараёнларни бошқаради, мулкчиликнинг барча шакллари уйғунлаштириш ва уларнинг тенглиги, иқтисодиётни монополиялаштиришдан чиқариш, бозор иқтисодиётининг ҳуқуқий механизмини ишга солиш асосида еркин тадбиркорлик учун шарт-шароитлар яратади;

хўжалик юритишнинг янги шакллари - консернлар, консорсиумлар, тармоқлараро бирлашмалар, турли уюшмалар ва бошқа шунга ўхшаш ташкилотларни барпо этишга ва мустаҳкамлашга ёрдамлашади, иқтисодиётни ривожлантириш ва аҳоли талаб-ехтиёжларини қондириш заруриятидан келиб чиққан ҳолда улар фаолиятини ёнгалтиради ва мувофиқлаштиради;

Ўзбекистон Республикасида пул ва кредит тизимини мустаҳкамлаш чора-тадбирларини амалга оширишга кўмаклашади, ягона нарх сиёсатини ўтказиш, меҳнатга ҳақ тўлаш миқдорининг белгиланган кафолатларини ҳамда ижтимоий тахминот даражасини тахминлаш чора-тадбирларини ишлаб чиқади ва амалга оширади;

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетини, шунингдек, Ўзбекистон Республикасини иқтисодий ва ижтимоий ривожлантириш истиқбол кўрсаткичларини ва енг муҳим дастурларини ишлаб чиқишни ҳамда уларнинг ижросини ташкил етади;

бошқарув тузилмасини такомиллаштириш тўғрисида, вазирликлар, давлат кўмиталари, идоралар ҳамда Ўзбекистон Республикаси давлат ва хўжалик бошқарувининг бошқа органларини тузиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш тўғрисида таклифлар ишлаб чиқади;

фан ва техникани ривожлантириш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш чора-тадбирларини амалга оширади;

фуқароларнинг ҳуқуқ ва еркинликларини, уларнинг меҳнат қилишга, ижтимоий ва ҳуқуқий ҳимояланишга бўлган ҳуқуқларини тахминлаш ҳамда ҳимоя қилиш чора-тадбирларини кўради, ижтимоий тахминот тизимини такомиллаштиради;

соғлиқни сақлаш, халқ таълимини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг асосий ёналишларини белгилайди, маданиятни ривожлантиришга кўмаклашади;

Ўзбекистон Республикасининг давлат хавфсизлиги ва мудофаа қобилятини, давлат чегаралари қўриқланишини тахминлаш, давлат манфаатларини ҳимоя қилиш, жамоат тартибини сақлаш чора-тадбирларини амалга оширишга ёрдамлашади;

давлат бошқаруви органларининг табиатни муҳофаза қилиш тадбирларини биргаликда ўтказиш ҳамда республика ва халқаро аҳамиятга молик йирик экологик дастурларни амалга ошириш борасидаги ишларини мувофиқлаштиради, йирик авариялар ва фалокатларнинг, шунингдек, табиий офатларнинг оқибатларини тугатиш чора-тадбирларини кўради;

Ўзбекистон Республикасининг хорижий давлатлар ва халқаро ташкилотлардаги вакилликни тахминлайди, ҳуқуматлараро шартнома ва битимлар тузади, уларни бажариш чора-тадбирларини кўради;

ташқи иқтисодий фаолият, илмий-техникавий ва маданий ҳамкорлик соҳасида раҳбарликни амалга оширади.

Вазирлар Маҳкамаси вазирликлар, давлат кўмиталари, идоралар ҳамда давлат ва хўжалик бошқарувининг бошқа органлари ишини мувофиқлаштириб ҳамда ёнгалтириб боради.

Вазирликлар, давлат кўмиталари, идоралар ҳамда давлат бошқарувининг бошқа органлари ҳақидаги низомлар Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

Вазирлар Маҳкамаси вазирликлар, давлат кўмиталари, идоралар ҳамда Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ҳисобидан тахминланадиган давлат бошқаруви бошқа органларининг марказий девони ходимлари сонини ва улар тахминотига ажратиладиган маблағлар миқдорини белгилайди.

Вазирларнинг ўринбосарлари, давлат кўмиталари раисларининг ўринбосарлари ҳамда давлат бошқаруви бошқа органларининг раҳбарлари ва уларнинг ўринбосарлари Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод этилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти билан келишилган ҳолда Вазирлар Маҳкамаси Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати томонидан ташкил етиладиган хўжалик бошқаруви органларининг раҳбарларини ҳамда уларнинг бошқарувларининг аҳзоларини, шунингдек, вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар хайҳатларининг аҳзоларини тасдиқлайди.

Вазирлар Маҳкамаси зарурат бўлганда ўз ваколатига кирувчи давлат бошқарувининг айрим масалаларини ҳал етишни, агар бу масалаларнинг ҳал етилиши қонун ҳужжатларида Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг мутлақ ваколатларига киритилган бўлмаса, вазирликлар, давлат қўмиталари ва ўз бўйсинувидаги давлат бошқаруви бошқа органларига бериши мумкин.

Вазирлар Маҳкамаси вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар ва давлат бошқаруви бошқа органларининг фаолияти устидан назоратни амалга оширади.

Вазирлар Маҳкамаси вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар ҳамда давлат ва хўжалик бошқаруви бошқа органларининг ҳужжатлари амалдаги қонун ҳужжатларига зид бўлган ҳолларда уларни бекор қилиш ҳуқуқига ега.

Янги шакллантирилган Вазирлар Маҳкамаси Ўзбекистон Республикаси Президенти билан келишилган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига кўриб чиқиш учун ўз ваколатлари давридаги фаолияти дастурини тақдим етади.

Вазирлар Маҳкамаси Ўзбекистон Республикасини иқтисодий ва ижтимоий ривожлантиришнинг асосий еналишларини, Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетининг асосий кўрсаткичларини ва унга киритиладиган ўзгартишларни ишлаб чиқади ҳамда уларни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси кўриб чиқиши учун тақдим етади.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталари Вазирлар Маҳкамаси муайян аҳсосининг ўзи раҳбарлик қилаётган давлат ёки хўжалик бошқаруви органи фаолияти масалалари юзасидан ахборотини ешитишлари ҳамда зарур бўлганда уни истехфога чиқариш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти кўриб чиқиши учун таклиф киритишлари мумкин.

Вазирлар Маҳкамасининг аҳзолари Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари мажлисларида, палаталарнинг қўмиталари мажлисларида ҳозир бўлиш ва ахборот беришга ҳақли.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси депутатлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати аҳзолари томонидан Вазирлар Маҳкамаси ёки унинг муайян аҳзолари фаолиятига тааллуқли масалалар қўйилган тақдирда, Бош вазир шу масалалар юзасидан зарур тушунтиришлар олиш ва тушунтиришлар беришга ҳақли.

Вазирлар Маҳкамаси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари қўмиталарининг Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати фаолияти масалаларига доир тавсиялари ва таклифларини кўриб чиқади ҳамда улар юзасидан чора-тадбирлар кўради. Тавсиялар ва таклифларни кўриб чиқиш натижалари ҳақида ҳамда кўрилган чора-тадбирлар тўғрисида Вазирлар Маҳкамаси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг тегишли қўмиталарига келишилган муддатда маҳлум қилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасидан, Қонунчилик палатаси депутатидан, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенатидан, Сенат аҳсосидан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ёки унга бўйсинувчи давлат ёхуд хўжалик бошқаруви органларининг фаолиятига доир парламент сўрови олган Вазирлар Маҳкамаси ёхуд Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати аҳсоси қонун билан белгиланган муддатларда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси тегишли палаталарининг мажлисларида оғзаки ёки ёзма жавоб бериши шарт.

Вазирлар Маҳкамаси:



Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши билан ўзаро ҳамкорлик қилади, унинг Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ҳамда Олий Мажлис палаталарининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишлари ҳамда хўжалик ва ижтимоий-маданий қурилиш масалаларига доир бошқа ҳужжатлар қандай бажарилаётганлиги ҳақидаги маълумотларини ешитади;

Вазирлар Маҳкамасининг ваколатига кирувчи масалалар бўйича Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг таклифларини кўриб чиқади;

вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар ҳамда давлат ва хўжалик бошқарувининг бошқа органлари томонидан тармоқлараро ва минтақавий ўта муҳим комплекс дастурларни амалга оширишда Қорақалпоғистон Республикаси ҳуқуқларига риоя этилишини тахминлайди, бунда чиқиб қоладиган баҳсли масалаларни ҳал этади;

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига, Ўзбекистон Республикаси қонунларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишларига ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг қарорларига зид бўлган қарорлари ва фармойишларининг ижро этилишини ўз ваколати доирасида тўхтатиб қўйиш ҳуқуқига ега.

Қорақалпоғистон Республикасини иқтисодий, ижтимоий-маданий ривожлантиришга, табиий ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилишга тааллуқли масалалар Вазирлар Маҳкамаси томонидан ҳал этилаётганда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг фикри ҳисобга олинади.

Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг Доимий ваколатхонаси бўлади.

Вазирлар Маҳкамаси ўз ваколатлари доирасида:

худудларнинг иқтисодий ва ижтимоий-маданий ривожлантирилишини тахминлаш билан боғлиқ масалаларда маҳаллий ижро етувчи ҳокимият органларининг фаолиятини мувофиқлаштириб боради;

вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг Вазирлар Маҳкамаси томонидан ҳал этилиши талаб қилинадиган масалаларга доир таклифларини кўриб чиқади, Вазирлар Маҳкамаси қарорлари ва фармойишларининг бажарилиш жараёнини назорат қилади, уларнинг амалга оширилиши юзасидан маҳаллий ижро етувчи ҳокимият органлари раҳбарларини таклиф қилиш ҳамда уларнинг ахборотларини ешитишга ҳақли;

вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар ҳамда давлат ва хўжалик бошқаруви бошқа органларининг вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари билан ўзаро ҳамкорлигини тахминлайди, бунда чиқиб қоладиган баҳсли масалаларни ҳал этади;

худудларни иқтисодий ва ижтимоий ривожлантиришнинг асосий кўрсаткичларини тасдиқлайди, маҳаллий ижро етувчи ҳокимият девонининг сони ва намунавий тузилмасини белгилайди;

вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг қонун ҳужжатларига зид бўлган қарорлари ва фармойишлари ижросини тўхтатиб қўйиш ҳамда уларни бекор қилишга ҳақли.

Вазирлар Маҳкамаси ўз ваколатига кирувчи масалалар юзасидан нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорлик қилади ва қонун ҳужжатларига мувофиқ уларга зарур кўмак кўрсатади.

Давлат бошқарувининг, хўжалик ва ижтимоий-маданий қурилишнинг енг муҳим масалалари Вазирлар Маҳкамасининг мажлисларида ҳал этилади. Вазирлар Маҳкамасининг мажлислари йилнинг ҳар чорагида камида бир марта ўтказилади. Вазирлар Маҳкамасининг мажлисларини Бош вазир ўтказди. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Вазирлар Маҳкамасининг мажлисларида раислик қилишга ҳақли.

Вазирлар Маҳкамаси қонун ҳужжатларига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида барча органлар, корхоналар, муассасалар, ташкилотлар, мансабдор шахслар ва фуқаролар томонидан бажарилиши мажбурий бўлган қарорлар ҳамда фармойишлар қабул қилади.

Вазирлар Маҳкамасининг норматив тусдаги ёки ўта муҳим аҳамиятга ега бўлган ҳужжатлари *Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари* шаклида қабул қилинади.

Вазирлар Маҳкамасининг тезкор ва бошқа жорий масалалар бўйича қарорлари *Вазирлар Маҳкамасининг фармойишлари* шаклида қабул қилинади.

Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишлари Бош вазир томонидан имзоланади.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 89-моддаси ва 93-моддасига асосланган ҳолда Вазирлар Маҳкамаси ваколатига кирувчи масалалар юзасидан қарорлар қабул қилишга, Вазирлар Маҳкамаси қарорлари ва фармойишларини ҳамда Бош вазир фармойишларини бекор қилишга ҳақли.

Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишлари, агар уларда бошқача тартиб назарда тутилган бўлмаса, имзоланган кундан бошлаб кучга киради.

Вазирлар Маҳкамаси ўзи қабул қилган қарорларнинг бажарилиши устидан бевосита ёки вазирликлар, давлат қўмиталари, идоралар ҳамда давлат ва хўжалик бошқарувининг бошқа органлари орқали назоратни амалга оширади.

Вазирлар Маҳкамасининг норматив тусдаги қарорлари Ўзбекистон Республикаси Хукумати қарорлари тўпламида е'лон қилинади, кенг оммага дарҳол етказиш зарур бўлган тақдирда еса оммавий ахборот воситалари орқали маҳлум қилинади.

## **2. Давлат бошқарув органларининг тизими. Давлат бошқарувининг марказий ва маҳаллий органлари**

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 93-моддаси 8-бандига биноан, Ўзбекистон Республикаси Президенти – ижро етувчи ҳокимият девонини тузади ва унга раҳбарлик қилади; республика олий ҳокимият ва бошқарув органларининг баҳамжихат ишлашини таҳминлайди; вазирликлар, давлат қўмиталари ҳамда давлат бошқарувининг бошқа органларини тузади ва тугатади, шу масалаларга доир фармонларни кейинчалик Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталари тасдиғига киритади.

Ҳар бир давлатда, унинг вазифалари ва функцияларини амалга оширилишини ташкил етилишига қараб, вазирликлар ва давлат қўмиталарининг турлари белгиланади.

**Вазирлик** - ижро ҳокимияти тизимининг асосий органларидан бири ҳисобланади. Вазирликлар белгиланган соҳада давлат сиёсатини ва бошқарувини амалга ошириш, шунингдек, мазкур соҳадаги ижро етувчи органларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш мақсадида ташкил етилади. Демак, вазирликнинг маъмурий-ҳуқуқий мақоми икки асосий ҳолат билан белгиланади:

*биринчидан*, вазирлик соҳавий орган сифатида фаолият кўрсатади;

*иккинчидан*, мувофиқлаштирувчи давлат органи сифатида ҳаракат қилади.<sup>17</sup>

Шуни алоҳида таҳкидлаб ўтиш лозимки, баҳзи вазирликлар азалдан мавжуд (масалан, ички ишлар, мудофаа, таълим, маданият, молия, адлия ва бошқалар), бошқалари еса маҳлум

<sup>17</sup> Административное право: учебник / Под ред. Ю.М.Козлова, Л.Л.Попова. - Москва, Юрист', 2000. 176-179-б.лар

бир ҳолатлардан ёки давлат еҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда ташкил топади (масалан, фавқулодда вазиятлар вазирлиги).

Вазирликлар – Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига бўйсинади. Вазирликларнинг баҳзи бирлари еса, бевосита Ўзбекистон Республикаси Президентига бўйсиндирилган (масалан, ички ишлар, мудофаа вазирлиги).

Вазирлик ўз фаолиятида – Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, Ўзбекистон Республикаси қонунларига, Олий Мажлисининг қарорлари ва бошқа ҳужжатларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишларига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишларига, Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига, шунингдек, ўзининг Низомига амал қилади.

Низом – Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатига олинади.

Низомда – уларнинг ҳуқуқий мақоми, фаолиятининг асосий ёналишлари, вазифалари, функциялари, ташкилий асослари ва бошқа умумий масалалар белгилаб берилади.

Вазирлик ўз ишини давлат бошқарувининг бошқа органлари, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар давлат ҳокимияти органлари ҳамда жамоат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорликда амалга оширади.

Вазирликнинг ўз ваколатлари доирасида қабул қилган қарорлари – вазирликлар, идоралар, жойлардаги ҳокимият ва бошқарув органлари, хўжалик бирлашмалари, корхоналар ва муассасалар, шунингдек, фуқаролар томонидан бажарилиши мажбурий ҳисобланади.

Вазирлик юридик шахс ҳисобланади, мустақил балансга, банк муассасаларида ҳисоб рақамларига ва бошқа ҳисоб рақамларига, Ўзбекистон Республикаси Давлат герби тасвири туширилган ва ўз номи ёзилган муҳрга, шунингдек, тегишли муҳрлар ва штампларга ега бўлади.

Вазирликка Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан лавозимга тайинладиган ва лавозимдан озод қилинадиган, кейинчалик Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан тасдиқладиган *Вазир* бошчилик қилади. Вазир Вазирликка юкланган вазифаларнинг бажарилиши учун шахсан жавоб беради.

Вазирликда - Вазир ҳайҳат раиси, лавозимига кўра вазир ўринбосарларидан, шунингдек, вазирлик ва унинг тизимининг бошқа раҳбар ходимларидан иборат таркибда *ҳайҳат* ташкил етилади.

Ҳайҳат аҳзолари, Вазир ва унинг ўринбосарларидан ташқари, Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

Ҳайҳат тасарруфидаги ташкилотлар, муассасалар ва корхоналарнинг фаолиятини такомиллаштириш, кадрларни танлаш ва уларни жой-жойига қўйиш, муҳим ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш, қабул қилинган қарорлар ижросини текширишнинг муҳим масалаларини кўриб чиқади, тасарруфидаги ташкилотлар ва муассасалар раҳбарларининг ҳисоботларини ешитади.

Ҳайҳат қарорлари Вазирнинг буйруқлари билан амалга оширилади.

Вазир билан ҳайҳат аҳзолари ўртасида келишмовчиликлар пайдо бўлган тақдирда Вазир келиб чиққан келишмовчиликлар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига ахборот берган ҳолда мустақил равишда қарор қабул қилади. Ҳайҳат аҳзолари ҳам ўз фикрини Вазирлар Маҳкамасига маълум қилишлари мумкин.

Вазирликлар зарур ҳолларда ҳамда ўз олдида турган вазифаларни бажарилишини таҳминлаш мақсадида кўшма норматив-ҳуқуқий актларни ҳам чиқаришлари мумкин.

Вазирликда илмий-техник муаммоларни кўриб чиқиш ва асослантилган қарорларни қабул қилиш мақсадида илмий-техник, маслаҳат кенгашлари, экспертизалар ва турли хилдаги комиссиялар ташкил қилиниши мумкин. Улар тўғрисидаги низомлар вазир томонидан тасдиқланади.

Вазирликлар - бош бошқарма, бошқарма, департамент, бўлим ва бошқа хилдаги ҳудудий бўлинмалардан (тузилмалардан) ташкил топган бўлиши мумкин.

**Давлат қўмитаси** - ижро ҳокимиятининг марказий органларидан бири бўлиб, коллегиялик асосида тармоқлараро мувофиқлаштиришни амалга оширади, шунингдек, фаолиятнинг маълум бир соҳасида тартибга солиш вазифасини бажаради.

Давлат қўмиталарининг вазирликлардан фарқи шундаки, биринчидан, улар коллегиялик органлар тоифасига киради; иккинчидан, улар тармоқлараро мувофиқлаштириш вазифасини бажаради.

Давлат қўмиталари вазирликлар сингари уларга юклатилган соҳаларда мувофиқлаштириш ва умумий раҳбарликни амалга оширади. Шу жиҳатидан бу иккала давлат органи бир-бирига ўхшаб кетади, яъни уларни яқинлаштиради. Амалиётда вазирликнинг давлат қўмитасига, ва аксинча, давлат қўмитасининг вазирликка айлантириш ҳолатлари учраб туради. Лекин уларнинг фарқини маъмурий-ҳуқуқий мақомини аниқлаш орқали белгилаш мумкин.

Давлат қўмиталари, вазирликлар сингари, ўз фаолиятларида – Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, Ўзбекистон Республикаси қонунларига, Олий Мажлиснинг қарорлари ва бошқа ҳужжатларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишларига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишларига, Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига, шунингдек, ўзининг Низомига амал қилади.

Давлат қўмиталарининг низомлари Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ёки Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатиغا олинади.

Давлат қўмиталари низомида – уларнинг ҳуқуқий мақоми, фаолиятининг асосий ёналишлари, вазифалари, функциялари, ташкилий асослари ва бошқа умумий масалалар белгилаб берилади.

Давлат қўмиталари ўз ишини давлат бошқарувининг бошқа органлари, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар давлат ҳокимияти органлари ҳамда жамоат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорликда амалга оширади.

Давлат қўмиталарининг ўз ваколатлари доирасида қабул қилган қарорлари – вазирликлар, идоралар, жойлардаги ҳокимият ва бошқарув органлари, хўжалик бирлашмалари, корхоналар ва муассасалар, шунингдек, фуқаролар томонидан бажарилиши мажбурий ҳисобланади.

Давлат қўмиталари – юридик шахс ҳисобланади, мустақил балансга, банк муассасаларида ҳисоб рақамларига ва бошқа ҳисоб рақамларига, Ўзбекистон Республикаси Давлат герби тасвири туширилган ва ўз номи ёзилган муҳрга, шунингдек, тегишли муҳрлар ва штампларга эга бўлади.

Давлат қўмитаси Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан лавозимга тайинланадиган ва лавозимдан озод қилинадиган, кейинчалик Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан тасдиқланадиган *Раис* томонидан бошқарилади.

Давлат қўмитасида Раис (раис) ва лавозими бўйича раис ўринбосарларидан, шунингдек, давлат қўмитасининг бошқа аҳзоларидан иборат таркибда ҳайҳат (кенгаш) ташкил етилади. Қўмита ҳайҳати (кенгаши) таркиби Раиснинг тақдимида биноан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади. Ҳайҳат (кенгаш) мажлисларида давлат қўмитаси фаолиятининг асосий масалалари кўриб чиқилади ҳамда тегишли баённомалар ва қарорлар қабул қилинади.

Давлат қўмитасида турли мутахассислардан иборат илмий-техник кенгашлар, давлат экспертизаси кенгашлари ва турли хилдаги маслаҳат кенгашлари ташкил қилиниши мумкин.

Жамият ҳаётининг барча томонларини еркинлаштириш ва ислоҳ қилишнинг ҳозирги босқичи талабларига мувофиқ иқтисодийни бошқариш тизимини янада такомиллаштириш, давлат тузилмаларининг ҳокимият ваколатларини қисқартириш, давлат ва хўжалик бошқаруви вазибаларини аниқ чегаралаб қўйиш, шунингдек, республика давлат бошқаруви органлари фаолияти самарадорлигини ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2003 йил 9 декабрда “Республика давлат бошқаруви органлари тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони қабул қилинди. Мазкур Фармонга биноан, республика давлат бошқаруви органларига – вазирликлар, давлат кўмиталари, кўмиталар, агентликлар, шунингдек, улар ҳузурида ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида ташкил етиладиган давлат бошқаруви тузилмалари киради.

*Республика давлат бошқаруви органларининг асосий вазибалари ва функциялари қуйидагилардан иборат:*

- Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари ҳамда бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар амалда рўёбга чиқарилишини, уларнинг ижроси устидан таҳсирчан назорат амалга оширилишини таҳминлаш;

- ташқи ва ички сиёсатни амалга ошириш, давлатнинг ташқи ва ички хавфсизлигини таҳминлаш;

- мамлакатни стратегик ривожлантиришнинг устувор ёналишларини белгилаш, давлатнинг мақсадли дастурларини ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалга оширишни ташкил қилиш, иқтисодий ислоҳотларни рўёбга чиқариш борасидаги чора-тадбирларни амалга ошириш;

- инсоннинг конституциявий ҳуқуқлари ва еркинликларини, аҳолининг таълим, тиббий хизмат, ижтимоий таҳминотга бўлган ҳуқуқларини таҳминлаш ва ҳимоя қилиш, меҳнат бозорини тартибга солиш, ижтимоий соҳада умумдавлат бошқарув тизими фаолиятини бошқариш ва мувофиқлаштириш;

- тегишли ҳуқуқий муҳитни яратиш, литсензиялаш, сертификатлаштириш ва стандартлаштириш орқали хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш;

- солиқлар, божхона тўловларини йиғиш, давлат даромадларини тақсимлаш ёли билан хазинага оид вазибаларни амалга ошириш.

*Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари.* Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг қарори билан 1991 йил 18 ноябрда Тошкент шаҳрида ҳокимлик лавозимининг ташкил етилиши, бу борадаги биринчи қадам бўлди.

1992 йил 4 январда еса Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши томонидан “Ўзбекистон Республикасининг маҳаллий ҳокимияти идораларини қайта ташкил етиш тўғрисида”ги қонун<sup>18</sup> қабул қилинди. Бунда бозор иқтисодиётига ўтишнинг ўзига хос шартлари еҳтиборга олиниб, аввало ижроия ҳокимиятини мустаҳкамлаш назарда тутилган еди.

Маҳаллий давлат ҳокимиятини ислоҳ қилишда – давлат курилиши борасида тарихан шаклланган миллий, анҳанавий тажрибалардан, шунингдек, хорижий мамлакатларнинг ижобий тажрибаларидан муваффақиятли фойдаланилди.

Тошкент шаҳрида, барча вилоят, туман ва шаҳарларда ҳокимлик лавозими жорий етилди ҳамда улар зиммасига вакиллик ва ижроия ҳокимиятини бошқариш масҳулияти юклатилди.

1992 йил апрелда Қорақалпоғистон Республикасида ҳам, ҳокимлик лавозимини жорий етиш борасида қонун қабул қилинди.

1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳам ҳокимлик институти мустаҳкамлаб қўйилди.

<sup>18</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Аҳборотномаси, 1992, №3, 146-м.

1993 йил 2 сентябрда еса Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонунни қабул қилди. Қонун ва қабул қилинган бошқа норматив ҳужжатлар ҳокимлик институтини амалда қўллаш учун ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилди.

Қисқа муддат ичида ҳокимлар амалий ишлари билан ўзларини, бир томондан умумдавлат, иккинчи томондан маҳаллий манфаатларни ифода етувчи, шунингдек, мамлакатда тинчлик ва барқарорлик кафолати сифатида намоён бўлди.

**Маҳаллий ҳокимият органлари** деганда – вилоят, туман, шаҳар ҳокимлари бошчилик қиладиган ижроия аппарати ва вакиллик органлари (вилоят, туман, шаҳар халқ депутатлари Кенгашлари) тушунилади.

*Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ҳуқуқий мақоми* – Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 99-104-моддалари ҳамда Ўзбекистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонуни<sup>19</sup> да назарда тутилган. Унга кўра, *маҳаллий ҳокимият органлари ихтиёрига қуйидагилар киради:*

- қонунийликни, ҳуқуқий-гартиботни ва фуқароларнинг хавфсизлигини таҳминлаш;
- ҳудудларни иқтисодий, ижтимоий ва маданий ривожлантириш; маҳаллий бюджетни шакллантириш ва уни ижро етиш, маҳаллий солиқлар, йиғимларни белгилаш, бюджетдан ташқари жамғармаларни ҳосил қилиш;
- маҳаллий коммунал хўжаликка раҳбарлик қилиш;
- атроф-муҳитни муҳофаза қилиш;
- фуқаролик ҳолати актларини қайд етишни таҳминлаш;
- норматив ҳужжатларни қабул қилиш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ва Ўзбекистон Республикаси қонунларига зид келмайдиган бошқа ваколатларни амалга ошириш.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари – Ўзбекистон Республикасининг қонунларини, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонларини, давлат ҳокимияти юқори органларининг қарорларини амалга оширадиган, республика ва маҳаллий аҳамиятга молик масалаларни муҳокама қилишда қатнашадиган.

Халқ депутатлари Кенгашлари ва ҳокимларнинг ваколат муддати - *5 йил*.

Вилоят ҳокимлари ва Тошкент шаҳри ҳокими Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан тайинланади ва лавозимидан озод қилинади ҳамда тегишли халқ депутатлари Кенгаши томонидан тасдиқланади.

Туман ва шаҳарларнинг ҳокимлари тегишли вилоят ҳокими томонидан тайинланади ва лавозимидан озод қилинади ҳамда тегишли халқ депутатлари Кенгаши томонидан тасдиқланади.

Шаҳарлардаги туманларнинг ҳокимлари тегишли шаҳар ҳокими томонидан тайинланади ва лавозимидан озод қилинади ҳамда халқ депутатлари шаҳар Кенгаши томонидан тасдиқланади.

Туманларга бўйсинадиган шаҳарларнинг ҳокимлари туман ҳокими томонидан тайинланади ва лавозимидан озод қилинади ҳамда халқ депутатлари туман Кенгаши томонидан тасдиқланади.

Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгаши ва вилоят, туман, шаҳар ҳокими тегишли ҳудудда ўзини ўзи бошқаришни ривожлантиришга кўмаклашадиган, ўзини ўзи бошқариш органларининг фаолиятини ёнгалтириб турадилар.

Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгаши ва вилоят, туман, шаҳар ҳокими берилган ваколатлари доирасида умум манфаатни ифодаловчи тадбирлар ўтказиш, қўшимча корхоналар, хўжалик ташкилотлари тузиш учун, турли тармоқлар ва бошқарув соҳаларида фаолиятларни уйғунлаштириш мақсадида Қорақалпоғистон Республикасининг, Ўзбекистон

---

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993, №9, 320-м.

Республикаси бошқа вилоятлари, шаҳарлари ва туманларининг давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари билан шартномалар асосида ўзаро муносабатлар ўрнатишга ҳақлидирлар.

Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгаши қарорлар қабул қилади.

### **3.Солиқ тизимини бошқариш тушунчаси, солиқ соҳасини бошқаришдаги ваколатли давлат органлар ва уларнинг вазифалари**

*Солиқ органларининг ҳуқуқлари.* Солиқлар бўйича ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг олдини олиш, уларни аниқлаш ва бартараф этиш кабиларнинг киритилишига замин яратилди.Ушбу вазифаларни амалга ошириш давлат солиқ хизмати органларининг мансабдор шахсларини масхулият даражасини оширишга ҳам имконият яратди. Амалдаги қонунга мувофиқ бозор иқтисодий муносабатларининг ҳозирги босқичида Давлат солиқ хизмати органлари ўз ваколатлари доирасида қуйидаги ҳуқуқларга эга, яъни:

**Солиқ** тўловчиларнинг (шу жумладан, солиқ тўловчи билан боғлиқ бўлган субъектларнинг) молиявий ҳужжатлари, шартномалари (контракт-лари) режалари, сметалари, даромадлар ҳақидаги декларациялари ва солиқларни ҳисобдан чиқариш ҳамда тўлаш билан боғлиқ бошқа ҳужжатларини текшириш, текширув вақтида юзага келадиган масалалар бўйича зарур тушунтиришлар, маълумотлар ва ахборотлар олиш;юридик ва жисмоний шахслардан солиқ тўловчиларнинг фаолиятига тааллуқли ахборотлар, маълумотномалар, ҳужжатлар ва улар-нинг нусхаларини олиш;

*Белгиланган* тартибда: солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг бузилишига йўл қўяётган юридик ва жисмоний шахслардан даромадни (фойдани) ва солиққа тортиладиган бошқа объектлар яширилганлигидан далолат берувчи ҳужжатларни,шунингдек ҳуқуқбузарлик предметларини олиб қуйиш:

*Тадбиркорлик* билан шуғулланиш тартибини бузаётган жисмоний шахслардан литсензияларини, патентлари ёки рўйхатдан ўтганлик тўғрисидаги гувоҳномаларини олиб қўйиб, сўнгра қонун бузилганлигига доир материалларни мазкур фаолият билан шуғулланишга рухсат берган органларга топшириш;

*Кассаларни* ва товар моддий бойликлар ҳамда ҳужжатлар сақланадиган жойларни муқраб қўйиш, товарлар, буюмлар, хом ашё материалар ва ярим тайёр маҳсулотларнинг намуналарини, шунингдек ҳуж-жатларни олиб қўйиш ва уларни текширишга, тадқиқ қилишга ва экспертизага юбориш;

*Савдо* қоидаларига товарларни бериш ва хизмат кўрсатиш қоида-ларига риоя қилинишини текшириш;

*Юридик* ва жисмоний шахсларнинг қаерда жойлашганлигидан қатъий назар,даромад (фойда) олиш учун фойдаланадиган ёхуд солиққа тортиш объектларини сақлаб туриш билан боғлиқ бўлган ишлаб чиқариш бинолари, омборхоналар, савдо ва бошқа биноларни ҳамда жойларни (шу жумладан, алоқида режимдаги корхоналарни) текшириш

бажарилган ишарни, кўрсатилган хизматларни текширув тарикасида ўлчаш ва товар моддий бойликларни рўйхат қилиш. Солиқ хизмати органларининг солиқ-лар бўйича текшириш ўтказаетган мансабдор шахслари мазкур бинолар ёки жойларга киритилмаган тақдирда давлат солиқ хизмати органлари ўзларида мавжуд бўлган ахборотлар (шу жумладан, солиқ тўловчининг харажатлари ҳақидаги ахборотлар) асосида

ёки бошқа шунга ўхшаган солиқ тўловчиларга солинадиган солиқларни назарда тутган ҳолда солиқлар суммасини мустақил равишда белгилаш;

*Юридик* ва жисмоний шахслардан қонун ҳужж атларининг бузилган-лиги аниқланган ҳолларни бартараф этишни талаб қилиш;

*Юридик* ва жисмоний шахслар ҳужжатлар асосида (ҳисоб-китобли) текширув ўтказилишини ёки давлат солиқ хизмати органларининг мансабдор шахслари даромад (фойда) олиш учун фойдаланадиган ёки солиққа тортиш объектини сақлаб туриш билан боғлиқ бинолар ва жойларга киришини рад етса, солиқларни ҳисоблаб чиқариш ва тўлаш

билан боғлиқ молиявий ҳисоботлар, ҳисоб-китоблар, декларатсиялар ва бошқа ҳужжатларни солиқ хизмати органларига ва уларнинг мансабдор шахсларига тақдим етмаса (ёки тақдим етишни рад қилса), бундай юридик шахсларнинг, шунингдек қонун ҳужжатларига мувофиқ жисмоний шахсларнинг банклар-даги ва бошқа молия-кредит

муассасаларидаги ҳисоб-китоб ва ҳисоб варақа-лари бўйича оператсияларини тўхтатиб қуйиш;

*Қонун* ҳужжатларида белгиланган тартибда солиқларга оид қонунбузарликлар ҳақидаги ишларни кўриб чиқиш юридик ҳамда жисмоний шахсларга нисбатан молиявий жазо чоралари қўллаш;

*Маъмурий* ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш ва маъмурий жазо чораларини қўллаш;

*Солиқлар* борасида қонунбузарлик фактлари бўйича товар моддий бойликларни қонун ҳужжатларида белгиланган ҳолдаги тартибда мусодара қилиш;

*Солиқлар* бўйича боқимандаларни, шунингдек жарима суммалари-ни қонун ҳужжатларига мувофиқ сўзсиз ундириб олиш;

*Юридик* ва жисмоний шахсларнинг ғайриқонуний равишда олган маблағларини давлат даромадига ундириш ҳақида уларга нисбатан суда даҳво кўзгатиш;

*Тадбиркорлик* фаолиятини амалга ошираётган юридик ва жисмони шахсларнинг молия-ҳўжалик фаолиятини текшириш ва тафтиш қилиш юзасидан амалга ошираётган ишларни тўхтатиш тўғрисида таклифлар киритиш;

*Даромадлар* (фойда) ёки бошқа солиққа тортиш объектларини яширин қоллари аниқланганида қонун ҳужжатларига мувофиқ суриштирув ўтказиш, жиноий ишлар қўзғатиш ва уларни терговга тегишлигига кўра ўтказиш.

Шунингдек давлат солиқ хизмати органлари ушбу Қонунда ва бошқа қонун ҳужжатларида назарда тутилган ўзга ҳуқуқларга ҳам егадирлар. Давлат солиқ хизмати органларининг ушбу модданинг 1-7 бандларида назарда тутилган ҳуқуқлари давлат солиқ хизмат органларининг барча мансабдор шахсларига, 8-14 бандларида назарда тутилган ҳуқуқлари давлат солиқ хизмати органларининг бошлиқлари ва уларнинг ўринбосарларига тааллуқлидир. Давлат солиқ хизмати органлари давлат статистика, ахборот, архив, маҳлумот ва бошқа ташкилотларнинг солиқ тўловчилар ҳақидаги маҳлумотларни бериш юзасида кўрсатадиган хизматлари (бажарадиган ишлари) учун ҳақ тўлашдан озод етилиши ҳам амалдаги қонунлар доирасида кўзда тутилгандир. Юқорида айтилган тадбирлар республика солиқ органлари ишининг самарадорлигини оширишга солиқ тўлов интизомини яхшилашга имконият яратиши мумкин.

*Солиқ органларининг мажбуриятлари.* Ўзбекистон Республикаси “**Давлат солиқ хизмати тўғрисида**”ги қонунига мувофиқ давлат солиқ хизмати органлари ўз вазифаларини бажаришда қуйидаги мажбуриятларни амалга оширишлари кўзда тутилгандир, яҳни:

*Солиқ* ҳақидаги қонун ҳужжатларига риоя етилиши, солиқларнинг тўғри ҳисоблаб чиқилиши, тўлиқ ва ўз вақтида тўланиши устидан давлат назоратини амалга оширишлари, ушбу қонун ва бошқа ҳужжатларининг талабларига риоя етишлари;

юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонун билан қўриқланадиган манфаатларига ҳимоя қилишлари;

солиққа тортиладиган субҳектлар ва объектлар, ҳисоблаб чиқарилган ва тўланган солиқларнинг тўлиқ ва ўз вақтида ҳисобга олинишини, шунингдек, жисмоний шахсларнинг



тадбиркорлик фаолияти билани шуғул-ланиш тартибига риоя этишлари устидан назоратни тахминлашлари;

-солиқ ҳақидаги қонун ҳужжатларини қўллаш бўйича йўриқнома материаллар, услубий кўрсатмалар ва қўлланмалар ишлаб чиқиш ва нашр этишлари;

-солиқлар бўйича текширувлар ўтказилаётган вақтда солиқ тўловчиларга уларнинг ҳуқуқлари ва вазифаларини тушунтиришлари;

-солиқ тўловчиларга ўтказилган текширувлар натижаларини маълум қилишлари;

-солиқ тўловчиларга солиқ ҳақидаги қонунлар ва норматив ҳужжатларни ўз вақтида етказишлари;

-солиқ ҳақидаги қонун ҳужжатларини бузиш фактларини тўплаш, таҳлил этиш ва бақолашлари, ҳамда солиқлар бўйича ҳуқуқбузарликларга йўл очиб бераётган сабаблар ва шароитларни бартараф этиш тўғрисида тегишли органларга таклифлар киритишлари;

-ҳуқуқни муқофаза қилувчи органлар билан биргаликда солиқлар бўйича ҳуқуқбузарликларга ҳарши курашнинг узоқ муддатли ва жорий дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишлари;

-солиқларга оид қонун ҳужжатлари бузилганлиги тўғрисидаги аризалар, хабарлар ва бошқа ахборотларни текширишлари;

-юримдик ва жисмоний шахсларга уларга солиқ тўловчи сифатида рўйхатга олинганликлари тўғрисидаги ҳужжатларни, рўйхатдан ўтказиш (идентификатсиялаш) тартиб раҳамларини қонун ҳужжатларида белгилан-ган тартибда беришлари;

-мусодара қилинган егасиз мол-мулк, ҳазиналар, мерос ҳуқуқи бўйича давлатга ёки фуҳароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органларига ўтган мол-мулкнинг ҳисобини юритишлари, уларни бақолашлари ва уларнинг реализатсия қилинишини назорат этишлари;

-масалани қал этиш давлат солиқ хизмати органларининг ваколат доирасидан чиққан ҳолатларда қонун ҳужжатларини бузиш фактларига оид материалларни прокуратура, ички ишлар, миллий қавфсизлик хизмати органларига ва судга оширишлари;

-юримдик ва жисмоний шахслар валюта ҳамда экспорт-импорт оператсияларини амалга оширишнинг белгиланган тартибига риоя этишларини ўз ваколатлари доирасида назорат қилишлари;

-қонун ҳужжатларига мувофиқ солиқ тўловчиларга тааллуқли маълумотларнинг мақфийлигига риоя этишлари;

-ўзларига бўйсунадиган бўлинмалар фаолиятини назорат қилишлари ҳам солиқ хизмати органлари қонун ҳужжатларида назарда тутилгандир.

Юқорида қайд этилган мажбуриятларни ўз вақтида амалга ошириш солиқни тўла тўлашни тахминлашга иж обий тахсир этиши мумкин. Шу боис, Давлат солиқ хизмати органи ходимларининг фаолиятини яхшилаш муҳим аҳамиятга егадир.

Хўжалик фаолиятини ташкил этиш, бошқарув шакллари ва усулларини такомиллаштириш борасида Давлат солиқ хизмати органларининг фаолиятида муҳим ўзгаришлар рўй бермоқда. Давлат солиқ хизмати органлари ходимларининг фаолияти солиқ тўловларини тўлиқлигининг тахминланишига, солиқ интизомининг бузилишига йўл қўймаслигига қаратилиб келинмоқда.

Солиқ сиёсатини босқичма-босқич такомиллаштириш, иқтисодиётни еса барқарорлаштириш ва молиявий аҳволни мустақкамлашга оид муаммоларни ҳал қилишда улар муҳим аҳамият касб этишмоқда. Солиқ тўлови ва ҳисобланишини назорат қилиш ҳам давлат солиқ хизмати органлари ходимларининг зиммасига юклатилган. Умуман олганда давлат солиқ бошқарма (инспексия) ходимларининг асосий вазифалари, ҳуқуқлари мажбуриятлари, бошқарма (инспексия) ходимлари ишини ташкил этиш, уларни ижтимоий химоялаш ва уларни таҳлил қилиш алоҳида Давлат солиқ хизмати органлари ходимларининг диққат марказидан алоҳида ўрин егаллаб келмоқда.

Аmmo давлат солиқ хизмати органи ходимлари ҳозирги кунда ҳам юзага келган муаммони ҳал етишда ожизлик қилишмоқдалар. Солиқ ҳисоби ва тўловларини соддалаштиришда солиқ маданияти етакчи ўрин егаллаши мумкинлигии тўлиқ тушуниб етишмаганлар. Натижада солиқ тўловлари бюджетга тўлиқсиз ва автоматик равишда келиб тушишига сабаб бўлмоқда. Қолаверса, солиқ тўловчилар солиқ муносабатларини ташкил етиш давлатнинг иши ёки вазифаси деб, солиқ тўловларини ўз вақтида тахминланишига салбий таҳсир етиб келмоқдалар. Ҳозирги шароитда солиқ қонуниятларига таянган ҳолда солиқ сиёсатини ислоқ қилишда, Давлат солиқ хизмати орган ходимлари фаолиятида ҳам чуқур ислохатларни ўтказилишини тахминланишига имконият яратишимиз лозим. Бундай ислохот нафақат солиқ органларига, балки бутун Давлат солиқ бошқарув аппаратида ҳам тегишли бўлиши шартдир.

Солиқ қонуниятларини ихтиёрий ва онгли равишда бажаришга аҳолининг тайёргарлик даражаси тўғридан-тўғри жамоатчиликнинг солиқ хизматини қанчалик адолатли, самарали ва ҳаракатчан амалга оширилиши билан боғлиқ бўлиши муҳимдир. Шу боис, солиқ хизмати ишининг такомиллаштирилишини, унинг қиёфасини республикаимиз аҳолиси кўз ўнгида ижобий томонга ўзгариши билан боғлиқ деб биламиз.

## **6 – Mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

**Tayanch so'z va iboralar:** yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissaları bo'yicha) taqsimlanadigan sof foyda, yuridik shaxs tugatilganda molmulkni taqsimlashdan olingan daromadlar, muassisning (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aksiyalari qiymati, tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi, aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi, ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish, soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobot.

### **1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 167-196-moddalari)**

Ma'lumki, soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga. Jismoniy shaxslarga – yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi. Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida budjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir. Soliq to'lovchi. Soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilardir. Soliq solish obyekt. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromatlari; O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan

daromadlari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti bo'lmaydi. Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi. Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi: - mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar; - mulkiy daromadlar; - moddiy naf tarzidagi daromadlar; - boshqa daromadlar. Soliq stavkasi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ko'pgina mamlakatlardagi singari O'zbekistonda ham progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o'rnatilgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. Har yili belgilangan stavkalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

Imtiyozlar. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha ikki turdagi imtiyozlar belgilangan. Birinchisi, jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari. Ikkinchisi, jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod qilish. 114 Jumladan, jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi: moddiy yordam summalari: favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari — to'laligicha; vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari — eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda; Soliq kodeksining 178-moddasida ko'rsatilgan boshqa hollarda (xodimga mehnatga mayib, bo'lganligi, kasb kasalligi yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast uetganligi bilan bog'liq xodimga beriladigan to'lovlar, bola tug'ish, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan beriladigan to'lovlar va boshqa hollar) — soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda; yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summalari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summalari; O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'lmagan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalari; o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida, uning oila a'zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi; O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan budjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida; vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxonada mulkdori, oilaviy korxonada ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi; O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy

shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti; xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti; donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar; jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan: qimmatli qog'ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini); yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni; ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uyjoylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno. Uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq 115 to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi; xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati; yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi: xodimlar natija shaklida olgan sovg'alar; ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam va boshqalar. Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi: xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha; xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha; xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha; xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, — o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha; xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari — agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar

summalari bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga ega bo'lgan xodimlari — ularning xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha va boshqalar. Soliq davri. Hisobot davr. Kalendar yil soliq davridir. Yil choragi daromad to'lash manbaidan jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini ushlab qoluvchilar uchun hisobot davridir. Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini, shuningdek eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1 yanvaridagi holati inobatga olinadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq solinadigan baza hamda 116 stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi. Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshirganda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi. Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so'ng xodimga ilgarigi asosiy ish joyida to'lovlar amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to'lovlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlar qo'llanilmagan holda solinadi. Yuridik shaxs bu xodimga to'lagan daromadning jami summasi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingan umumiy summasi haqida bu yuridik shaxs hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga o'ttiz kun ichida yozma shaklda ma'lum qilishi shart. Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish jami daromad imtiyozlar 117 qo'llanilmagan holda, belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha amalga oshiriladi. Agar asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromadlar olayotgan jismoniy shaxs buxgalteriyaga o'z daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi bo'yicha ushlab qolish to'g'risida ariza bersa, daromadlar to'layotgan yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushbu bo'limda nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llamagan holda eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qoladilar. Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining

summalari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma berishlari shart. Jismoniy shaxslarning asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi. Hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi. Soliq agentlari: 1) soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida, asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi: soliq to'lovchining — jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami; soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili; o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani umumiy summasi; soliq agentining identifikatsiya raqami; soliq agentining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili); 2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi o'ning 25- kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risidagi 118 ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart. Soliq to'lash tartibi. To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi budjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi: pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda, ish haqi bo'yicha o'ning birinchi yarmi uchun bo'nak (avans) olish uchun hujjatlar taqdim etilganda soliqni to'lash amalga oshirilmaydi; to'lov natura holda amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa. Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqlarni budjetga o'tkazish uchun mablag'lar yetarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada budjetga o'tkaziladi.

## **2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 272-277-moddalari).**

Soliq to'lovchilar – mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir. Soliq solish obyekti – O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar. Soliq solinadigan baza – ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir. 152 Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti

bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Soliq stavkasi – Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. Jismoniy shaxslar soliq solish obyektlaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalangan yoxud bu obyektlar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi. Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxonalar turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, mol-mulk solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Imtiyozlar. Soliq kodeksida mol-mulk solig'i solinmaydigan jismoniy shaxslar toifasi belgilangan. 153 Jumladan, "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi; urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi; o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi; pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi; I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi va boshqalar. Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Soliq solish obyektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi. Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi. 154 Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi

yil boshidan e'tiboran to'lanadi. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi. Soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi. Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oydan e'tiboran amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning molmulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktabriga qadar amalga oshiriladi.

### **3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (O'R Soliq kodeksining 287-294-moddalari).**

Soliq to'lovchilar – mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklaridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi. Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi. Soliq solish obyekti – dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari; yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari; jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar 160 egallagan yer uchastkalari; xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar; meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari; qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari; tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari. Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalaridan tashqari ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi. Soliq solinadigan baza. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Soliq stavkasi. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi



va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorida undiriladi. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq yuridik shaxslar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Jamoaviy va shaxsiy garajlar band etgan yer uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yerlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilangan bazaviy stavkalar belgilangan normativlar doirasida yer uchastkalariga nisbatan qo'llanadi, belgilangan normativlardan yuqori yer uchastkalari uchun bazaviy stavkalarga esa oshiruvchi koeffitsient - 1,5 qo'llanadi. 161 Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida yer uchastkalarining quyidagi normativlari qo'llanadi: Toshkent sh., Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar - 0,06 ga; boshqa aholi punktlari (dehqon xo'jaliklari bundan mustasno) - 0,1 ga. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda yer solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan yer uchastkalari maydoni yer berish to'g'risida davlat hokimiyati organlarining qarori, yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi uchun davlat dalolatnomasi, yerni ijaraga olish shartnomasi, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarga ko'ra belgilanadi. Imtiyozlar. Soliq kodeksida yer solig'idan ozod qilinadigan jismoniy shaxslarning toifalari belgilangan. Jumladan, "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Syuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi; urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi; I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi; yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining malumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi; boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi va boshqalar. Soliq stavkasini qo'llashningo'ziga xos xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yer uchastkalari yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar egallagan yer uchastkalari uchun yer solig'i 162 jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi hamda ularga yuqorida belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi. Ammo jismoniy shaxs

yoki oilaviy korxonalar yer uchastkasidan unda joylashgan uyda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, yer solig'i jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi. Soliq davri – kalendar yil. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Yer solig'ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi. Imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ushbu imtiyozlarga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadi. Yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak. Soliq to'lash tartibi. Yer solig'i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy budjetiga to'lanadi. Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi). Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi. Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi. 163 Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining 15 oktabriga qadar amalga oshiriladi.

## **7 – Mavzu. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi**

### **Reja:**

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
2. Qo'shilgan qiymat solig'i
3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i
4. Boshqa soliqlarning huquqiy tavsifi

**Tayanch so'z va iboralar:** soliq siri, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi, tibbiy va ijtimoiy yordam, mahsulot ishlab chiqarish, soliq to'lovchining faoliyati, banklar, mikrocredit tashkilotlari, lombardlar, ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi, maqsadli beg'araz ko'maklashish, davlat soliq xizmati organidagi mavjud hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish, chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi, ijtimoiy soha muassasalari, milliy valyuta.

### **1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 126-166-moddalari)**

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991 yilga qadar asosan davlat korxonalarini foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat

tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini budjetga olib ketar edi. Qolgan mablag'lar esa korxonalar tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi. Respublikamiz ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tishi tufayli mamlakatimiz xo'jalik turmushida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Natijada mulkchilikning turli 107 shakllari rivojlanishi, korxonalarining imkoniyatini oshishi, bozor infrastrukturasini rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi korxonalarining xo'jalik yuritish samaradorligini ta'minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to'sqinlik qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra faqat davlat korxonalarini foydasidan ajratilishi lozim edi. Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar "Daromad" solig'ini to'lashga o'tdilar. O'zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig'ini olishga o'tish pul qadrsizlanishi tufayli ish xaqi o'sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo'ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum xajmi kamaygani holda, ular o'z ishlab chiqarishlari yo'nalishini o'zgartirishga, foyda olmasalar ham juda kata miqdorda ishchilarga ish xaqi to'lashga majbur bo'ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada daromad solig'ini ish haqi fondidan belgilangan stavkada to'lashga majbur edilar. 1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun daromad solig'i va yalpi daromad solig'i tartibi saqlab qolindi (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, kino-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko'ngil ochar o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar).<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kiritilib, u davlat daromadining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Soliq to'lovchi – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari. Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi); soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar mazkur soliq turi bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanmaydi. Soliq solish obyekti. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi; O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari. Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan baza esa jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi: - tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadlar; - boshqa daromadlar. Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya

---

<sup>20</sup> Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik / Hammual.: A.Vahobov, A.Jo'raev. – T.: "Sharq" nashriyoti – 2009. – 400 bet.

qilishdan qoʻshilgan qiymat soligʻi, aksiz soligʻi hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir. Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bogʻliq boʻlmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi. Masalan, soliq toʻlovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar; mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar; tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar. Soliq stavkasi. Yuridik shaxslarning foyda soligʻi stavkalari har yili Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy koʻrsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari toʻgʻrisidagi qarori bilan tasdiqlanadi. 109 Oʻzbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bogʻliq boʻlmagan va toʻlov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar boʻyicha soliq solinadi: 1) dividendlar va foizlarga — 10 foiz; 2) sugʻurta qilish, birgalikda sugʻurta qilish va qayta sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha sugʻurta mukofotlariga — 10 foiz; 3) xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) — 6 foiz; 4) Soliq kodeksning 155-moddasida belgilangan daromadlar, jumladan royalti, ijara daromatlari, xizmat koʻrsatish, shu jumladan boshqaruv xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar— 20 foiz.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi stavkalari (2018 yil uchun)

. Foyda soligʻi va obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligʻi bitta soliq turiga – yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻiga birlashtirilishi munosabati bilan, Soliq kodeksining **23, 30, 354, 363 va 376** moddalariga tegishli oʻzgartirishlar kiritildi, shuningdek, Soliq kodeksining **XIII boʻlimi va 295, 296, 299 va 300-moddalari** chiqarib tashlandi.

Soliq kodeksining **154-moddasiga** kiritilgan oʻzgartirishlarga asosan, doimiy muassasa orqali faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxs – Oʻzbekiston Respublikasi norezidentlari uchun qoʻshimcha ravishda sof foydadan undiriladigan soliq bekor qilindi, shuningdek, soliq solinadigan foydani aniqlashda foyda soligʻini hisoblab chiqarish maqsadi uchun soliq solinadigan foydaning eng kam summasi ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar summasining 10 foizidan 7 foiziga pasaytirildi.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb, aksiyalardan va boshqa xoʻjaliklar subyektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi. Foizlarga esa depozit qoʻyilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qogʻozlardan olgan daromadlar kiradi. Imtiyozlar. Soliq kodeksiga asosan yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi boʻyicha soliq toʻlashdan ozod qilish, yuridik shaxslarning soliq solinmaydigan foydasi hamda yuridik shaxslarni soliq solinadigan foydasini kamaytirish kabi imtiyozlar mavjud. Jumladan, yuridik shaxslarni foyda soligʻini toʻlashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi: davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari; jazoni ijro etish muassasalari; ichki ishlar organlari huzuridagi qoʻriqlash boʻlinmalari. Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻini toʻlashdan ozod qilinadi: protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati koʻrsatishdan, nogironlar uchun moʻljallangan protez-

ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi; Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi. Soliq kodeksining 159-moddasiga ko'ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriyajamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o'rnini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda. Soliq solinadigan foydani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar qilingan soliq davridan e'tiboran, texnologik jihoz bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran besh yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologik jihoz xarid qilingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi. Ushbu imtiyoz tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar tomonidan qo'llaniladi; yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya 111 jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga;qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar uchun sof qo'shimcha foyda summasiga. Soliq davri. Hisobot davri. Kalendar yil soliq davridir. Yilning choragi hisobot davridir. Soliqni hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi, soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25- kundan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobida budjetga to'lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko'rsatiladi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart. Soliq to'lash tartibi. Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarni kiritish orqali to'laydilar, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri

birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam 112 miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi. Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun budjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to'laydi.

## **2. Qo'shilgan qiymat solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 197-228-moddalari)**

Hozirgi vaqtda O'zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlaridan biri – qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali egri soliqdir. Korxonada kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi. Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlabchiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. 119 Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi. Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1958 yildan boshlab joriy etildi. XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977 yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi. Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.<sup>21</sup> Soliq to'lovchi – soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

<sup>21</sup> Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik / Hammual.: A.Vahobov, A.Jo'raev. – T.: "Sharq" nashriyoti – 2009. – 400 bet.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatilgan yuridik shaxslar; tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar; oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxslar kiradi. Soliq solish obyekti – soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan importdir. Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni realizatsiya qilish oboroti:

1) mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan: tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish); ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa; mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko'rsatish); qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish); qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar to'lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish); garov bilan ta'minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yuvchi tomonidan garov narsasini berish; zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish; 2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar Soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish; 3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish; 4) to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish; 5) mol-mulkni operativ ijaraga berish; 6) intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish; 7) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda Soliq kodeksining 147-moddasiga muvofiq harajatlari chegirilmaydigan (masalan, moddiy qiymatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar; nodavlat pensiya jamg'armasiga ajratmalar va boshqalar) soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar – soliq solinadigan importdir. Soliq solinadigan baza, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir. 121 Soliq solish bazasi – realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to'lovchiga o'z ehtiyojlari tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi. Soliq solish stavkasi. QQS stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. Har yili belgilangan stavkalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin. Jumladan, 2015 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budget parametrlari to'g'risidagi PQ - 2455 – sonli qaroriga asosan 2016 yil uchun QQS stavkasi 20 foiz qilib belgilangan. 2000 yildan hozirgi kungacha Soliq kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda. Umuman olganda "0" stavka deganda korxonalar ishlab chiqarayotgan

tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni "nol" ga teng degani. Jumladan, "0" darajali stavka bo'yicha soliq solinadi: Tovarlarini chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Tovarlarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqish tovarlar eksportidir. Chet el tarafi o'zarolik prinsipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalarini hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik 122 vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarini qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi: tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish. Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalqaro (idoralararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi. Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo'linmalari tomonidan olinadigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi. Ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armanistonda Tojikistonda, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqqa tortilmaydi, "0" stavka ham qo'llanilmaydi. Qozog'istonda esa MDHdan tashqariga eksport "0" stavkada soliqqa tortiladi. Eksport qilingan tovarlarini qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortish masalasida O'zbekiston bilan boshqa davlatlar o'rtasida davlatlararo bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan bo'lib, ammo ratifikatsiya qilinmagan (tasdiqlanmagan) holatlarda imtiyozni qo'llashning iloji bo'lmaydi, ya'ni imtiyoz qo'llash uchun qonuniy asos bo'lmaydi. Hozirgi vaqtda Qirg'iziston, Ozarbayjon, Moldova, Rossiya, Qozog'iston bilan ham bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan. Shartnomada kelishilgan davlatlar bojxona hududlarida tovarlar (ish va xizmatlar) eksport qilinganda "0" stavkadagi qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash ko'zda tutilgan. Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'ining uchta stavkasi amal qiladi: 0, 8,0 va 20 foiz. Nol darajasidagi soliq stavkasi tovarlarning 17 ta guruhiga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta'minoti va kanalizatsiya, ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan kitoblar va qo'llanmalar, yoqilg'i va isitish, transport vositalari, xalqaro xizmatlar, kiyim-kechak va poyafzal, xayr-ehsonlarga nisbatan qo'llaniladi. 8 foizli stavka ta'minotning kommunal turlari borasidagi xizmatlarga nisbatan



qo'llaniladi. 20 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlar) ning barcha boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi. Ispaniya Qirolligi mamlakatida qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 21 foizni tashkil etadi. Pasaytirilgan stavkalar, ya'ni 0 foizli stavka – eksport bilan bog'liq tovar va xizmatlar uchun; 4 foizli stavka – birinchi navbatdagi zarur tovarlar uchun (non, g'alla, sut, tuxum, mevalar, sabzavotlar, kitoblar, gazetalar, dori-darmonlar, munitsipal uylar, nogironlar uchun mashinalar va h.k.); 7 foizli stavka – oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy qurilishi, transport, turizm uchun, 28 foizli stavka esa zeb-ziynat buyumlari va avtomobillar bo'yicha belgilangan. Rossiya Federatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'i 18 foiz, 10 foiz va 0 foizli qilib belgilangan. 0 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlarning) ayrim turlariga, 10 foizli stavka – oziq-ovqat va bolalar tovarlariga, 18 foizli stavka esa tovarlar (ish va xizmatlar)ning boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi.<sup>22</sup> Imtiyozlar. Soliq kodeksiga asosan QQS bo'yicha to'rt turdagi imtiyozlar mavjud. Ular: 1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti; 2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar; 3) soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari; 4) soliqdan ozod etiladigan import. Jumladan, Qo'shilgan qiymat solig'idan, quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi: yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig'im yoki boshqa to'lovlar undiriladigan xizmatlar; maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar; bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar; dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari; protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar va boshqalar. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi: kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish; depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish; to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar va boshqalar. Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida: sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi: sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari va boshqalar. Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi: jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar; chet el diplomatik vakolatxonolari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar va boshqalar. Soliq davri. Hisobot davri. Kalendar yil soliq davridir. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yil choragi, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun esa – bir oy hisobot davridir. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Budgetga

<sup>22</sup> Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O'quv qo'llanmasi. –T.: TDIU nashr., 2003.

to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Tovarlarini import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi. Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqqaturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqqaturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to'lash tartibi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi: - qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay; - mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

### **3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'I** (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 278-286-moddalari).

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijara olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi. Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar. Soliq to'lovchilar – mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlardir. Ko'chmas mulk ijara berilgan taqdirda, ijara beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi. Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir. Soliq solish obyekti – MulK huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyekti. Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi: aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi: maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar; aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar); kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek 156 chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar); zaxira yerlar. Soliq solinadigan baza – Yer uchastkasining ushbu soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir. Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer

uchastkaları uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi). Soliq stavkasi. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. Yer solig'i stavkalari jahon amaliyotida qabul qilinganidek, yer qiymatidan kelib chiqib belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi. Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o'tkazaolishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo'linadi, ya'ni 1 klass yerlar nol ballidan 10 ballgacha, 2 klass yerlar 11 ballidan 20 ballgacha, 3 klass yerlar 21 ballidan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 ballidan 100 ballgacha baholanadi. Bunda yerning ball boniteti qancha yuqori bo'lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi. 157 Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-sonli qaroriga asosan quyidagicha guruhlanadi: 1. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig'ining bazaviy stavkalari. 2. Lalmi ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari. 3. Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari. 4. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar uchun undiriladigan yer solig'i stavkalari. 5. Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalari. 6. Shahar va shaharchadagi yer uchastkalaridan olinadigan yer solig'i stavkalari. 7. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari. 8. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan yer solig'i stavkalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroridan kelib chiqib, mahalliy xokimiyat idoralari ham o'zlarining xududiy territoriyasiga qarab qaror chiqarishadi va unda tegishli koeffitsientlar hisobga olinadi. Qishloq xo'jalik yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Imtiyozlar. Soliq kodeksiga asosan yer solig'i bo'yicha ikki turdagi imtiyozlar, yer solig'idan ozod qilish hamda soliq solinmaydigan yer uchastkalariga bo'linadi. Jumladan, yer solig'i to'lashdan ozod qilinadigan yuridik shaxslarga madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari - o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalarini uchun; nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi; yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran

ikki 158 yilga;ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi. Shuningdek, soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasigabog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlarining, milliy bog'larning yerlari, yuqorida ko'rsatilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlari bundan mustasno; sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari va boshqalar kiradi. Soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi. Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi. Soliq davri – kalendar yildir. Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi. Yer solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi. Yer solig'ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart. Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini yer solig'ining 159 aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi. Soliq to'lash tartibi. Yer solig'ini to'lash, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi. Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: - hisobot yilining 1 sentabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi; - hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

#### **4. Boshqa soliqlarning huquqiy tavsifi**

*Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i* (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 295-300 moddalari) Soliq to'lovchilar – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar. Soliq solish obyekt. Soliq solinadigan baza. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obyekt va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza quyidagi summalariga kamaytiriladi: - olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga; qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun - sof qo'shimcha foyda summasiga; tekin olingan pul mablag'lari summasiga, agar ularni o'tkazib berish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa; - joriy soliq davrida foydalanilganda xarajatlar vujudga kelmaydigan budjetdan ajratiladigan subsidiyalar summasiga; sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar summasiga; budjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzning qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summasiga. Soliq stavkasi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. Mazkur qarorga asosan 2016 yilgi soliqning chegaralangan stavkasi sof foydaning 8 foizini tashkil qiladi. Soliq davri – kalendar yildir. Hisobot davri – yil choragidir. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Soliq to'lovchilar, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi. 164 Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay to'lanadi. Hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash mazkur soliq bo'yicha hisobkitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

*Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 301-304 -moddalari)*

Soliq to'lovchilar – transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar oxirgi iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobillarga yoqilg'i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi; oxirgi iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. 165 Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza. Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish soliq solish obyektidir. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holdagi realizatsiya qilingan va o'z zhtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi soliq solinadigan bazadir. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliq stavkalarining qayta ishlashga berilgan benzin va dizel yoqilg'isi bo'yicha miqdorlari transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliqni hisobga olgan holda benzin va dizel yoqilg'isiga chakana narxlar doirasida shakllantiriladi. Vositachilik shartnomalari bo'yicha import qilinadigan qayta

ishlashga berilgan xom ashyo asosida ishlab chiqariladigan benzin va dizel yoqilg'isi hajmi bo'yicha to'lovchilar, transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi. 166 Soliq davri – yil choragidir. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdimetish va soliq to'lash tartibi. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanilganda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladi. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holda har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Hisob-kitob benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilingan oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, hisob-kitob taqdim etiladigan yerda har o'n kunda amalga oshiriladi. Davlat o'z oldiga qo'ygan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun, shuningdek mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholining turmush tarzini yaxshilash, mamlakat xavfsizligini ta'minlashda davlat budjetining ahamiyati katta. Yuqorida sanab o'tilgan umumdavlat va mahalliy soliqlar esa davlat budjetini shakllantirishdagi ahamiyati kattadir, ya'ni davlat daromadlarining asosiy manbai soliqlardan iboratdir. Ularni o'z vaqtida to'lash esa har bir fuqaroning konstitutsiyaviy majburiyatidir.

## **8 – Mavzu. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar**

### **Reja:**

1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar
2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar
3. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar

**Tayanch so'z va iboralar:** Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi, qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar, buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar, chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari.

### **1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 305-315-moddalari)**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy ta'minotga muhtoj bo'lganda, ya'ni pensiya yoshiga yetganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisin yo'qotgan hollarda ijtimoiy yordam olish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda 1993 yil 3 sentabrda qabul qilgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida"gi Qonunida belgilab berilgan. Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritiladigan bo'ldi hamda Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash tartibi buzilganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llanilishi, shu jumladan to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yildi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag'lar to'plash tartib qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda "Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 498-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 2004 yilgacha amalga oshirilib keldi. Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni hisoblash va to'lash tartiblarini soddalashtirish maqsadida, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamg'armasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiy to'lov nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. Hozirgi kunda mazkur jamg'arma faoliyati, daromad manbanlarini shakllantirish va Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish tartibi 2010 yil 19 fevralda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar tarkibiga yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar kiradi.

*Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 305-311-moddalari).* Yagona ijtimoiy to'lov O'zbekistonda 2004 yildan amal qilib kelinmoqda. Soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi rezidentlari; O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalarini va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari. Jismoniy shaxslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston 170 Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi. Yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarini hisoblash uchun obyekt bo'lib, ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun baza imtiyoz sifatida belgilangan to'lovlar chegirib tashlangan ish haqi tarzida to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi. Soliq solish obyekti – ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ektidir. Bunda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo

tashkilotlarga kvotaqilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ekti ularning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilguniga qadar oxirgi ish joyi bo'yicha olingan, O'zbekiston Respublikasida byudjet muassasalari xodimlari uchun ish haqi oshirilishi hisobga olingan holda qayta hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs — O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish ob'ektidir. ish haqi tarzidagi daromadlar O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham Yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish ob'ektidir. Soliq solinadigan baza – mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasi sifatida belgilanadi, bunda yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lovlar mustasno. O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar summasi sifatida aniqlanadi, biroq bu summa O'zbekiston 171 Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga doir xarajatlar umumiy summasining 90 foizidan kam bo'lmasligi lozim. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2016 yil uchun budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari stavkasi 7,5 foiz miqdorida belgilangan. Yagona ijtimoiy to'lov stavkalari (2015 yil uchun)

Imtiyozlar – Soliq kodeksiga asosan yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lovlar hamda yagona ijtimoiy to'lov hisoblab chiqarilmaydigan to'lovlar va daromadlar belgilangan. Jumladan, ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi: mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash uchun Soliq kodeksi 171-moddasi ikkinchi qismining 9-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar; yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar; quyidagi grant mablag'lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar: davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari; O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'lari; O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag'lari. Shuningdek, yagona ijtimoiy to'lov quyidagilarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi: O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitsyerlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minotiga, pul mukofotlariga va boshqa to'lovlarga; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga. 172 Soliq davri – kalendar yilidir. Hisobot davri – yil oyidir. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi – yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi. Yagona ijtimoiy



to'lov va sug'urta badallarining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yil yakunlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallariga doir hisob-kitob hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar taqdim etiladi. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini to'lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari. Sug'urta badallari soliq to'lovchining kalendar` oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, majburiy tartibda quyidagicha to'lanadi: yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda; yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan — oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida; yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan: yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan — oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda; oilaning boshqa a'zolari tomonidan (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar bundan mustasno) — oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligining boshlig'i sug'urta badallarini majburiy tartibda, 173 boshqa a'zolari esa, ixtiyoriylik asosida to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi. yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan yuqorida ko'rsatilgan, shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironi bo'lgan shaxslar uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq kalendar` yil davomida vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi. Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi: yakka tartibdagi tadbirkorlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan — har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25- kunidan kechiktirmay; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan — hisobot yilining 1 oktyabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi. Sug'urta badallarini to'lash majburiyati yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun — oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining; yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun — ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi. To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Bunda oila a'zolari — oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari va xodim yollagan yakka tartibdagi tadbirkorlar 174 bo'yicha to'lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a'zosi uchun va yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun alohida-alohida yoziladi. Agar to'lov topshiriqnomasida (kirim orderida)

davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun — yil) uchun to'langan deb hisoblanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar sug'urta badallarini jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda, sug'urta badallarini to'lash haqida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtda beriladigan ariza asosida ixtiyoriy ravishda to'laydi. Bunda mazkur shaxslar tomonidan sug'urta badallarini to'lash jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddatlarida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning sug'urta badallarini to'lash bo'yicha majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi. Sug'urta badallarini to'lash har oyda, hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun sug'urta badalini hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimiga sug'urta badallarini hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi. Agar faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkasini davlat soliq xizmati organiga belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha sug'urta badallarini hisoblash to'xtatilmaydi.

*Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar (312-315-moddalar).* Soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs. Bunda quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromatlari mustasno; yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar. Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno. Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza. Sof tushum budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq obyektlari (2015 yil uchun)

Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2016 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari yuqorida belgilangan soliqqa tortish obyektlaridan 1,6 foiz miqdorida belgilangan. Soliq davri – kalendar yilidir. Hisobot davri – yil choragidir. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish va ularni to'lash tartibi – Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi

o'ning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi: budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi o'ning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

## **2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 316-325-moddalari)**

2007 yil 2 oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi<sup>33</sup> qonuniga muvofiq yo'llarni moliyalashtirishga doir ishlar (umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarni loyihalash, qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash) yo'l jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2003 yil 19 avgustdagi PF-3292-son Farmoniga binoan tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi maxsus normativ hujjat bilan tartibga solinadi. Respublika yo'l jamg'armasiga ikki turdagi majburiy to'lovlar undiriladi. Bular, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hamda Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implardir. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar (316-319-moddalar). Soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs. Bunda quyidagilar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno; yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar; umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno. Soliq solish obyekt. Soliq solinadigan baza – sof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekt va soliq solinadigan bazasidir. 33O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi OKA, 1992 y., №9, 353-m. 178 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budgetdan tashqari Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish obyektleri (2016 yil uchun)

Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2016 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari yuqorida belgilangan soliqqa tortish obyektlaridan 1,4 foiz miqdorida belgilangan. 179 Soliq davri – kalendar yildir. Hisobot davri – yil choragdir. Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisobkitobini taqdim etish va ularni to'lash tartibi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi o'ning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish

muddatidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

*Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 319-325-moddalar).* Soliq kodeksining 54-bobiga asosan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalardan tashqari yig'imlar ham to'lanadi. Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi: - avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im; - chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im. Soliq to'lovchilar – Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir. Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilardir. 180 Soliq solish obyekti – avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish; chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish. Soliq solinadigan baza – olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelinig ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati; O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va ajratmalar stavkalari (2016 yil uchun)..

*Imtiyozlar.* Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar: ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar; yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar; faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari - yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari 182 bo'yicha (engil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari); yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha; homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek budjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari; yuridik shaxslar - avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda; qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris va boshqalar. Yig'imlarni to'lash tartibi – avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi: 1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda; 2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda; 3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda, imtiyozlar nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti

bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi; 4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda. Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi. Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun 183 yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

### **3. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 3251 -3254 modda)**

Soliq to'lovchi – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs. Bunda quyidagilar byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarining to'lovchilari bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno; yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar; umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno. Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza - sof tushum budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarining soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligihuzuridagi budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish obyektlari har yili alohida belgilanadi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlardan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2016 yil uchun budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari yuqorida belgilangan soliqqa tortish obyektlaridan 0,5 foiz miqdorida belgilangan. Soliq davri – kalendar yilidir. Hisobot davri – yil choragidir. Majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisobkitobini taqdim etish va ularni to'lash tartibi. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi. 185 Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot

muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash: budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisobkitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## **9 – Mavzu. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

### **Reja:**

- 1. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**
- 2. Dehqon xo'jaliklari va bozorlarga hamda konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi**
- 3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari**

**Tayanch so'z va iboralar:** egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari, notijorat tashkilotlari, operativ ijara, O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, hisobvaraqa fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, sotish, ayirboshlash, beg'araz berish, soliq solish obyekti, mol-mulk, soliq solinadigan baza, soliq tekshiruvi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, soliq huquqiy munosabatlari, savdo faoliyati, davlat soliq xizmati organi, muayyan soliq to'lovchi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, hisoblab chiqarish, soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliq agentlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz.

### **1. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar deyilganda chet davlatning fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek xorijiy nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi. Yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini, yagona soliq to'lovini, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashdan muayyan muddatga ozod qilinadilar. Imtiyozlarning qo'llanilish tartibi. Soliq kodeksining 376-moddasi ikkinchi qismida

nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar quyidagi hollarda qo'llaniladi: yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilanadigan ortiqcha– ishchi kuchlari mavjud bo'lgan mintaqalar va qishloq aholi punktlarida joylashtirilganda; chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy– xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda; yuridik shaxslarning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning– ulushi kamida 33 foizni tashkil etganda; xorijiy investitsiyalar erkin almashtiriladigan valyuta yoki– yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar– berilganligi natijasida ularning qo'llanilishi muddati mobaynida olingan 219 daromadlarning kamida 50 foizi yuridik shaxsni yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirilganda. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat tugaganidan keyin bir yil o'tmasdan faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning summalari budjetga undirilganidan keyin amalga oshiriladi. Imtiyozlar qo'llanilishi to'g'risida bildirish. Yuridik shaxs imtiyozlarni qo'llash boshlangan sana haqida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda bildirishi shart. Soliq davri mobaynida imtiyozlarga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tkazish joyidagi davlat soliq xizmati organini soliq to'lovchining imtiyozlarga bo'lgan huquqi yo'qotilgan sana to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Oddiy shirkat shartnomasi sherigida (ishtirokchisida) birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sheriklarning (ishtirokchilarning) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikda foydalanadigan mol-mulki birgalikdagi faoliyatga qo'shilgan hissa tarzida har bir sherikning (ishtirokchining) balansida hisobga olinishi lozim. Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq holda vujudga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash bo'yicha majburiyatlar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi shaxs (ishonchli shaxs) tomonidan ijro etiladi. Bunda, agar oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarining) biri yuridik shaxs bo'lsa, faqat yuridik shaxs ishonchli shaxs bo'lishi mumkin. Ishonchli shaxs vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs soliq solish obyektlari va birgalikdagi faoliyat bo'yicha soliq solish bilan bog'liq obyektlar hisobini alohida-alohida yuritadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilayotgan ishonchli shaxs oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishni boshlagan kundan e'tiboran o'n kun ichida ishonchli shaxsning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organida birgalikdagi faoliyat doirasida soliq majburiyatlarini bajaruvchi soliq to'lovchi sifatida hisobga turishi shart. Ishonchli shaxsda birgalikdagi faoliyatga soliq solish tartibi. Ishonchli shaxs birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda birgalikda chiqariladigan mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hisobini alohida-alohida yuritadi. Ishonchli shaxs birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish oborotlari belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i (aksiz to'lanadigan tovar realizatsiya qilingan taqdirda) va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar to'laydi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi bo'lmagan ishonchli shaxs birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida davlat soliq xizmati organida hisobga turishi shart. Ishonchli shaxs hisobvaraqa-fakturani rasmiylashtirgan holda birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda realizatsiya qiladi. Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushadigan, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangan holdagi sof tushum bilan realizatsiya qilingan birgalikda ishlab chiqarilgan

mahsulotlarga to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq tarzida aniqlanadi. Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikdagi faoliyat sheriklari (ishtirokchilari) o'rtasida har bir sherikning (ishtirokchining) hissasi ulushi asosida yoki oddiy shirkat shartnomasi shartlariga muvofiq taqsimlanadi hamda har bir sherikning (ishtirokchining) boshqa daromadlari tarkibiga kiritiladi. Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilgan va mol-mulk ushbu shartnoma sheriklariga (ishtirokchilariga) qaytarilgan taqdirda, har bir sherikning (ishtirokchining) o'zi kiritgan hissasi miqdori doirasida olingan mablag'lari oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisining) daromadlari tarkibiga kiritilmaydi. Oddiy shirkat shartnomasi sherigida (ishtirokchisida) birgalikdagi faoliyatga soliq solish tartibi. Mol-mulkni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirish sheriklar (ishtirokchilar) o'rtasida kelishilgan qiymat bo'yicha yoki buxgalteriya hisobi hujjatlarida hisobga olinadigan balans qiymati bo'yicha amalga oshiriladi hamda unga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish sifatida qaralmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i bilan olingan va birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilayotgan ishonchli shaxsda hisobga olish uchun qabul qilinadi. Bunda oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) birgalikdagi faoliyatga topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish uchun qabul qilmaydi. Agar kiritilayotgan mol-mulk bo'yicha ilgari qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish amalga oshirilgan bo'lsa, molmulk birgalikdagi faoliyatga topshirilgan davrda ilgari mazkur mol-mulk olinganda hisobga olish uchun qabul qilingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kamayadi. Oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi) o'zi ishlab chiqargan mahsulotni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmaydi. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish vaqtida ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda tuzatish kiritilishi lozim. Bunda tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan soliq summasi topshirilayotgan mol-mulkning qiymatiga kiritilmaydi va birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishonchli shaxs tomonidan hisobga olinadi. Tuzatish kiritilgan soliq summasi mazkur mol-mulkni topshirish rasmiylashtiriladigan hujjatlarda ko'rsatiladi. Oddiy shirkat shartnomasining birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida mol-mulk topshirayotgan sherigi (ishtirokchisi) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda ishonchli shaxs tomonidan hisobga olinishi uchun topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatgan holda hisobvaraqqakturani rasmiylashtiradi. Birgalikdagi faoliyatga topshirilgan mol-mulk bo'yicha rasmiylashtirilgan hisobvaraqq-faktura birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini hisob-kitob qilishda soliqning ushbu summasini ishonchli shaxs tomonidan hisobga olish uchun qabul qilishga asos bo'ladi. Hisobvaraqq-fakturada "jo'natiladigan tovarlar hujjatlari yoki shartnomalar raqami va sanasi" degan katakchada "birgalikdagi faoliyatga hissa" degan belgi qo'yiladi. Birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromadlarga soliq solish oddiy shirkat shartnomasi sherigiga (ishtirokchisiga) soliq solishning amaldagi tartibiga muvofiq oddiy shirkat shartnomasining har bir sherigida (ishtirokchisida) boshqa daromadlar tarkibida amalga oshiriladi. Bunda, qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar), shuningdek yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarning) birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlariga dividendlarga soliq solishda belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi. Faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar amalga oshiradigan birgalikdagi faoliyatga soliq solish. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyat faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan taqdirda, birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishonchli shaxs mazkur mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushumdan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi, shuningdek, agar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot aksiz to'lanadigan mahsulot bo'lsa, aksiz



solig'i to'laydi. Yagona soliq to'lovi birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiya qilinmasdan, birgalikdagi faoliyat sheriklari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlab olingan taqdirda ham to'lanadi. Bunda yagona soliq to'lovi summasi birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish doirasida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun yagona soliq to'lovi hisobkitobining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

## **2. Dehqon xo'jaliklari va bozorlarga hamda konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi**

Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslar - soliq to'lovchilar uchun nazarda tutilgan tartibda soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar to'laydi. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda dehqon xo'jaliklari quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi: 1) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i; 2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 3) jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq; 4) bojxona to'lovlari; 5) davlat boji; 6) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydi. 223 Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Bozorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi. Bozorlarning daromadlariga quyidagilar kiradi: patta to'lovi tushumlari; boshqa tushumlar. Patta to'lovi. Patta to'lovini bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydi. Patta to'lovi har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdir. Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan hollarda, patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi. Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pul olib, unga bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki kvitansiya berish orqali undiriladi. Patta to'lovi miqdorlari mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan belgilanadi. Boshqa tushumlar. Bozorlarning boshqa tushumlari jumlasiga quyidagilar kiradi: bozorlarning hududida joylashgan va ularning tasarrufida– bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarni ijaraga berishdan olingan tushumlar; sotuvchilarga va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatishdan– olingan daromadlar; bozor ma'muriyati (yoki uning savdo-xarid korxonalari)– tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (dehqon bozorlari uchun); qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.– 224 Ijara to'lovining va bozor ma'muriyati ko'rsatadigan xizmatlar qiymatining miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi. Bozorlarga soliq solish tartibi. Bozorlarning yuqorida ko'rsatilgan daromadlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undirilmaydi. Bozorlar zimmasida to'lov manbaida soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha majburiyatlar hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagilarni to'lash majburiyatlarini saqlanib qoladi: bojxona to'lovlari;– yagona ijtimoiy to'lov;– davlat boji;– tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim– turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im; davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;– avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik

olib– kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im. Bozorlar daromadlari umumiy summasining 50 foizi belgilangan tartibda bozorlar joylashgan yerdagi tegishli mahalliy budjetga yo'naltiriladi. Qolgan 50 foizi bozor ma'muriyati tasarrufida qoladi va ulardan joriy xarajatlarni qoplash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash uchun foydalaniladi. Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari bozorlar tomonidan amalga oshirilganda, bunday faoliyatdan olingan daromadlarga qat'iy belgilangan soliq solinadi. Olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bozorlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda hisobot oyidan keyingi oying 10-kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlagan shaklda taqdim etadi. Mablag'larni budjetga o'tkazish olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan bir oyda bir marta amalga oshiriladi. Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Yuridik va jismoniy shaxslar konsert-tomosha faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya oladigan yuridik va jismoniy shaxslar belgilangan stavka bo'yicha davlat boji to'laydi. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etiladi faqat litsenziya olganlik uchun davlat boji to'laydilar. Yuridik shaxslar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar zimmasida bojxona to'lovlari, yagona ijtimoiy to'lov, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar, avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im, to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati saqlanib qoladi. Yuridik shaxslar konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanganlarida soliq to'lovchi faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi hamda Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlanib qoladigan mikrofirmalar va kichik korxonalar korxonalarining tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha Yagona soliq to'lovini yoki umumbelgilangan soliqlarni to'lashi mumkin. Yuridik shaxslar konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlari bilan shug'ullangan taqdirda, davlat boji Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda to'lanadi. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etiladi. Jismoniy shaxslar zimmasida bojxona to'lovlari, avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlarni to'lash majburiyati saqlanib qoladi. Agar gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar soliq solinadigan mol-mulk va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi. Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan tartibda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydi. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida faoliyatning advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatish bilan bog'liq qismi bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan ozod etiladilar, quyidagilar bundan mustasno: bojxona to'lovlari;– yagona ijtimoiy to'lov;– avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib– kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im; to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa– majburiy to'lovlar. Advokatlar hay'atlari, advokatlik

firmalari va advokatlik byurolari (advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Soliq kodeksida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda to'lanadi. Advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan gonorarlar summalariga qonunchilikda belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi. Advokatning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i obyektidir. Advokatning daromadi advokat tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan summa bilan advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolarini saqlab turish uchun o'tkazilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Soliq solinadigan baza advokat daromadidan advokat gonorarida hisobga olinadigan yagona ijtimoiy to'lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi. Advokatlarning daromadlariga soliq solish soliq agentlari - advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan amalga oshiriladi. Yuqoridagi holatlardan ko'rinib turibdiki soliq to'lovchilarga soliq to'lashlarida yengillik berish hamda ularni soliq to'lashlarini soddalashtirish maqsadida soliq solishning soddalashtirilgan tizimi hamda ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari soliq qonunchiligida belgilab qo'yilgan. Bu tadbirkorlik subyektlari, ishlab chiqaruvchilar, shuningdek ayrim toifa soliq to'lovchilarga bir muncha qulaylik yaratadi hamda soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlaydi.

### **3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari.**

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy budget daromadlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imning to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi xududida ushbu tovarlar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda chakana savdoni amalga oshiradigan va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ushbu yig'im ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi yuridik shaxs yoki yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga o'z arizalarida ko'rsatilgan muddatlarga, lekin ushbu muddat qonunchilikda nazarda tutilgan muddatdan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Jumladan, yuridik shaxslarga ko'pi bilan -3 yil, jismoniy shaxslarga -2 yil.

Yig'imlar o'rnatilgan minimal ish haqi miqdoriga nisbatan belgilanadi. 2016 yil 1 yanvardan boshlab ayrim tovar turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im alkogolli mahsulotlar uchun -1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravari miqdorida, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar uchun -1 oylik savdo uchun eng kam oylik ish haqi miqdorining 3,5 baravari miqdorida belgilangan. Avtotransport vositalarini parkovka qilish (saqlash) bo'yicha pullik xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'im har oyda 8 minimal ish xaqi miqdorida undiriladi. Ushbu yig'imlar har oyda hisobot oyining 25 kuniga qadar budgetga to'lanadi.

Mahalliy yig'imni o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolot doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarning budjet oldidagi majburiyatlarini bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Rivojlangan davlatlarda mahalliy soliqlar mexanizmi va Respublikamiz iqtisodiyotidagi holati o'rtasidagi umumiy o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar chet davlatlarda ham hududlarning moliyaviy resurslarning asosiy manbai bu soliqlar va soliqsiz to'lovlar, yuqori budjetdan ajratiladigan ajratmalar (dotatsiya, subventsiya) tashkil etsada, biroq, har bir davlatda markazlashtirilgan va hududiy moliyaviy resurslarni shakllantirishning o'ziga xos farqli jihatlari ham mavjuddir.

AQSh va boshqa bir qator g'arb davlatlarning hududlar moliyaviy resurslarini turli guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga bu hududlarning o'ziga tegishli birlashtirilgan va shu hududdan undiriladigan soliqlar sifatidagi moliyaviy resurslar bo'lib, ular to'g'ri va egri soliqlardan iborat bo'ladi. Ikkinchi guruhga shunday moliyaviy resurslar kiradiki, bu xuddi bizning Respublikamizda amalda bo'lgani kabi umudavlat soliqlardan mahalliy hududlarga muayyan foizda ajratmalardan iborat bo'ladi.

Respublikamiz budjet tizimida bo'lgani kabi yuqori budjetlardan qo'yi budjetlarga subsidiyalar ajratish boshqa bir qator davlatlarga xususan, AQSh moliya tizimiga ham xosdir. Chunonchi, Vashington mahalliy budjeti 84 foizi birlashtirilgan moliyaviy resurslar hisobiga shakllansa, qolgan 16 foizini federal budjetdan ajratilgan subsidiyalar tashkil etadi. Shuningdek Nyu-York mahalliy budjetida subsidiyaning ulushi 32 foizga tengdir.

AQShda ham xuddi bizdagi singari hukumat subsidiya, subventsiya va dotatsiyalarni yuqori budjetlardan qo'yi budjetlarga ajratish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etib turadi.

Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish jarayonidagi AQShdagi eng muhim va boshqalardan xususan respublikamizdan farq qiluvchi jihatlardan biri bu u yoki bu soliq turlarining xududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalarining qo'llanilishi hamda ayrim soliqning ba'zi hududlarda amal qilishi boshqa hududlarda esa amal qilmasligi bilan farqlanadi. Masalan, hududlarning asosiy moliyaviy resurslaridan biri hisoblangan savdo-sotiq uchun solig'i ayrim hududlar uchun 6 foiz bo'lsa, boshqasida 1 foiz va shu kabi tartibda undiriladi.

Bundan tashqari iqtisodiy (ishbilarmonlik) faollik solig'i Kaliforniya shtatida qo'llanilsa, boshqa bir hududlarda qo'llanilmasligi holati ham mavjuddir. Savdo-sotiq solig'i shuningdek, ayrim hududlarda xususan, Alyaska, Delaver, Nyu-Djersi shtatlarida amal qilmasada, boshqa hududlarda esa mahalliy hokimiyatlarning o'zlari belgilagan stavkalari asosida tebranib turishi mumkin.

Qayd etish joizki, AQShda hududlarning moliyaviy resurslarining shakllanishida mulk solig'i katta salmoqni egallaydi. Masalan, Nyu-York shtati mahalliy budjetida bu soliq hisobiga jami moliyaviy resurslarning 40 foizra yaqini shakllanadi, o'z navbatida, bu soliq turi ham barcha hududlar uchun bir xil tartibda belgilanmaydi.

AQShda mulk solig'ining o'rtacha stavkasi 1,4 foizni tashkil etsada, bu Illinoys shtatida uning stavka miqdori 6,7 foizga tengdir. Bundan tashqari AQShda hududlarning moliyaviy resurslari ayrim turdagi mahsulotlarni sotish uchun litsenziyalar, uy hayvonlarini saqlash uchun ruxsatnomalar va shu kabilardan tushgan yig'implardan ham shakllanadi. Ayni bu holatning ko'pchiligi respublikamiz iqtisodiyoti uchun xosdir.

Buyukbritaniyada esa mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy manbai bo'lib kuchmas mulklar, yer, uy-joy, magazinlar, zavod va fabrikalardan undiriladigan soliq hisoblanadi. Mol-mulk qiymati muntazam qayta baholab boriladi. Soliqqa tortish maqsadlarida mol-mulkni baholashni ichki daromadlar Boshqarmasi qoshidagi maxsus baholash komissiyasi amalga oshiradi.

O'zgaruvchan inflyatsiya sharoit soliqqa tortish maqsadida mulkni muntazam qayta baholab borish O'zbekiston soliq tizimi uchun ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Shuningdek, mol-mulkni qayta baholashni soliqqa tortish maqsadlariga muvofiqlashtirish uchun qayta baholash organlarining soliq xizmati qoshida tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

AQShda esa mol-mulk solig'i mahalliy soliq sifatida asosiy o'rinni egallagani holda, 100 ga yaqin turli xil mahalliy soliq turlari ham mavjud. Har bir shtatda turfa soliq turlarini uchratish mumkin: masalan Koliforniyada faol ishbilarmonlik solig'i olinadi, bu soliq ob'ektlari yillik oborot (2,5 foizgacha) va korxonalar ish haqi fondi (1,6 foiz) hisoblanadi.

Fransiya budjetida mol-mulkdan soliq yuqori salmoqqa ega. Bu soliqqa mol-mulk, mol-mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar tortiladi. Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatlanuvchi mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Fransiyada ba'zi mol-mulk ushbu soliq turidan qisman yoki to'liq ozod etilgan. Shular jumlasiga professional faoliyat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, qishloq xo'jaligiga oid ba'zi mol-mulk turlari, tarixiy yodgorlik buyumlar, badiiy va kollektsiya buyumlari kiradi.

Mol-mulk solig'i stavkalari progressiv xarakterga ega bo'lib, uni quyidagi jadvalda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Germaniya Respublikasida budjet tizimining asosiy daromad manbai bo'lib jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyadan olinadigan soliq qo'shilgan qiymat solig'i, tadbirkorlik (xunarmandchilik) solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer uchastkalarini sotish jarayonidan undiriladigan soliq, sug'urta badallari, merosdan olinadigan soliq, transport solig'i, bojxona bojlari va davlat yig'imlari hamda ayrim turdagi mahsulotlar uchun aksiz soliqlari va shu kabilar hisoblanadi. Bu davlatda ham hududlarning moliyaviy resurslarini shakllanishida yuqori budjet bo'g'inlaridan ajratiladigan subsidiya, subventsiya va dotatsiyalar ham alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, umumdavlat soliqlaridan xuddi O'zbekiston Respublikasidagi kabi qo'yi budjetlarga muayyan foizlarda ajratmalar qilinadi. Masalan, korporatsiyadan olinadigan soliqning 50 foizi federal budjetga, 50 foizi hududlarga. Davlat budjeti daromadlarini shakllanishida eng katta salmoqqa ega bo'lgan ushbu soliqlardan tushadigan tushumlarning 42,5 foizi federal budjetga, qolgan 57,55 foizi esa turli xil darajadagi va makomdagi mahalliy budjetlar ixtiyoriga yo'naltiriladi.

Sharq davlatlarida xususan Yaponiyada ham AQSh va G'arbiy Evropa davlatlari kabi umumdavlat va mahalliy soliqlar amal qilib ular hisobiga federal va hududlarning moliyaviy resurslari shakllanib boradi. Bu yerda mahalliy soliqlarga nisbatan umumdavlat soliqlarining hissasi yuqori bo'lib ular hisobiga budjet jami moliyaviy resurslarining 64 foizidan ko'prog'i shakllanib qolgan qismi mahalliy soliqlar hisobiga to'g'ri keladi.

Yaponiya soliq tizimida hududlarning budjet daromadlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. 90-yillarning boshlarida hududlarning umumiy moliyaviy resurslari 80,41 trln. ienani tashkil etib, ulardan mahalliy soliqlar 33,45 trln. iena yoki mahalliy budjet daromadlarining 41,6 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari 14,33 trln. iena yoki 17,8 foizi umumdavlat soliqlaridan berilgan ajratmalarga to'g'ri keladi. Hududlarga bu davrda maqsadli tarzda 10,65 trln. iena (mahalliy budjetlarning 13,2 foizi) dotatsiya berib, qolgan 20,3 trln. ien soliqsiz to'lovlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mahalliy budjet moliyaviy resurslariga e'tibor beradigan bo'lsak, jami moliyaviy resurslar 33,45 trln. ienani tashkil etib, ularning 35,6 foizi daromad solig'i, 41,1 foizi mol-mulk solig'i qolgan 27,2 foizini esa iste'mol solig'i tashkil etadi.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamiz soliq tizimida mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmi bilan chet davlatlar xususan Amerika, G'arbiy Evropa davlatlari, Yaponiya va shu kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ushbu jarayonlarning holati va harakati o'rtasida umumiy o'xshashliklar mavjuddir. Bu o'xshashliklar federal va hududlarning budjet daromad soliqlar va soliqsiz to'lovlardan shakllanishi, umumdavlat soliqlardan hududlarga muayyan foizlarda subventsiya, subsidiya va dotatsiyalar shaklida ajratmalar qilinishi budjet tizimi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va shu kabilardan iboratdir.

## **2-modul. Soliq huquqining amaliy holati (IV semestrning 10-18 haftalari)**

### **10 – Mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi**

**Reja:**

- 1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimining o'ziga xos xususiyatlari**
- 2. Yagona soliq to'lovi**
- 3. Yagona yer solig'i**
- 4. Qat'iy belgilangan soliq**

**Tayanch so'z va iboralar:** soliq davri, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, soliq davri, soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati, soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi, soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, soliqqa oid huquqbuzarlik, soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi, soliq to'lovchining harakati yoki harakatsizligi.

### **1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimining o'ziga xos xususiyatlari**

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxonalar hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi. 199 Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyuldan boshlab O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes subyektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi. U birxillashtirilgan bo'lib, quyidagi majburiy to'lovlarni to'lash o'rniga joriy qilingan: - yagona soliq; - budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi; - Respublika yo'l jamg'armasi; - Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisobkitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek pensiya, yo'l va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalariga majburiy ajratmalar summalari umuman to'lanmaydi. Yagona soliq to'lovi faqat kichik biznes subyektlari - mikrofirmalar va kichik

korxonalarga tatbiq etiladi. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar ro'yxati 2007 yil 1 yanvardan boshlab kengaydi. Jumladan, ular tarkibiga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz savdo va umumiy ovqatlanish korxonolari (ulgurji savdo korxonolari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralari va ularning xududiy bazalari bundan mustasno. Ular uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 8 iyundagi "Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-374-son qarori bilan nazarda tutilgan soliq solish tartibi saqlab qolinadi); mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga tegishli bo'lgan tayyorlov va ta'minot – sotish tashkilotlari, brokerlik firmalari, komissiya shartnomasi (topshirig'i) bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar; soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik shaxslar kiritildi. 2007 yil 1 yanvardan yagona soliq to'lovi to'lovchilari hisoblangan alkogolli mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar 200 Yagona soliq to'lovini to'lash huquqisiz, soliqlar va majburiy to'lovlarni umumbelgilangan tartibda to'lashga o'tkazildi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovi tarbiq etilmaydi. Bundan tashqari Soliq kodeksining 350-moddasiga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchilarga, qat'iy belgilangan soliqni to'lash nazarda tutilgan mikrofirma va kichik korxonalar hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalar ham yagona soliq to'lovi tatbiq etilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi "1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida"gi PF – 3305 sonli farmoniga ko'ra 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik biznes subyektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan: yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar; xodimlarining o'rtacha yillik soni: ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan; xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan; ulugurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar; quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlari soni: - engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati 100 kishidan; - mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan; - fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar. Kichik biznes subyektlariga amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra tatbiq etiladigan soliq imtiyozlari va preferensiyalar faqat yuqoridagi sanab o'tilgan subyektlarga taalluqli bo'ladi. U yoki bu korxonaning yuqorida aytilgan subyektlar toifalarining birortasiga kiritilish mezonini bo'lib xodimlarning yillik o'rtacha soni, shu 201 jumladan unitar (sho'ba) korxonalarida, filiallarda va vakolatxonalarida ishlaydiganlar soni hisoblanadi.<sup>23</sup> Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi. Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilar va yagona yer solig'ini to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart. Soliq davri mobaynida, soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq

---

<sup>23</sup> Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik / Hammual.: A.Vahobov, A.Jo'raev. – T.: "Sharq" nashriyoti – 2009. – 400 bet.

qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun, to'lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi: to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i (SK 165-m); nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i (SK 207-m); aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i; yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; qonun hujjatlarida belgilangan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; bojxona to'lovlari; yagona ijtimoiy to'lov; davlat bojlari; tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im; davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovini va yagona yer solig'ini to'lovchilar bundan mustasno); avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

## **2. Yagona soliq to'lovi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 350-361-moddalari)**

Soliq to'lovchilar – mikrofirmalar va kichik korxonalar, xodimlarning sonidan qat'i nazar: savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari; lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yakka tartibdagi tadbirkor. Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga tatbiq etilmaydi: aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalariga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno; yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga; mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalariga. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar hamda oilaviy korxonalardan tashqari yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli. Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmasdan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Amaldagi soliq qonunchiligida mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona soliq to'lovini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari 203 hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari tartibga solingan. Jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng o'n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi. Hisobot yili tugashi bilan qonunchilikka muvofiq belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy



hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi. Bunda yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lash huquqidan mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisobkitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi. Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob, shuningdek ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan to'lovchilar tomonidan, agar ular hisobot yili tugashi bilan qonunchilikka muvofiq hisoblangan, belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmagan bo'lsa, Yagona soliq to'lovini to'lagan hisobot davri uchun amalga oshiriladi. Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar: Soliq kodeksida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni; O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani. Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan Yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa budjetga to'lanishi lozim. Hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, budjet bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi. Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi. Agar Soliq kodeksida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni; 204 O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma: yil yakunlari bo'yicha Yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi; yil yakunlari bo'yicha Yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirib taqdim etilsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi. Soliq solish obyekti – yalpi tushum. Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi: tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini, aksiz solig'ini va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni chegirgan holda (ushbu soliqlarni to'laydigan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi: qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiytadqiqot tashkilotlari uchun - o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun - tovar oboroti; mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi; vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi; tayyorlov tashkilotlari uchun - realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad; lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum; tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik 205 shaxslar uchun - tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi. Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun

realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda hayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tatbiq etilmaydi; agar ushbu moddaning to'rtinchi va beshinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Soliq kodeksining 132- moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar. Soliq solinadigan baza – Soliq kodeksiga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir: davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar; to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar; dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbaida umumiy asoslarda soliq solinadi; hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak; ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa; mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar; Soliq solinadigan nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi: lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'lmagan miqdoriga; brokerlik tashkilotlari uchun - bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga; vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar 206 uchun - realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga. Qonunchilikka muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi: yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o'tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo'yicha esa - u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi; yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

### **3. Yagona yer solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 362-368-moddalari)**

Mazkur soliqning amalga kiritilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni tasarrufidagi yerlaridan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'iy nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ining joriy etilishi soliqqa tortish tizimida uning amal qilishi 209 jarayonini yanada takomillashtirishdan dalolat beradi. Soliqqa tortishning ushbu tizimi xo'jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to'lash borasidagi ishlarni keskin kamaytirdi. Ilgari qishloq xo'jalik

korxonalarini o'z ichiga olgan turdagi soliqlar va yig'implarni to'lashadi. Agar ayrim soliq turlarining har oyda va har yilning har choragida to'lanishini hisobga oladigan bo'lsak, unda ayrim xo'jaliklar davlat soliq organlariga soliqlar bo'yicha 30 dan ortiq hisob-kitoblarni taqdim etishi, 1 yilda ana shuncha to'lov topshiriqnomalarini to'ldirishi kerak bo'lar edi. Endilikda esa, xo'jaliklar 1 yilda 1 marta bir turdagi soliq summasini hisoblab chiqishadi. Soliq to'lovchilar – qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar; qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari. Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi: yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar; qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar; qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar. Qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi. Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilar sifatida qaralmaydi: o'rmon va ovchilik xo'jaliklari; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari. Soliq solish obyekti – qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish obyektidir. Soliq solinadigan baza – soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir. 210 Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkasi uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. Yagona yer solig'i stavkasi (2016 yil uchun) To'lovchilar Normativ qiymatga nisbatan stavka, foizlarda Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari 0,95 Imtiyozlar. Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi: qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga muvofiq kelgan taqdirda, yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi; ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr 211 uchun to'liq miqdorda undiriladi; yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi. Soliq davri – kalendar yilidir. Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-

kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi. Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi). Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha Yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart. Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi: - hisobot yilining 1 sentabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi; - hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

#### **4. Qat'iy belgilangan soliq (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-375-moddalari)**

Soliq to'lovchilar – faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar; yakka tartibdagi tadbirkorlar. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosigina qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi bo'ladi. 212 Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas. Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki ushbu bo'limda belgilangan soliqlarni to'lashlari shart. Asosiy faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno. Mol-mulki ijaraga berishdan olingan daromadlarga Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda umumbelgilangan soliqlar yoki Yagona soliq to'lovi joriy etiladi. Faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliqni to'laydi. Soliq solish obyekt – Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan obyektidir. Soliq solinadiga baza – fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 213 Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq STAVKALARI (2016 yil) N Faoliyat turi To'lovchilar Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (birlik uchun eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda) Toshkent t sh. Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar boshqa aholi punktlari 1 Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash yuridik shaxslar Egallagan maydon (1 kv.metr) 0,1 0,06 0,04 2 Bolalar o'yin avtomatlari yuridik va jismoniy shaxslar Jihozlangan o'rinlar soni (birlikda) 3,0 2,0 1,0 Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq STAVKALARI (2016 yil) N Faoliyat turi Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda) Toshkent shahri Nukus sh. va viloyat

bo'ysunuvidagi shaharlar boshqa aholi punktlari 1 CHakana savdo: oziq-ovqat tovarlari bilan 9,0 6,0 3,0 dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan\* 5,0 4,0 2,0 nooziq-ovqat tovarlari bilan 10,0 6,5 3,0 gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan 5,0 3,0 0,5 oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo) 10,0 6,5 3,0 214 2 Maishiy xizmatlar 3,5 1,5 0,5 3 O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va nonbulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish 2,0 1,5 1,0 4 Boshqa faoliyat turlari 2,0 1,5 1,0 5 Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar: 3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 2,0 8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 3,0 8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 4,0 Soliq davri - bir oy. Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi. Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Soliq davri – bir oy. Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga: yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay; faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi. Soliq solish obyekti o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart. Qat'iy belgilangan soliqni to'lash: - yuridik shaxslar tomonidan - har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay; 215 - yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi. Soliq kodeksida yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hamda savdo faoliyatini amalga oshiruvchi; - yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari belgilangan. Jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar: bojxona to'lovlari; yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda; aksiz solig'i - aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda; budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; davlat boji; avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im. Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi. Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi. Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda topshiradi. Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risidagi arizani olgan tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni tugaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida 216

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi. Tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi. Xodimlarni yollagan holda faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, belgilangan tartibga muvofiq to'laydi. Yakka tartibdagi tadbirkor zimmasiga uning har bir xodimi uchun yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo'yicha nazarda tutilgan stavkaning 30 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq to'lash majburiyati yuklatiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatning bir nechta turini amalga oshirgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq faoliyatning tegishli turlari uchun o'rnatilgan qat'iy belgilangan soliqning eng yuqori stavkasining 30 foizi miqdorida to'lanadi. Yakka tartibdagi tadbirkor soliq solish mazkur faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan faoliyat turi bilan shug'ullangan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq bitta fizik ko'rsatkich uchun oyiga o'rnatilgan qat'iy belgilangan soliq stavkasining 30 foizi miqdorida to'lanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan to'lash uchun belgilangan muddatlarda, mehnat shartnomasi tuzilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tish joyi bo'yicha amalga oshirmayotgan yakka tartibdagi tadbirkor yakka tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliqni o'zi ro'yxatdan o'tkazilgan joy va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joy bo'yicha belgilangan stavkalar o'rtasidagi yuqori stavkaning 30 foizi miqdorida o'zi ro'yxatdan o'tkazilgan joyga to'laydi. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan yakka tartibdagi tadbirkorning har bir yollangan xodimi uchun hisobga olish kartochkalari yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun har bir yollangan xodimga qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turishga asos bo'ladi. Agar o'z faoliyatini to'xtatgan yakka 217 tartibdagi tadbirkor davlat soliq xizmati organiga yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun hisobga olish kartochkalarini belgilangan muddatlarda taqdim etmasa, yakka tartibdagi tadbirkorning majburiyatlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblash to'xtatilmaydi. Yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning kasb-hunar kolleji bitiruvchisi bo'lgan xodimi uchun qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ushbu xodim kollejni tamomlaganidan e'tiboran o'n ikki oy mobaynida ozod etiladi. Agar yakka tartibdagi tadbirkor qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ozod etilsa, mazkur imtiyoz yakka tartibdagi tadbirkorning har bir xodimi uchun qat'iy belgilangan soliq to'lashga ham tatbiq etiladi. Qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan o'zining 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi. Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik subyekti qat'iy belgilangan soliqni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab to'laydi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan

keyin o'n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tilgan paytdan boshlab o'n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan 218 taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to'lanadi.

## **11 – Mavzu. Soliq nazoratining huquqiy asoslari**

### **Reja:**

**1.Soliq nazoratining o'ziga xos jihatlari**

**2.Soliq nazoratining shakllari**

**3.Soliq nazoratini amalga oshirishda soliq tekshiruvlarini o'ziga xos jihatlari**

**Tayanch so'z va iboralar:** soliq to'lovchilar , soliq to'lovchining vakillari, soliq hisoboti , soliq huquqi predmeti, soliq huquqi subyektlari , davlat tomonidan o'rnatilgan va muhofaza etiladigan soliq huquqiy normalari, soliq huquqiy majburiyatlari, yuridik javobgarlik, yuridik javobgarlikka tortilish, soliq huquqi tizimi, soliq munosabatlari tizimi, soliq huquqiy normalari, soliq huquqi uslubi, soliq huquqiy munosabatlar ishtirokchilari, soliq huquqiy normalari.


### **1. Soliq nazoratining o'ziga xos jihatlari.**

**Soliq nazorati bu** – soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga to'liq rioya etishi, soliqlar va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq undirilishi, to'g'ri hisoblanishi ustidan soliq organlari tomonidan olib boriladigan nazoratdir.

Davlatning moliyaviy nazorati davlat moliya siyosatini amalga oshirish, moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar yaratish uchun mo'ljallangandir. Hamma davlatlarda, ular qurilishining o'ziga xosligiga qarab, moliya nazoratining o'z tizimi tarkib topgan. Shunga qaramasdan, chet davlatlarda nazorat-taftish tarmog'ining tashkil etilishi va ish-faoliyati u yoki bu jihatdan ko'p yillik xalqaro tajribada ifodalangan umumiy prinsiplarga asoslanadi. Masalan, har qanday yirik dasturni amalga oshirish albatta kichik nazorat tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Bu maqsadlarga, odatda, qandaydir muhim davlat dasturi uchun ajratilgan mablag'lar umumiy hajmidan bir-ikki foiz ajratiladi. Soliq nazorati davlat moliyaviy nazoratining bir turi bo'lib, soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat. Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi. So'nggi vaqtlarda respublikamiz hukumati tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilish hamda moliyaviy jazolarni qo'llashni erkinlashtirish borasida juda muhim qarorlar qabul qilinmoqda. 75 Masalan, 2011, 2012, 2013 va 2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining Soliq nazorati bobiga bir qator qo'shimcha o'zgartishlar kiritildi. Jumladan, soliq tekshiruvchining muddatlari, davriyligi, tekshiruvni o'tkazishga doir qo'shimcha shartlarda tadbirkorlik subyektlariga bir muncha engilliklar berildi. Jumladan, O'R SKning 90-moddasiga asosan soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) bir yilda ko'pi bilan bir marta, belgilangan normalar va qoidalarga o'z vaqtida hamda to'liq hajmda rioya etayotgan soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari esa, ikki yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi. Xususiy bank va boshqa xususiy moliya institutlari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) besh yilda ko'pi bilan bir marta, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) to'rt yilda ko'pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari)

uch yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi. Aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining budget hamda markazlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yil mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmaydi. Shuningdek, 2015 yil 20 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra Soliq kodeksining bir necha moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. Jumladan Soliq kodeksining 91-moddasiga asosan, soliq tekshiruvi soliq to'lovchining tekshiruv o'tkazilayotgan yildan bevosita oldingi ko'pi bilan besh kalendar yildagi foliyatini qamrab oladi. Bunda tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat oxirgi rejali tekshirishdan keyingi, lekin yangi tekshirishlar o'tkazilayotgan yildan bevosita oldingi besh kalendar yildan ko'p bo'lmagan davrni qamrab oladi. Nazorat vositasida bajarilayotgan topshiriqning to'liqligi, o'z vaqtida va samarali amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ishonchliligi, topshiriqni bajarish paytida mansabdor shaxslarning hatti-harakatlari va o'tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligi aniqlanadi, faoliyatni yaxshilash va ishda yo'l qo'yilgan huquqbuzarlik va kamchiliklarni bartaraf etish uchun ichki rezervlar aniqlanadi, shuningdek qonunchilik hujjatlarni buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari qo'llaniladi. Soliq amaliyoti davlat budgetiga soliqlarni o'z vaqtida tushishiga ta'sir ko'rsatuvchi ikki asosiy omilni ko'rsatadi. Birinchisi, soliq to'lovchilarning hisobvaraqlarida mablag'ning yo'qligi. Ikkinchisi esa soliq to'lovchilar soliq to'lashdan bosh tortishidir. Soliq nazorati bir qator tamoyillarga asoslangan holda olib boriladi. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshiriladi: nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, holislik va oshkoralik; yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashmaslik.





## **2. Soliq nazoratining shakllari.**

Soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: soliq to'lovchilarni hisobga olish; soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish; budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish; kameral nazorat; naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji; soliq tekshiruvlari; fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash; aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish; 77 davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish; boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

Boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va shkilotlar ustidan nazorat qilish	Soliq to'lovchilarni hisobga olish	Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish
Davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish	<p style="text-align: center;"><b>Soliq nazorati shakllari</b></p>	Byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish
Aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish		Kameral nazorat
Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash	Soliq tekshiruvlari	Naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji

Bojxona organlari tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha soliq nazoratini o'z vakolatlari doirasida Soliq kodeksiga va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Soliq nazorati amalga oshirilayotganda Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlarining qoidalarini buzgan holda soliq to'lovchi to'g'risida axborot to'plash, saqlash, undan foydalanish va uni tarqatishga, shuningdek soliq sirini oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi. Qonun hujjatlarining talablarini buzgan holda olingan soliq to'lovchi to'g'risidagi hujjatlar yoki boshqa axborot soliq to'lovchini soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo'la olmaydi. boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va shkilotlar ustidan nazorat qilish soliq to'lovchilarni hisobga olish soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish davlat daromadiga qaratilgan

mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish kameral nazorat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash soliq tekshiruvlari naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji Soliq nazorati shakllari 78 Masalan, Soliq kodeksiga asosan soliq tekshiruv davomida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligidan dalolat beruvchi hujjatlar va huquqbuzarlik predmetlari soliq tekshiruvini o'tkazayotgan davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxsining asoslantirilgan qarori asosida olib qo'yilishi mumkin. Hujjatlarni va predmetlarni olib qo'yish soliq to'lovchi ishtirokida amalga oshiriladi, hujjatlarni va predmetlarni majburan olib qo'yish xolislar hamda soliq to'lovchi ishtirokida amalga oshiriladi. Bunda olib qo'yilayotgan barcha hujjatlar va predmetlar xolislariga hamda olib qo'yishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga ko'rsatiladi. Lekin soliq inspektori ushbu qoidani buzgan holda soliq to'lovchi va xolislar ishtirokisiz olib qo'yilgan xujjatlar soliq to'lovchini soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo'la olmaydi.

**Soliq to'lovchilarni hisobga olish.** Davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchilarning hisobini yuritadi. Soliq to'lovchilarning hisobini yuritish ularni hisobga qo'yish va ular to'g'risidagi hisob ma'lumotlarini yuritish orqali amalga oshiriladi. Soliq to'lovchi hisobga qo'yilayotganda unga soliq to'lovchining identifikatsiya raqami beriladi hamda soliq to'lovchi to'g'risidagi hisobga qo'yish ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestriga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan yuritiladi. Davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to'lovchiga berilgan identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki soliq to'lovchi bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan taqdirda, davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma soliq to'lovchining hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami muayyan soliq to'lovchi hisobga qo'yilganda unga beriladigan raqamdir. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami o'zgarmaydi va bekor qilinganidan keyin boshqa soliq to'lovchiga berilmaydi. Identifikatsiya raqami bir marta beriladi va faqat yuridik shaxsning tugatilishi, jismoniy shaxsning vafoti yoki boshqa mamlakatga ko'chib ketishi munosabati bilan, ushbu voqealar ro'y bergandan keyin uch yil o'tgach, bekor qilinishi mumkin. Soliq to'lovchilarga identifikatsiya raqamlarini berish Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 130-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini berish va qo'llash tizimi to'g'risida»gi nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining identifikatsiya raqamlari yagona reestrini shakllantirish; soliq to'lovchilarni hisobga olishni tartibga solish; soliqlarning byudjetga tushishini hisobga olish va soliq organlarining o'zaro hamkorligi bo'yicha ma'lumotlarni komp'yuterda ishlashni joriy 79 etish; soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha axborotlarning yaxlitligi va ishonchliligi ko'p tomonlama tekshirilishi, nazorat qilinishini tashkil etish; soliq organlari bilan davlat xokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, bank muassasalari va moliyaviy tuzdagi, shuningdek, ko'char va ko'chmas mulk bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar o'rtasida axborot ayirboshlashni bixillastirish; daromadlarni, to'langan soliqlarni va xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan ijtimoiy va boshqa sug'urta bo'yicha davlat jamg'armalariga to'lovlarni hisobga olishni bixillastirishni ta'minlashga qaratilgan. Identifikatsiya raqami soliq to'lovchining barcha soliq majburiyatlari va barcha ijtimoiy huquqlari bo'yicha yagona hisoblanadi, uning davlat hokimiyati va nazorat organlari bilan davlat ijtimoiy sug'urtasi hamda boshqa sug'urta jamg'armalaridan to'lovlar (mablag'lar) olish bo'yicha barcha o'zaro munosabatlarida qo'llanadi va o'zgartirilmaydi. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami quyidagilarda albatta yozib qo'yilishi kerak: yuridik va jismoniy shaxslarning davlat ro'yxatidan

o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoynomada, ro'yxatdan o'tkazish davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida ularni hisobga qo'yish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi; faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanishga doir litsenziyasida; cheklardan tashqari, pul bilan hisob-kitob qilinadigan to'lov hujjatlarida, shuningdek ularning elektron shaklida; davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan moliyaviy va soliq hisoboti hujjatlarida; yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tuziladigan xo'jalik, fuqarolik-huquqiy hamda mehnat shartnomalarida; yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bitimlar tuzganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda, shu jumladan hisobvaraqa-fakturalar hamda transport hujjatlarida; yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarda qiymat ifodasiga ega bo'lgan moliyaviy, mulkiy hamda boshqa majburiyatlar yuzaga kelganligini, shuningdek ularning bajarilishini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami to'qqizta raqamli belgidan iboratdir, dastlabki 8 raqam soliq to'lovchining o'z raqami, oxirgi raqam esa nazorat sonini tashkil etadi. Shunday qilib, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami tuzilishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: Soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini kodlashtirish uchun seriyali tartib usulidan foydalanadi. Bunda soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlari barcha to'plami soliq to'lovchilarning tiplarini aniqlashtiruvchi ikki turkumlash guruhiga: jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan. Ushbu maqsadlarda quyidagi kodlardan foydalanilishi kerak: 20000000Xdan 29999999Xgacha — yuridik shaxslar uchun; 80 40000000Xdan 79999999Xgacha — jismoniy shaxslar uchun; bunda X-soliq to'lovchining identifikatsiya raqami sonlari izchilligi to'g'riligini nazorat qiluvchi son, ushbu son O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasida komp'yuter tomonidan soliq to'lovchiga identifikatsiya raqami berish jarayonida muayyan algoritm bo'yicha shakllantiriladi. Zarurat bo'lganda, kodlashtirish tizimi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida quyidagi kodlar zaxira qilingan: 00000000Xdan 19999999Xgacha; 30000000Xdan 39999999Xgacha; 80000000Xdan 99999999Xgacha. Солиқ тўловчининг идентификация рақами тўққизта рақамли белгидан иборатдир, дastлабки 8 рақам солиқ тўловчининг ўз рақами, охириги рақам эса нazorat сонини ташкил этади. Soliq to'lovchi sifatida quyidagilar hisobga qo'yiladi: yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari o'zlari joylashgan yerdagi (pochta manzilidagi) davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxsning soliq majburiyatini mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo'linmalari — alohida bo'linmaning joylashgan yeridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organida; yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari — doimiy muassasaning joylashgan yeridagi va (yoki) faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida; mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lovchilar bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining norezidentlari — soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida. Soliq to'lovchida u hisobga qo'yilganidan keyin yer solig'i, molmulk solig'i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash bo'yicha majburiyati hisobga qo'yilgan joydan tashqarida yuzaga kelgan taqdirda, soliq to'lovchi soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida obyekt bo'yicha hisobga qo'yilishi kerak. Bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan yuridik va jismoniy shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga qo'yilishi kerak. Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizaga yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi 81 hujjatning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi. Jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari soliq solish obyekti vujudga kelgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ushbu Kodeksga muvofiq davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Masalan, fuqaro A.Axmedov Olmazor tumanidan uy-joy sotib oldi. U o'n kunlik myddat ichida

Olmazor tuman soliq inspeksiyasiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari mazkur faoliyatni amalga oshirish boshlangan kundan e'tiboran bir yuz sakson uch kundan kechiktirmasdan davlat soliq xizmati organiga doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxsning — O'zbekiston Respublikasi norezidentining hisobga qo'yish to'g'risidagi arizasiga shartnoma yoki yuridik shaxs — O'zbekiston Respublikasining norezidenti nomidan O'zbekiston Respublikasida ish yuritish uchun berilgan ishonchnoma, shuningdek majburiyatlarining bajarilishi doimiy muassasa tashkil topishiga olib keladigan shartnoma mavjud bo'lsa, shu shartnoma ilova qilinadi. Yer solig'i, shuningdek ko'chmas mulkka taalluqli qismida molmulk solig'i to'lovchilari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi norezidentlari yer uchastkasiga, ko'chmas mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizaga unda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida taqdim etishi shart. Arizaga unda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi. Davlat soliq xizmati organi hisobga qo'yish to'g'risidagi ariza va unga ilova qilingan hujjatlar asosida soliq to'lovchiga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini beradi, soliq to'lovchi haqidagi hisobga qo'yish ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestriga kiritadi va tegishli ariza berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay 82 kundan kechiktirmay soliq to'lovchi hisobga qo'yilganligi to'g'risida guvohnoma beradi.

***Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish.***

Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq to'lovchi bo'yicha hamda u to'layotgan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlarining ma'lumotlari, Soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlartomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar, shuningdek davlat soliq xizmati organlari boshqa manbalardan to'plagan, shu jumladan soliq tekshiruvlari vaqtida to'plagan axborotlar asosida shakllantiriladi. Soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Ushbu qoidalar tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga, shuningdek undirilishi tegishli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa majburiy to'lovlarga tatbiq etilmaydi. Budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlarni hisobga olish. Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish budjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi. Davlat soliq xizmati organlari budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning,

shuningdek penya va jarimalarning hisoblangan hamda to'langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi. Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning har bir turi bo'yicha ochiladi. Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi. 83 Bojxona organlari tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha budgetga hamda davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yuritadi. Undirilishi boshqa davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim turdagi boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha budgetga tushumlarni hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

**Kameral nazorat.** Kameral nazorat soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir. Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yerda amalga oshiriladi. Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi. Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafvutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart. Soliq kodeksi 70-moddasining birinchi qismiga muvofiq, kameral nazorat soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir, ushbu Kodeks 71-moddasining sakkizinchi qismiga muvofiq naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji natijalaridan faqat taqdim etilayotgan soliq hisoboti to'g'riligini tahlil etish uchun, shuningdek soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yuritish uchun foydalaniladi. Kameral nazorat yoki xronometraj natijasi soliq to'lovchini javobgarlikka tortish uchun asos 84 bo'la olmaydi.<sup>24</sup> Lekin O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 96- moddasiga asosan, soliq to'lovchi tomonidan soliq hisoboti va (yoki) moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari bo'yicha tafvutlarning asoslari yoxud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmaganda davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

**Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji.** Soliq to'lovchining naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji xronometraj o'tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji naqd hisob-kitob asosida tovarlar realizatsiya qiladigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan soliq to'lovchi huzurida bevosita tovarlar realizatsiya qilinadigan, xizmatlar ko'rsatiladigan joyda davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkaziladi. Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruq soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan tushum miqdori kamaytirilganligini taxmin qilish imkonini beradigan tafvutlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar

---

<sup>24</sup> Xo'jalik sudlari tomonidan o'zbekiston respublikasi soliq kodeksi umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabrdagi 271-sonli qaror

o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi. Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda xronometraj o'tkaziladigan soliq to'lovchi, xronometrajni o'tkazish joyi va muddati, xronometraj o'tkaziladigan davr, xronometraj o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishiga sabab bo'lgan tafovut, shuningdek davlat soliq xizmati organining xronometraj o'tkazadigan mansabdor shaxslari albatta ko'rsatiladi. Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji kelib tushayotgan pul tushumini davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan kuzatish va qayd etish orqali o'tkaziladi. Xronometrajni o'tkazishga boshqa shaxslarni, shu jumladan ekspertlarni jalb etishga yo'l qo'yilmaydi. Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini amalga oshirish jarayonida tekshiruv o'tkazishga, soliq to'lovchidan biron bir axborot yoki tushuntirishlar talab qilishga, soliq to'lovchiga nisbatan talablar taqdim etishga yoki uning faoliyatiga boshqacha tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi, bundan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasida saqlanayotgan xronometraj o'tkazilayotgan vaqtga doir ma'lumotlarni olish mustasno.

#### ***Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilishi.***

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish Nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga kiritilgan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari majburiy qo'llanilgan holda amalga oshiriladi, bundan naqd pul bilan hisob-kitob qilishni, faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirishi mumkin bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslar mustasno. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi texnik jihatdan vaqtincha nosoz bo'lgan yoki elektr energiyasi bo'lmagan taqdirda naqd pul bilan hisob-kitob qilishni xaridorlarga kvitansiyalar, chiptalar, talonlar yoki chekka tenglashtirilgan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan shakldagi qat'iy hisobdagi boshqa hujjatlarni berish orqali amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llashda quyidagilar majburiy hisoblanadi: 1) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlarida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi berilgan holda ro'yxatdan o'tkazish; 2) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish; 3) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining chekini iste'molchiga berish; 4) davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini tekshirishiga ruxsat etish. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarida saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanishga haqli.

#### ***Aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni tamg'alash. Moliya inspektori lavozimini joriy etish.***

Tamaki va alkogolli mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda hamda shartlarda aksiz markasi bilan tamg'alanishi kerak, pivo bundan mustasno. Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar tamaki va alkogolli tovarlarni aksiz markasi bilan tamg'alash uchun mas'uldir. Aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni tamg'alash qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati 86 organlari va davlat bojxona xizmati organlari amalga oshiradi. Aksiz solig'ini to'lovchi korxonalarda va boshqa ayrim korxonalarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliya inspektori lavozimi joriy etilishi mumkin. Moliya inspektori lavozimi joriy etiladigan korxonalar ro'yxati va uning faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

#### ***Davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'larining davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish.***

Davlat soliq xizmati organlari davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'larining davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

### ***Boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan nazorat qilish.***

Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq undirib olinishi hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi. Soliq nazorati samaradorligini oshirish, soliq qonunchiligini buzilishini keskin kamaytirish va soliq organlari xodimlarining nazoratini qonuniy amalga oshirishning ta'minlash yo'llari, bizningcha, quyidagilardir: - soliqqa tortish darajasini pasaytirish; - soliqqa tortishning murakkabligini va tez-tez o'zgartirishlar kiritishni kamaytirish; - soliq qonunchiligining mukamalligini ta'minlash; - korxonalarining daromad olib ishlashlariga iqtisodiy va ma'muriy mexanizmlar orqali imkoniyatlar yaratish; - nazorat organlar faoliyatini ham nazorat qilish; - soliq to'lovchilar – tadbirkorlarning huquqiy va iqtisodiy bilimini oshirish; - nazorat qilinadigan korxonalarni tanlashning ilmiy asoslangan usullarini, yaxshi samara beradigan variantlarini ishlab chiqish lozim; - joylarga bormasdan soliq organining o'zida soliq tekshirishlarini o'tkazish samaradorligini oshirish lozim; - soliq organlari xodimlarining o'z vazifalarini suiste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida (ularning ma'lum norasmiy to'lovlar evaziga tadbirkorlarning soliqqa tortiladigan daromadlarini yashirishlariga sherik bo'lishlari hollarining mavjudligi va buning oqibatida budjet katta zarar ko'rayotganligi hech kimga sir emas) ish haqlarini oshirish va yashash uchun yetarli daraja bo'lishini ta'minlash zarur (umuman, butun jamiyatda ish haqlarini (daromadlarini) oshirish masalasini hal qilish lozim); - tadbirkorlar tomonidan o'z huquqlarini xo'jalik sudi orqali talab qila olish tizimini ishlab chiqish ham muhimdir; - moliyaviy jazo turlarini va ularni qo'llash sabablarini yengillashtirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish (ular katta miqdorda va arzimagan xatoliklar uchun ham qo'llaniladi); - soliq organlarining noqonuniy harakatlariga doir javobgarlik mexanizmi ishlab chiqilishi kerak. Bunday sharoitda soliq nazorati asosan halol soliq to'lovchilarga emas, noqonuniy yo'llar bilan daromad qilishni maqsad qiluvchilarga qaratiladi. Bunday firma yoki korxonalarining yopilishidan davlat va jamiyat katta zarar ko'rmaydi. Ushbu vazifalar amalga oshirilgandan keyingina soliq nazoratini kuchaytirish mumkin va u kutilgan natijani berishi mumkin.<sup>25</sup> O'z navbatida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz rivojiga tobora katta hissa qo'shib kelayotgan tadbirkorlik subyektlarining qonuniy faoliyatini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek :“Tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim.”<sup>26</sup> Bu borada davlatimiz tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Mamlakatimizda qabul qilingan qator qonunlar va qonunchilik hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari va ma'muriy tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish uchun qat'iy tartib o'rnatish va ana shu idoralarning rahbarlari hamda mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etildi”.<sup>27</sup> Shu bilan birga 2015 yil 15 maydagi O'zbekiston

<sup>25</sup> Toshmurodova B. Soliiq nazorati. TMI, 2007 y

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining n majlisidagi ma'ruzasi. 2016 yil 15 yanvar.

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2016 yil 16 yanvar.



Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga asosan Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o'rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha choratadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unda: tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to'sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirish; xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma'muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayonini davom ettirish; barcha turdagi ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni yanada soddalashtirish; xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilash masalalari inobatga olingan.<sup>28</sup> Shundan kelib chiqib “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga “Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar” bobi hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga “Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilganlik, qonunga xilof ravishda aralashganlik hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik” boblari kiritildi. Unga ko'ra xususiy mulk huquqini buzganlik; tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliyaxo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzganlik; litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik hamda imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilganlik va boshqa huquqbuzarlik va jinoyatlar uchun Nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisiga nisbatan javobgarlik choralari belgilandi.<sup>29</sup> Shuningdek 2013 – 2015 yillarda soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Buni keying boblarda ko'rib chiqamiz.

### **3. Soliq nazoratini amalga oshirishda soliq tekshiruvlarini o'ziga xos jihatlari.**

Soliq tekshiruvi soliq nazoratining eng asosiy shakllaridan bo'lib, 1998 yil 24 dekabrda “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida”gi qonunga ko'ra soliq tekshiruvi orqali amalga oshiriladigan davlat nazoratining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.


O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan, soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan

---


<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 20-son, 251-modda.

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 33-son, 439-modda

amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi. Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir. Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.



Masalan, bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig'imlar, ijara haqi to'liq tushishi va ularning topshirilishi hisobga olinishiga, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan, to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanilishiga, shuningdek savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishiga oid qisqa muddatli tekshiruvlar o'tkaziladi. Bunda davlat soliq xizmati organlarining qonun hujjatlarida vakolat berilgan bo'linmasi boshlig'ining tekshiruv o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarning tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'ladi. Davlat soliq xizmati organlarining qonun hujjatlarida vakolat berilgan bo'linmasi nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organi yoki uning tegishli hududiy bo'linmasini o'tkazilgan qisqa muddatli tekshiruv to'g'risida tekshiruv o'tkazilgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida xabardor qiladi. Soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo'linadi: rejali soliq tekshiruvi; rejadan tashqari soliq tekshiruvi; muqobil tekshiruv.



Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) — tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar 91 faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir. Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruvi (taftishi) quyidagi hollarda o'tkaziladigan tekshiruvdir: yuridik shaxs tugatilayotganda; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiquvchi tekshiruvlarni o'tkazish zarur bo'lganda; davlat soliq xizmati organiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo'shimcha ma'lumotlar tushganda. Muqobil tekshiruv — operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'langan va turli soliq to'lovchilarda bo'lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruvdir. Muqobil tekshiruv uchinchi shaxslarga nisbatan, agar soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organida mazkur shaxslar bilan bog'liq bo'lgan, soliq to'lovchi o'tkazgan operatsiyalar soliq bo'yicha hisobga olishda to'g'ri aks ettirilganligi haqida qo'shimcha ma'lumot olish zaruriyati kelib chiqsa, o'tkaziladi. Qisqa muddatli tekshiruvlar rejadan tashqari soliq tekshiruvi tarzida o'tkaziladi.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to'lovchi soliq *tekshiruvlarining ishtirokchilaridir*. Soliq tekshiruvlarida soliq to'lovchining vakili ishtirok etishi, soliq tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo'lmagan ekspert, tarjimon va xolislar jalb etilishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari birlashmalarining a'zosi bo'lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining soliq tekshiruvlari tadbirkorlik faoliyati subyektlari so'roviga ko'ra mazkur birlashmalar vakillarining ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

Rejali soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi: tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan olingan, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan ko'chirma. Bunda ko'chirma uning asliga to'g'ri ekanligi ko'rsatilgan holda tegishli imzo va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim; tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasi asosida davlat soliq xizmati organining tekshiruvni maqsadlari, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr va tekshiruv o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i. 92 Rejadan tashqari soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi: nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan ob'ektning nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruvning maqsadlari, tekshiriladigan davr (taftish uchun), tekshiruv o'tkazish muddatlari va uni asoslovchi sabablar ko'rsatilgan tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori; davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli

organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr ko'rsatilgan holdagi buyrug'i. Muqobil tekshiruv o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi: nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan ob'ektning nomi, tekshiruv o'tkazish maqsadlari, muddatlari, shuningdek o'zaro munosabatlarning tekshirilishi lozim bo'lgan predmeti ko'rsatilgan holdagi muqobil tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori; davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan holdagi buyrug'i. Tugatilayotgan yuridik shaxsni rejadan tashqari soliq tekshiruvdan o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi: tugatuvchining yoki yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning yuridik shaxs tugatilishi to'g'risidagi yozma bildirishi; davlat soliq xizmati organining tekshiruv maqsadlari, tekshiruv o'tkaziladigan muddatlar va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i. Prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish uchun qo'zg'atilgan jinoiy ish mavjudligi asos bo'ladi. Bunda tekshiruvga xo'jalik yurituvchi subyektning faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi bilan bog'liq faoliyati qamrab olinishi mumkin bo'lib, bu haqda tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar` kunidan oshmasligi kerak. Alohida hollarda bu muddat nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori bilan uzaytirilishi mumkin. So'nggi yillar mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida tekshiruv o'tkazish muddatlari va soliq tekshiruvlari qisqardi. Jumladan, 2011 yil 13 sentyabrdagi "Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlar qisqartirilganligi munosabati bilan O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar 93 kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga ko'ra mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari — kichik tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan soliq tekshiruvining muddatini uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, soliq to'lovchilar moliyaxo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) bir yilda ko'pi bilan bir marta, belgilangan normalar va qoidalarga o'z vaqtida hamda to'liq hajmda rioya etayotgan soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari esa, ikki yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi. Aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining byudjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yil mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmaydi. Yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliyaxo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki uch yil mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmaydi. 2013 yil 7 oktyabrdagi "O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"ga O'zbekiston Respublikasining qonuniga ko'ra xususiy bank va boshqa xususiy moliya institutlari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) besh yilda ko'pi bilan bir marta, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) to'rt yilda ko'pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) uch yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi. Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddati bir ish kunidan oshmasligi kerak. Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi. 2015 yil 20 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra esa O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 89-moddasiga soliq tekshiruvini tayinlash to'g'risidagi buyruqning ijrosi sud tomonidan 94 to'xtatilgan

taqdirda, soliq tekshiruvini o'tkazish muddatini hisoblash ham to'xtatilishi to'g'risidagi qoida belgilab qo'yildi. 22 O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 14-15-boblarida soliq tekshiruvi va uni o'tkazish tartibi belgilangan bo'lib, yuqorida ko'rib o'tganimizdek yildan yilga soliq tekshiruvlarini qisqartirish yuzasidan ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Bu mamalakatimizda tadbirkorlik suyektlarini yanada rivoshlanishi uchun keng shart-sharoit yaratib beradi.

## **12-Mavzu. Davlat boji va bojxona to'lovlari huquqiy tartibga solish**

### **Reja:**

- 1. Davlat boji**
- 2. Bojxona to'lovlari**
- 3. Erkin iqtisodiy zonalar**

**Tayanch so'z va iboralar:** O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari, budjetdan ajratiladigan subsidiya, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, taqsimlangan foyda, yuridik shaxs, aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati, beg'araz asosda beriladigan mol-mulk.

### **1. Davlat boji (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 326-342-moddalari)**

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lovdur O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig'imi tariqasida undiriladi. Davlat bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Davlat bojini to'lovchilardir – yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Undirish obyektlari: Davlat boji quyidagilardan undiriladi: 186 1) sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyasiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun; 2) da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellyasiya va kassatsiya shikoyatlaridan; 3) notariuslar va O'zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun; 4) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy

guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun; 5) chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni berganlik uchun; yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek O'zbekiston 187 Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan; 6) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun; 7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik uchun; 8) yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun; 9) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun; 10) ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma berganlik uchun. Soliq qonunchiligida Umumiy yurisdiksiya sudlarida, xo'jalik sudlarida, notarial harakatlar amalga oshirilganda, fuqarolik holati dalolatnomalarini, chet elga chiqish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berishda, konsullik yig'implari davlat bojini to'lashdan qayd etishda va boshqa harakatlarni amalga oshirganda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadigan holatlar belgilangan. Jumladan, Umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi: da'vogarlar - ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan; da'vogarlar - mualliflik huquqlari va turdosh huquqlardan, shuningdek ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomiga, seleksiya yutug'iga bo'lgan huquqdan kelib chiqadigan da'volar yuzasidan; da'vogarlar - alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan; da'vogarlar - mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek boquvchisi vafot etganligi tufayli etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan; da'vogarlar - noqonuniy hukm etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazo berish tufayli jismoniy shaxsga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar yuzasidan; da'vogarlar - jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan va boshqalar; Xo'jalik sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi: qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bog'liq da'volar bo'yicha; tadbirkorlik subyektlari - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda; arizachi va javobgar - qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) o'z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmagan korxonalarini tugatishga doir ishlar bo'yicha va boshqalar. Notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi: shaxslar - davlat pensiyalari va nafaqalarini olish uchun zarur bo'lgan, shuningdek vasiylik qilish va 188 farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar yuzasidan hujjatlarning ko'chirma nusxalari to'g'riligini ularga tasdiqlab berganlik uchun; shaxslar - mol-mulkini davlat foydasiga, shuningdek yuridik shaxslar foydasiga hadya qilish to'g'risidagi vasiyatnomalari va shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun; davlat soliq xizmati organlari va moliya organlari - ularga davlatning merosga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) berganlik, shuningdek ushbu guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar uchun va boshqalar. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat boji to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi: xalq ta'limi organlari, balog'atga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar - yetim bolalarni va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni bolalar muassasalariga va o'quv yurtlariga yuborish uchun


tugʻilganlik toʻgʻrisida takroriy guvohnomalar berganlik uchun; jismoniy shaxslar - tugʻilish, oʻlim qayd etilganligi uchun, ularga farzandlikka olingan, otalik belgilangan, jinsi oʻzgartirilgan hollarida, shuningdek fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish chogʻida yoʻl qoʻyilgan xatolar munosabati bilan tugʻilganlik toʻgʻrisidagi hujjatlar yozuvlari oʻzgartirilgan, toʻldirilgan va tuzatilgan taqdirda guvohnomalar berganlik uchun. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari davlat bojini toʻlashdan quyidagi hollarda ozod qilinadi: diplomatik pasport berganlik uchun; quyidagi hollarda xorijga chiqish uchun ruxsatnoma berganlik uchun: yaqin qarindoshlari vafot etgan yoki ular dafn etilgan joylarni ziyorat qilgan taqdirda; fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari boʻyicha huquqiy yordam koʻrsatish toʻgʻrisidagi shartnomalarga (bitimlarga) binoan ular chet el sudlariga fuqarolik va jinoyat ishlari yuzasidan taraflar, guvohlar va ekspertlar sifatida chaqirilganda; oʻn olti yoshga toʻlmagan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi guvohnomasini berganlik uchun; toʻliq davlat taʼminotida boʻlganlar - Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berganlik uchun va boshqalar. Konsullik yigʻimlari quyidagi hollarda undirilmaydi: Oʻzbekiston Respublikasining konsullik yigʻimlarini undirishdan voz kechish toʻgʻrisidagi xalqaro shartnomasi mavjud boʻlsa; Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini repatriatsiya qilish ishlari boʻyicha; chet el diplomatik pasportlariga oʻzarolik asosida viza qoʻyganlik uchun; mehnat staji, fuqarolarning ijtimoiy taʼminoti toʻgʻrisidagi, alimentlar undirish toʻgʻrisidagi ishlarga doir hujjatlarni soʻrab olganlik va legallashtirganlik uchun va boshqalar. Fuqarolarni turar joyga qayd etganlik va roʻyxatdan chiqarganlik yoxud turgan joyi boʻyicha hisobga olganlik uchun davlat boji toʻlashdan quyidagilar ozod qilinadi: qariyalar va nogironlarning internat-uylarida yashovchi qariyalar va nogironlar; maktab-internatlar, akademik litseylar va kasbhunar kollejlarning toʻliq davlat taʼminotida boʻlgan va yotoqxonalarda yashovchi oʻquvchilari. Davlat boji, davlat boji undiriladigan harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda toʻlanadi. Toʻlovchining davlat bojini naqd pulsiz shaklda toʻlaganligi fakti bankning toʻlov ijro etilganligi toʻgʻrisidagi belgisi boʻlgan toʻlov topshiriqnomasi bilan tasdiqlanadi. Toʻlovchining davlat bojini naqd pul shaklida toʻlaganligi fakti bank tomonidan toʻlovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitansiya yoki Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi belgilagan shaklda toʻlovni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoxud davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan toʻlovchiga beriladigan kvitansiya bilan tasdiqlanadi. Davlat boji toʻlov hujjatlari asosida budjet tasarrufiga oʻtkaziladi, davlat bojining xizmatlari uchun davlat boji undirilayotgan davlat organi tasarrufida qoldirilayotgan qismi bundan mustasno. Bojning bir qismi davlat organi tasarrufida qoldirilgan taqdirda davlat boji quyidagi tartibda toʻlanadi: harakatlari uchun davlat boji undirilayotgan davlat organi tasarrufida qoldiriladigan summaga taalluqli alohida toʻlov hujjatlari orqali; budjet daromadlarining tasnifiga muvofiq budjetga oʻtkazilishi kerak boʻlgan summaga taalluqli alohida toʻlov hujjati orqali. Davlat bojining davlat organi tasarrufida qoldiriladigan miqdori qonun hujjatlarida belgilanadi. Mulkiy nizo boʻyicha sudga daʼvo arizasi berilganda, shuningdek mol-mulkning oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash shartnomasini notarial tartibda tasdiqlashda, merosga boʻlgan huquqni rasmiylashtirishda, agar daʼvo qiymati, shartnoma summasi yoki meros miqdori chet el valyutasida belgilansa, davlat boji qonun hujjatlarida belgilangan hollarda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda chet el valyutasida undirilishi mumkin. Amaldagi Soliq kodeksida sudlarda davlat bojini undirishning, notarial harakatlar bajarganlik uchun davlat bojini undirishning oʻziga xos xususiyatlari; konsullik yigʻimini toʻlash tartibi; davlat bojini boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan undirishning oʻziga xos xususiyatlari; davlat boji toʻlovlari va tushumlarini hisobga olish va qaytarish tartiblari belgilangan.

## **2. Bojxona toʻlovlari (Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 343-344-moddalari)**

Bojxona organlari bojxona ishini amalga oshirishda bojxona toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida belgilangan bojxona toʻlovlarini undiradi. Bojxona toʻlovlarini toʻlovchilar, bu toʻlovlarni hisoblab chiqarish, toʻlash, qaytarish va undirish tartibi, shuningdek bojxona toʻlovlari boʻyicha imtiyozlar,

agar soliq qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi. Tovarlar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishda aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksida belgilanadi. Bojxona to'lovi O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda eksport-import operatsiyalarining bajarilishi munosabati bilan undiriladigan to'lovdur. Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda hamda bojxona to'g'risidagi qonun 190 hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda bojxona to'lovlarining quyidagi turlari to'lanadi: - boj; - qo'shilgan qiymat solig'i; - aksiz solig'i; - bojxona yig'implari. Boj – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lovdur. Bojlarning stavkasi butun O'zbekiston Respublikasining barcha hududida yagona bo'lib, tovarlarni bojxona hududidan olib o'tuvchi shaxslar, bitimlarning turlari va boshqa omillarga qarab o'zgarishi mumkin emas. Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plami boj tarifi, deb ataladi. Tovar nomenklaturasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida import boji, eksport boji, mavsumiy va alohida (maxsus, antidemping, kompensatsiya) boj qo'llaniladi. Bojxona bojlarining va soliqlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida olib kiriladigan tovarlarga nisbatan bojlarining alohida turi vaqtincha qo'llanilishi mumkin. Masalan, maxsus bojlar, bosharti, o'xshash va bevosita raqobat qiluvchi tovarlar bojxona hududiga O'zbekiston Respublikasidagi tovar ishlab chiqaruvchilarga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan miqdorda va shartlarda olib kirilayotgan bo'lsa, himoya chorasi sifatida qo'llaniladi. Dempinga qarshi bojlar qo'uidagi hollarda qo'llaniladi: tovarlar bojxona hududiga ularning olib chiqilgan davlatda ayni vaqtda amalda bo'lgan real qiymatdan past narhda olib kirilsa, agar bunday olib kirish O'zbekiston Respublikasining shunga o'xshash tovar ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfini tug'dirsa yoxud O'zbekiston Respublikasida shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa.





O'zbekiston Respublikasida boj stavkalarining quyidagi turlari qo'llaniladi: boj undiriladigan bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan advalor stavkalar; boj undiriladigan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavkalar (1 kg. Tovar uchun yoki 1 litr uchun); bojning advalor hamda xos turlarini o'z ichiga oladigan aralash stavkalar. Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qonun hujjatlariga muvofiq boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i solinadi. Tovarlar qaytarib olib chiqilgan taqdirda ilgari to'langan boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i summalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi lozim. Bojxona yig'implarining ro'yxati va ularning stavkalari qonun hujjatlarida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga asosan bojxona organlari tomonidan quyidagi harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilganligi uchun bojxona yig'implari undiriladi: bojxona rasmiylashtiruvi; bojxona rasmiylashtiruvi uchun belgilangan joylardan tashqaridagi va (yoki) bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtdagi bojxona rasmiylashtiruvi; tovarlarni bojxona organi egaligidagi bojxona omborida saqlash; transport vositasini bojxona hamrohligida kuzatib borish; 192 dastlabki qarorni qabul qilish; tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga, tovarlarni bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnomalar berish; bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisni o'qitish; bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini

berish, ushbu attestatni qayta ro'yxatdan o'tkazish (uning amal qilish muddatini uzaytirish) va uning amal qilishini tiklash; intellektual mulk ob'ektlarini Intellektual mulk ob'ektlarining bojxona reestriga kiritish; yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan naqd chet el valyutasining bojxona rasmiylashtiruvi. Bojxona yig'implarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bojxona to'lovlarini to'lovchi (bundan buyon matnda to'lovchi deb yuritiladi) quyidagilardan iborat: deklarant; bojxona brokeri, agar deklarant bilan tuzilgan shartnomada bu nazarda tutilgan bo'lsa; bojxona omborining, erkin omborning, boj olinmaydigan savdo do'konining egasi, tashuvchi, ular tomonidan bojxona rejimlarining qo'llanilish talablari va shartlariga amal qilinmaganda; xalqaro pochta va kur'erlik jo'natmalarining pochta aloqasi operatorlari va provayderlari, basharti bojxona nazorati ostida bo'lgan xalqaro pochta va kur'erlik jo'natmalari yo'qolsa yoki bojxona nazoratisiz berilsa. Har qanday manfaatdor shaxs to'lovchi uchun bojxona to'lovlarini to'lashga haqli. O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlari uchta usulda, ya'ni naqd pullar bilan; boj markalari bilan; naqd pulsiz shaklda to'lanadi. Qonunchilikda belgilangan hollarda bojxona to'lovlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan kursi bo'yicha chet el valyutasida undirilishi mumkin. Bojxona to'lovlari davlat budjetiga o'tkaziladi, boj undiriladigan davlat organining ixtiyorida ham belgilangan miqdorda qoldiriladi. Bojxona kodeksiga, boshqa qonunlarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga binoan yuridik va jismoniy shaxslarga tarif imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'ini, aksiz solig'ini va 193 bojxona yig'implarini to'lash bo'yicha imtiyozlar, tarif preferentsiyalari berilishi mumkin. Jumladan, Bojxona kodeksining 297-moddasiga asosan tashqi savdo siyosati amalga oshirilayotganda ilgari to'langan bojxona bojini qaytarish, bojxona boji stavkasini pasaytirish va bojxona bojini to'lashdan ozod etish tarzida tarif imtiyozlari berilishiga yo'l qo'yiladi. Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi: xalqaro yo'nalishda yuklar, bagaj va yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan transport vositalariga, shuningdek ularning yo'lda qatnov vaqtida, oraliq to'xtash punktlarida bir maromda ishlashi uchun zarur bo'lgan yoki transport vositalarida yuz bergan avariyalarga (nosozliklarga) barham berish uchun bojxona hududidan tashqarida olingan moddiy-texnika ta'minoti predmetlariga va anjomlariga, yoqilg'iga, oziq-ovqatga va boshqa mol-mulkka; davlat mulkiga aylantirilishi lozim bo'lgan tovarlarga; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kiriladigan tovarlarga; xayriya yordami, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan olib kiriladigan tovarlarga va boshqalar. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'implarini to'lashdan quyidagilar ozod etiladi: bojxona chegarasi orqali beg'araz, insonparvarlik yordami yoki xayriya maqsadlari, shu jumladan texnik ko'mak uchun olib o'tilayotgan tovarlar; notijorat maqsadlar uchun jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan bojsiz olib kirish normasi doirasida olib o'tiladigan tovarlar; vaqtincha saqlash va davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimlariga joylashtiriladigan tovarlar; bojxona imtiyozlaridan foydalanuvchi chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar rasmiy foydalanishi uchun bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar, shuningdek bojxona hududidan olib chiqiladigan hamda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun mo'ljallangan tovarlar va boshqalar. Tarif preferentsiyalari bojxona bojlari to'lashdan ozod etish, bojxona bojlari stavkalarini kamaytirish yoki muayyan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni bojxona hududiga preferentsial olib kirish yoki ushbu hududdan preferentsial olib chiqishda kvotalar belgilash tarzida beriladi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq quyidagi tovarlarga nisbatan bojxona bojlari qo'llanilmaydi: O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo zonasini tashkil etuvchi yoki O'zbekiston Respublikasi erkin savdo rejimini belgilagan davlatlarda ishlab chiqarilgan va ushbu davlatlardan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga; O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan va uning bojxona hududidan O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo zonasini tashkil etuvchi yoki O'zbekiston Respublikasi erkin savdo rejimini belgilagan

davlatlarga olib chiqilgan tovarlarga. O'zbekiston Respublikasi erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risida xalqaro shartnoma tuzgan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan, agar tovar erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risidagi xalqaro shartnoma ishtirokchilari bo'lgan davlatlardan birining rezidenti tomonidan eksport qilinayotgan bo'lsa va ushbu shartnoma ishtirokchisi bo'lgan davlatning rezidenti tomonidan shartnoma ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlatning bojxona hududidan olib kirilgan bo'lsa, bojxona bojlari qo'llanilmaydi. Bunda rezident deganda shu davlat hududida tashkil etilgan tashkilot yoxud shu davlat hududida doimiy yashaydigan jismoniy shaxs tushuniladi. Boshqa hollarda boj tarifiga muvofiq bojxona boji stavkasi qo'llaniladi. Boj tarifi bilan belgilangan stavkalar miqdoridagi bojxona bojlari O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimini qo'llayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan, tovarni jo'natuvchi va eksport qiluvchi mamlakatdan qat'i nazar qo'llaniladi. Savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko'p qulaylik berish rejimi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoxud ishlab chiqarilgan mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan bojxona bojlarining stavkalari ikki baravar oshiriladi. Rivojlanayotgan davlatlarda, 194 shuningdek kam rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilgan va bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining preferentsiyalar milliy tizimi belgilanishi mumkin. Tarif preferentsiyalari ushbu Kodeksning 50-bobi qoidalariga rioya etgan holda beriladi.

### **3. Erkin iqtisodiy zonalar**

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 3 may kuni mamlakatda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yettita erkin iqtisodiy zona (EIZ) tashkil etish to'g'risidagi farmonni tasdiqladi. Tuproq va iqlim sharoitlari noyobligini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish to'g'risida kiritilgan taklifga binoan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo'stonliq-farm» va «Parkent-farm» erkin iqtisodiy zonalari tashkil etishga qaror qilindi. Bugungi kunda O'zbekistonda 146 ta mahalliy farmatsevtika korxonasi tomonidan 2000 xildan ortiq dori-darmon vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 2016 yil yakunlari bo'yicha mamlakat farmatsevtika bozorida mahalliy dori-darmon vositalarining ulushi 55 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, tarmoqda bugungi kunda olib borilgan tahlillar ichki bozorni mahalliy dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari bilan yanada ko'proq to'ldirish uchun respublikamizning farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo'yicha yanada samarali chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, dunyo farmatsevtika sanoatida 8500 turdagi dori-darmon vositalari ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, ularning 6300 tasi xalqimiz ehtiyojlari uchun import qilinadi. O'zbekistondagi dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan farmatsevtika korxonalarining xorijiy xomashyo hamda materiallar importiga yuqori darajada bog'liqligi soha rivojiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Mahalliy xomashyo va dorivor o'simliklar asosida dori-darmon vositalarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga farmatsevtika mahsulotlarining mahalliyashtirilishini chuqurlashtirish hamda kengaytirish, shuningdek, ularni tibbiyot amaliyotiga keng joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi paytda xalqaro tibbiyot amaliyotida foydalanilayotgan 350 turdagi dorivor o'simliklardan 71 tasi respublikada tashkil etilgan sanoat plantatsiyalarida yetishtiriladi. Bu esa talab va ehtiyoj katta bo'lgan dori-darmon vositalarini mahalliy sharoitda uzluksiz ishlab chiqarish uchun yetarli emas, albatta. Shuni inobatga olgan holda, ishlab chiqarish quvvatlariga yaqin bo'lgan ekologiyasi toza va sof bo'lgan tumanlarda yangi plantatsiyalarni tashkil etish rivojlanayotgan farmatsevtika sohasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Farmonda, jumladan, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirishda birinchi darajali vazifa sifatida belgilab berilgan. Farmonda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari hamda xo'jalik birlashmalariga quyidagi topshiriqlar yuklatildi:

yer uchastkalari chegaralarini belgilash va ularni erkin iqtisodiy zonalar tarkibiga kiritish uchun ajratish;

kelgusida dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil qilish uchun yer uchastkalarini aniqlash va ularni ajratish;

erkin iqtisodiy zonalar hududlarida sanoat plantatsiyalarini tashkil etish, o'stirish uchun tavsiya etiladigan dorivor o'simliklarning ro'yxatini tuzish hamda keyinchalik ushbu dorivor o'simliklarni chuqur qayta ishlash, dori-darmon vositalari va biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqarish bo'yicha maqsadli Dastur ishlab chiqish.

Farmonda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi dorivor o'simliklar xomashyosini qayta ishlash va dori-darmon vositalari, tibbiyot buyumlari, yordamchi va qadoqlash materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yangi zamonaviy ishlab chiqarish va quvvatlarni tashkil etishga, mahalliy dorivor o'simliklar xomashyosi va materiallar negizida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga imkon beradi.

Tashkil etilayotgan erkin iqtisodiy zonalarining faoliyat muddati keyinchalik uzaytirish imkoni bilan 30 yil etib belgilangan, ushbu hududlarda alohida soliq, bojxona va valyuta tartiblari amal qiladi. Jumladan, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan tegishli investitsiyalar kiritilganda, ular:

yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslar mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalardan;

O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar, xomashyo hamda butlovchi buyumlarni olib kirishda bojxona to'lovlardan ozod etiladi.

Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari eksport va import qilinadigan tovarlar uchun o'zlariga qulay bo'lgan to'lash hamda hisob-kitob qilish shartlari va shakllaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Ushbu berilayotgan imtiyoz hamda qulayliklar mahalliy hamda xorijiy investorlar tomonidan iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritilishiga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining barchasi va har biri uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar hududlari, shuningdek, ularning ishtirokchilarining ishlab chiqarish maydonlari tegishli tashqi muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasi bilan kafolatli ta'minlanadi.

Shuningdek, Farmonning ahamiyatli tomonlaridan yana biri tijorat banklariga o'z mablag'lari va jalb etilgan xorijiy kredit liniyalari hisobiga erkin iqtisodiy zonalar hududlarida amalga oshirish taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, shuningdek, dorivor o'simliklar xomashyosi yetishtirish bo'yicha plantatsiyalar tashkil etish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fermer xo'jaliklariga kreditlar ajratish tavsiya etilmoqda. Shu bilan birga, garov ta'minoti yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan hollarda tijorat banklari investitsiya loyihalari tashabbuskorlariga texnologik uskunalarni lizing asosida belgilangan tartibda yetkazib berilishini ta'minlaydi.

Farmonning qabul qilinishi ichki bozorni keng turdagi hammabop, sifatli dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari bilan yanada to'liq to'ldirish va alohida hududlarning sanoat salohiyatini rivojlantirish masalalarini hal etishga qaratilgan.

## 13-Mavzu. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik sub'ektlarini me'yoriy huquqiy tartiblash

### 1.Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar

### 2.Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining huquqiy- me'yoriy asoslari

### 3. Bozorlar faoliyatining huquqiy me'yoriy asoslari

**Tayanch so'z va iboralar:** soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti,tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, tovarlarni eksport qilish, to'lov, umidsiz qarz, O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining Yagona reestri, O'zbekiston Respublikasining rezidenti.

#### 1. Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining [Soliq kodeksi](#). 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi [PQ-1326-sonli qarori](#). 3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 12 avgustdagi «Bozorlar faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi [№-315-sonli qarori](#). 4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 avgustdagi «Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi [№-253-sonli qarori](#).

**Bozorlar va savdo komplekslarini soliqqa tortish tartiblari.** Soliq kodeksining 387-moddasiga muvofiq bozorlar daromadlarining umumiy summasidan, bozorlar daromadidan to'lanadigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangandan keyin qolgan mablag'larning 50 foizi bozorlar joylashgan joydagi tegishli mahalliy byudjetlarga belgilangan tartibda o'naltiriladi. Qolgan 50 foizi bozorlar ma'muriyati tasarrufida qoladi va ulardan joriy xarajatlarni qoplash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash uchun foydalaniladi. Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari bozorlar tomonidan amalga oshirilganda, bunday faoliyatdan olingan daromadlarga ushbu soliq kodeksning 58-bobiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq solinadi. Olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bozorlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda hisobot oyidan keyingi oying 10-kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlagan shaklda taqdim etadi. Mablag'larni byudjetga o'tkazish olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan bir oyda bir marta amalga oshiriladi. Bozorlar zimmasida to'lov manbaida soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha majburiyatlar hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagilarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- davlat boji;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;

avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.

Ushbu qoidalari ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 51 foizdan kam bo‘lmagan yuridik shaxslar - savdo komplekslariga tatbiq etiladi.

## **2.Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatining huquqiy- me’yoriy asoslari.**

Tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatining huquqiy- me’yoriy asoslarini Chakana savdo qoidalari bilan tanishish orqali davom ettiramiz. Bu boradagi qonuniy asos Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 [fevraldagi](#) 75-son qaroriga ilovalar hisoblanadi unga ko‘ra:

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi hududida chakana savdo bilan shug‘ullanish huquqiga egadirlar: yuridik shaxslar; qonun hujjatlariga muvofiq, yuridik shaxs bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar. Umuman chakana savdo — savdo sohasida pirovard iste‘molchi uchun, tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz aholiga naqd pulga donalab yoki uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda tovarlar sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish;

vositachilik savdosi — chakana savdo faoliyatining vositachilar tomonidan vositachilik shartnomalari bo‘yicha sotish uchun ularga berilgan tovarlar sotilishini nazarda tutuvchi turi;

savdo obyekt — mulkchilik shakllaridan, sotuv hajmidan, inshootning o‘lchamidan va hokazolardan qat’i nazar, tovarlar va xizmatlarni sotishga mo‘ljallangan (moslashtirilgan) joy yoki inshoot.

Chakana savdoning savdo obyektlariga quyidagilar tegishlidir: bozor, gipermarket, supermarket, savdo markazi, savdo kompleksi, universam, univermag, minimarket, oziq-ovqatlar do‘koni, ixtisoslashtirilgan do‘konlar, palatkalar, lotoklar, avtodo‘konlar, pavilyonlar, kioskalar, laryoklar.

Savdo obyektlari turg‘un va ko‘chma obyektlarga bo‘linadi.

turg‘un savdo shoxobchalari — davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan belgilangan joylarda doimiy asosda joylashgan savdo obyektlari (do‘konlar, kioskalar, laryoklar, pavilyonlar, dorixonalar, optika, avtomobil yonilg‘isi quyish shoxobchalari);

ko‘chma savdo obyektlari — vaqtincha joylashgan va mavsumiy yoki maqsadli xususiyatga ega bo‘lgan, shuningdek ish kuni tamom bo‘lgandan keyin yig‘ishtirib olishni va obyekt ko‘chirilishini talab etish asosida joylashtirilgan savdo obyektlari (lotoklar, peshtaxtalar, palatkalar, avtodo‘konlar va hokazolar);

savdo zali — tovarlarning ommaviy ofertasiga va/yoki tovarlarning chakana oldi-sotdi shartnomalarini amalga oshirishga mo‘ljallangan savdo obyekt maydoni;

sotuvchi — savdo faoliyatini amalga oshiruvchi va oldi-sotdi shartnomasining bir tomoni sifatida ish ko‘ruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor (jismoniy shaxs);

sotuvchi-xodim — sotuvchi nomidan ish ko‘ruvchi va tovarni bevosita sotuvchi yoki iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatuvchi shaxs;

tarmoqli marketing — tarmoqli tashkilot tomonidan tovarlarni mustaqil tarqatadigan sotuvchi agentlar tashkil etilishiga asoslangan tovarlarni chakana sotish turi;

tarmoqli tashkilot — O‘zbekiston Respublikasi hududida mustaqil ravishda yoxud tarmoqli marketing yo‘li bilan sotuvchi agentlar orqali savdoni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi;

sotuvchi agent — turg‘un savdo shoxobchalari orqali tovarlarni bevosita sotuvchi, shuningdek uyga buyurtma olish vositasida, muassasalar, tashkilotlar, korxonalarda, transport yoki ko‘chada potensial xaridorlar bilan ishlaydigan, daromadi faqat sotuv hajmiga bog‘liq bo‘lgan jismoniy shaxs – yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkor.

Sotish uchun tavsiya qilinayotgan tovarlar assortimenti, ko‘rsatilayotgan xizmatlar turlari, shuningdek xizmat ko‘rsatish shakli sotuvchining ixtisosi va u o‘z faoliyatini ixtisoslashtirishiga muvofiq sotuvchi tomonidan mustaqil belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chakana savdo shoxobchasida bo'lishi shart bo'lgan asosiy oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ro'yxati belgilanishi mumkin, bunday chakana savdo tarmog'ining joylashishi respublika tumanlari va shaharlari hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi.

Tovarlarning olib kirilishini va bojxona bojlari amalda to'langanligini tasdiqlaydigan bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 12 oy o'tgandan keyin ushbu Qoidalarga [3-ilovaga](#) muvofiq ro'yxat bo'yicha tayyor import iste'mol tovarlarini sotuvga qo'yish va chakana sotishga yo'l qo'yilmaydi.

Sotuvchi o'z faoliyati ixtisosi va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda davlat standartlarida, sanitariya, veterinariya qoidalarida, yong'inga qarshi qoidalarda va boshqa normativ hujjatlarda (keyingi o'rinlarda matnda «standartlar» deb yuritiladi) belgilangan majburiy talablarga rioya qilishi shart.

Sotuvchi texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiq tovarlarni qabul qilib olishda, saqlashda, savdo oldi tayyorgarligida va sotish paytida ularning sifati va xavfsizligi savdoning zarur shart-sharoitlarini, shuningdek xaridorlarning tovarlarni tanlash imkoniyatini ta'minlaydigan zarur joylar, asbob-uskunalar va inventarga ega bo'lishi shart.

Sotuvchi qo'llashga ruxsat berilgan o'lchov asboblari ega bo'lishi va ularni soz holatda saqlashi, ularning metrologik tekshiruvini o'z vaqtida va belgilangan tartibda o'tkazishi shart.

Barcha o'lchov vositalari, og'irlikni o'lchash priborlari «O'zstandart» agentligi organlarining tekshirish to'g'risidagi ko'zga yaqqol tashlanadigan ishonch tamg'asiga yoki guvohnomasiga ega bo'lishi kerak, ular belgilangan maqsadida qo'llanilishi hamda o'lchovlarning birligi va ishonchliligini ta'minlashi hamda tegishli pasportga ega bo'lishi kerak.

Nosoz va qo'llashga ruxsat berilmagan o'lchov vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Tarozilar va boshqa o'lchov priborlari sotuvchi-xodimlarning ish joylarida xaridorlar tovarni tortish va berishning butun jarayonini ko'radigan qilib o'rnatilishi kerak. Tarozilarni peshtaxaning fasadiga tomon burchak ostida o'rnatish, ularning oldini tovarlar, darpardalar, inventar va boshqa narsalar bilan to'sib qo'yish taqiqlanadi.

Tarozilar har xil tebranishlar va zirillashlarga uchramaydigan mustahkam, barqaror gorizontal joyga o'rnatiladi.

Savdo zallarida xaridorlarga qulay joyda nazorat tarozilari va boshqa o'lchov priborlari o'rnatilgan bo'lishi kerak.

3 va undan ko'p ish o'rinli oziq-ovqat do'konlarining savdo zallarida nazorat tarozilari o'rnatilishi kerak. Maydoni 1500 kv.m va undan ortiq bo'lgan savdo zallarida nazorat tarozilari ikki joyda o'rnatiladi. Savdo avtomatlari, dozatorlar, avtosaturatorlar hamda tovarlarni tortish, dozalash va sotish uchun boshqa priborlarni o'rnatish va montaj qilish, shuningdek ishga tayyorlash yetkazib berish komplektiga kiradigan ushbu buyumlarga zavodda tayyorlangan hujjatlar talablariga muvofiq o'tkazilishi kerak. Bunda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishga alohida e'tibor berish zarur. Mazkur Qoidalardan tegishli ko'chirmalar sotuvchi tomonidan ko'rgazmali va qulay shaklda xaridorlar e'tiboriga yetkaziladi.

Alkogol va tamaki mahsulotlari sotish joylarida ularni 20 yoshga to'lmagan shaxslarga sotishga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlarining inson sog'lig'iga salbiy ta'siri to'g'risidagi ogohlantiruvchi yozuv joylashtirilgan bo'lishi kerak. Xaridorning tanishishi uchun qulay joylarda quyidagi ma'lumotlar joylashtirilishi kerak:

sotuvchi — yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar — o'z korxonasining nomi, uning joylashgan joyi (pochta manzili va ish rejimi);

sotuvchi — yakka tartibdagi tadbirkor to'g'risidagi ma'lumotlar — davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik va ro'yxatdan o'tkazgan organning nomi.

Agar sotuvchi amalga oshiradigan faoliyat litsenziyalanishi kerak bo'lsa, u litsenziyaning tartib raqami va amal qilish muddati to'g'risidagi, shuningdek uni bergan organ haqidagi

ma'lumotni taqdim etishi kerak. Sotuvchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tovarlar to'g'risidagi quyidagi zarur va ishonchli ma'lumotlarni xaridorning e'tiboriga o'z vaqtida ko'rgazmali va qulay shaklda yetkazishi shart:

tovarning nomi;

tovarning shtrixli kodi (mavjud bo'lganda);

tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari va shartlari;

agar u aniq bir tovar uchun belgilangan bo'lsa — kafolatli muddati;

agar ular aniq bir tovar uchun belgilangan bo'lsa — xizmat qilish muddati yoki yaroqlilik muddati, shuningdek ko'rsatilgan muddatlar tamom bo'lgandan keyin xaridor amalga oshirishi kerak bo'lgan zarur xatti-harakatlar haqidagi hamda, agar tovarlar ko'rsatilgan muddatlar tamom bo'lgandan keyin xaridorning hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavf tug'dirsa yoki foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qolsa, bunday harakatlar bajarilmagan taqdirda kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

tovarning narxi va uni sotib olish shartlari;

ularning majburiy talablariga tovar muvofiq bo'lishi kerak bo'lgan texnik reglamentlar va standartlarning belgilanishi;

tovarning asosiy iste'mol xossalari to'g'risidagi ma'lumotlar (agar ular o'ramda ko'rsatilmagan bo'lsa);

majburiy tartibda sertifikatlanishi shart bo'lgan mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati

Agar xaridor tomonidan sotib olinadigan tovar iste'mol qilingan bo'lsa yoki uning kamchiligi (kamchiliklari) bartaraf etilgan bo'lsa, xaridorga bu to'g'rida ma'lumot berilishi kerak.

Sotuvchi xaridorning talabiga ko'ra:

tovarni tayyorlovchining nomi va joylashgan joyi (yuridik manzili), xaridorlardan e'tirozlarni qabul qilib olishga va tovarni tuzatuvchi va unga texnik xizmat ko'rsatuvchi tayyorlovchi (sotuvchi) tomonidan vakil qilingan tashkilot (tashkilotlar)ning joylashgan joyi to'g'risidagi axborotni;

sertifikatning asl nusxasi egasi yoki sertifikatni bergan tovarlarni sertifikatlash bo'yicha organ tomonidan tasdiqlangan sertifikatning nusxasini «(majburiy tartibda sertifikatlanishi shart bo'lgan mahsulotlarni sotishda);

tayyorlovchi yoki yetkazib beruvchi (sotuvchi) tomonidan zarur tarzda rasmiylashtirilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlarni taqdim etishi shart.

Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar bilan chakana savdo qilish xo'jalik yurituvchi subyektlar — belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

### **3. Bozorlar faoliyatining huquqiy me'yoriy asoslari**

Bozor hududida obodonlashtirishga, obyektlarni joylashtirishga va bozorni jihozlashga qo'yiladigan umumiy talablar. Bozorda quyidagilar bo'lishi kerak: - asfaltlangan (chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotish bozorida tashqari), yaxshi yoritilgan, yondosh hududdan to'siq bilan ajratilgan savdo maydoni;

- bozorda ish vaqti tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari;

- bozorning nomi, ixtisoslashuvi va ish tartibi ko'rsatilgan holda davlat tilida rasmiylashtirilgan peshlavha;

- jihozlangan va tartib raqamlari qo'yilgan turg'un hamda mavsumiy savdo rastalari va savdo qilish uchun joylar, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan, pavilyonlar). Bunda bozor ma'muriyati tasdiqlagan va bozor obyektlarining joylashish sxemasi ko'rinarli joyga osilgan va obyektlarning amalda joylashgan o'rni, shuningdek bozor rastalari va savdo o'rinlarining joylashishi xaridorlarning bozorda erkin yurishini hamda savdo rastalari va joylariga bemalol borishini ta'minlashi kerak;



- davlat soliq xizmati organlari, hududiy ichki ishlar organlari, sanitariya-epidemiologiya nazorati, tibbiyot punkti, davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi yoki davlat veterinariya xizmati organlarining tayanch punktlarini joylashtirish uchun xonalar (mol go'shti va o'simliklardan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda);

- buyumlarni saqlash joylari, dezinfeksiyalovchi moddalarni saqlash, go'sht mahsulotlarini maydalash (go'sht sotishda) uchun alohida xonalar;

- sotuvchilar va xaridorlar uchun aravachalarni prokatga berish punkti;

- o'lchov-tortish vositalarini prokatga berish punkti (ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozorlaridan tashqari);

- avariya hamda favqulodda vaziyatlar holatlarida yong'inni o'chirish va aholini xabardor qilish vositalari;

- bozorlar hududida va unga tutash hududlarda joylashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, jamoat hojatxonalarini, suv quvurlari, yuz-qo'l yuvgichlar, axlat to'plagichlar, radiouzel va boshqa zarur infratuzilma obyektlari.

Bozor hududi dehqon (oziq-ovqat) bozori, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori, ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori bir-biri bilan yondosh bo'lmasligi sharti bilan aniq ajratib qo'yilgan bo'lishi kerak. Bozor hududi savdo kompleksi bilan yondosh bo'lishi mumkin.

*Bozor hududida quyidagilar taqiqlanadi:* - ob'ektlarni joylashtirishning tasdiqlangan sxemasidan tashqari qo'shimcha savdo o'rinlarini tashkil etish;

- yuklarni tashish uchun mo'ljallangan vositalar (konteynerlar)dan oziq-ovqat tovarlarini sotish;

- nooziq-ovqat tovarlarini sotish, turg'un savdo shoxobchalari orqali sotish bundan mustasno;

- oziq-ovqat tovarlarini avtomashinalardan sotish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ixtisoslashgan avtotransport va asbob-uskunalaridan (avtolavkalar, avtodo'konlar, izotermik sig'imlar, tirik baliq sotish uchun avtoakvariumlar va shu kabilardan) sotish bundan mustasno;

- alkogolli mahsulotlarni sotish (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

- audiovizual asarlar, fonogrammalar, EHM uchun dasturlar va ularning moddiy jismlari, komputer va maishiy texnikani sotish (bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

- qimmatbaho metallar va toshlarni, shuningdek ulardan yasalgan buyumlarni sotish (bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

- hayvonlar terisini sotish;

- xorijiy valyutani sotish (vakolatli banklarning belgilangan tartibda jihozlangan va faoliyat ko'rsatuvchi almashtirish punktlari bundan mustasno);

- dori-darmon vositalarini sotish (dorixonalaridan tashqari);

- veterinariya preparatlari va biologik preparatlarni sotish (ixtisoslashtirilgan dorixonalar va zoologiya do'konlaridan tashqari);

- bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini sotish (davlat sanitariya nazorati talablariga muvofiq maxsus jihozlangan hamda ushbu mahsulotlarni saqlash va sotish shart-sharoitlari ta'minlangan turg'un savdo shoxobchalaridan tashqari);

- bulka nonlar sotish (bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

- uyda tayyorlangan oziq-ovqat tovarlarini sotish (ularni qonun hujjatlarida belgilangan normalar va qoidalarga rioya etgan holda sotish bundan mustasno);

- qonun hujjatlarida taqiqlangan boshqa tovarlar va buyumlarni sotish.

*Tanishish uchun qulay joylarda quyidagilar o'rnatiladi:*

a) tovar turlarining asosiy guruhlari bo'yicha savdo zonalarini ko'rsatkichlari;

b) savdo zonalarini, umumiy ovqatlanish va servis xizmati ko'rsatish obyektlari, ma'muriy binolar, davlat soliq xizmati organi, davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi yoki

bozordagi davlat veterinariya xizmati organining binosi (chorva mollari va o'simlik mahsulotlarini sotishda), nazorat o'lchovi tarozilari, prokat punktlari, bozorlar hududida va ularga tutash hududlarda joylashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, jamoat hojatxonalari va boshqa obyektlarning joylashish sxemasi ko'rsatilgan stendlar;

v) favqulodda vaziyatlar ro'yi berganda bozorni evakuatsiya qilish sxemasi;

g) bozordagi kirish joylarida axborot stendi, unda sotuvchilar va bozorga keluvchilar uchun quyidagilar bo'ladi:

«Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va ushbu Qoidalarning matnlari;

savdo faoliyatini va tovarlarning ayrim turlarini sotishni tartibga soluvchi qoidalar;

bir martalik yig'im, ijara to'lovi, ko'rsatiladigan majburiy va boshqa xizmatlar ro'yxati va qiymati, shuningdek bozorda savdo o'rinlarini berish hamda xizmatlar ko'rsatish tartibi va shartlari to'g'risidagi axborotlar;

bozor ma'muriyatining, tuman (shahar) hokimligining, davlat veterinariya xizmati sanitariya-epidemiologiya nazorati, davlat soliq xizmati, ichki ishlar hududiy organlarining telefon raqamlari.

Savdo operatsiyalari o'lchash-tortish vositalaridan (tarozilar, tarozi toshlari, o'lchovli sig'imlar, metrlar va boshqalardan) foydalangan holda amalga oshiriladigan bozorlarda metrologik qoidalar va normalar talablariga muvofiq bo'lgan o'lchov anjomlari mavjud bo'lishi shart. Tarozilar va boshqa o'lchov anjomlari sotuvchining ish joyida tartib ko'rish, qiymatini aniqlash va tovarni berish bo'yicha barcha jarayonlarning ko'rinib turishi ta'minlangan holda o'rnatilishi kerak. Bozor hududidagi maxsus ajratilgan joylarda umumiy ovqatlanish, servis xizmati ko'rsatish va tijorat banklari obyektlari (filiallar, mini-banklar, bank kassalari, inkassatsiya punktlari) joylashtiriladi. Bozorlarda sanitariya kunlari mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi. Bozor hududida tovarlarni tashishni va bozorda savdo jarayonini tashkil etish tovarlarni tashib keltirish (qabul qilib olish), saqlash va sotish uchun zarur sharoitlarni to'liq ta'minlashi kerak. Mijozlarning bozor hududiga kirishi - bepul. Bozor hududida savdoni amalga oshirishda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini qo'llash qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va avtomatlashtirilgan hisobga olishning bank tizimi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar uchun beriladigan cheklar nazorat-kassa mashinalari yoki bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha to'lov terminallarining cheklariga tenglashtiriladi. Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qo'llaniladigan nazorat-kassa mashinalari yagona texnik talablarga muvofiq bo'lishi kerak va belgilangan tartibda majburiy sertifikatsiyalanishi zarur. Sertifikatga ega bo'lmagan yoki belgilangan yagona texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalangan holda chek berish aybdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

## **14-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari**


**Reja:**

1. Soliq huquqbuzarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatalari
2. Soliq qonunchiligi bo'yicha javobgarlik
3. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik.
4. Soliq qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik

**Tayanch so'z va iboralar:** hujjat bilan tasdiqlangan , egri soliqlar , yutuq, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, tovarlarni eksport qilish, to'lov, umidsiz qarz, O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining Yagona reestri, O'zbekiston Respublikasining rezidenti

### 1. Soliq huquqbuzarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatalari

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi, tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi bilan iqtisodiyot sohasida yangi ko'rinishdagi qonun buzilishlarining sodir etilishiga ham sabab bo'ldi. Bu, birinchi navbatda, davlat va mahalliy pul jamg'armalarini (budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarni) shakllantirishning asosiy manbasi hisoblangan – soliq solish tizimi bilan bevosita bog'liq qonun buzilishlarini, uning turli ko'rinishlarini keltirib chiqardi. Huquq nazariyasida umume'tirof etilgan qoidadan kelib chiqadigan bo'lsak, har qanday yuridik javobgarlikning asosida davlat majburlov choralari bilan himoya qilinadigan va ta'minlanadigan, huquqiy normalarning talablarini buzishga qaratilgan huquqqa xilof qilmish yotadi.



Soliq qonunchiligini buzish ham huquqqa xilof qilmishning alohida bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Javobgarlik asosida qanday soliq qonunchiligi buzilishi turganligiga qarab, bu huquqqa xilof qilmishni moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik asoslari sifatida ko'rib chiqish mumkin. Shu sababli, soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning asosini aniqlash - soliq solish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solishda katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Soliqlar va yig'imlar haqidagi qonun hujjatlarini buzish hamda uning xavfli

shakllaridan biri bo'lgan soliq jinoyatlarini sodir etish davlatning iqtisodiy xavfsizligiga zarar yetkazadi. Bunday xatti-harakatlar soliq solish tizimiga, davlat daromadlarini shakllantirish mexanizmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki har bir davlatning soliq solish sohasiga uning ximoyalanganligi yoki xavfsizlik darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Soliq xavfsizligi - soliq tizimining holatini belgilab, soliqlar va yig'implarni undirish orqali davlat va mahalliy tuzilmalarni to'liq va to'xtovsiz moliyalashtirishni ta'minlaydi. Soliq qonunchiligini buzishning asosiy ko'rinishlaridan biri – bu soliq huquqbuzarligi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bo'yicha esa soliqqa oid huquqbuzarlik) hisoblanadi. Soliq huquqbuzarligi barcha huquqbuzarliklar singari, birinchi navbatda – qilmish, ya'ni harakat yoki harakatsizlikda ifodalanadi. Harakat shaxsning faol xulq-atvori, harakatsizlik esa shaxsga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlikda ifodalanuvchi passiv xulq-atvoridir. Soliq huquqbuzarligini sodir etishga qaratilgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) - qonunga xilof hisoblanadi. Soliq huquqbuzarligini sodir etish bilan soliq qonunchiligi normalarining talablari buziladi. Agar qilmish qonun hujjatlari talabalarini buzmasa, huquqbuzarlik hisoblanmaydi. Soliq huquqbuzarligi – bu aybli qilmishdir. Soliq huquqbuzarligini sodir etishga qaratilgan qilmishda aybning mavjud bo'lishi, ya'ni soliq huquqbuzarligi qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilgan bo'lishi lozim. Agar qilmishda ayb shakli mavjud bo'lmasa, huquqbuzarlik hisoblanmaydi. Soliq to'lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) ***soliqqa oid huquqbuzarlik***, deb e'tirof etiladi. Sodir etilgan qilmish bilan zararli oqibat o'rtasida uzviy bog'liqlik bo'lishi lozim. Zararli oqibat aynan qonun hujjatida nazarda tutilgan qilmish natijasida yuzaga kelgan bo'lishi kerak. Agar bunday bog'liqlik bo'lmasa, qilmish – huquqbuzarlik hisoblanmaydi. Soliq huquqbuzarligini sodir etishga qaratilgan qilmish uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Agar qonun hujjatida javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday qilmish huquqbuzarlik hisoblanmaydi. Huquqbuzarlik sodir etilganligini aniqlashda, uning yuridik xususiyatlari bilan bir qatorda yuridik tarkibining mavjud bo'lishi ham lozim. Tarkib deganda – huquq bilan o'rnatilgan va qilmishni huquqbuzarlik sifatida tasniflash mumkin bo'lgan xususiyatlar yig'indisi tushuniladi. Har qanday huquqbuzarlik o'zining tarkibiga ega bo'lib, huquqbuzarlik obyekti, obyektiv tomoni, subyektiv va subyektiv tomoni kabi elementlarni o'zida birlashtiradi. Soliq huquqbuzarligi obyekti bo'lib – soliq qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Soliq huquqbuzarligining obyektiv tomoni – huquqqa xilof qilmishning tashqi ko'rinishidir. “Qilmish”ning yuridik mazmuni - huquq normalari bilan o'rnatilgan talabning buzilishiga olib keladigan harakat yoki harakatsizlikdan iborat. Harakat – huquqbuzar xulq-atvorining faol shakli bo'lib, huquqiy taqiqlar (ya'ni, daromadlarni yashirish yoki kamaytirib ko'rsatish, buxgalterlik hisobotlariga noaniq ma'lumotlarni kiritganlik va boshqalar) bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Harakatsizlik – huquqbuzar xulq-atvorining passiv shakli bo'lib, bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatning bajarilmaganligida (masalan, soliqlarni hisoblab chiqarish uchun zarur bo'lgan deklaratsiyani, hisob-kitob va hisobotlarni taqdim etmaganlikda) ifodalanadi. Soliq huquqbuzarligi obyektiv tomonining xususiyatlari bo'lib, nafaqat huquqqa xilof qilmish (harakat yoki harakatsizlik), balki uning oqibati hamda oqibat bilan qilmish o'rtasidagi sababiy bog'lanish ham hisoblanadi. Huquqbuzarlik subyektiv – bu huquqbuzarlikni bevosita sodir etgan va javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxsdir. Huquqbuzarlikning subyektiv tomoni – huquqqa xilof qilmishning ichki tomonini ifodalovchi xususiyatlar yig'indisidan iborat bo'lib, huquqbuzarning sodir etilgan qilmish va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabati bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, huquqbuzarlik subyektiv tomonini ayb shakllari tashkil etadi. Har qanday soliq huquqbuzarligi ikki shaklda: qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Soliq huquqbuzarligini qasddan sodir etish quyidagi elementlar bilan ifodalanadi: xatti-harakatning qonunga xilof ekanligini bilishi; qonunga xilof xatti-harakatdan zararli oqibatlar kelib chiqishiga ko'zi yetishi; bunday oqibatlar kelib chiqishini istashi; yoki ongli ravishda yo'l qo'yishi. Soliq huquqbuzarligini ehtiyotsizlik orqasida sodir etish deganda - soliq huquqbuzarligini sodir etgan shaxs o'z xatti-harakatining qonunga xilof

ekanligi va zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmaganligi tushuniladi. Uyqorida ta'kidlaganimizdek, so'nggi yillarda nafaqat soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari liberallashti, balki tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatiga asossiz ravishda aralashishlarni oldini olish borasida ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga "Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar" bobi hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga "Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilganlik, qonunga xilof ravishda aralashganlik hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" boblari kiritildi. Unga ko'ra xususiy mulk huquqini buzganlik; tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliyaxo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzganlik; litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik hamda imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilganlik va boshqa huquqbuzarlik va jinoyatlar uchun Nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisiga nisbatan javobgarlik choralari belgilandi<sup>30</sup>

## **2. Soliq qonunchiligi bo'yicha javobgarlik**

Soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o'n olti yoshdan boshlab vujudga keladi. Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo'yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlarini bo'lmasa, bu huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi. Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi. Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas. Soliq to'lovchi tomonidan soliqqa oid bir necha huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar uncha og'ir bo'lmagan moliyaviy sanksiyani og'irroq jarima bilan qamrab olish yoxud tayinlangan jarimalarni to'liq yoki qisman qo'shish orqali soliqqa oid huquqbuzarliklar majmui bo'yicha qo'llaniladi. Bunda jarimaning uzilkesil miqdori jarimaning yuqori miqdori nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun belgilangan eng ko'p miqdoridan oshishi mumkin emas. Shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun soliqqa oid

---

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 33-son, 439-modda.

huquqbuzarlik sodir etganligi faktining yo'qligi yoki soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi mavjud bo'lgan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin emas: Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi, penya to'lash bundan mustasno. Shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi: a) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi (mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan belgilanadi); 233 b) soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan (mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish orqali isbotlanadi) jismoniy shaxs - soliq to'lovchi tomonidan sodir etilganda; v) vakolatli organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida bergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda. Shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi: - huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganda; - soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi holatlar deb quyidagilar e'tirof etiladi: - og'ir shaxsiy yoki oilaviy sharoitlar kechishi oqibatida huquqbuzarlik sodir etish; - tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli huquqbuzarlik sodir etish; - sud tomonidan javobgarlikni engillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar. Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga - soliq to'lovchilarga moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi, penya hisoblash hollari bundan mustasno. Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan 234 taqdirda tadbirkorlik subyekti - soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi. Soliq kodeksi soliqqa oid huquqbuzarliklarning quyidagi turlarini belgilab bergan: 1) davlat soliq xizmati organidahisobga turishdan bo'yin tovlash; 2) Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish); 3) soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish; 4) buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish; 5) faoliyat turlari bilan litsenzyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish; 6) hisobvaraqq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish; 7) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibini buzish; 8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish; 9) yer uchastkalaridan ularga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimini isloh qilish hamda erkinlashtirilishi sharoitida soliq siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri - bu soliq yukini kamaytirish, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirish, shuningdek soliq xizmati organlarida faoliyat yurituvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdan iboratdir. Ushbu masalalarni hal qilish yuzasidan davlatimiz tomonidan bir qator soliq islohotlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga 2013 yil oktabr va dekabr

oylarida hamda 2015 yilning avgust va dekabr oylarida soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni engillashtiruvchi bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, Kodeksning 115 - moddasida soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik uchun belgilangan muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bir foiz miqdorida, biroq belgilangan to'lov muddatida to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdoridan tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblangan to'lovlar chegirib tashlangan summaning o'n foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima sanksiyasi bekor qilindi. Ushbu moddaning sanksiyasi soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki soliq to'lovchi — jismoniy shaxs ma'muriy javobgarlikka tortiladi, deb o'zgartirildi.<sup>31</sup> SHuningdek, 116-modda (buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish) hamda 117-moddalarining (faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish) sanksiyalariga o'zgartirish kiritilib, yuridik shaxslar emas, balki soliq to'lovchi — yuridik shaxsning mansabdor shaxsi ma'muriy javobgarlikka tortilishi yoki faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanganlik uchun shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishligi belgilandi. Bizningcha, ushbu o'zgartirish juda adolatli hisoblanadi. Mansabdor shaxsning aybi uchun yuridik shaxsga moliyaviy sanksiyaning qo'llanilishi ishlab chiqarishga, tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, buxgalteriya hisobining yo'qligi yoki buxgalteriya hisobini belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik, hisoblanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmazligiga olib kelish bu yuridik shaxsning emas balki mansabdor shaxsning aybi hisoblanib, ana shu ayb uchun mansabdor shaxs jazoga tortilishi adolatdan hisoblanadi. SHuningdek, mazkur Kodeksning 120-moddasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish — to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun hisoblanishi nazarda tutilgan 0,05 foiz miqdorida penyaning miqdori 0,033 foizga o'zgartirilish ham soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni bir muncha engillashtirishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Soliq kodeksining 114-moddasida kirim qilinmagan tovarlarni saqlash (ularning qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar tashqari) — kirim qilinmagan tovar qiymatining 20 foizi miqdorida (avvalgi tahririda: kirim qilinmagan tovar qiymati miqdorida deb belgilangan edi) jarima solishga sabab bo'ladi.<sup>32</sup> Kirim qilinmagan tovarlar qo'zg'atilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ishi doirasida davlat daromadiga o'tkazilgan taqdirda, kirim qilinmagan tovar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima solish jazosi qo'llanilmaydi.<sup>33</sup> 39 Tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) — tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasining 20 foizi miqdorida (avvalgi tahrirda yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasiga teng miqdorda deb belgilangan edi) jarima solishga sabab bo'ladi, deb o'zgartirildi. Tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumning yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summasiga qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.<sup>34</sup> Oldingi tahrirda esa yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish maqsadida hisobga olinmaydi hamda mazkur soliqqa oid huquqbuzarlik yuzasidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitob qilinmaydi, deb belgilangan edi. Kirim qilinmagan tovarlar qo'zg'atilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ihi doirasida davlat daromadiga o'tkazilgan taqdirda, kirim qilinmagan tovar qiymati miqdorida jarima solish jazosi qo'llanilmaydi. Yuqoridagi Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlardan ko'rinib turibdiki, soliqqa oid

<sup>31</sup> O'RQ-355-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013 y., 41-son, 543-modda

<sup>32</sup> O'RQ398-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015 y., 33-son, 439-modda

<sup>33</sup> O'RQ398-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016 y., 1-son, 2-modda

<sup>34</sup> O'RQ-359-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013 y., 52-son, 685-modda.

huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni adolatli bo'lishi, shuningdek javobgarlikni liberallashtirilishi birinchi navbatda davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga, shuningdek soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlardir.

### **3. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik.**

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy javobgarlikni qo'llashning ikki asosi ko'rsatib o'tilgan: birinchidan, qonun – huquqiy (me'yoriy) asos sifatida; ikkinchidan, ma'muriy nojo'ya xatti-harakat, faktik asos sifatida. Bu ikkala asos ham O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasiga tayanadigan bo'lsak, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning huquqiy asosini – O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonun va boshqa qonun va qonunosti hujjatlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari) tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasi 1-qismiga binoan esa, ma'muriy huquqbuzarlik deganda (faktik asosi) – qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, g'ayrihuquqiy, aybli sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Amaldagi qonunchilikka binoan, soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik – qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga asoslanadi. Soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlikning asosiy vazifalari bo'lib esa: soliq sohasida o'rnatilgan davlat boshqaruvini (tartibini); fuqarolarning huquq va erkinliklarini; ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash; ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishi; bunday huquqbuzarliklarning oldini olish; fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash hisoblanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka huquqbuzarlikni sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan fuqarolar tortiladilar. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy 237 Javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 17-moddasiga binoan esa, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar umumiy asoslarda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari singari, ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikning xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, shaxs nafaqat 16 yoshga to'lgan bo'lishi, balki qonun hujjatlari bilan unga soliq va boshqa to'lovlarni to'lash majburiyati ham yuklangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs o'z xatti-harakatlarining oqibatini tushuna olishi, ya'ni aqli raso shaxs bo'lishi ham kerak. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning ikkinchi asosiy subyekti – bu mansabdor shaxslardir. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 15-modda 2- qismiga binoan mulk shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan shaxs, basharti unga rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan bo'lsa, mansabdor shaxs deb hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ba'zi davlatlarda soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning alohida subyekti sifatida – yuridik shaxslar ham namoyon bo'ladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 2.10-bandiga binoan yuridik shaxslar, 2.6-bandiga binoan esa horijiy yuridik shaxslarning soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarligi ko'rsatib



o'tilgan. AQSH va ko'pgina G'arbiy Evropa davlatlarida soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik shaxslar jinoyi javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan (bu davlatlarning javobgarlik tizimida ma'muriy javobgarlik mavjud emas). Soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, sodir etilgan huquqbuzarlik kam ahamiyatli bo'lgan taqdirda, bu ishni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod etishi mumkin. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy jazo qo'llanish chog'ida sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni engillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi. Amaldagi qonunchilik mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni engillashtiruvchi holatlarga quyidagilar kiradi: 238 aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi; aybdorning huquqbuzarlikning zararli oqibatlari oldini olishi, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy ravishda to'lashi yoki keltirilgan zararni bartaraf qilishi; huquqbuzarlikning kuchli ruhiy hayajon ta'siri ostida yoki og'ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi; huquqbuzarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi; huquqbuzarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi; huquqbuzarlikning homilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) boshqa holatlarni ham javobgarlikni engillashtiruvchi holat deb topishi mumkin. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarga esa quyidagilar kiradi: g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatish vakolati bor shaxslar tomonidan qo'yilgan talabga qaramay, bunday harakatlarni davom ettirish; ma'muriy jazo chorasiga tortilgan shaxsning bir yil mobaynida yana o'sha xildagi huquqbuzarlikni sodir etishi, xuddi shuningdek huquqbuzarlikning ilgari sudlangan shaxs tomonidan sodir etilishi; voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlikka tortish; huquqbuzarlikning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi; huquqbuzarlikning tabiiy ofat sharoitida yoki boshqa favqulodda holatlarda sodir etilishi; huquqbuzarlikning mast holda sodir etilishi. Ma'muriy jazo chorasini qo'llanuvchi organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning xususiyatiga qarab mazkur holatni aybni og'irlashtiruvchi holat deb topmasligi mumkin. Shaxs ikki yoki undan ortiq soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, ma'muriy jazo har bir huquqbuzarlik uchun alohida-alohida qo'llaniladi. Agar shaxs bir necha ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lib, shu haqdagi ishlar bir vaqtning o'zida ayni bir organ (mansabdor shaxs) tomonidan ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, bu shaxsga nisbatan 239 qo'llaniladigan jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi. Ma'muriy jazo soliq huquqbuzarligi sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 38-moddasiga asoslanadigan bo'lsak, soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi, ya'ni davlat va mahalliy budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga qonun hujjatlari bilan belgilangan to'lovlarni o'tkazishi shart. Soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning tarkibi - O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "Savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" deb nomlangan XIII bobida ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra quyidagi soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik qo'llaniladi: 1) Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash; 2) Daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etishdan bo'yin tovlash, deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki unda atayin noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; 3) Soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib

bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek to'lov intizomini buzish; 4) Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish; 5) Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzish va boshqalar. Masalan, Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasi). Soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko'rsatish) yoxud soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan qasddan bo'yin tovlash - fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ancha miqdorda sodir etilgan bo'lsa, - fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. 240 Daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etishdan bo'yin tovlash, deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki unda atayin noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, - eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

#### **4. Soliq qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik**

Mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy qayta qurishlar, xo'jalik faoliyatini yuritish sharoitlarining o'zgarishi, tadbirkorlikning rivojlanishi, turli subyektlar o'rtasida raqobatning avj oldirilishi va boshqa bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi va chuqurlashib borishi natijasida, jamiyatda soliq sohasida bizga ma'lum bo'lmagan yangi ko'rinishdagi huquqbuzarliklarni yuzaga keltirdi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda soliq sohasida yuz beradigan huquqbuzarliklar - odatiy va ko'p tarqalgan hodisalardan biri bo'lib, ular o'rtasida soliq jinoyatlari (o'zining ijtimoiy xavfliligi va xususiyatlari bilan) ajralib turadi. Sobiq Ittifoq davridagi jinoyat qonunchiligi soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutmagan hamda bu borada hech qanday amaliyotga ega bo'lmagan. Davlat o'ziga kerak bo'lgan moliyaviy mablag'larni, davlat mulki hisoblangan tashkilotlarning ajratmalaridan shakllantirgani sababli, soliqlar budjet manbasi sifatida "ikkilamchi" xususiyatga ega bo'lgan. Jamiyatning rivojlanishi va aynan 1985 yildan boshlab qayta qurish siyosatining olib borilishi natijasida, Sobiq Ittifoq jinoyat qonunchiligiga (1986 yilda) 179-moddasi, ya'ni daromadlar haqida deklaratsiya berishdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatildi. Har qanday jinoyat to'g'risida so'z yuritganda, birinchi navbatda uning ijtimoiy xavfiga e'tiborni qaratish lozim. Soliq jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash vaqtida, birinchi navbatda uning ijtimoiy zararini, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari bilan belgilangan, soliq va boshqa to'lovlarni to'lashda ifodalangan - ommaviy-huquqiy majburiyatga tajovuz qilinishini e'tiborga olish lozim. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 14-moddasiga binoan Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyatdeb topiladi. Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi. 241 Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar; uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar; og'ir jinoyatlar; o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Jinoiy javobgarlik - jinoyat qonunchiligi me'yorlarini ijro etilishini; jinoiy munosabat ishtirokchilariga yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amaliy bajarilishi jarayonini; maxsus organ - sud tomonidan shaxsning ijtimoiy xavfli xatti-harakatining salbiy baholanishini; bu shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasi - jinoiy jazo qo'llanilishini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasi soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash deb nomlanib, unga ko'ra: Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib

ko'rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa, - eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash: takroran yoki ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, - eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, - eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad) bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'liq to'langan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 179-moddasida soxta tadbirkorlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra ustavida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko'rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlari tuzish - eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Soliqqa oid qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni adolatli bo'lishi, shuningdek davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida javobgarlikni liberallashtirish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga, 242 ishlab chiqarishni rivojlantirishga, hamda iqtisodiyotni mustahkamlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlardir.

## **15-mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy amaliyotni yuritish tartibi**

### **Reja:**

1. Ma'muriy huquqiy munosabatlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ma'muriy huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi
3. Soliqda ma'muriy huquq sub'ektlari va ularning huquqiy maqomi tushunchasi

**Tayanch so'z va iboralar:** : hujjat bilan tasdiqlangan , egri soliqlar , yutuq, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, tovarlarni eksport qilish, to'lov, umidsiz qarz, O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining Yagona reestri, O'zbekiston Respublikasining rezidenti.

### **1. Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари.**

Хуқуқий нормалар ўз вазифа ва функцияларини хуқуқий муносабатлар орқали амалга оширади. Хуқуқий муносабатлар - ўзаро субъектив хуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқ бўлган шахслар ўртасида, хуқуқ нормалари ва муайян юридик фактлар асосида вужудга келдиган алоқалардир.

Хуқуқий муносабат, бу биринчи навбатда томонлар ўртасидаги алоқадорликни акс эттиришдир. Муносабат томонлари бир-бири олдида тегишли субъектив хуқуқ ва мажбуриятларни ўтайдилар. Томонларнинг хуқуқ ва мажбуриятлари бир-бири билан ўзаро

мутаносиб тарзда боғлиқ бўлиб, я'ни бир томоннинг ҳуқуқига иккинчи томоннинг мажбурияти ёки иккинчи томоннинг ҳуқуқи биринчи томоннинг мажбуриятига мувофиқ келади.

Юридик адабиётларда ҳуқуқий муносабатларнинг табиати масаласи анча мунозарали. Бир гуруҳ олимлар ҳуқуқий муносабатларни *ижтимоий муносабатларнинг алоҳида бир тури* сифатида кўрсатиб ўтишади.

Иккинчи гуруҳ олимлари еса, ҳуқуқий муносабатлар ижтимоий муносабатларнинг алоҳида тури ҳисобланмаслигини, улар фақатгина *ижтимоий муносабатларнинг юридик шакли, ифодаси* сифатида намоён бўлишини кўрсатади.

*ҳуқуқий муносабатлар – ижтимоий хусусиятга ега бўлган муносабатлардир.* Чунки, улар жамиятда инсонлар ўртасида вужудга келади, инсонларнинг фаолияти, хулқ-атвори билан боғлиқ бўлади. Ҳуқуқий муносабат ҳар қандай ижтимоий муносабат сингари инсонлар онгли фаолиятининг натижасидир;

*ҳуқуқий муносабатлар – ҳуқуқ нормаларининг инсонлар хулқ-атворида таҳсири натижасида вужудга келадиган муносабатлардир.* Ҳуқуқий норма ва ҳуқуқий муносабат ўзаро боғлиқ бўлиб, бирдан иккинчиси вужудга келади. Ҳуқуқий нормалар билан тартибга солинган муносабатларгина, ҳуқуқий муносабат ҳисобланади.

Ижтимоий муносабатларнинг ҳуқуқий тартибга солиниши, А.П.Дубиннинг фикрича, ихтиёрий ҳодиса бўлмай, балки қонуний жараён дир. Ҳуқуқий нормалар тартибга солинувчи ижтимоий муносабатлардан, ҳуқуқий воқелиқдан бевосита келиб чиқиши керак. Чунки ҳуқуқий нормаларга муносабатларни вужудга келтиришдан аввал, ушбу муносабатлар ички ривожланишнинг оқибати, уларнинг зарурлиги, моҳиятининг таҳсири бўлиши керак;

*ҳуқуқий муносабат – кишиларнинг ўзаро субъектив ҳуқуқлари ва юридик мажбуриятлари воситасидаги алоқаларидир.* Бу алоқалар ҳуқуқ нормалари билан мустаҳкамланган ҳуқуқ ва мажбуриятларни амалга ошириш орқали вужудга келади;

*ҳуқуқий муносабат – иродавий муносабатдир.* Ҳуқуқий нормаларда давлатнинг муайян иродаси ифода етилади. Шу билан бирга ҳуқуқий муносабат вужудга келиши учун уни иштирокчиларининг ҳам иродаси талаб қилинади. Баҳзи бир ҳуқуқий муносабатлар унинг барча иштирокчиларининг иродаси билан вужудга келиши мумкин;

*ҳуқуқий муносабат – давлат томонидан қўриқланадиган муносабатлардир.* Ҳуқуқий нормаларда давлат иродаси ва манфаатлари ифода етилганлиги сабабли, улар асосида вужудга келадиган муносабатлар давлат томонидан муҳофаза қилинади. Агар ҳуқуқий нормаларда белгиланган талаблар ихтиёрий равишда бажарилмаса, давлатнинг мажбурлов чоралари ҳаракатга келади.

Демак, ҳуқуқий муносабатлар – ҳуқуқий нормалар асосида вужудга келадиган ва давлат томонидан қўриқланадиган ҳамда инсонларнинг фаолияти ва хулқ-атвори билан боғлиқ бўлган иродавий муносабатлардир.

Давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш жараёнида вужудга келадиган ҳуқуқий муносабатларга бошқа барча ҳуқуқий муносабатлар сингари умумий хусусиятлар хос дир.

Давлат бошқаруви жараёнида турли-туман муносабатлар вужудга келиб, турли ҳуқуқ тармоқлари билан тартибга солинади. Жумладан давлат бошқаруви соҳасидаги аксарият ҳуқуқий муносабатлар конституциявий, маъмурий, меҳнат, молия ва бошқа ҳуқуқ тармоқларининг нормалари асосида вужудга келади. Мазкур муносабатлар ўртасида маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар алоҳида аҳамият касб етади.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар – бу маъмурий ҳуқуқ нормалари асосида вужудга келадиган муносабатлардир.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар ўзининг тузилишига кўра, муносабат *субъекти, объект* ва *мазмун*ига ега.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг **субъекти** бўлиб, унда иштирок етувчи томонлар, яъни бошқарув жараёнида маълум бир ваколатга ега бўлган (давлат бошқарув органлари, мансабдор шахслар) ёки бошқача маъмурий-ҳуқуқий мақомга ега бўлган шахслар (фуқаролар, жамоат бирлашмалари) ҳисобланади.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг **объекти** бўлиб еса, маъмурий ҳуқуқ субъектларининг ҳаракатлари (қарорлари), уларнинг ижобий ёки салбий ҳуқ-атвори ҳисобланади. “Объект” сўзи лотинча сўздан олинган бўлиб, “мавзу” деган маънони англатади. Ҳар қандай ҳуқуқий муносабат маълум бир жараёнларни тартибга солишга қаратилган муайян бир вазифани бажаради. Шу сабабли объектсиз ҳуқуқий муносабат бўлиши мумкин эмас.

Кўпгина ҳуқуқшунос олимларнинг фикрича, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг объектини – ягона, яъни давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш жараёнидаги маъмурий ҳуқуқ субъектларининг хатти-ҳаракатлари ташкил етади.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг **мазмунини** – маъмурий ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқлари, мажбуриятлари, жавобгарлиги, тақиқлар, чекловлар ташкил етади.

Ҳуқуқшунос олим Д.Н.Бахрах, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг мазмунига юқоридагилардан ташқари, уларни амалга ошириш, ижро етиш, уларга риоя етиш ва ҳимоя қилишнинг **процессуал-ҳуқуқий тартибини** ҳам киритади.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар мазмунининг асосий элементи бўлиб - оммавий ҳуқуқлар ва мажбуриятлар ташкил етади. Субъектлар мазкур ҳуқуқлар ва мажбуриятларни амалга ошириш орқали оммавий-ҳуқуқий муносабатлар иштирокчиларига айланади.

Демак, маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар ҳуқуқий муносабатларнинг бир тури бўлиб, ўзининг мазмуни, хусусиятлари ва иштирокчилари билан бошқа ҳуқуқий муносабатлардан ажралиб туради.

Алимов Х.Р.нинг кўрсатишича, *маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар қўйидаги хусусиятларга* ега бўлиши мумкин:

а) маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш жараёнида вужудга келади;

б) маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг бир томонида ҳамма вақт давлат органи, мансабдор шахс ёки бошқарув ҳуқуқига ега бўлган жамоат бирлашмаси иштирок етади;

в) маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар бир томоннинг хоҳиши билан вужудга келиб, иккинчи томоннинг розилигини талаб етмайди;

г) маъмурий-ҳуқуқий муносабат иштирокчилари ўртасида вужудга келадиган низолар, аксарият ҳолларда маъмурий тартибда ҳал қилинади.

Юқоридагиларга асосланадиган бўлсак, маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар – давлат бошқаруви соҳасида вужудга келади; муносабатнинг мажбурий иштирокчиси бўлиб давлат органлари намоён бўлади; муносабат иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари муносабат турини белгилаб беради. **Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар** – бу давлат бошқарувини ташкил етиш ва амалга ошириш жараёнида вужудга келадиган, ижро етиш ва фармойиш бериш фаолияти билан боғлиқ бўлган ва маъмурий-ҳуқуқий нормалар билан тартибга солинган ҳуқуқий муносабатларнинг бир туридир.

## **2.Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг вужудга келиши, ўзгариши ва бекор бўлиши.**

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар маъмурий-ҳуқуқий нормаларда назарда тутилган шароитлар мавжуд бўлганида вужудга келади. Маъмурий-ҳуқуқий нормалар ўз-ўзидан бевосита маъмурий-ҳуқуқий муносабатларни вужудга келтирмайди. Балки, маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар вужудга келишининг шартларини, ҳолатларини ва мезонларини белгилаб беради. Бу – **юримдик фактлар** бўлиб, норма талабидан келиб чиққан ҳолда томонлар ўртасида маълум бир ҳуқуқий муносабатни вужудга келтирувчи ҳолатлардир.

Юридик фактлар маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг зарурий шарти, аниқ талаби сифатида майдонга чиқади.

Жамиятда турли-туман ҳолатлар ва шарт-шароитлар мавжуд бўлиб, уларнинг ҳаммаси ҳам юридик факт бўлиб ҳисобланмайди. Муайян ҳодиса ва ҳолатларни юридик факт деб еҳтироф етиш, давлатнинг хоҳиш-иродасига боғлиқдир.

Юридик фактлар нафақат маъмурий-ҳуқуқий муносабатларни вужудга келтириш, балки ўзгартириши ёки бекор қилиши ҳам мумкин.

Юридик фактлар ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солишда катта аҳамиятга егадир.

Юридик фактлар ҳуқуқий норма билан ҳуқуқий муносабат ўртасидаги боғловчи воситадир.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар ҳаракатлар ва ҳодисалар сингари юридик фактлардан вужудга келиши, ўзгариши ва бекор бўлиши мумкин.

**қонуний ҳаракатлар** – ҳамма вақт маъмурий-ҳуқуқий нормалар талабига мос келади. Бунда юридик факт сифатида муносабат иштирокчиларининг қонунга мувофиқ ҳаракати намоён бўлади.

Қонуний ҳаракатлар ўз навбатида икки кўринишга ега:

- *давлат бошқаруви органларининг ҳуқуқий актлари.*

Ҳуқуқий актлар норматив ёки яқка (индивидуал, маъмурий) актларга бўлинади. Ҳуқуқий актларда қонунга мувофиқ ҳаракатлар муайян ҳуқуқий оқибатларни вужудга келтиришини назарда тутиб содир етилади. Бундай ҳаракатларда - ҳуқуқ ва мажбуриятларнинг вужудга келиши, ўзгариши ва бекор бўлишига қаратилган ирода ифодаланади;

- *юридик хатти-ҳаракатлар;*

**қонунга хилоф ҳаракатлар** – маъмурий-ҳуқуқий нормалар талабларига мос келмайдиган, уларни бузадиган ҳаракатлардир. Бу - давлат бошқаруви соҳасига хос бўлган интизомий ва маъмурий ножўя ҳаракатлардир. Шахснинг *ҳаракатсизлиги* ҳам айнан мана шу гуруҳга киради (масалан, ички ишлар ходими томонидан жамоат тартибини сақлашга қаратилган чораларнинг кўрилмаслиги).

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг вужудга келиши, ўзгариши ва бекор бўлишига асос бўладиган иккинчи юридик факт – бу **ҳодисалар**дир. Ҳодисалар одамларнинг хоҳиш-иродасига боғлиқ бўлмаган ҳолда содир бўладиган фактлардир (инсоннинг туғилиши, маълум бир ёшга етиши, ўлими, табиий офат ва бошқалар).

*Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг турлари.*

**Тартибга солувчи муносабатлар**, яъни ҳуқуқ субъектларининг мўхтадил хулқ-атвори, ҳуқуққа мувофиқ хатти-ҳаракатларининг натижасида вужудга келадиган муносабатлар;

**Муҳофаза қилувчи муносабатлар**, яъни ҳуқуқбузарликни содир етиш ва бу учун давлатнинг мажбурлов чораларини қўллаш зарурияти асосида вужудга келадиган муносабатлар.

Кўпгина юридик адабиётларда ҳуқуқий муносабатларнинг **моддий** ва **процессуал** турларга бўлиниши ҳам кўрсатиб ўтилган.

**Моддий ҳуқуқий муносабатлар** – бу моддий маъмурий-ҳуқуқий нормалар асосида вужудга келадиган ҳамда ҳуқуқ субъектлари томонидан ҳуқуқ ва мажбуриятларнинг амалга оширилиши билан боғлиқ бўлган муносабатлардир.

**Процессуал ҳуқуқий муносабатлар** – давлат-ҳокимият хусусиятига ега бўлиб, ҳуқуқий муносабат субъектларининг субъектив процессуал ҳуқуқлари ва мажбуриятларини белгилаш ва тартибга солишда намоён бўлади.

**асосий** ва **ёрдамчи** (асосий бўлмаган) маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар – бевосита бошқарув таҳсирини (“субъект - обхект”) ифода етувчи муносабатлар бўлиб, унда давлат бошқаруви фаолияти яққол намоён бўлади. Мазкур муносабатлар “буйруқ - ижро”

формуласига асосланган бўлиб, биринчи навбатда юқори турувчи ва қуйи турувчи давлат бошқаруви органлари ўртасидаги, раҳбар – мансабдор шахс билан унга хизмат бўйича бўйсинувчи ходим ўртасидаги, давлат бошқарув органлари (мансабдор шахс) билан маҳлум бир маъмурий-ҳуқуқий мажбуриятга ега бўлган шахс ўртасидаги муносабатлардир.

Ушбу муносабатлар у ёки бу объектга бевосита бошқарув таҳсири доирасидан ташқарида бўлган, лекин бошқарувни амалга ошириш билан боғлиқ бўлган муносабатлардир. Асосий маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар бошқарув мазмунини ифода етса, ёрдамчи маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар бошқарув мазмуни билан боғлиқ бўлиб, тўғридан-тўғри уни ифода етмайди.

Ёрдамчи маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар давлат бошқаруви жараёнида вужудга келса ҳам, уларнинг асосий вазифаси бошқарув субъектининг бошқарув объектига бевосита таҳсири ҳисобланмайди. Бу муносабатлар асосий маъмурий-ҳуқуқий муносабатларга, яҳни бевосита бошқарув таҳсирини амалга оширишга қўмаклашади. Масалан, давлат бошқарувини амалга ошириш мақсадида бирон бир норматив ҳужжатни тайёрлаш бўйича икки бошқарув субъекти ўртасида вужудга келадиган ва бўйсинувга асосланмаган муносабатлар – ёрдамчи маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар ҳисобланади. Бундай муносабатлар турли-туман бўлиб, давлат бошқарувини амалга ошириш учун зарур бўлган шарт-шароитларни яратиб беради;

**б) субординациявий** (бевосита бўйсинувга асосланган) ва **координациявий** (мувофиқлаштирувчи) маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар.

Бошқарув субъекти юридик иродасининг авторитарлигига асосланган муносабатлар – **субординациявий**, авторитарлик мавжуд бўлмаган муносабатлар – **координациявий** ҳисобланади. Лекин шу нарсани ҳам алоҳида таҳкидлаб ўтиш лозимки, давлат бошқарувининг юқори турувчи ва қуйи турувчи субъектлари ўртасидаги муносабатларда мувофиқлаштириш - юридик-ҳокимият хусусиятига ега бўлиши, яҳни мувофиқлаштириш субординациявий ҳам бўлиши мумкин. Масалан, вазирлик томонидан унга бўйсинувчи бошқарма фаолиятини мувофиқлаштириши. Мазкур муносабат биринчи навбатда мувофиқлаштириш мақсадида вужудга келган, лекин улар ўртасидаги ташкилий жиҳатдан бевосита бўйсинув мувофиқлаштиришни субординацияга айлантиради.

Айрим ҳолларда мувофиқлаштириш юридик-ҳокимият хусусиятига ега бўлмаслиги, бўйсинув билан боғлиқ бўлмаслиги ҳам мумкин. Шу сабабли ҳам маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг субординациявий ва координациявий турларга бўлиниши шартли ҳисобланади;

**в) вертикал ва горизонтал маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар.**

**Вертикал маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар** – маъмурий-ҳуқуқий тартибга солишнинг моҳиятини ифода етиб, давлат бошқаруви фаолиятига хос бўлган бошқарув субъекти ва объект ўртасидаги субординациявий алоқаларни англатади. Вертикал маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар айнан ҳокимият муносабатларидир. Мазкур муносабатлар бўйсинув мавжуд бўлган томонлар ўртасида вужудга келади ҳамда фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлардан фарқ қилган ҳолда, уларда томонларнинг тенглиги мавжуд емас. Вертикаллик деганда – бир томонда юридик-ҳокимият ваколатлари мавжудлигини, иккинчи томонда еса бундай ваколатларнинг мавжуд емаслигини (масалан, фуқаролар) ёки ваколат доираси торроқ еканлиги (масалан, қуйи турувчи орган) тушуниш лозим. Айнан вертикал маъмурий-ҳуқуқий муносабатларда бошқарув субъектининг у ёки бу объектга бевосита бошқарув таҳсири амалга оширилади.

Давлат бошқаруви соҳасидаги маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг вертикаллигини англатувчи қуйидаги хусусиятларни кўрсатиб ўтишимиз мумкин:

- вертикал муносабатларнинг асосий (бош) кўрсаткичи ҳисобланган – “*томонлар тенгсизлиги*”нинг мавжудлиги; бошқарув субъектида юридик-ҳокимият ваколатларининг мавжудлиги;

- томонларнинг тенгсизлиги бир томонинг (бошқарув объекти) иккинчи томонга (бошқарув субъекти) *бўйсиниши*, яъни “ҳокимият - бўйсинув”га асосланиши;

- маъмурий-ҳуқуқий муносабатларда бўйсинув ҳамма вақт ҳам аниқ намоён бўлмайди. Масалан, фуқаро ёки нодавлат ташкилоти бошқарув субъектига (ижро ҳокимиятига) ташкилий жиҳатдан бўйсинмаган ёхуд ижро ҳокимияти органларининг ҳаммаси ҳам тўғридан-тўғри бўйсинувга ега эмас. Лекин мазкур ҳолларда ҳам томонларнинг тенгсизлиги яққол намоён бўлади;

- давлат бошқаруви соҳасида бўйсинув тўғрисида гапирганда, биринчи навбатда *ташкилий жиҳатдан бўйсинув*ни назарда тутиш лозим;

- вертикал хусусиятдаги аксарият маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар бўйсинув мавжуд бўлмаган томонлар ўртасида ҳам вужудга келиши мумкин. Лекин бу ҳолда ҳам, бир томон ўз ваколати доирасида ўзига бўйсинмаган иккинчи томон учун мажбурий бўлган ҳуқуқий актни қабул қилиши мумкин;

- давлат бошқаруви соҳасида контрол-назорат фаолияти кенг доирада амалга оширилиб, унинг субъектлари сифатида ижро ҳокимияти органлари (мансабдор шахслар)нинг ўзи намоён бўлади. Масалан, махсус ташкил етиладиган давлат органлари томонидан амалга ошириладиган маъмурий назорат юридик-ҳокимият хусусиятига ега бўлиб, ташкилий жиҳатдан бўйсинмаган бошқарув объектига нисбатан амалга оширилади;

- маъмурий-ҳуқуқий нормаларда кўрсатиб ўтилган талаблар доирасида бошқарув субъектлари уларга бўйсинмаган шахсларга (фуқароларга, нодавлат тузилмаларига) ўзларининг юридик-ҳокимият иродасини ифода етиши мумкин ва ҳ.к.лар.

Демак, вертикал маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар турли кўринишларга ега бўлиб, тўғридан-тўғри бошқарув таҳсини амалга ошириш ҳамда бир томон юридик-ҳокимият иродасининг устунлиги билан ифодаланади.

**Горизонтал маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар**да бир томоннинг иккинчи томонга нисбатан юридик-ҳокимият иродасининг устунлиги мавжуд эмас. Маълум бир маҳнода, горизонтал маъмурий-ҳуқуқий муносабатларда томонлар тенг ҳисобланади. Горизонтал маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар вертикал маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар сингари кўп тарқалган эмас. Чунки улар қайсидир маҳнода маъмурий-ҳуқуқий тартибга солиш доирасидан четга қолган. Лекин давлат бошқаруви соҳасида бундай муносабатларнинг вужудга келиши мумкин.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларда томонларнинг тенглигини тан олиш – маъмурий-ҳуқуқий тартибга солишнинг мазмунига, шунингдек, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг хусусиятларига тўғри келмайди. Шу сабабли бундай муносабатларнинг бошқарув соҳасида вужудга келиши шубҳа остига олинган. Лекин бошқарувдаги горизонталлик хусусиятини тўғри англаганда, бундай шубҳаларга ўрин қолмайди. Бу учун қуйидаги хусусиятларга еҳтибор қаратиш лозим:

*биринчидан*, томонлар ўртасида бўйсинувнинг мавжуд эмаслиги, томонларнинг бир хилдаги ҳуқуқий даражага ега эканлиги, юридик тенгликнинг формал эмас, балки ҳақиқатда мавжуд бўлиши;

*иккинчидан*, бошқарув муносабатларида бу иккала хусусият (*бўйсинувнинг мавжуд эмаслиги* ва *юридик тенглик*)нинг бир вақтда мавжуд бўлиши;

*учинчидан*, бир томоннинг иккинчи томонга қаратилган юридик-ҳокимият иродасининг бўлмаслиги.

Давлат бошқаруви соҳасидаги маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар ўртасида горизонтал муносабатларни ажратиш олиш мушкулдир. Чунки улар вертикал муносабатлар сингари яққол намоён бўлмайди. Лекин бошқарув амалиётига асосланиб, горизонтал маъмурий-ҳуқуқий муносабатларга қуйидагиларни киритиш мумкин:



- *бевосита бошқарув таҳсирига кўмаклашувчи муносабатлар*. Бу муносабатлар вертикал муносабатларга хизмат қилади, яъни бир томонлама юридик-ҳокимият қарорини қабул қилиш учун шарт-шароитлар яратиб беришга қаратилади. Горизонтал муносабатлар бир даражада бўлган бошқарув субъектлари ўртасида вужудга келади. Масалан, биргаликда норматив ҳужжатни қабул қилиш учун тайёргарлик кўриш; ҳамкорликда бошқарув ҳаракатларини амалга ошириш; биргаликда қўшма тадбирларни (мажлисларни) олиб бориш; идоралараро, маслаҳат ёки мувофиқлаштирувчи кенгашларни ташкил етиш бўйича муносабатлар;

- *бевосита бошқарув таҳсири амалга оширилгандан кейин вужудга келадиган муносабатлар*, яъни бир томонлама тартибда қабул қилинган қарорнинг самарали ижро етилишига шароитлар яратиб бериш бўйича вужудга келадиган муносабатлар;

- *маъмурий-процессуал хусусиятдаги муносабатлар*. Бундай муносабатларда ҳам томонлар тенг ҳуқуқли даражага ега бўлади. Масалан, фуқароларнинг шикоятларини, маъмурий ҳуқуқбузарлик ишларини кўриб чиқиш жараёнида вужудга келадиган муносабатлар. Бу муносабатларнинг мазмунини маъмурий-ҳуқуқий низоларни кўриб чиқиш ташкил етади;

- турли хилдаги шартнома шаклига ега бўлган *маъмурий-келишув хусусиятига ега бўлган муносабатлар*. Масалан, у ёки бу лавозимдаги ишга қабул қилиш тўғрисида олдиндан келишув.

Ю.М.Козлов, юқоридаги маъмурий-ҳуқуқий муносабат турларидан ташқари *ташқи* ва *ички ташкилий* муносабатларни ҳам кўрсатиб ўтади. Унинг фикрича, маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар:

а) давлат бошқаруви органлари ички фаолиятининг доирасида вужудга келадиган муносабатларга (масалан, тузилмавий ва кадрлар масаласини ҳал етиш, бошқарув аппарати ходимларининг мажбуриятларини, уларнинг жавобгарлигини белгилаш);

б) бошқарувнинг ташқи соҳаси доирасида, яъни бошқарув объектларига нисбатан бевосита бошқарув функцияларини амалга ошириш жараёнида вужудга келадиган муносабатларга бўлинади.

Ю.Н.Стариков еса маъмурий-ҳуқуқий муносабатларга тўхталиб, уларнинг қуйидаги турларини кўрсатиб ўтади:

1) *мақсадига кўра*: а) муҳофаза етувчи муносабатлар; б) тартибга солувчи муносабатларга бўлиниши мумкин;

2) *иштирокчиларига кўра*: а) давлат аппаратига тегишли бўлган иштирокчилар (давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари) ўртасидаги муносабатлар; б) ижро ҳокимияти органлари ва давлат корхона, муассаса, ташкилотлари ўртасидаги муносабатлар; в) ижро ҳокимияти органлари ва жамоат бирлашмалари, меҳнат жамоалари ўртасидаги муносабатлар; г) ижро ҳокимияти органлари ва нодавлат тижорат ташкилотлари ўртасидаги муносабатлар; д) ижро ҳокимияти органлари ва фуқаролар ўртасидаги муносабатларга бўлинади;

3) *фаолият йўналишига кўра*: а) умумий ваколатли ижро ҳокимияти органларининг муносабатлари; б) соҳавий ваколатли ижро ҳокимияти органларининг муносабатлари; в) соҳалараро ваколатли ижро ҳокимияти органларининг муносабатлари; г) ички ташкилий муносабатларга бўлинади;

4) *иштирокчилар ўзаро алоқаларининг юридик хусусиятига кўра*: а) вертикал муносабатлар; б) горизонтал муносабатларга бўлинади;

5) *ички ташкилий (ва фуқуционал ички ташкилий) маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар*;

б) *субординациявий, координациявий ва реординациявий маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар*.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, Ю.Н.Стариков бошқа ҳуқуқшунос олимларидан фарқли равишда, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг реординациявий турини ҳам кўрсатиб ўтган. Унинг фикрича, *реординациявий маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар* – бу бошқарилувчи

субъектнинг бошқарув субъектига, яъни қуйидан юқорига қараб тахсир етиш (орқага қайтиш)дир. Масалан, фуқароларнинг давлат бошқаруви органларига мурожаати билан вужудга келадиган муносабатлар - реординациявий маъмурий-ҳуқуқий муносабат ҳисобланади.

### **3.Soliqda ma'muriy ҳуқуқ суб'ектлари ва уларнинг ҳуқуқий мақоми тушунчаси.**

Ҳар бир ҳуқуқ тармоғи ўзининг субъектларига ега бўлиб, улар тартибга солинадиган ҳуқуқий муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари билан тавсифланади.

“*Ҳуқуқ субъекти*”дан “*ҳуқуқий муносабат субъекти*”ни фарқлаш лозим. Олдинги МАВЗУлардан маълумки, ҳуқуқий муносабат субъекти – бу аниқ бир ҳуқуқий муносабатнинг иштирокчисидир. Ҳуқуқ субъекти еса, бу ҳуқуқий муносабатларда иштирок ета оладиган ҳамда субъектив ҳуқуқлар ва мажбуриятларга ега бўлган шахслардир.

Ҳуқуқ субъектлари ҳуқуқий муносабатларга киришганида, ҳуқуқий муносабат субъектига айланиши мумкин. Лекин ҳуқуқий муносабатда иштирок етаётган ҳуқуқ субъектлари ўзларининг олдинги ҳолатини йўқотмайди. Ҳуқуқ субъектлари бир вақтнинг ўзида бир неча ҳуқуқий муносабатларнинг иштирокчилари сифатида намоён бўлиши мумкин. Шу нуқтаи назардан олганда, ҳуқуқ субъекти ҳуқуқий муносабат субъектига қараганда кенгрок тушунчадир.

Юридик адабиётларда ҳуқуқ субъектлари бўйича турлича фикрлар билдирилган.

Ю.Н.Стариловнинг фикрича, маъмурий ҳуқуқ субъектлари доирасини аниқлаш муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Чунки айнан улар маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг иштирокчилари сифатида намоён бўлиб, давлат бошқаруви вазибалари ва функцияларини амалга оширадилар; давлат бошқаруви соҳасида тартибга солиш, ташкил етиш, мувофиқлаштириш, фармойиш бериш, контрол-назорат ваколатларини амалга оширадилар; юридик ва жисмоний шахслар томонидан содир етиладиган ҳуқуқбузарликларни кўриб чиқадилар ва ҳ.к.лар.

Маъмурий ҳуқуқ субъектлари сифатида маъмурий қонунчилик нормалари билан ўрнатилган асосларда, давлат бошқарувини амалга оширишда иштирок етувчи жисмоний ва юридик шахслар (ташкилотлар) намоён бўлади. Маъмурий ҳуқуқ субъектлари – оммавий бошқарув фаолияти томонларининг бири бўлиб, қонунчилик билан маълум бир ҳуқуқларга, мажбуриятларга, ваколатларга, жавобгарликка, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларга киришиш қобилиятига ега бўлган бошқарув муносабатларининг иштирокчиларидир. Маъмурий ҳуқуқ субъектлари томонидан уларга берилган ҳуқуқлар ва мажбуриятларни бажариш аниқ бир ҳуқуқий муносабат доирасида амалга оширилади.

Аксарият ҳуқуқшунос олимларининг фикрича, маъмурий ҳуқуқ субъектлари иккига бўлинади: ***индивидуал субъектлар*** ва ***жамоа субъектлар***. Жумладан, Ю.Н.Стариловнинг фикрича, *индивидуал субъектлар* - фуқаролар, хорижий давлатларнинг фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар бўлиб, улар ижро ҳокимияти ва оммавий бошқарув органлари билан қатҳий ва доимий ташкилий алоқаларда бўлмайди. Фуқаролар, масалан, қандайдир ҳаракатни содир етиш зарурати билан уларга юклатилган мажбуриятларни бажариш, тегишли давлат органининг рухсатини (лицензия) олиш, ҳуқуқлар, еркинликлар ва қонуний манфаатларни бузадиган ижро ҳокимияти органларининг ҳаракатлари (қарорлари) устидан шикоят қилиш орқали маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг субъекти сифатида намоён бўлади.

Давлат хизматчилари ва мансабдор шахслар ҳам маъмурий ҳуқуқнинг индивидуал субъектлари ҳисобланади. Улар давлат ҳокимияти органларида давлат мансабларини егалладилар, мазкур органлар билан қатҳий ва доимий алоқаларда бўладилар; уларнинг мақоми норматив ҳуқуқий актлар билан бир хилда тартибга солинади; давлат органлари ваколатларини амалга оширадилар ва маълум бир давлат-ҳокимият ваколатига ега бўладилар; давлат органлари номидан ҳаракат қиладилар ва қарорлар қабул қиладилар.

Маъмурий ҳуқуқнинг *жамоа субъектлари* – бу инсонлар гуруҳи бўлиб, ташқи муносабатларда мустақил субъект сифатида иштирок этадилар; уларни ташкил етиш тартиби ва фаолияти норматив ҳуқуқий актлар билан тартибга солинади. Маъмурий-ҳуқуқий муносабатларда жамоа субъектлари ўз номларидан ҳаракат қиладилар; қонун ва бошқа норматив ҳужжатларда уларнинг ҳуқуқлари ва маълум бир мажбуриятлари белгилаб қўйилади.

Б.Н.Габричидзенинг кўрсатиб ўтишича, маъмурий ҳуқуқнинг субъектлари бўлиб: а) *давлат ҳокимияти органлари*; б) *жамоат бирлашмалари*; в) *корхона ва ташкилотларнинг маъмурияти*; г) *фуқаролар* ҳисобланади.

Маъмурий ҳуқуқ субъектлари ўзининг табиати, ҳуқуқий мақоми ва бошқа белгиларига кўра бир-биридан фарқланади.

Л.И.Соловьеванинг фикрича, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг субъектлари деганда – давлат бошқаруви соҳасида ҳуқуқ ва мажбуриятларга ега бўлган ва уларни амалга ошира оладиган аниқ томонлар тушунилади.

Маъмурий ҳуқуқ субъекти ҳамма вақт ҳуқуқ субъекти ҳисобланади. Ҳуқуқнинг субъектлари бир вақтнинг ўзида бир неча ҳуқуқ тармоқларининг субъекти сифатида намоён бўлиши мумкин. Масалан, фуқаро бир вақтнинг ўзида маъмурий, фуқаролик ёки меҳнат ҳуқуқи томонидан тартибга солинадиган ҳуқуқий муносабатлар субъекти бўлиши мумкин. Мазкур ҳуқуқий муносабатларнинг моҳияти – ҳуқуқ лаёқати тушунчаси, унинг хусусияти, мазмуни ва ҳажми орқали ёритиб берилади.

Маъмурий **ҳуқуқ лаёқати** ва **муомала лаёқати** – субъектлар маъмурий-ҳуқуқий ҳолатининг асосини ташкил этади.

Субъектнинг ҳуқуқ лаёқати унинг юридик ҳуқуқ ва мажбуриятларини ўз ичига олади. Одатда, у аниқ бир шахснинг субъектив ҳуқуқ ва субъектив мажбуриятга ега бўлиш қобилиятини англатади.

*Маъмурий ҳуқуқ лаёқати* – ҳуқуқ субъекти умумий ҳуқуқ лаёқатининг бир тури бўлиб, қонунчилик билан ўрнатилган ва давлат томонидан қафолатланган ҳамда аниқ бир субъектнинг (фуқаро, давлат органи, давлат хизматчиси, мансабдор шахс, нодавлат тузилмалари ва ҳ.к.лар) турли ҳуқуқий муносабатларда иштирок етиш қобилиятини англатади.

Маъмурий ҳуқуқ лаёқати – бу маълум бир ҳуқуқларга ега бўлиш ва мажбуриятларни бажариш, ҳаракатларни амалга ошириш ва қарорлар қабул қилиш, маъмурий иш қўзғатиш ва маъмурий ҳуқуқбузарлик ишларини кўриб чиқиш, ҳуқуқий нормаларни бузиш ва қонун билан ўрнатилган талабларга риоя етмаганлик учун жавобгарликка тортилиш қобилиятига ега бўлишдир.

Шундай қилиб, маъмурий ҳуқуқ лаёқати аниқ бир маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг вужудга келишида, мазкур ҳуқуқий муносабатлар иштирокчиларининг аниқ ҳуқуқ ва мажбуриятларга ега бўлишида хизмат қилади. Маъмурий ҳуқуқ субъектлари томонидан ҳуқуқ ва мажбуриятларнинг амалга оширилиши – ҳуқуқий муносабатларни вужудга келтирувчи юридик фактлар билан таҳминланади. Маъмурий ҳуқуқ субъектининг ҳуқуқий лаёқати – унга нисбатан юридик жавобгарликни қўллаш қобилиятини ҳам вужудга келтиради.

Маъмурий-ҳуқуқий муносабатлар фақатгина унинг субъектлари ҳуқуқ лаёқатига ега бўлганидагина, яхни ҳуқуқий муносабатларга киришиш учун асос бўладиган ҳуқуқ ва мажбуриятларга ега бўлганида вужудга келиши мумкин. Қонунчилик ҳужжатлари билан маълум бир ҳуқуқ ва мажбуриятларга ега бўлган маъмурий-ҳуқуқий муносабатнинг ҳар бир иштирокчиси – маъмурий ҳуқуқнинг субъекти сифатида тан олинади.

Маъмурий ҳуқуқнинг ҳар бир субъекти ўзига хос маъмурий ҳуқуқ лаёқатига егадир. Масалан, фуқароларнинг маъмурий ҳуқуқ лаёқати ўзининг мазмуни ва хусусиятларига кўра ижро ҳокимияти органларининг, жамоат бирлашмаларининг ёки бошқа ташкилотларнинг маъмурий ҳуқуқ лаёқатидан фарқланади. Бундан ташқари, маъмурий қонунчиликка киритиладиган ўзгаришлар – маъмурий ҳуқуқ лаёқатининг мазмунига ўз таҳсирини кўрсатади.

Жисмоний шахслар ва юридик шахслар томонидан маъмурий ҳуқуқ лаёқатининг амалга оширилишини жисмоний шахснинг ёки бошқарув органи (мансабдор шахс)нинг хоҳиш-иродасини ифода етишисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Маъмурий ҳуқуқ субъектининг ҳуқуқ ва мажбуриятларни амалга ошириш бўйича ифодаланган иродаси - ҳуқуқ лаёқатини юридик мазмун билан бойитади.

Демак, **маъмурий ҳуқуқ лаёқати** – бу субъект томонидан у учун ўрнатилган ҳуқуқлар, еркинликлардан фойдаланиш, шунингдек, мажбуриятларни бажариш, ваколатларни амалга ошириш қобилиятидир. Маъмурий ҳуқуқ субъектининг маъмурий ҳуқуқ лаёқати унинг маъмурий ҳуқуқий ҳолатини амалга ошириш учун хизмат қилади. Бошқача айтганда, ҳуқуқ лаёқати - тегишли шароитлар мавжуд бўлганида ҳуқуқ субъектини ҳуқуқлар ва еркинликлардан фойдаланувчи, мажбуриятлар юклаш ҳамда юридик жавобгарликка тортиш мумкин бўлган шахс сифатида намоён қилади.

Маъмурий ҳуқуқнинг барча субъектлари ўзига хос маъмурий ҳуқуқий мақомга егадир. Шунинг учун ҳам олдинги юридик адабиётларда ҳамда ҳозирги адабиётларда

Шу билан бирга, маъмурий ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқ лаёқати умумий хусусиятга ҳам ега бўлиши мумкин. Жумладан, Ю.Н.Стариловнинг кўрсатиб ўтишича, субъектларнинг ҳуқуқ лаёқатини умумий ва ўзига хос хусусиятлари маъмурий ҳуқуқнинг предмети ва тартибга солиш услубига асосланади.

Маъмурий ҳуқуқ субъектларининг ҳуқуқ лаёқатидаги *умумийлик* қуйидаги хусусиятларда намоён бўлади:

биринчидан, *маъмурий ҳуқуқ лаёқатини амалга ошириш жараёнида намоён бўлувчи бошқарувнинг мазмунида*. Маъмурий ҳуқуқ субъектлари ижро ҳокимияти билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, давлат бошқарувнинг турли функцияларини амалга оширадилар (бу барча субъектларга тегишлидир);

иккинчидан, *маъмурий ҳуқуқ субъектларининг ташкилий алоқаларни ва оммавий бошқарув тизимидаги муносабатларни вужудга келтирувчи махсус ҳуқуқ ва мажбуриятларга ега бўлишида* (барча субъектларга тегишли);

учинчидан, *маъмурий ҳуқуқ субъектларининг айримлари томонидан қабул қилинадиган қарорларнинг юридик-ҳокимият хусусиятига ега бўлишида* (ижро ҳокимияти органлари ва мансабдор шахсларга тегишли);

тўртинчидан, *давлат-мажбурлов ваколатларини, маъмурий-ҳуқуқий мажбурлов чораларини амалга оширишида* (махсус субъектларга тегишли);

бешинчидан, *иштирокчилари фуқаролар бўлган ҳуқуқий муносабатларнинг муҳофазасини тахминлашида* (барча субъектларга тегишли);

олтинчидан, *бошқарув жараёнида вужудга келган низони ўрнатилган процессуал қоидалар доирасида маъмурий ва суд тартибида кўриб чиқишининг ҳуқуқий кафолатларида* (барча субъектларга тегишли).

Маъмурий-ҳуқуқий нормалар билан ўрнатилган ҳуқуқ лаёқатига ега бўлган субъектлар, уларга берилан ҳуқуқ лаёқатини амалда рўёбга чиқаришлари орқали, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларнинг иштирокчиларига айланадилар. Шу сабабли, маъмурий ҳуқуқ субъектлари маъмурий ҳуқуқ лаёқати билан бир вақтда маъмурий муомала лаёқатига, яъни уларга тегишли бўлган бошқарув соҳасидаги ҳуқуқларни амалга ошириш қобилиятига ҳам ега бўлиши керак. Жисмоний ёки юридик шахснинг **муомала лаёқати** – бу уларнинг ўз қарорлари ва ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) билан ҳуқуқларга ега бўлиши ва амалга ошириши, ўзларига ва бошқа шахсларга мажбуриятларни вужудга келтириши, уларни бажариши ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва еркинликларини тахминлаш қобилиятига ега бўлишидир.

Маъмурий муомала лаёқати, Ю.Н.Стариловнинг фикрича, норматив ўрнатилган ва маъмурий ҳуқуқ субъектига тегишли бўлган ҳуқуқ ва мажбуриятларни амалга оширишга имкон берадиган “фаол” ва “ижодий” асосларга егадир, яъни ҳуқуқ субъекти томонидан унга

тегишли ҳуқуқлар ва еркинликлардан, ваколатлардан фойдаланиш, бошқарув соҳасида қонунийликни таҳминлаш, бошқарув функцияларини бажариш, бошқарувнинг маъмурий-ҳуқуқий шакл ва услубларини, маъмурий-ҳуқуқий мажбурият чораларини қўллаш ҳисобланади. Муомала лаёқати – бу субъектлар томонидан уларга тегишли бўлган ҳуқуқ ва еркинликларни амалга оширишнинг, шунингдек, ўрнатилган мажбуриятларни бажаришнинг муҳим шароитидир.

Маъмурий муомала лаёқати - жисмоний шахс ёки давлат маъмурияти вакилининг маҳлум бир ҳуқуқий аҳамиятга ега бўлган ўз хатти-ҳаракатларини англаши ва тўғри баҳолаши, уларга амал қилиши ҳамда уларни қўллашнинг қонуний эканлигини қафолатлаш қобилиятидир.

Маъмурий ҳуқуқ субъектларида маъмурий муомала лаёқати турлича вужудга келади. Муомала лаёқати вужудга келишининг асосий шарти бўлиб, субъектлар ҳуқуқлари, мажбуриятлари ва ваколатларининг хусусиятлари ҳисобланади.

Маъмурий муомала лаёқатига ега бўлишнинг ҳуқуқий асослари норматив ҳуқуқий актларда ўрнатилади.

Демак, жисмоний ва юридик шахсларнинг маъмурий ҳуқуқ субъекти сифатида намоён бўлиши, маъмурий-ҳуқуқий муносабатларда иштирок етиши кўп жиҳатдан ҳуқуқ субъекти эканлигига, яъни маъмурий ҳуқуқ лаёқати ва маъмурий муомала лаёқатининг мавжудлигига боғлиқдир.

## 16-Мавзу. Soliqqa oid nizolarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari

### Reja:

1. Жинойт ва жинойтчилик тушунчаси
2. Жинойт жавобгарлик асослари
3. Nazorat kassa mashinalaridan foydalanishda huquqiy omillar

**Tayanch so'z va iboralar:** hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, tovarlarni eksport qilish, to'lov, umidsiz qarz, O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining Yagona reestri, O'zbekiston Respublikasining rezidenti.

### 1. Жинойт ва жинойтчилик тушунчаси

Жинойт ҳуқуқининг Умумий қисми иккита асосий тушунча билан боғлиқ бўлиб, улар жинойт ва жазо тушунчаларидир. Шунга кўра жинойт тушунчаси жинойт ҳуқуқининг энг муҳим ва асосий категориясидир.

ЎзР ЖКнинг 2-моддасида Жинойт кодексининг вазифалари белгиланар экан, шахсни, унинг ҳуқуқ ва еркинликларини, жамият ва давлат манфаатларини, мулкни, табиий муҳитни, тинчликни, инсоният хавфсизлигини жинойт тажовузлардан кўриқлаш, шунингдек, жинойтларнинг олдини олиш, фуқароларни республика Конституцияси ва қонунларига риоя қилиш руҳида тарбиялашдан иборатлиги кўрсатилиб, жинойтларнинг доираси умумий тарзда баён қилинади. ЎзР ЖКнинг 14-моддасида еса жинойт тушунчаси берилди. Унда Жинойт кодекси билан тақиқланган айбни ижтимоий хавфли қилмиш (ҳаракат ёки ҳаракатсизлик) жазо қўллаш таҳдиди билан жинойт деб топилади, дейилади. Демак, жазолаш билан кўрқитиб, жинойт қонунида тақиқланган ижтимоий хавфли қилмишни (ҳаракат ёки ҳаракатсизликни) айбни содир етиш жинойт деб топилади. Жинойт — инсоннинг онгли фаолияти, алоҳида кишининг онгли қонун билан тақиқланган ижтимоий хавфли қилмишидир.

Кишининг ҳуқуққа хилоф қилмиши фаол ҳаракат ёки ҳаракатсизликда ифодаланиши мумкин. Инсоннинг ҳар бир ҳаракати ёки ҳаракатсизлиги унинг онги билан бошқарилган бўлиши керак. Ана шундагина унинг ижтимоий хавфли қилмиши жиноят ҳисобланади.

Инсоннинг ҳар бир яхши ёки, ҳуқуққа хилоф ёхуд жиноий қилмиши, аввало, унинг муайян қилмишни содир қилиш фикридан бошланади. Инсон ҳар бир ҳаракатни бажаришдан олдин уни онгида шакллантириб олади. Аммо жиноят содир қилиш ҳақидаги фикрнинг мавжудлиги жиноий қилмиш ҳисобланмайди. Чунки қилмишни жиноят деб ҳисоблаш учун қилмишда қонунда назарда тутилган шартлар бўлиши керак, яъни жиноят таркибининг барча аломатлари бўлиши керак. Жиноят содир қилиш фикрида еса ҳали шу фикрни амалга ошириш учун шахс ҳеч қандай бирон бир ҳаракат қилмаган ва шу туфайли жиноят таркибининг объектив томонини ифодаловчи ҳаракатлар ҳали содир етилмаган бўлади. Яъни жиноят таркибини ифодаловчи белгилар юз бермаган ва қонун билан кўриқланадиган ижтимоий муносабатларга хавф солинмаган. Ушбу масалалар жиноят босқичлари мавзусида батафсил таҳлил қилинади. Жиноят содир етиш тўғрисидаги фикрнинг мавжудлиги жиноят ҳисобланмаслигини барча жиноят ҳуқуқларида умумий қоида тариқасида қабул қилинган. Аммо айрим юридик адабиётларда таҳкидланишича ҳар доим ҳам шундай бўлмаган. Масалан, қадимги Германлар ҳуқуқида ўғрилиқ жинояти содир қилиш тўғрисидаги фикр ва содир қилинган ўғрилиқ ўртасида фарқ ажратилмаган: «Агар сен кўрққанинг туфайли ўғрилиқ қилиш тўғрисидаги ўз фикрини амалга оширмаган бўлсанг, бари бир ўғрилиқни ўз фикринг билан амалга оширгансан», деб ёзилган экан[17].

ЎзР ЖКнинг 14-моддасида жиноятга берилган таҳрифни таҳлил қилиш орқали унинг белгиларини аниқлаш мумкин ва улар қуйидагилардан иборат:

- 1) қилмишнинг ҳуқуққа хилофлиги;
- 2) ижтимоий хавфлилиги;
- 3) айбнинг мавжудлиги;
- 4) қилмиш учун жиноят қонунида жазо белгиланганлиги (жазога сазоворлиги).

Ҳар қандай ижтимоий хавфли қилмишда ана шу белгиларнинг барчаси бир вақтда мавжудлиги уни жиноят деб топишга асос бўлади. Ана шу белгилардан биттаси бўлмаса қилмиш жиноят деб топилмайди.

Қилмишнинг ҳуқуққа хилофлиги. ЎзР ЖК нинг Махсус қисми моддаларида жиноятларнинг қатъий рўйхати берилган бўлиб, бу моддаларда айтилган қилмишларни содир қилиш тақиқланади. Уларни содир қилиш еса ҳуқуққа хилоф ҳисобланади. Жиноят кодекси Махсус қисмида жиноят деб ҳисобланмаган ва жазо назарда тутилмаган қилмишлар ҳар қандай оқибатга сабаб бўлганлигидан қатъи назар, жиноят ҳисобланмайди. Қилмишни жиноят деб ҳисоблаш учун албатта, ЖК Махсус қисми моддасида кўрсатилган ва бунинг учун жиноий жазо назарда тутилган бўлиши керак.

У ёки бу қилмишни жиноят деб ҳисоблаш ва Жиноят кодексига киритиш масаласини фақат қонун чиқарувчи орган (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси) ҳал қилади. У ёки бу қилмишни криминализация ёки декриминализация қилиш масаласи жамиятда шундай қилмишларнинг мавжуд ижтимоий муносабатлар учун хавф туғдириши, маълум даражада бундай ҳаракатларнинг кўпайиши билан ҳам боғлиқдир.

Жиноят кодексининг Махсус қисмида жиноятларнинг қатъий рўйхати берилган бўлиб, бу жиноятларни шартли равишда икки гуруҳга бўлиш мумкин:

- 1) криминологик жиноятлар;
- 2) жиноят-ҳуқуқий жиноятлар;

Криминологик жиноятлар инсоният тарихининг барча босқичларида ижтимоий хавфли ҳисобланиб мавжуд одат, ахлоқ ва қонун нормалари билан доимо таҳқиб қилиб келинган. Буларга масалан, одам ўлдириш, баданга шикаст етказиш, ўғрилиқ, талончилик, босқинчилик

ва ҳоказоларни айтиш мумкин. Бу жиноятлар учун жазо муддати ва турлари ҳар хил бўлиб келган бўлсада, улар ҳар доим таҳқиб қилинган.

Жиноят-ҳуқуқий жиноятлар еса муайян бир даврда ижтимоий хавфли тус олганлиги муносабати билан жиноят деб ҳисобланади, жиноят-ҳуқуқий норма сифатида Жиноят кодексига киритилади. 1959 йилда қабул қилиниб, 1995 йил 1 апрелгача амалда бўлган Жиноят кодексига жиноят деб ҳисобланган 60 яқин қилмишлар янги Жиноят кодексига киритилмади. Масалан, чайқовчилик учун олдинги кодексда жавобгарлик белгиланган еди. Чайқовчилик учун жавобгарликни назарда тутувчи олдинги кодекснинг 175-моддаси янги Жиноят кодексига киритилмади.

Чайқовчилик энди жиноят емас, балки тижорат ҳисобланиб, кишиларнинг шуғулланиш фаолият туридан бирига айланди. Шунинг билан бирга олдинги Жиноят кодексига жиноят деб ҳисобланмаган 60 га яқин қилмишлар янги Жиноят кодексига жиноят деб киритилди.

Жиноят қонунининг мазмунига кўра, фақат ижтимоий хавфли оқибатлар келтириб чиқарган қилмишларгина жиноят ҳисобланмай, балки қонун билан кўриқланадиган объектга реал зарар етказиш хавфини келтириб чиқарадиган ижтимоий хавфли қилмишлар ҳам жиноят ҳисобланади. ЎзР ЖК нинг 14-моддаси 2-қисмида «Ушбу Кодекс билан кўриқланадиган объектларга зарар етказадиган ёки шундай зарар етказиш реал хавфини келтириб чиқарадиган қилмиш ижтимоий хавфли қилмиш деб топилади» дейилган.

Қилмишнинг ижтимоий хавфлилиги. ЎзР ЖК нинг 14-моддасида жиноят ижтимоий хавфли ҳисобланиб қилмишни жиноят деб ҳисоблашнинг белгиларидан бири сифатида кўрсатилган. Жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги унинг сифат кўрсаткичидир. Айнан қилмишнинг сифат кўрсаткичи уни жиноят деб ҳисоблаш ёки ҳисобламаслик масаласини аниқлаб беради. Демак, ижтимоий хавфлилиги унинг моддий моҳиятини белгилайди ва қонун чиқарувчи орган томонидан жиноят деб ҳисоблаб қонунга киритишнинг асосий мезонларидан бири ҳисобланади.

Қилмишда ижтимоий хавфлилигининг мавжудлиги унинг ижтимоий муносабатга зарар етказиш ёки зарар етказиш хавфи остида қолдиришини билдиради. Жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги унинг объектив хусусияти ҳисобланиб, қонун чиқарувчининг онги ва иродасидан қатҳи назар, ижтимоий муносабатларга зарар етказди ва ўзининг ички моҳиятига кўра жамиятнинг нормал фаолият кўрсатишига зарар етказди. Қонун чиқарувчи орган ижтимоий хавфли қилмишнинг ана шу хусусиятларини ҳисобга олиб уни жиноятлар доирасига киритиш ёки киритмаслик масаласини ҳал қилади. Бунда қонун чиқарувчи органнинг вазифаси жамият ривожланишининг муайян босқичида жамиятнинг ҳаётини тўғри баҳолаш ва қилмишни жиноят деб ҳисоблаш ёки декриминализация қилишдан иборатдир.

Жиноят шахс учун ҳам, жамият учун ҳам, давлат учун ҳам хавфлидир. Жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги қонун билан кўриқланаётган объектнинг жиноят-ҳуқуқий ҳимоя қилиниши-нинг аҳамияти орқали аниқланади.

Бу объектлар ЖКнинг 2-моддасида белгиланишига кўра шахс, унинг ҳуқуқ ва еркинликлари, жамият ва давлат манфаатлари, мулк, табиий муҳит, тинчлик, инсониятнинг хавфсизлигидир. Аммо жиноятнинг хавфлилики даражаси фақат қилмиш туфайли тажовуз қилинадиган объектнинг ўзи билангина ифодаланмай содир етилган ижтимоий хавфли қилмишнинг ўзига хос хусусиятлари билан ҳам белгиланади. Булар жиноят содир қилиш вақти, жойи, усули, содир етиш шароити ва ҳоказолар билан ҳам боғлиқ бўлади. Масалан, одам ўлдириш жиноятини жабрланувчини қийнаб содир етиш, ўғрилиқ, талончилик, босқинчилик жиноятларини уй-жой ёки омборхоналарга кириб содир етиш ва ҳоказолар.

Жиноятнинг ижтимоий хавфлилики даражасини белгиловчи мезонлардан бири жиноят туфайли етказилган зарарнинг миқдоридир.

ЖК Махсус қисмининг кўпчилик моддларида етказилган зарарнинг миқдорига қараб жавобгарлик белгиланган. Масалан, ЖКнинг 104-моддасида баданга қасддан оғир шикаст

етказганлик 105-моддасида ўртача оғир, 109-моддасида еса енгил шикаст етказганлик учун жавобгарлик белгиланган ёки фирибгарлик туфайли кўп миқдорда мулк талон-торож қилинса 168-модданинг иккинчи қисми билан, жуда кўп миқдордаги мулк талон-торож қилинса, шу модданинг 3-қисми билан жавобгар қилинади.

Жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги даражасини белгиловчи мезонлардан яна бири жиноятнинг мотив ва мақсадидир. Масалан, ЖК нинг 124-моддасида тамагирлик ёки бошқа паст ниятларда қасддан болани алмаштириб қўйиш учун жавобгарлик назарда тутилган ёки 133-моддада шахснинг тириклигида розилигини олмасдан ёки ўлганидан кейин қариндошларининг розилигини олмасдан ғаразғўйлик ёки бошқа паст ниятларда мурданинг аҳзолари ёки тўқималарини ажратиш олиш ва ҳоказолар.

Жиноят содир қилган киши шахсининг ўзига хос хусусиятлари ҳам жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги даражасини белгилаши мумкин. Масалан, вояга етмаган шахс томонидан жиноят содир етиш жазони енгиллаштирувчи ҳолат ҳисобланса (ЎзР ЖК 55-моддасининг 1-қисмининг «ж» банди), хавфли рецидивист ёки ўта хавфли рецидивист томонидан содир етилса, жазони оғирлаштирувчи ҳолат ҳисобланади.

Юридик адабиётларда жиноятнинг ижтимоий хавфлилигини сифат ва миқдори томонларга бўлиб таҳлил қиладилар. Ўақиқатдан ҳам ЎзР ЖКнинг 54-моддасида, «Суд жазо тайинлашда содир етилган жиноятнинг хусусияти ва ижтимоий хавфлилиги даражасини... ҳисобга олади», дейилади. Бунда жиноятнинг хусусияти унинг сифат кўрсаткичи бўлса, ижтимоий хавфлилиги даражаси миқдор кўрсаткичи ҳисобланади. Масалан, ЖКнинг мулкни талон-торож қилиш ёки нобуд қилиш учун жавобгарликни белгиловчи моддаларда талон-торож қилганлик ёки нобуд қилинган мулкнинг миқдorigа қараб табақалаштириб жавобгарлик белгиланган. Баданга шикаст етказганлик учун жавобгарликни белгилашда унинг ижтимоий хавфлилиги даражаси баданга етказилган шикастнинг даражаси билан белгиланган. (ЖКнинг 104,105,109-моддалари)

Жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги даражаси маҳлум маҳнода Кодекс Махсус қисми тизимидаги жойлашган ўрни билан ҳам белгиланади. Мулкни талон-торож қилишга нисбатан инсон ҳаёти, соғлиги ва бошқа манфаатлари муҳимроқ бўлганлиги учун, бундай жиноятлар учун жавобгарлик ЖК Махсус қисмининг биринчи бўлимига жойлаштирилган.

Жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги даражаси унинг миқдор кўрсаткичи ҳисобланиб, етказилган зарарнинг даражаси, келиб чиққан оқибатнинг оғирлиги, жиний ҳаракатнинг қай даражада амалга оширилганлиги (тайёргарлик кўриш, суиқасд қилиш ёки охирига етказилганлиги), бир неча киши томонидан биргалашиб содир етилганлиги, жиноятнинг содир қилиш усули, жиноят содир етишда қурол ишлатилганлиги, айбнинг хусусиятлари каби омиллар ҳисобга олиниши мумкин.

ЖК Махсус қисми моддаларининг санкциялари жиноят ижтимоий хавфлилиги даражасини белгиловчи енг муҳим омил ҳисобланади. Одатда, жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги даражасини аниқлашда моддаларнинг санкциялари солиштирилади. Махсус қисми моддасининг санкцияси қанчалик оғир бўлса, жиноятнинг ижтимоий хавфлилиги даражаси ҳам шунга мувофиқ равишда юқори бўлади. Хусусияти жиҳатидан бир хил бўлган жиноятларнинг фарқи айнан уларнинг ижтимоий хавфлилиги даражаси билан белгиланади. ЎзР ЖКнинг 36-моддасида, гарчи ушбу Кодексда жиноят сифатида назарда тутилган қилмишнинг аломатлари мавжуд бўлсада, ўзининг кам аҳамиятлилиги туфайли ижтимоий хавфли бўлмаган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик жиноят деб топилмайди, дейилади. Демак, жиноят ҳисобланмайдиган ва жиноят ҳисобланадиган қилмишларни ажратиш турувчи мезон ҳам ижтимоий хавфлилиги даражаси ҳисобланади. Аммо уларни ажратиш турувчи мезонни аниқлашда шахснинг мақсадини ҳам ҳисобга олиниши керак. Масалан, шахс кўп миқдордаги мулкни талон-торож қилиш ниятида ҳаракат қилган, аммо обхектив ёки субхектив сабабларга кўра жуда оз миқдордаги мулкни олган бўлса, кам аҳамиятли қилмиш деб ҳисоблаш мумкин бўлмайди.



Жиноятнинг яна бир белгиси қилмишда айбнинг мавжудлигидир. ЎзР ЖКнинг 14-моддасида жиноятга таҳриф берилиб, биринчи марта айб жиноятнинг белгиси еканлиги қонунда мустақамлаб қўйилди. Жиноят содир етишда айблиликнинг жиноят-ҳуқуқий маҳноси жиноятчининг содир қилган ижтимоий хавфли қилмиши ва унинг ижтимоий хавфли оқибатига қасд ва еҳтиётсизлик шаклидаги руҳий муносабатидир. Қасддан жиноят содир қилишнинг жиноят-ҳуқуқий маҳноси ЎзР ЖК нинг 21-моддасида берилган бўлиб, жиноят содир етган шахс ўз қилмишининг ижтимоий хавфлилик хусусиятини англаган ва шундай қилмишни содир етишни истаган бўлса, бундай жиноят қасддан содир етилган деб топилади. Айбнинг қасд шакли ўз навбатида иккига бўлиниб, булар тўғри ва егри қасддан иборатдир.

Тўғри ва егри қасдларнинг жиноят-ҳуқуқий тушунчаси ЎзР ЖКнинг 21-моддасида берилган.

Айбнинг еҳтиётсизлик шаклининг жиноят-ҳуқуқий тушунчаси ЎзР ЖКнинг 22-моддасида берилган бўлиб, еҳтиётсизлик шаклидаги айб ўз навбатида ўз-ўзига ишониш ва бепарволик турларига бўлиниб, уларнинг жиноят-ҳуқуқий маҳноси ЖК нинг 22-моддасида берилган. Айбнинг шакли ЖК Махсус қисми моддларида кўрсатилади. Агар муайян жиноят тури фақат қасддан ёки еҳтиётсизликдан содир етилиши мумкин бўлса, ўша норманинг диспозициясида алоҳида кўрсатилиши шарт емас. Агарда муайян жиноят қасддан ёки еҳтиётсизликдан содир қилиниши мумкин бўлса, бундай ҳолда қонунда алоҳида кўрсатилади.

Қилмишнинг жазога сазоворлиги. Жазога сазоворлик деганда ҳар бир содир етилган жиноят учун қонунда жазо белгиланганлиги ва уни жиноят учун тайинланиши мумкинлигидир. Ҳар бир жиноят учун муқаррар равишда жазо тайинланиши шартми? ЎзР ЖК нинг 10-моддасида қилмишда жиноят таркибининг мавжудлиги аниқланган ҳар бир шахс жавобгарликка тортилиши шарт дейилади. Демак, жиноят учун жавобгарлик муқаррар бўлиб, жазо тайинлаш жавобгарликка тортилганидан кейин тайинланадиган мажбурлов чорасидир. Жавобгарликка тортилган шахсларга нисбатан ҳар доим ҳам жазо тайинланавермайди. ЎзР ЖК нинг 64-68-моддаларида жиноят содир қилган шахсни жавобгарликдан озод қилиш шартлари белгиланган бўлиб, шахс ижтимоий хавфи катта бўлмаган ёки унча оғир бўлмаган жиноятни биринчи марта содир қилган ва қилмишда ўша моддаларда кўрсатилган шартлар мавжуд бўлса, шахс жавобгарликдан озод қилиниши мумкин. Жавобгарликдан озод қилиш шахсни оқлаш бўлмасдан жиноят ҳуқуқининг инсонпарварлик принципларига асосланган ҳолда жавобгарликдан озод қилишдир. Демак, ЖК нормаларини қўллаб жавобгарликдан озод қилиш фақат жиноят таркибининг барча аломатлари мавжуд бўлган, тўла исботланган шундай жиноят учун Жиноят кодекси Махсус қисмида жиноий жазо назарда тутилган қилмишларгагина қўлланади. Шундай екан, ЖК нормаларини қўллаб жавобгарликдан озод қилинган шахсларнинг жинояти ҳам жазога сазовор бўлган қилмиш ҳисобланади.

ЖК Махсус қисмининг бир қанча моддаларида ҳам (масалан, 155-модданинг 4-қисми, 157-модданинг 2 ва 3-қисмлари, 211-модданинг 4-қисми, 212-модданинг 4-қисми ва ҳоказолар) жавобгарликдан озод қилиш назарда тутилган бўлиб, бундай озод қилиш фақат ўша моддада назарда тутилган жиноятни содир қилган шахсга нисбатан қўлланади. Демак, бундай қилмиш ҳам жиноят ҳисобланган ва бунинг учун ЖК да жавобгарлик белгиланган жиноий қилмишдир. Шундай қилиб, содир етилган жиноят учун жазо тайинланган ёки ЖК нормаларини қўллаб жавобгарликдан озод қилинганлигидан қатъи назар, ўша қилмишлар жиноят ҳисобланади ва жазога сазовордир. Шундай қилиб, фақат Жиноят кодексида берилиб, жиноий жазо назарда тутилган қилмишларгагина жиноят ҳисобланади.

**Жиноят ва жиноятчилик бир-бири билан боғлиқ бўлган ҳодиса бўлиб**, жиноят — жазо қўллаш таҳдиди билан жиноят қонунда тақиқланган ижтимоий хавфли қилмиш (ҳаракат ёки ҳаракатсизлик)ни айбли содир етишдан иборат бўлган ҳодиса бўлса, жиноятчилик муайян вақт мобайнида содир етилган барча турдаги жиноятларнинг йиғиндисидан иборатдир.

**Жиноятчилик** ғоят мураккаб ижтимоий ҳуқуқий ҳодиса бўлиб, унинг кенгрок таҳрифини қуйидагича ифодалаш мумкин:

Жиноятчилик кишилиқ жамиятида мавжуд бўладиган ўзининг қонуниятларига, сифат ва миқдор тавсифига ега бўлган, жамият ва кишилар учун салбий оқибатлар келтириб чиқарадиган ва унинг устидан давлат ва жамиятнинг махсус назорат чоралари ўрнатишни талаб қиладиган салбий, ижтимоий-ҳуқуқий ҳодисадир.

Алоҳида ижтимоий хавфли қилмишларнинг жиноят еканлиги масаласи жиноят ҳуқуқида ўрганилади. Криминология фани еса қилмишнинг жиноят ва жиноят емаслигини емас, балки жиноятчиликни кишилиқ жамиятида мавжуд бўладиган салбий ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганади.

Жиноят ҳуқуқи жиноятга юридик факт сифатида қараса, криминология жиноятни ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганади. Шунга кўра жиноят ҳуқуқи билан криминология фани бир-бири билан узвий боғлиқ еканлиги жиноят ҳуқуқида белгиланади. Шунга кўра криминология ўзининг бошланғич асосларини жиноят ҳуқуқидан олади.

Жиноят ҳодисаси жиноят-ҳуқуқий нуқтаи назаридан ўрганилганда, бу ҳодиса инсон томонидан жиноят қонуни билан тақиқланган актни содир етиш, деб баҳоланади. Жиноятга жиноят ҳуқуқий нуқтаи назардан баҳо бериладиган тушунча жиноят ҳуқуқи назариясида ишлаб чиқилган. Жиноят ҳуқуқида содир етилган ижтимоий хавфли қилмишга жиноят таркиби қодалари тадбиқ етилиб, жиноят таркиби тўртта томондан, яҳни жиноятнинг обхекти ва обхектив томони, субхекти ва субхектив томони таҳлил қилиниб, қилмишнинг жиноят ёки жиноят емаслиги аниқланади, Жиноят кодексига муайян моддасининг белгиларига таққосланиб кўрилади ва ўша моддада назарда тутилган жиноят содир етилган, деб топилади.

Қилмишни жиноят деб ҳисоблаш масаласи тўртта белги билан, яҳни қилмишнинг ижтимоий хавфлилиги, ҳуқуққа хилофлиги, жазога сазоворлиги ва айбнинг мавжудлиги белгилари билан ифодаланса, жиноят криминология нуқтаи назардан ўрганилганда икки жиҳатдан ёндашилади, яҳни:

- биринчидан — жиноят содир қилган шахсининг ўзини тавсифи ва уни ўраб турган атроф муҳит нуқтаи назардан;

- иккинчидан — жиноятга бир марта содир қилинган алоҳида акт сифатида емас, балки вақт ва маконда содир етилган жараён нуқтаи назардан ўрганилади.

Демак, жиноят ҳодисаси жиноят-ҳуқуқий нуқтаи назардан таҳлил қилинганда, шахсни жиноят қонунининг муайян моддаси билан жавобгар қилиш учун зарур бўлган белгилар тизими таҳлил қилинади. Криминология нуқтаи назардан қаралганда еса жиноят содир қилишнинг шароит ва сабаблари, жиноят содир етган кишининг ўзига хос шахсий хусусиятлари ва жиний хулқнинг оқибатлари ўрганилади. Шунга кўра жиноят ҳодисаси криминология нуқтаи назардан таҳлил қилинганда ушбу шахс томонидан жиний фаолиятни давом еттириши ёки янги жиноят содир етиш мумкинлигининг олдини олиш учун қандай ҳаракатлар қилиш кераклиги ва бошқа шахслар томонидан ҳам шундай қилмиш содир етилишининг олдини олиш учун қандай чоралар ишлаб чиқиш кераклиги назарда тутилади. Бундан ташқари, жиноят содир қилган шахсга қонун доирасида жиноятнинг олдини олишнинг қандай аниқ чорлари кўриш мумкинлигини ҳам белгилайди.

Жиноят ҳуқуқи жиноятни жиноят содир қилиш пайтида қонунда белгиланган ёшга етган ақли расо шахс томонидан содир етилган юридик факт сифатида ўрганса, криминологияда жиноятчилик қуйидаги белгиларда ифодаланадиган ҳодиса деб ўрганилади:

1. Жиноятчилик — жамиятда мавжуд бўладиган ҳодиса.

2. Жамият ва кишилар учун салбий оқибатлар келтириб чиқарадиган ва унинг устидан давлат ва жамиятнинг махсус назорат чораларини ўрнатишни талаб қиладиган салбий ижтимоий ҳодиса;

3. Жиноятчилик—ўзгарувчан ҳодиса;

#### 4. Жиноятчилик—ижтимоий-ҳуқуқий ҳодиса.

Жиноятчилик кишилик жамиятида мавжуд бўладиган ўзгарувчан ҳодисадир. Жиноятчиликнинг ҳолати, даражаси, структураси инсон тараққиёти давомида сифат ва миқдор жиҳатдан ўзгариб боровчи ҳодисалиги шундаки, жамиятдаги иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ҳуқуқий ўзгаришларга қараб ўзгариб боради. Сифат жиҳатидан содир етиш усули, уюшган гуруҳ бўлиб содир етилиши, замонавий фан ва техника ютуқларидан фойдаланиб содир етилиши ва ҳоказоларда ифодаланади.

Жиноятчиликнинг ижтимоий ҳодиса эканлиги шундаки, жиноятларнинг субъектлари жамият аҳзоларининг ўз ичидаги шахслар бўлиб, улар ўзлари билан бирга яшаб турган жамиятдаги ижтимоий муносабатларга ва жамият аҳзоларига тажовуз қиладилар. Жиноятчилик ҳодисанинг шароит ва сабаблари ҳам ижтимоий сабаблар туфайли юз беради.

Жиноятчилик ижтимоий ҳодиса сифатида бошқа ҳар қандай ижтимоий муносабатлардаги иқтисодий, сиёсий, ғоявий, руҳий бошқарув, ҳуқуқий ва ҳоказо муносабатлар билан боғланиб кетган. Шунинг учун ҳам жиноятчиликнинг ўсиши, хусусиятлари, ижти-мой жараёнларнинг ўзаро алоқадорлиги қарама-қаршиликлар, криминологик вазиятларнинг миқёси билан белгиланади.

Жиноятчилик содир етилган жиноятларнинг оддий йиғиндисидан иборат бўлмай, бир бутун ижтимоий ҳодисани ташкил қилувчи жиноятлар тизимидан иборат. У ўзига хос хусусиятларга ега бўлиб, ўзининг ижтимоий муносабатлар билан боғланиб кетган. Шунинг учун унинг сабаблари ҳам ана шу ижтимоий муносабатларда ётади.

Жиноятчилик муайян ҳудудда, муайян вақт мобайнида содир етилган жиноятлар жамидан иборат экан, жиноят ва жиноятчиликнинг алоқадорлиги бир қисмдан бир бутунга, алоҳидаликдан умумийликка ега бўлган умумий қонуниятларга асосланади. Жиноятчиликнинг қонуниятлари алоҳида турдаги жиноятлар орқали эмас, балки уни бир бутун салбий ижтимоий ҳодиса сифатида таҳлил қилиш орқали аниқланади.

Жиноятчиликни оддий рақамларда ифодалаб, унинг мазмун ва моҳиятини очиб бериб бўлмайди. Шунга кўра, жиноятчилик криминологияда сифат ва миқдор кўрсаткичлари орқали ифодаланади. Жиноятчиликнинг миқдор кўрсаткичлари унинг даражаси ва динамикаси бўлса, сифат кўрсаткичлари унинг структураси ва хусусиятларидаги ўзгаришлардир.

Ўзбекистон бозор иқтисодиёти тизимига ўтиши жараёнида уюшган жиноятчилик, гиёванд воситалар билан Ҳозирқонуний муомала қилиш, коррупция жиноятларининг ўсганлиги куза-тилди. Булар жиноятчиликдаги сифат ўзгаришлардир.

Жиноятчиликнинг сабаблари ғоят мураккаб мавзулардан бири ҳисобланиб, инсониятнинг кўп минг йиллик тарихида бу салбий ижтимоий ҳодиса одамларнинг энг илғор қисмини ҳар доим ташвишга солиб келган. Нима сабабдан одамларнинг муайян қисми жиноят содир қилади? Жиноят содир қилишнинг сабаби қаерда ётади? Бу муаммо фанларнинг турли тармоқлари мутахассислари томонидан жиддий мунозараларга сабаб бўлиб келмоқда ва ҳозирги кунда ҳам олимлар бу борада бир фикрга келган эмаслар. Жиноятчиликнинг сабаблари тўғрисидаги масалалар криминология дарслиги ИИИ бўлимида, яъни 5 ва 6-бобларда батафсил баён қилинган[31].

## 2. Жиноий жавобгарлик асослари

Жиноий жавобгарлик ҳуқуқий жавобгарликнинг махсус тури бўлиб, Жиноят кодексида тақиқланган қилмиш содир етилган тақдирдагина қўлланадиган жавобгарликнинг энг оғир туридир.

Ўзбекистон Республикасининг амалдаги Жиноят кодекси 16-моддаси биринчи қисмида жиноят учун жавобгарликнинг таҳрифи берилган бўлиб, жиноят учун жавобгарлик жиноят содир етишда айбдор бўлган шахсга нисбатан суд томонидан ҳукм қилиш, жазо ёки бошқа ҳуқуқий таҳсир чораси қўлланилишида ифодаланадиган жиноят содир етишнинг ҳуқуқий оқибатидир.

Жиноий жавобгарлик шахснинг Жиноят кодекси билан тақиқланган қилмишнинг содир қилганлиги учун шахс ва давлат ўртасида вужудга келадиган жиноят-ҳуқуқий муносабатдир.

Жиноят ҳуқуқий муносабатларнинг субъектлари бир томондан давлат бўлса, иккинчи томондан жиноят содир қилган шахсдир. Шахс томонидан жиноят содир қилиниши муносабати билан давлатда жиноят ҳуқуқида назарда тутилган мажбурлов чораларини шахсга нисбатан мажбурий тарзда қўллаш, суриштирув ва тергов ҳаракатларини олиб бориш мажбурияти вужудга келади. Шахсда еса содир қилган жинояти учун жавоб бериш, жиноят ҳуқуқида белгиланган тартибда унга нисбатан қўйилган талабларга жавоб бериш мажбурияти вужудга келади. Жиноий жавобгарлик масаласи фақат жиноят ҳуқуқи доирасида белгиланган асосларга биноан амалга оширилади.

Жамият ўз аҳзоларини муайян ҳуқуқлар билан тахминлаш билан бирга, берилган ҳуқуқ ва мажбуриятларини бажариш талабини ҳам қўяди.

Жиноят қонунида жиноятларнинг қатҳий рўйхати берилган бўлиб, фақат Жиноят кодексида тақиқланган қилмишни содир қилганлик учун шахс жиноят қонуни нормалари асосида жавобгарликка тортилади. Шахсни жиноий жавобгарликка тортиш учун қуйидаги асослар бўлиши керак:

а) содир етилган ижтимоий хавфли қилмиш жиноят деб кўрсатилиб, жиноят қонунида тақиқланган бўлиши;

б) жиноят қонунида шундай қилмиш учун жазо ёки бошқача тахсир чорасининг белгиланганлиги;

в) ана шундай ижтимоий хавфли қилмишни содир етишда шахснинг айбли эканлиги.

Жиноий жавобгарликнинг оқибатлари еса қуйидагиларда ифодаланади:

а) шахснинг содир қилган жинояти учун давлат олдида ва бунга ваколатли органлар олдида жавоб бериш мажбуриятининг пайдо бўлиши;

б) содир етилган жиноий қилмишни суд ҳукмида ифодаланган салбий баҳо беришдан иборат;

в) содир етилган жиноий қилмиш учун жазо ёки бошқача тахсир чорасини қўлланиши;

г) жазога ҳукм қилинганлигининг оқибати сифатида шахснинг судланган, деб ҳисобланиши.

Жиноят кодекси Махсус қисмида жиноий қилмишларнинг қатҳий рўйхати берилган экан, Кодексида кўрсатилмаган ҳар қандай қилмиш жиноят ҳисобланмайди ва жиноий жавобгарликни келтириб чиқармайди. Яҳни ЖКда жиноий қилмишларнинг қатҳий рўйхати берилиб, бу қилмишларни содир етишни тақиқлайди ва ижтимоий хавфли қилмишларни содир қилмаслик учун огоҳлантириб туради.

Махлумки, жиноят ҳуқуқи содир етилган жиноятни юридик факт сифатида ўрганади. Жиноят содир етилиши муносабати билан жиноят-ҳуқуқий муносабатлар пайдо бўлади. Жиноий қилмиш содир етилмаса жиноят-ҳуқуқий муносабатлар пайдо бўлмайди, шахснинг жиноят содир қилиши муносабати билан давлат олдида жавобгар бўлиш мажбуриятининг вужудга келишидир. Шахс жиноят қонунида тақиқланган ижтимоий хавфли қилмишларни содир етиб, ўзида ана шундай муносабатнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Жиноий жавобгарлик жавобгар бўлиш мажбурияти туфайли келиб чиқади. Агар шахс жиноятни содир қилиб, яширинса, унда жавобгар бўлиш мажбурияти пайдо бўлган бўлсада, яширинганлиги туфайли жавобгарликка тортилмай қолиши мумкин.

Муайян шахсни жиноий жавобгарликка тортиш учун содир қилган жиноятни исботловчи ҳужжатлар етарли, асослантирилган, юридик жиҳатдан аҳамиятга ега бўлган бўлиши керак. Шахсни жиноий жавобгарликка тортилган деб ҳисоблаш учун суднинг қонуний кучга кирган айблов ҳукми бўлиши керак. Шахсни жиноий жавобгарликка тортилган деб ҳисоблашнинг ягона юридик асоси қонуний кучга кирган суднинг айблов ҳукмидир. Ушбу қоида Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида белгилаб қўйилган бўлиб,

Конституциянинг 26-моддасида «Жиноят содир етганликда айбланаётган ҳар бир шахснинг иши судда қонуний тартибда, ошқора кўриб чиқилиб, унинг айби аниқланмагунча у айбдор ҳисобланмайди. Судда айбланаётган шахсга ўзини ҳимоя қилиш учун барча шароитлар таҳминлаб берилади», — дейилади. Суднинг айблов ҳукми қонуний кучга кирмагунча шахс жиноий жавобгарликка тортилган ҳисобланмайди.

Ана шу юқорида баён қилинганларга кўра, жиноий жавобгарлик жиноят содир етишда айбланаётган шахсга нисбатан, жиноят ҳуқуқий нормасида назарда тутилган, қонуний кучга кирган суднинг айблов ҳукмида мужассамлашган давлатнинг мажбурлов чорасини қўллашдан иборатдир.

Давлатнинг бундай мажбурлов таҳсир чораси фақат тайинланган жиноий жазода ифодаланганими ёки жиноий жавобгарлик ва жазода ифодаланганими? Жиноий жавобгарлик ва жазони таҳлил қилишдан улар бир хил тушунча емаслиги аниқланади.

Жиноят кодекси нормаларининг амалда қўлланиш амалиётини таҳлил қилишдан шундай хулосага келиш мумкинки, жазо қўлланмаган жавобгарлик, (масалан, жиноят содир қилишда айбланаётган шахс ЎзР ЖКнинг 65, 66, 661 моддалари асосида жавобгарликдан озод қилинган бўлса) судланган ҳисобланмайди. Агар шахс ЎзР ЖК 70-71-моддалари асосида жазодан озод қилинган бўлса, мажбурлов чораси қўлланганлиги туфайли у судланган ҳисобланади, аммо мажбурлов чораси унга нисбатан тадбиқ етилмайди. Шахс ЎзР ЖК Махсус қисмининг муайян моддаси билан ҳукм қилиниб жазо тайинланган бўлса, жазони ҳақиқатдан ўтайди ва судланган ҳисобланади.

ЎзР ЖКнинг 87-моддасига мувофиқ вояга етмаган шахсга нисбатан тарбиявий хусусиятдаги мажбурлов чоралари (ЖКнинг 88-моддасида назарда тутилган мажбурлов чоралари) ни қўллаб жавобгарликдан ёки жазодан озод қилинган бўлса, жиноий жазодан бошқа турдаги мажбурлов чораси қўлланганлиги туфайли шахс судланмаган ҳисобланади.

Бундай ҳолда жиноий жазо сифатидаги мажбурлов чораси қўлланмаган жиноий жавобгарлик ҳисобланади ва шунга мувофиқ шахс судланмаган ҳисобланади. Юқорида айтилганларга асосланиб жиноий жавобгарликнинг куйидаги турларини келтириш мумкин:

- 1) давлатнинг жиноий жазо чораси қўлланмаган жавобгарликдан озод қилиш;
- 2) давлатнинг жиноий жазо туридаги жазо қўлланиб, жазони ўташдан озод қилиш тарзидаги жавобгарлик;
- 3) жавобгарликка тартиб жиноий жазо тарзидаги жазо қўллаш ва жазони ҳақиқатдан ўташ билан боғлиқ бўлган жавобгарлик;
- 4) жиноий жазо ҳисобланмаган бошқача мажбурлов чорасини қўллаш билан боғлиқ бўлган жавобгарлик.

Юқорида келтирилганлардан кўриниб турибдики, жиноий жавобгарлик жазо қўллаш билан боғлиқ бўлмаган жиноий жавобгарликдан ва жиноий жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган жиноий жавобгарликлардан иборат экан. Шунга кўра жиноий жавобгарлик тушунчаси жиноий жазо тушунчасига нисбатан анча кенг тушунча бўлиб, жиноий жавобгарлик ва жазонинг мақсади ҳам бир хил. ЎзР ЖК 42-моддасининг 2-қисмида жазонинг мақсади айтилган бўлсада, жазонинг мақсадига жазо тарзидаги мажбурлов чораларни қўлламасдан ҳам еришиш мумкин деган қатҳий хулосага келинса, жазо қўллаш билан боғлиқ бўлмаган жавобгарликка тортилади. Жавобгарликдан озод қилиш муайян жазо тури, жазо муддати ёки миқёси билан чегараланмаган. Чунки шахсга жазо тайинланмай жавобгарликдан озод қилиш қўлланган бўлса, содир етилган жиноятнинг ижтимоий хавфи катта бўлмаслиги ёки унча оғир бўлмаган жиноят эканлиги билан боғланган.

Жиноий жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган жавобгарлик еса қилмишнинг ижтимоий хавфлилики даражаси ҳамда тайинланган жазо тури ва жазонинг ўталган қисмининг муддатлари билан боғлиқ ҳолда судланганлик муддати келиб чиқиши билан боғлиқдир. Жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган жавобгарлик анча оғир бўлиб, бундай қилмишни баҳолашда қилмишнинг

ижтимоий хавфлилик даражаси, жиноят натижасида етказилган зарарнинг миқдори ва айбдорнинг шахси ҳисобга олинади.

Жиноий жавобгарликнинг вақт бўйича чегараси борми? Агар бор бўлса, қачон бошланади ва қачон тугайди? Жиноий жавобгарлик шахснинг содир қилган жинояти учун мажбурлов чорасини қўллашда ифодаланган жавобгар бўлиш мажбуриятидан иборат экан, ана шу мажбурият қачондан бошланади? Бу борада юридик адабиётларда ягона фикр йўқ. А.А.Пионтковский жиноий жавобгарлик жиноят содир қилинган пайтдан бошланади деб ёзади[32]. Я.М. Брайнин еса муайян шахснинг жиноят содир қилганлиги тергов органлари томонидан аниқланган пайтдан бошланади, деб ҳисоблайди[33].

Жиноий жавобгарликнинг вужудга келиши ва тугагунча бўлган вақт жиноий жавобгарликни амалга ошириш вақти ҳисобланади. Жиноий жавобгарликни амалга ошириш еса, жиноят содир қилганлиги муносабати билан шахсга нисбатан суриштирув ва тергов ҳаракатларини олиб бориш (гумондорни қўлга олиш, унга нисбатан еҳтиёт чораларини қўллаш), ишни судда кўриш, айблов ҳукми чиқариш, жазони ижро етишдан иборат. Судланганлик муддатининг тугаши билан жиноий жавобгарликни амалга ошириш батамом тўхтатилади деб ҳисоблайди кўпчилик муаллифлар.

Бизнинг фикримизча, шахс жиноят содир қилиши биланок, у қўлга олинган ёки олинмаганлигидан қатъи назар, унда қилмиши учун давлат олдида жавобгар бўлиш, давлатда еса муайян давлат идоралари орқали Жиноят процессуал кодекси нормаларини қўллаш вазифаси пайдо бўлади. Демак, жиноят-ҳуқуқий муносабатлар жиноят содир қилиш пайтдан бошланади ва шунга мувофиқ жавобгар бўлиш мажбурияти ҳам шу пайтдан бошланиб, ҳукм қонуний кучга кириши билан тугайди. Чунки жиноий жазони ўташ ва судланганлик оқибатлари, жиноий жавобгарликнинг оқибатлари ҳисобланади. Чунки жиноий жавобгарлик, жазо қўллаш билан боғлиқ бўлган ва жазо қўллаш билан боғлиқ бўлмаган жавобгарликдан иборат. Айнан айблов ҳукмининг қонуний кучга кириши билан шахс судланган ҳисобланади[34].

Жиноий жавобгарлик фақат унинг ўзигагина хос бўлган белгиларга ега бўлиб, бу белгилари орқали маъмурий интизомий фуқаровий жавобгарликлардан фарқ қилади.

1) қўлланиш асослари бўйича: жиноий жавобгарлик қилмишида Жиноят кодексида назарда тутилган жиноят таркибининг барча белгилари мавжуд бўлсагина қўлланади. Жавобгарликнинг бошқа турлари (интизомий, фуқаровий жавобгарлик) да жиноят муносабати билан келтирилган зарар ёки бошқача ҳуқуқбузарлик учун қўлланади;

2) қўллашнинг мазмуни бўйича: жиноий жавобгарлик содир етилган жиноий қилмиш учун фақат давлат номидан суд томонидан айблов ҳукми чиқариш билан боғлиқ бўлган, Жиноят кодексида назарда тутилган жиноий жазо ёки бошқача мажбурлов чорасини қўлланиши билан боғлиқ бўлиб, шахснинг ҳуқуқий ҳолатини жиддий чеклашдан иборатдир. Жавобгарликнинг бошқа турларида еса, ҳатто суд томонидан тайинланган мажбурлов чораси ҳам давлат номидан тайинланмайди. Демак, жиноий жавобгарлик, ўз мазмунига кўра жавобгарликнинг енг оғир тури ҳисобланади;

3) жавобгарликнинг қўлланиш субъекти бўйича фарқи: жиноий жавобгарлик фақат суд томонидан тайинланади ва қонуний кучга кирган айблов ҳукмида ифодаланади. Бошқа бирорта орган ёки мансабдор шахс жиноий жавобгарликка тортишга ҳақли емас.

Жавобгарликнинг бошқа чораларини суд томонидан ҳам бошқа идора ва мансабдор шахслар томонидан ҳам қўлланиши мумкин;

4) қўлланиш тартиби бўйича фарқи: жиноят процессуал қонунида жиноий жавобгарликка тортишнинг махсус тартиби белгиланган бўлиб, фақат Жиноят процессуал кодексида тергов органлари ва суднинг жиноий жавобгарликка тортиш тўғрисидаги фаолияти тартибга солинади. Бошқа жавобгарлик турлари юзасидан жавобгарликка тортиш тартиби бошқа ҳуқуқий нормалар билан тартибга солинади;

5) жавобгарликка тортиладиган субъектларнинг доираси бўйича фарқи: жиноий жавобгарлик шахсий хусусиятга ега бўлиб, фақат жисмоний шахсларгина жиноий жавобгарликка тортилади. Масалан, корхонадан чиқаётган ифлос сувлар сув ёки атроф муҳитни ифлослантирса ва бунинг учун ЖК да назарда тутилган оқибат юз берса, корхона емас, балки корхонадаги бунинг учун масхул бўлган жисмоний шахслар жавобгарликка тортилади.

Бошқа турдаги жавобгарлик, масалан, фуқаровий жавобгар юридик шахслар бўлиши мумкин[35].

ЎзР ЖК 16-моддасининг иккинчи қисмида белгиланишига кўра, Жиноят кодексида назарда тутилган жиноят таркибининг барча аломатлари мавжуд бўлган қилмишни содир етиш жавобгарликка тортиш учун асос бўлади. Ушбу тушунча жиноий жавобгарликнинг ягона норматив асоси ҳисобланади.

Шахсни жиноий жавобгарликка тортиш учун ЖК Махсус қисмининг муайян моддасида назарда тутилган қилмиш содир етилган бўлиши керак. Буни жиноят ҳуқуқида жиноий жавобгарликнинг фактик асоси дейилади. Аммо қилмишни ЖК Махсус қисмининг муайян моддаси билан квалификация қилиш учун, қилмишда ўша моддада назарда тутилган жиноят таркибининг барча белгилари бўлиши керак. Жиноят ҳуқуқида бундай асосни норматив асос деб айтилади. Ана шу фактик ва норматив асослар жиноий жавобгарликнинг умумий асослари ҳисобланади. Қилмиш ЖК Махсус қисмининг муайян моддасида кўрсатилган белгилар билан таққосланади, таққослаш туфайли қилмиш билан қонунда назарда тутилган белгилар ўртасида тўла мувофиқлик вужудга келса, давлатнинг тегишли ваколатли идораларида айбдорни жиноий жавобгарликка тортиш мажбурияти пайдо бўлади.

Жиноят таркиби қилмишни батафсил талқин қилиш имконини берадиган томонлари (элементлари) дан иборат бўлиб, улар жиноятнинг объекти, объектив томони, субъекти ва субъектив томонлари ҳамда ушбу томонлар (элементлар) белгиларининг мажмуидан (йиғиндисидан) иборатдир.

ЎзР ЖКнинг 14-моддасида қилмишни жиноят деб ҳисоблаш учун унинг тўртта белгиси, яъни ижтимоий хавфлилиги, ҳуқуққа хилофлиги, айбнинг мавжудлиги ва жазога сазоворлиги белгиларининг бўлиши талаб қилиниб, бу белгилар қилмишнинг жиноят еканлигини белгиловчи белгилари ҳисобланади, холос. Бу белгилар қилмишни ЖКнинг қайси моддаси билан квалификация қилиш кераклигини, қилмишда ЖК Махсус қисмининг қайси моддасида назарда тутилган жиноятнинг белгилари бор еканлигини ҳал қилиб бера олмайди. Қилмишда муайян жиноят таркибининг барча белгилари бор ёки йўқлигини аниқлаш учун унинг жиноят таркиби таҳлил қилинади. Айнан қилмишни жиноят таркибини таҳлил қилиш орқали, аввало, юқорида баён қилинган жиноятнинг тўртта белгиси аниқланади, сўнгра ЖК Махсус қисмининг муайян моддасидаги белгилар билан таққосланади. Таққослаш натижасида қилмиш билан ЖК Махсус қисми муайян моддасидаги жиноят таркибининг белгилари мувофиқ келса, жиноят содир қилишда айбланаётган шахс ўша норма билан жавобгар қилинади. Аммо қилмишнинг ижтимоий хавфлилиги объектив категория бўлиб, айнан ижтимоий хавфлилик ва жиноятнинг бошқа белгилари аниқланиши керак бўлади. Қонунда муайян қилмишни жиноят деб ҳисоблаб, қонун қилмишни ижтимоий хавфлига айлантирган емас, аксинча, қонун чиқарувчининг иродасига боғлиқ бўлмаган ҳолда ижтимоий хавфлилиги қонунда белгилаб кўйилган. Агарда қилмишда ЖК Махсус қисмининг муайян моддасида назарда тутилган белгилари мавжуд бўлсада, аммо ижтимоий хавфли бўлмаса, бундай қилмиш жиноят ҳисобланмайди. Бундай ҳолда жиноят таркиби йўқ ва жиноий жавобгарликка тортишга ҳам асос йўқ. Бунга қилмишнинг жиноийлигини истисно қиладиган ҳолатларни мисол тариқасида келтириш мумкин.

Демак, жиноий жавобгарликнинг асослари бор ёки йўқлигини аниқлаш учун содир етилган қилмиш ЖКнинг муайян моддасига солиштирилади, агар қилмишда ўша моддада

назарда тутилган белгилар мавжуд бўлса, жиноят таркиби бор ва шунга мувофиқ жиноий жавобгарликнинг асослари ҳам бор. Аксинча, қилмиш ижтимоий хавфли бўлатуриб, ЖК Махсус қисмининг бирорта моддасида назарда тутилган белгилар бўлмаса қилмишда жиноят таркиби йўқ ва жиноий жавобгарликнинг асослари ҳам йўқ. Масалан, қонунда ўзини ўзи ўлдиришга далолат қилганлик учун жавобгарлик назарда тутилмаган. Ваҳоланки, бундай қилмиш ижтимоий хавфли ҳисобланади. Демак, бундай ҳолда ҳам жиноий жавобгарликнинг асослари йўқ. Амалдаги жиноят қонунида аналогиядан фойдаланиб жавобгарликка тортиш қатҳиян ман қилинади.

XX асрнинг ўрталарида айрим Совет юридик адабиётларида содир етилган ижтимоий хавфли қилмишда фақат жиноят таркибининг томонлари мавжудлиги жиноий жавобгарликнинг ягона асоси бўла олмайди, деган фикрлар ҳам мавжуд еди[36]. Уларнинг фикрига кўра жиноят таркиби томонлари (элементлари)дан ташқари жиноятчи шахсини ифодаловчи хусусиятлар, ҳаракатларнинг хусусиятлари, жиноят содир қилиш шароитлари, жиноий оқибат ва бошқа бир қатор ҳолатларни ҳам жиноий жавобгарликнинг асослари бўлиши тўғрисида айтилган еди.

Аmmo ушбу айтилган ҳолатлар ҳам жиноят таркиби доирасига кирувчи жиноят таркибининг зарурий ёки факультатив белгиси ҳисобланган ҳолатлардир.

Жиноий жавобгарликнинг асосларига жиноят таркиби доирасига кирмайдиган ҳолатларни ҳам киритиш жиноий жавобгарлик асосларини кенгайтириб юборади ва натижада жиноий жавобгарликнинг асослари тушунчаси, жиноий жавобгарликнинг мақсадга мувофиқлиги тушунчаси билан сунҳий равишда алмаштирилади.

Бу ўз навбатида одил судлов принципларининг бузилишига ҳам олиб келиши мумкин. Шунга кўра жиноий жавобгарликнинг ягона асоси фақат ижтимоий хавфли қилмишда жиноят таркибининг мавжудлигидир.

ЎзР ЖКнинг 66 ёки 66-моддалари асосида жавобгарликдан озод қилиш ёки Кодекснинг 87-моддаси асосида вояга етмаганга жиноий жазо ўрнига бошқача мажбурий чоралар қўланилган тақдирда ҳам жиноят таркибининг бирор элементи ёки белгиси етарли емаслиги учун емас, балки қилмишда муайян жиноятнинг жиноят таркиби томонлари ва белгилари тўла бўлган, жинояти етарли даражада исботланган шахсларга нисбатан қўлланади. Бундай ҳолда шахс жиноий жавобгарликнинг асослари бўлмаганлиги учун емас, балки жиноий жазо чорасини қўлламасдан ҳам шахсни тузатиш мумкин деган қатҳий хулосага келинганлиги туфайли жавобгарликдан озод қилинган. Жиноят қонуни нормаларини қўллаб жавобгарликдан ёки жазодан озод қилиш фақат жиноий жавобгарликка тортиш учун етарли асослар мавжуд бўлган жиноий қилмишларгагина қўлланади. Жиноий жавобгарликнинг асослари етарли бўлмаган, яҳни қилмишда жиноят таркибининг бирон элементи ёки белгиси бўлмаган қилмишлар еса жиноят ҳисобланмайди. Агар ана шундай ишлар судгача етиб келган бўлса, суд оқлов ҳукми чиқаради.

Шунингдек, жиноят таркиби доирасидан ташқарида бўлган ҳолатлар ҳам қилмишни жиноий қилмишга, жиноят ҳисобланмаган қилмишни жиноятга айлантира олмайди. Жиноят таркибидан ташқаридаги ҳолатлар фақат жазо тайинлашда ҳисобга олинishi мумкин.

Жиноий жавобгарлик Конституциявий принцип бўлиб (Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 18-моддаси), фуқароларнинг қонун олдидаги тенглиги принципига (ЎзР ЖК нинг 5-моддаси) асосланади.

ЎзР ЖКнинг 5-моддасида жиноят содир етган шахслар жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, еҳтиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқедан қатҳи назар, бир хил ҳуқуқ ва мажбуриятларга ега бўлиб, қонун олдида тенгдирлар, дейилади.

### **3. Nazorat kassa mashinalaridan foydalanishda huquqiy omillar**



Dastlab, nazorat-kassa mashinalarini qo'llash tartibi xususida to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 72-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish Nazorat-kassa mashinalarining davlat reyestriga kiritilgan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari majburiy qo'llanilgan holda amalga oshirilishi (bundan naqd pul bilan hisob-kitob qilishni, faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirishi mumkin bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslar mustasno) belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 17 noyabrdagi 306-sonli qarori bilan «Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalarini qo'llash tartibi to'g'risida»gi nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizom talablari barcha yuridik shaxslarga, shuningdek, fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalaridan (keyingi o'rinlarda – NKM) foydalanib aholi bilan naqd pulli hisob-kitob qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida faqat fiskal xotiraga ega bo'lgan NKMLar Davlat reyestriga kiritilgan, O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat berilgan NKM modellaridan va ularning dasturiy mahsulotlaridan (versiyalaridan) foydalanishga ruxsat beriladi.

NKMning Davlat reyestri O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy soliq.uz saytida joylashtirilgan. Davlat reyestriga kiritilmagan NKM va ularning dasturiy mahsulotlari (versiyalari)ning O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

NKM belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatsiya bo'yicha organlar tomonidan majburiy tartibda sertifikatlanishi va xo'jalik faoliyati amalga oshiriladigan joy bo'yicha tumanlar (shaharlar) davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Sertifikatga ega bo'lmagan va (yoki) belgilangan yagona texnik talablarga javob bermaydigan yoxud davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilmagan fiskal xotiraga ega bo'lgan NKMDan foydalanish qonun hujjatlariga muvofiq, aybdor shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlar javobgarlikka tortilgan holda fiskal xotiraga ega bo'lgan NKMni qo'llamasdan amalga oshirilgan faoliyat sifatida qaraladi.

NKM har kuni ish boshlanishidan oldin (xo'jalik yurituvchi subyektning buyrug'i bilan birkirilgan) mas'ul shaxs yoki xodim tomonidan umumiy texnik holati, sozligi hamda sana va vaqt aniq ko'rsatilishi yuzasidan tekshiriladi. NKM yordamida aholi bilan hisob-kitob qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar xaridorga undan naqd pul qabul qilinganligini tasdiqlovchi chekni majburiy tartibda berishi kerak.

Sotib olingan tovarlar (bajarilgan ishlar) va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlarga beriladigan kassa cheklarida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- a) soliq to'lovchining – xo'jalik yurituvchi subyektning nomi va identifikatsiya raqami;
- b) to'lov summasi;
- v) tovarlar va xizmatlar nomi;
- g) to'lov sanasi va vaqti;
- d) nazorat-kassa mashinasining zavod raqami;
- ye) chekning tartib raqami;
- j) fiskal rejim belgisi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ish kuni oxirida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2011 yil 14 dekabrdagi «Kassir-operatsiyachining nazorat-kassa daftari shakli va uni to'ldirish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi (ro'yxat raqami 2309, 2012 yil 9 yanvar) qarorining 1-ilovasida belgilangan shakl bo'yicha kassir-operatsiyachi tomonidan nazorat-kassa daftari majburiy tartibda to'ldirilgan holda har bir NKM bo'yicha kunlik hisobotni chiqarib olishi shart. Qabul qilingan naqd pul miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar tikiladi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan kamida besh kalendar yil saqlanadi.

NKMni qo'llash tartibini buzganlik uchun javobgarlik

Fiskal xotirali NKMning qo'llanilish tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari fiskal xotirali NKMda saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanishga haqli. Fiskal xotirali NKMni qo'llash tartibini buzganlik uchun Soliq kodeksining 119-moddasiga muvofiq moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq qo'llanadigan sanksiyalar

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslarida ham NKMni qo'llash qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik choralari belgilangan. Ularga chakana savdo va kassa operatsiyalarini yuritish qoidalarini buzish deb qaraladi hamda bu Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164, 175-moddalari va Jinoyat kodeksining 189-moddasiga muvofiq sanksiyalar qo'llanishiga olib keladi.

Shuni ham eslatib o'tamizki, tovarlar savdosi yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini juda ko'p miqdorda (EKIHning 500 baravaridan ortiq) qiymatda buzganlik uchun Jinoyat kodeksiga muvofiq (189-modda), mansabdor shaxsga nisbatan EKIHning 300 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda jarima solish yoki 6 oygacha qamoq bilan jazolash ko'rinishidagi javobgarlik ham nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2010 yil 18 iyundagi «Xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi 210-sonli qarorining 40.2 bandida agar soliq to'lovchining bir necha savdo shoxobchalari mavjud bo'lsa va bir soliq tekshiruvi jarayonida ularning har birida Soliq kodeksining 119-moddasida nazarda tutilgan bir xildagi huquqbuzarlik sodir etilganligi aniqlangan taqdirda, soliq to'lovchiga bir marta moliyaviy sanksiya qo'llanilishi belgilangan.

## **17– Mavzu. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati o'rganlarining huquqiy maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari**

### **Reja:**

1. Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo'lgan davlat boshqaruv organlari
2. Davlat bojxona xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi
3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati


**Tayanch so'z va iboralar:** Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, tovarlarni eksport qilish, to'lov, umidsiz qarz, O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining Yagona reestri, O'zbekiston Respublikasining rezidenti.

### **1. Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo'lgan davlat boshqaruv organlari.**

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek soliq huquqiy munosabat subyektlari bo'lib soliq to'lovchilar va vakolatli davlat organlari hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabat sohasida vakolatli bo'lgan davlat organlari quyidagilardir:

- 1) Davlat soliq xizmati organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi soliq inspeksiyalari;

- 2) Bojxona organlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;
- 3) Moliya organlari – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari;
- 4) Boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.



*Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi.* Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra davlat soliq xizmati organlari – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning budjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta‘minlash maqsadlarida tashkil etilgan. Qonunga binoan davlat soliq xizmati organlariga - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari kiradi. Davlat soliq xizmati organlari o‘z faoliyatini davlat boshqaruv organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Davlat soliq xizmati organlarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha soliq to‘lovchilar - yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiydir. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni ta‘minlash; soliqlarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga

muvofig O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga, davlatning maqsadli jamg'armalari hamda budgetdan tashqari jamg'armalarga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash; soliqlar yig'ilishini amalga oshirish bo'yicha choralar ko'rish, ma'lumotlar kompyuter bazasining yagona tizimini yuritish asosida soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish; pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash; xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish; bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha surishtiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish; xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyati muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlash va suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslik; yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalari amalga oshirilganda qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish; davlat soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo'yicha tizimli ishni amalga oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni doimiy asosda ta'minlash. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Ukrainada davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishda soliq organlari xodimlarining kasbiy malakasi, etikasini oshirish asosiy mezonlardan biri sifatida belgilangan bo'lsa, Rossiyada soliq organlari tomonidan soliqqa tortish, o'z xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish uslublarini ishlab chiqish amaliyoti qo'llanmoqda. Ayrim davlatlarda esa soliq organlari ishini tashkil qilishning boshqacha uslublari mavjud. Jumladan, Daniyada har bir korxonaga soliq xizmati xodimlari guruhi birlashtirilib, u korxonaning vujudga kelishidan to tugatilishiga qadar bo'lgan davrda nazorat ishlarini amalga oshiradi. Davlat soliq xizmati organlari o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni davlatning boshqa boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar va tashkilotlar soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat soliq xizmati organlariga ko'maklashishlari shart. Jumladan, Davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar o'zaro kelishib belgilangan tartibda soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar, o'tkazilayotgan tekshiruvlar to'g'risida bir-birlarini xabardor qiladilar, shuningdek zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotlarni almashib turadilar. Soliq to'lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida banklar bilan xamkorlikni amalga oshiradilar. Jumladan, banklar xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari ochishlari mumkin va bu hisobvaraqlar ochilganligi haqida ular ochilgan kunning ertasidan kechiktirmay mazkur organga xabar beradilar; xo'jalik yurituvchi subyektlar budget oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, bunday subyektlarning hisob-kitob raqamlari va boshqa hisobvaraqlarini sudning qaroriga binoan yopadilar; davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchi mijozlardan

belgilangan muddatda to'lanmagan soliqlar va jarimalarni so'zsiz undirish to'g'risidagi farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlar undirish haqidagi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lashga doir, shuningdek hayot va sog'liqqa yetkazilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraقدan pul mablag'lari o'tkazilishi yoki berilishini nazarda tutadigan ijro hujjatlari bo'yicha mutanosib ravishda bajaradilar; soliq to'lovchi mijozning mablag'lari bo'lsa, uning hisobkitob yoki boshqa hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish operatsiyasi amalga oshirilgan kuni soliqlar va jarima summalarini budjet daromadiga o'tkazadilar; soliq to'lovchi — mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan pul mablag'lari berish, o'tkazish yoki ularni hisobdan chiqarishga doir operatsiyalarni sudning qaroriga binoan to'xtatib qo'yadi.


**2. Davlat bojxona xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi.** Davlat bojxona xizmati organlarining huquqiy maqomi 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilab berilgan. Davlat bojxona qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o'tkazilishini, bojxona ishlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. DBQ o'ziga yuklatilgan vazifalarni muvofiq bojxona qonunchiligiga va o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi; bojxona tartibga solish vositalari qo'llanilishini ta'minlaydi, bojxon-tarif mexanizmi ham shu jumlagi kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashadi; bojxona to'lovlarini davlat budjetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlaydi.

*O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi.* O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi 1992 yil 23 noyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Moliya vazirligi haqidagi Nizomda belgilab qo'yilgan. Ushbu nizomda soliq sohasidagi bir qator maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Vazirlik O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika budjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi. Moliya vazirligi respublika budjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi. Ana shu maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi tarkibiga kiruvchi organlar faoliyatini kelishilgan Yagona moliyaviy, soliq, valyuta va narx-navo siyosatini shakllantirish ishlarini olib borishga, oltin zaxirasini ko'paytirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga, respublika iqtisodiyotini sog'lomlashtirishga, bozor munosabatlarini shakllantirish 61 sharoitida narx-navoni tartibga solishning iqtisodiy usullari rolini kuchaytirishga va aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltiradi. Moliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o'sishini ta'minlash, moliya-kredit vositalarining xo'jalik mexanizmining boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash; moliya, budjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash usullarini takomillashtirish; soliq solish, narx belgilash, sug'urta, valyuta-

moliya, auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek soliq maslahati bo'yicha faoliyat sohasida qonunchilik va me'yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashish; moliya, soliq, narx belgilash, sug'urta, valyuta, auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek soliq maslahati bo'yicha faoliyat sohasida ilmiytadqiqot ishlarini amalga oshirish; budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash; budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan unga yuklangan vazifalar va funksiyalarning, ayniqsa pensiyalarni va boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va to'lashning belgilangan qoidalarini qo'llash yuzasidan bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilishdan iborat. Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo'lgan davlat organlarining oxirgi turiga boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar kiradi. Ya'ni yuqorida ta'kidlaganimizdek Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat bojini undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar tushuniladi. Jumladan, Davlat boji quyidagilardan undiriladi: sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellyasiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun; da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish 62 to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellyasiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellyasiya va kassatsiya shikoyatlaridan; notariuslar va O'zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun; chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni berganlik uchun; yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan; O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun; O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik, turgan joyi bo'yicha hisobga olganlik uchun, shuningdek chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni turar joyga qayd

etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik uchun; yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun; faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun; o'qov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma berganlik uchun. Umuman olganda, har qanday davlat iqtisodiyotini rivojlanishida soliq va boshqa majburiy to'lovlarning o'rni kattadir. Shuningdek, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'rnatish, undirish va budjetlarga kelib tushishini ta'minlashning samarali mexanizmini tashkil qilish, vakolatli davlat organlarining bu boradagi mas'uliyatini oshirish hozirigi kundagi muhim bo'lgan masalalardan biridir.

**3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati.** Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek Soliq kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo'lgan 69 taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati deb hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati solliq to'lovchining hisobvarag'ida yetarlicha pul mablag'lari bo'lgan taqdirda, tegishli solliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, solliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan deb hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati qo'shimcha hisoblangan solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvaraqlariga o'tkazilganligi to'g'risidagi to'lov hujjatlarining ko'chirma nusxalari solliq to'lovchi tomonidan davlat solliq xizmati organlariga taqdim etilgan taqdirda ham bajarilgan deb hisoblanadi. Solliq yoki boshqa majburiy to'lov summasini o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi solliq to'lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan solliq to'lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar solliq to'lovchi bankka to'lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu solliq to'lovchining hisobvarag'iga qo'yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo'lsa hamda solliq to'lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda yetarlicha pul mablag'lariga ega bo'lmasa, solliq yoki boshqa majburiy to'lov to'langan deb hisoblanmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati belgilangan tartibda hisobga olish orqali ham bajarilishi mumkin. Masalan, solliq to'lovchi mol-mulk solig'ini ortiqcha to'lab yuborgan. Ortiqcha to'langan summa solliq qarzini quyidagi ketma-ketlikda uzish hisobiga hisobga olinishi kerak bo'ladi: solliqning mazkur turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga; boshqa turdagi solliqlar bo'yicha, masalan foyda solig'i bo'yicha qarzni uzish hisobiga; boshqa turdagi solliqlar bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga; mazkur solliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga; boshqa turdagi solliqlar bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga.



Ortiqcha to'langan soliq summasi boshqa soliq to'lovchining soliq qarzini uzish hisobiga hisobga olinishi mumkin emas. Masalan, soliq to'lovchi A.Alimovning ortiqcha to'lagan soliq summasini do'sti I.Valiyevni aksiz yoki boshqa turdagi soliq qarzini to'lashiga yo'l qo'yilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek moliyaviy sanksiyalar budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi tartibda o'tkaziladi: asosiy summa; hisoblangan penya; jarimalar. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari bajarilishini ta'minlash choralari jumlasiga quyidagilar kiradi: davlat soliq xizmati organi tomonidan yuridik shaxslar, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo'icha yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati tugaganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmasdan yuboriladigan soliq to'lovchi majburiyatini bajarishi zarurligi hamda soliq qarzini to'lash to'g'risidagi talabnoma; jismoniy shaxslar uchun, bundan tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo'icha yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, – soliq majburiyatini bajarish muddati tugagandan keyin davlat soliq xizmati organining jismoniy shaxsdan soliq qarzini undirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi, 71 bundan soliq qarzining summasi undiruvni mol-mulkka qaratish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lgan hollar mustasno. Mazkur miqdor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ 2455-sonli qaroriga asosan jismoniy shaxslar uchun eng kam ish haqqining 5 baravari qilib belgilangan.

*Yuridik shaxs tugatilganda va qayta tashkil qilinganda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash tartibi.* Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ixtiyoriy tugatish hollari bundan mustasno, tugatuvchi besh kunlik muddat ichida bu haqda davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda ma'lum qiladi. Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to'g'risida



qaror qabul qilingan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bu haqda davlat soliq xizmati organini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor etadi. Yuridik shaxs davlat soliq xizmati organiga tugatish balansini taqdim etish bilan bir vaqtda hisobotlarni hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart. Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati ushbu yuridik shaxsning pul mablag'lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida tugatuvchi tomonidan bajariladi. Yuridik shaxsni tugatish davrida yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek penya va jarimalarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati yuzaga kelishiga qarab, Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda hamda tartibda bajariladi. Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati belgilangan tartibda uning huquqiy vorisi tomonidan bajariladi. Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatini bajarish, qayta tashkil etish tugallanishiga qadar huquqiy vorisga qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs soliq majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi faktlari va holatlari ma'lum bo'lganligi yoxud ma'lum bo'lmaganligidan qat'i nazar, uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklatiladi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilguniga qadar u ortiqcha to'lagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning summolari shu yuridik shaxs huquqiy vorisining shaxsiy kartochkasiga yuridik shaxsni qayta tashkil etish tugallangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay o'tkazilishi kerak. Yuridik shaxsning soliq qarzi yoki u qayta tashkil etilguniga qadar ortiqcha to'langan soliq 72 yoki majburiy to'lov summalarini qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari o'rtasida taqsimlash har bir huquqiy vorisning ulushiga muvofiq amalga oshiriladi.

*Soliq to'lovchi vafot etgan, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash.* Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning meros qilingan mol-mulkini qabul qilgan merosxo'ri tomonidan, meros qilingan mol-mulkning qiymati doirasida va merosdagi ulushga mutanosib ravishda, meros qabul qilib olingan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmasdan bajariladi. Vafot etgan jismoniy shaxs to'lashi lozim bo'lgan penya va jarimalarni to'lash majburiyati merosxo'rga nisbatan tatbiq etilmaydi. Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati summasi meros qilingan mol-mulk qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash bo'yicha qarzining qolgan summasi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi. Merosxo'r bo'lmagan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq qarzi umidsiz qarz hisoblanadi. Soliq qarziga ega bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, jismoniy shaxs hisobga qo'yilgan va uning mol-mulki turgan joydagi davlat soliq xizmati organi vafot etgan shaxsning merosxo'ri to'g'risida axborot olingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida unga soliq qarzi borligini ma'lum qilishi shart. Sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan jismoniy shaxsning soliq qarzi qonun hujjatlariga muvofiq bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan bedarak yo'qolgan shaxsning molmulki hisobidan bajariladi. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning vasiysi tomonidan muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi. Belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, uning soliq qarzining ko'rsatilgan mol-mulk qiymatidan ortiq qismi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi. Jismoniy shaxsning bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligini bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan yoki jismoniy shaxsni muomalaga layoqatli deb topish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ilgari hisobdan chiqarilgan soliq qarzining amal qilishi, da'vo qilish muddatidan qat'i nazar, qayta tiklanadi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini, qat'iy belgilangan soliqni va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya 73 jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lash bo'yicha qarzi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi. Masalan, soliq to'lovchi vafot etgan vaqtda uni daromad solig'ini va mol-mulk solig'ini to'lamaganlik holati aniqlandi. Bunday holatda qonunchilikka ko'ra mol-mulk solig'ini uning molmulkini qabul qilgan merosxo'ri to'laydi. Daromad solig'ini esa to'lamaydi, bu soliq umidsiz qarz deb topiladi va to'lanmaydi.

## **18-Mavzu. O'zbekiston Respublikasining soliq sohasidagi xalqaro hamkorligi**

### **Reja:**

- 1. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari**
- 2. AQSH va Germaniya soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili**
- 3. Fransiyada soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili**

**Tayanch so'z va iboralar:** Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, soliq bilan bog'liq munosabatlar, soliq majburiyatlarini, Soliqlar, Sof tushum, sof foyda, stavka, tannarx, tovar oboroti, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum, tovarlarni eksport qilish, to'lov, umidsiz qarz, O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining Yagona reestri, O'zbekiston Respublikasining rezidenti.


### **1. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari**

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari<sup>35</sup>. Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy xususiyatlari va belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Ularni biz shartli ravishda bir necha turlarga bo'lishimiz mumkin: - amerika modeli; - yaponiya modeli; - Yevropa modeli; - noandozaviy model. Bu modellarning umumiy belgilari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz: - rivojlangan qonunchilik bazasining mavjudligi, vujudga keladigan munozaralar, vazifalar hamda turli xil holatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari; - soliq organlari tashkil etilishining yuksak darajasi (texnika vositalari bilan ta'minlanganligi, yuqori ish haqi, zamonaviy aloqa vositalari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish darajasi); - soliq idoralarining soliq to'lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro'ga ega ekanligi; - vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralanib qo'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo'qligi; - hukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorining) katta ahamiyatga va obro'ga ega ekanligi;

- kadrlarni tahlil etish, o'rganish, oldidan belgilash, o'qitish, soliq to'lovchilar (jamoatchilik) bilan aloqalar bo'yicha institutlarning mavjudligi; - soliqqa tortish tizimini tashkil qilish, rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti yuksak darajada o'zaro bog'liqligi, qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligi hisoblanadi; - soliq idoralarining, ayniqsa, axborot almashinish sohasida moliya organlari va bank tizimi bilan chambarchas bog'liqligidir.

---

<sup>35</sup> Chet mamlakatlar soliq tizimi. A.Jo'raev – T.: TMI, 2005. 183-b.



Endi bulardan tashqari har bir modelning bir-biridan farq qiladigan alohida belgilari to'g'risida to'xtalamiz, birinchi bo'lib amerikacha modelni ko'rib chiqamiz. Amerika modeli quyidagi belgilari bilan klassifikatsiyalanadi: - soliq tizimi bo'yicha soliq to'lovchilarining tushunishi uchun murakkabligi, shu sababdan mamlakatda 50 mingdan ortiq mustaqil holda xususiy soliq maslahatchilari ish olib borib, shu tizimga doir bo'lgan muammolarni echishga harakat qilmoqda; - mamlakatning soliq tizimi juda katta boshqaruv tizimi hamda ijrochilik apparatiga egaligi bilan alohida ajralib turadi; - soliq organlari umumiy tuzilishini mamlakat miqyosida qat'iy markazlashtirishning yo'qligi, mamlakat soliq idoralarining uch darajali, ya'ni federal, shtat va shahar darajalarining har bir vakilining to'liq qarashligi va mustaqilligi; - naqd pul bilan ishlaydigan kichik biznesning (savdo rastalaridan savdo qiluvchilar, ko'chadagi savdo va xizmatlar va shularga o'xshagan faoliyat turlari) daromadlarini nazorat qilishning samarali usullari AQSHda yo'lga qo'yilmagan; - noqonuniy daromad manbalari (o'z daromadlarini yashiruvchilar va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlovchilar) to'g'risida ma'lumot beruvchi ko'ngilli axborotchilar tarmog'ining mavjudligi; Jahon soliq tizimining Yaponiya modeli quyidagi asosiy belgilari bilan xarakterlanadi: - moliya, soliq, bank, sug'urta, bojxona xizmatlari va shu kabi davlat budjetini sarmoyaga to'ldiradigan tizimlar Yaponiya Moliya vazirligi nazorati ostida hisoblanadi; - Yaponiyada juda yuksak darajada vatanparvarlik ruhi, mamlakatga, davlat boshqaruv organlariga, vazirliklarga, mehnat bo'limi bitimini imzolagan kompaniyaga, firmaga, muassasaga sodiqlik hissi mavjudligi va natijada kadrlar qo'nimsizligining yo'qligi, shu jumladan soliq organlari tizimida ham kuzatilmaydi; - quyidan to yuqorigacha bo'lgan boshqaruv apparati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda subordinatsiya tamoyiliga qat'iy rioya qilinishidir. O'lis istiqbol uchun oldindan belgilangan ko'rsatkichlarning tuzilishi. Masalan, borib-borib soliq to'lovchilar va budjetdan nafaqa oluvchilarning sonining oshib ketish siklini yaponlar hisoblab chiqqan bo'lib, buning natijasida nafaqaxo'rlar sonining oshib ketishi va soliq to'lovchilar sonining kamayib ketishini aniqlagan. Yevropa modeli quyidagi belgilari bilan boshqa modellardan ajralib turadi: - Yevropadagi mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy birlashishga doimiy intilish mavjud. Shuning uchun ularning iqtisodiyotdagi ayrim boshqaruv tizimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular bir-biriga juda yaqin. Shu boisdan ularning soliq tizimi jahon amaliyotida "Yevropacha model" deb yuritiladi; - soliq faoliyatining unitar shakllari mavjud bo'lib, bularga yagona andozalar, yondashuvlar, talqin qilishlar, soliq deklaratsiyalarining shakllari, ish prinsiplarini kiritish mumkin. Noandozaviy yoki moslashgan modellar odatda ayrim kichik hududli yoki orollarda joylashgan davlatlarda, erkin iqtisodiy zonaga ega (offshor zonali) davlatlarda va qator boshqa davlatlar (masalan, Kipr,

Lyuksemburg, Maldiv orollari) soliq tizimlarida mana shu model amal qilishi mumkin. Ular uchun turli soliq imtiyozlari va engilliklari, “soliq ta’illari” deb nomlanadigan hududlar shular jumlasidandir. Jahon soliq modellarining o’ziga xos xususiyatlari Amerika modelida: Federal, shtat, shahar (mahaliy) soliqlar mavjud. Federal soliqning asosiy xususiyati shundaki, federal budjet tarkibida to’g’ri soliqlarning ulushi katta. Aholidan olinadigan daromad solig’i federal budjetning asosiy qismi hisoblanadi. Amerikada har bir jismoniy shaxs o’zining soliq maqomiga ega: erxotinning birgalikda yoki alohida soliq deklaratsiyasini to’ldirishi oilaviy ahvolga qarab guruhlanadi va soliq to’lovchiga ma’lum imtiyozlar beriladi. Daromadlarni hisoblash uch bosqichdan iborat, ya’ni: yalpi daromad (tushum); hisoblangan daromad; soliqqa tortiladigan daromad, yalpi daromaddan ayrim chegirmalar va ajratmalar chegiriladi. Yevropa modelida: Buyuk Britaniya soliq tizimi beshta yirik guruhga bo’linish xususiyati bilan ajralib turadi: to’g’ri soliqlar; egri soliqlar; mahalliy soliqlar; ishbilarmonlikka soliq; boshqa soliqlar. Bularning ichida to’g’ri soliqlar yuqori salmoqqa ega. Bundan tashqari: - Buyuk Britaniyada daromad solig’i boshqa davlatlarnikidan farq qiladi, ularda jismoniy shaxslar daromad solig’i shedullar asosida hisoblanadi; - egri soliqlar ichida eng yuqorisi QQS, 2-o’rinda aksiz solig’i hisoblanadi; - Buyuk Britaniya soliq tizimi markazlashgan va mahalliy soliqlardan iborat; Markazlashgan soliqlarga: daromad solig’i, korporatsiyalar faoliyatidan olinadigan soliq, ish haqiga daromad solig’i, QQS, aksiz, bojxona bojlari va boshqalar kiradi. Mahalliy soliqlarga: mol-mulk solig’i, biznesdan olinadigan soliq, qimmatbaho qog’ozlar operatsiyalaridan olinadigan daromad solig’i, ko’chmas mulkdan olinadigan soliq va boshqalar kiradi. Fransiya soliq tizimining o’ziga xos xususiyatlari. Hozirda Fransiyada uchta yirik soliq guruhlari mavjud: daromadlarni olish vaqtida to’lanadigan daromad solig’i; daromad sarflanayotganda undiriladigan iste’mol solig’i; kapital solig’i. Fransiya soliq tizimida QQS eng asosiy soliq turlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Aksiz solig’ining ba’zilar davlat budjetiga, ba’zilar esa 247 mahalliy budjetga borib tushadi. Fransiyada ham soliq turlari bo’yicha imtiyozlar va chegirmalar mavjud. Mahalliy soliqlar va yig’imlartorta asosiy guruhga bo’linadi: qurilish qilingan yerlarga solinadigan soliq yoki yig’im; qurilish qilinmaydigan yerlarga solinadigan soliq yoki yig’im; turar joylarga soliq; kasb-hunarga soliq. Fransiyaning davlat budjeti tarkibida egri soliqlarning salmog’i katta. Germaniya soliq tizimining o’ziga xos xususiyatlari. Germaniya soliq tizimi federal, yer va mahalliy soliqlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Germaniyada soliq turlari soni juda ko’p bo’lib, ular quyidagilardan iborat: Federal soliqlar: spirtli mahsulotlarga soliq, boj yig’imlari, kapitalning harakatiga soliq, sug’urta solig’i, veksel solig’i, iste’mol mahsulotlariga soliqlardan iborat. Qo’shma soliq (federal va yer)lar: ish haqidan olinadigan daromad solig’i, kapital daromadiga va korporatsiya solig’i, QQS, hunarmandchilik soliqlaridan iborat. Yer soliqlari: mol-mulk solig’i, yer maydonini sotib olishga soliq, transport vositalariga soliq, pivoga soliq, lotereya o’yinlariga soliq, yong’in havfsizligini ta’minlash solig’i, bilyard o’yinlaridan olinadigan daromad soliqlardan iborat. Munitsipal soliqlar: yer solig’i, mahalliy iste’mol solig’i, it egalariidan olinadigan soliq, kosibchilik soliqlaridan iborat. Ulardan daromad va kosibchilik soliqlari uchala budjetga ham borib tushadi. Germaniyada aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida soliqlarni sinflarga bo’lgan, ya’ni soliq to’lovchilarning turmush darajasi, oilaviy ahvoli, bolalar sonini hisobga olgan holda amal qiladi. Germaniyada cherkovlar, internatlar, bolalar bog’chalari, kasalxonalar yer solig’idan ozod qilingan. Germaniyada mahalliy soliqlarning stavkalari mahalliy boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi. Yaponiya soliq tizimining o’ziga xos xususiyatlari. Yaponiyada soliqlar davlat va mahalliy soliqlarga bo’linadi. Davlat soliqlarining ichida to’g’ri soliqlarning salmog’i yuqoridir. To’g’ri soliqlarga: jismoniy shaxslar daromadiga soliq, korporatsiya daromadiga soliq, merosga soliq va yer soliqlari kiradi. Davlat soliqlarining ichida egri soliqlar ham mavjud, ya’ni iste’mol solig’i (QQS), spirtli ichimliklarga soliq, tamaki mahsulotlariga soliq, yoqilg’i mahsulotlariga soliq, bojxona bojlari, avtomobil quvvatiga soliqlardir. Mahalliy soliqlar quyidagilardan iborat: prefekturalar (shaharlar) solig’i; munitsipal (shahar tipidagi hududlar) soliqlar. Yaponiya soliq tizimini to’rtta guruhga bo’lib o’rganish mumkin: - daromaddan olinadigan soliq; - mol-mulkdan

olinadigan soliq; - iste'mol solig'i; - maxsus mahsulotlarga belgilangan soliqlar; Yaponiyada aholi daromad solig'ining hisoblanishiga ko'ra o'nta guruhga bo'linadi: turli xil foizlardan olinadigan foyda; dividendlardan olinadigan foyda; asosiy fondlarning ijara haqi; biznes daromad; ish bilan band bo'lganlarning daromadlari; nafaqa yoshdagilarining daromadlari; o'rmon mahsulotlarini sotishdan olingan daromad; kapital tushumlar; favqulodda daromadlar; turli-tuman daromadlar. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining jahon soliq tizimi modellari bilan solishtirma tahlili Amerika modeli bilan solishtirma tahlili. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining AQSH soliq tizimi bilan o'xshash jihatlari: - soliqlardan imtiyozlar va chegirmalar mavjud. Masalan, AQSHda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari ham O'zbekiston mamlakatiga o'xshash, ya'ni soliqning tabaqalashtirilgan uchta stavkasi mavjudligi. Hozirgi kunda O'zbekistonda tabaqalashgan to'rtta stavka mavjud. Yevropa modeli bilan taqqoslama tahlili. Buyuk Britaniya mamlakati soliq tizimi. Hozirgi paytga kelib Buyuk Britaniya soliq tizimi beshta yirik guruhlardan iborat: - to'g'ri soliqlar; - egri soliqlar; - mahalliy soliqlar; - ishbilarmonlikka soliq; - boshqa soliqlar. Buyuk Britaniyada ham, O'zbekistonda ham budjet daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar yuqori salmoqqa ega. Asosiy ulushi daromad solig'iga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniya jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortishning farqli jihati shundaki, daromad solig'i shedullar asosida tuzilgan. Germaniya mamlakati soliq tizimi. Germaniyada soliqlar budjetga tushishiga qarab uchga bo'linadi: federal, yerlar (hudud) va mahalliy. Ularda qirqqa yaqin soliq turi amal qiladi. Bizning soliq tizimimizdan farqli o'laroq, Germaniyada budjetlarning asosini to'g'ri soliqlar tashkil etadi. Yana bir farqli jihati, Germaniyada jismoniy shaxslar daromadiga soliq hisoblanganda oilaviy sharoiti hisobga olinadi. Fransiya mamlakati soliq tizimi. Fransiya soliq tizimi bizning soliq tizimimizga yaqindir. Ikkala mamlakatda ham budjetning asosiy qismini QQS tashkil etadi. Budjet tuzilishi markaziy va mahalliy budjetlardan iborat. Fransiya soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni undirish xususiyati o'xshashdir. Yaponiya mamlakati soliq tizimi. Yaponiyada soliqlar to'rttata guruhga bo'lib o'rganiladi: - daromaddan olinadigan soliq; - mol-mulkdan olinadigan soliq; - iste'mol solig'i; - maxsus mahsulotlarga belgilangan soliqlar. Ularni biz umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'lamiz. Aholi daromadlaridan olinadigan soliqlar o'nta guruhga bo'linadi. Iste'mol solig'i guruhiga litsenziya va registratsiya solig'i, gerb yig'imi, irrigatsiya yerlarini yaxshilash uchun soliq, elektroenergiya manbalarini rivojlantirish uchun soliq, mehmonxonalarda ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq, restoranlarda ovqatlanish uchun soliqlarga bo'linadi.

## **2. AQSH va Germaniya soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili**

Barcha rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy hususiyatlarga ega va ayni paytda bir-biridan farq qiladi. Hozirgi kunda Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi takomillashgan bo'lib, bunda soliqlar faqatgina budjetni to'ldirish, ya'ni fiskal funksiyani bajaribgina qolmay, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy tayanch elementlariga aylanadi. AQSH soliq tizimi uch darajali bo'lib, ular: federal, shtat va shahar soliqlariga bo'linadi. AQSH moliya tizimining asosiy bo'g'ini federal, hukumatning budjet mexanizmi hisoblanadi. Yirik va doimiy tushumga ega bo'lgan soliqlar federal budjetga yo'naltiriladi. AQSHning 70% daromad va harajatlari federal budjet hissasiga to'g'ri keladi. 250 Federal budjet daromadlarining asosiy qismini to'g'ri soliqlar tashkil etadi. Shtat va mahalliy hukumat budjetlariga egri soliqlar ko'proq tushadi. Shtat soliqlari. Har bir shtat budjeti federal budjetga bog'liq, lekin ular o'z soliq tizimiga ega. Shtatlar budjetining asosiy qismini jismoniy shaxslardan va korporatsiyalar daromadidan soliq egallaydi. Federal budjetni asosiy qismini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning barcha daromadlari quyidagilardan tashkil topgan: ish haqi; tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar; nafaqa va pul yordami; belgilangan summadan yuqori bo'lgan daromadlar; qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar va boshqalar. Mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan

kelgan daromadlar maxsus soliq bilan yoki shaxsiy daromad tarkibida soliqqa tortiladi. Soliqqa tortilmaydigan daromad hamma uchun imtiyoz bo'lib hisoblanadi va soliqqa tortilmaydigan minimumdan tashqari nafaqalar fondi badallari, shtat hukumatiga to'lanadigan badallar, mahalliy soliqlar, shtat va mahalliy boshqaruv organlarining hukumati chiqargan qimmatli qog'ozlar foizlari, aliment summalari, tabiiy xizmat harajatlari chegirib tashlandi. AQSH soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining solishtirma tahlili. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi 2 pog'onali: 1. Umumdavlat soliqlari; 2. Mahalliy soliqlar va yig'implar. Yuqorida ko'rganimizdek AQSH soliq tizimi uch pog'onali, ya'ni: 1. Federal soliqlari; 2. Shtat soliqlari; 3. Shahar soliqlari. Respublikamiz umumdavlat soliqlariga asosan doimiy tushumga ega bo'lgan va byudjedga muhim o'rin tutadigan soliqlar yo'naltiriladi. Bularga: jismoniy shaxslar daromadiga soliq, yuridik shaxs daromadiga soliq, aksiz solig'i, QQS, davlat boji, bojxona boji va boshqa soliqlar kiradi. AQSH federal budjet soliqlarida esa asosan to'g'ri soliqlar hissasi ko'proq to'g'ri keladi. Ikki davlat uchun o'xshashlik jihati har ikkala budjetga ham muhim ahamiyatga molik bo'lgan soliqlar yo'naltiriladi. Farqli jihati esa O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida hozirgi kunda egri soliqlar hissasi ko'proq, shu sababli egri soliqlar ham umumdavlat soliqlarida muhim ahamiyatga ega, AQSH federal budjetida esa egri soliqlar deyarli yo'q, chunki mamlakat budjetida egri soliqlarning hissasi kam bo'lib AQSH 251 federal budjetiga jismoniy shaxslar daromad solig'idan keyin ikkinchi o'rinda (budjetdagi salmog'i bo'yicha) ijtimoiy sug'urta ajratmalari va korporatsiyalar daromadiga soliq kiradi. AQSHda korporatsiya budjetiga soliqlarni federal budjetdan tashqari shtat soliqlari tarkibiga ham kiritiladi. Respublikamiz soliq tizimining ikkinchi pog'onasi mahalliy soliqlar va yig'implardir. Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib berilgan. Mahalliy hukumatlar asosan ijtimoiy masalalarni: maktab, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif, shaharlar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Mahalliy budjetini (soliqlarning) muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning budjetiga tushadi. Boshqa budjetlarga ajratmalar berilmaydi. AQSH mahalliy soliqlari asosan: ijtimoiy ta'minot, yo'l qurilishi, sog'liqni-saqlash, xalq ta'limi mahalliy soliqlarga kiradi. Respublikamiz mahalliy soliqlariga esa: mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq kiradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida qimmatli qog'ozlar bozori ancha rivojlangan va bu tizimdan ham juda katta daromad olish imkoniyati mavjudligi tufayli mamlakat budjetiga ushbu operatsiyalardan ham ma'lum miqdorda soliq tushumlari tushadi. Respublikamiz hududida esa aksincha, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozori hali to'liq shakllanmaganligi sababli ham soliq tushumlari kam. Respublikamiz soliq tizimida ham yanada bu bozorni rivojlantirish maqsadida ushbu operatsiyalardan, ya'ni qimmatli qog'ozlar operatsiyasidan daromad oluvchi yuridik shaxslarga soliqlardan imtiyoz berilgan. Amerika Qo'shma Shtatlarida kompaniyalar va korporatsiyalarning soliq bazasidan ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik ishlariga harajatlar butunlay, uskunalarini zamonaviylashtirishga harajatlar qisman chiqarib tashlanishi mumkin. Uncha katta bo'lmagan kompaniyalarga, ya'ni kichik biznesga maxsus imtiyozlar beriladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida yillik daromadi 75 ming dollargacha bo'lgan kompaniyalarga yil davomida qiymati 10 ming dollargacha bo'lgan (kompaniyalarga yil davomida) yangi uskunani to'liq hisobdan chiqarish huquqi beriladi. Kichik biznes uchun Amerikada, shuningdek, foyda solig'i uchun imtiyozli progressiv stavkalar belgilangan. Respublikamiz misolida ko'radigan bo'lsak, hozirgi kunda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes uchun juda ahamiyatga molik ishlar amalga 252 oshirilmoqda. Ularga nisbatan bir muncha engilliklar, imtiyozlar berilgan. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi joriy qilingan. Ikki davlatning yana bir e'tiborga molik bo'lgan soliq va soliqsiz to'lovlaridan biri bu bojxona bojlaridir. Amerika Qo'shma shtatlarida iqtisodiyot ancha rivojlanganligi sababli mamlakat ichki bozori o'z ishlab chiqargan mahsulotlari bilan ta'minlangan. Shu qatori eksport ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu sababli ham mamlakatga import qiluvchi tovarlar uchun bojxonada rasmiylashtirish uchun bojxona va davlat bojlari nisbatan yuqori emas.

Respublikamizda esa ishlab chiqarish hali to'liq rivojlanmaganligi sababli o'z ichki bozoridagi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni himoya qilish va ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida chetdan kelayotgan import tovarlar uchun soliqlar va bojlar yuqori stavkada qo'llaniladi. Aksiz solig'i (aksiz markalari) mahsulotini ikki barobar narxga ko'tarilishiga olib keladi.

Germaniyada soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili Ikkinchi jahon urushidan so'ng Germaniyada soliqqa tortish tizimi federatsiyalar, yerlar va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Budget xo'jaligini mustaqil yuritish tamoyillari umumdavlat va yerlarning manfaatlarini ko'zlagan holda olib borildi. Natijada hozirgi kun Germaniya Respublikasi soliq tizimida qirqta soliq mavjud. Jumladan, ish haqidagi daromad solig'i; QQS; kosibchilik solig'i; qat'iy daromad solig'i; korporatsiyalar solig'i; tabiiy neftga soliq; tamaki mahsulotlarga soliq; cherkov solig'i; yer solig'i; avtotransport vositalariga soliq; bojxona boji; yer maydonini sotib olishdan olgan soliq; meros solig'i; kofe; pivo; veksel; yong'in xavfsizligini ta'minlash solig'i; kuchuklar; shakarga; choyga; tuz; yoritg'ich asboblarini muhofaza qilish solig'i; ovchilik, baliq tutish solig'i; litsenziya solig'i. Germaniyada soliqlar federatsiya, yer, qo'shma (federal va yerlar bilan birgalikda), munitsipal, jamoa, cherkov soliqlariga bo'linadi: Federal soliqlar quyidagi soliqlardan iborat: spirt, spirt mahsulotlariga soliq; boj yig'implari; kapitalning harajatiga soliq; sug'urta solig'i; veksel solig'i; iste'mol mahsulotlariga soliq. Jamoa, qo'shma soliqlarga quyidagilar kiradi: ish haqiga soliq va o'rnatiladigan daromad solig'i; kapital daromadidan soliqlar va korporatsiyalar solig'i; QQS; hunarmandchilik solig'i. 253 Yer solig'iga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i; yer maydonini sotib olishdan soliq; transport solig'i; pivoga soliq; lotoreya va ot o'yinlariga soliq; yong'in xavfsizligini ta'minlash solig'i; bilyard, kozinolardan soliq. Munitsipal soliqlar tarkibiga quyidagilar kiradi: yer solig'i; mahalliy iste'mol soliqlari; it egalaridan soliq; kosibchilik. Germaniya Respublikasida budgetning markazlashmaganligi markaziy budget vositalarining mablag'larining qayta taqsimlanishi bilan emas, balki budget daromadlarni manbalarining qonuniy birlashtirilib qo'yilishi bilan amalga oshiradi. Har bir soliq bo'yicha deyarli alohida me'yoriy hujjatlar mavjud. Germaniya Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'ri soliqlar ichida eng muhimi hisoblanadi. Soliqqa tortish obyekti bo'lib ish haqi, erkin kasb daromadlari, gonorarlar, kapital daromadlari, banklar jamg'armalaridagi foizlar, ijara haqi, xususiy ish faoliyatidan olinadigan daromadlar va boshqalar kiradi. Germaniya Respublikasida oltita soliq informatsiyalari mavjud bo'lib ular ishchi va xizmatchilarning ommaviy xolatini, bolalar sonini, hisobga olgan holda amal qiladi. 1 sinfga: bo'ydoqlar, bolasiz ishchilar, ajrashganlar, bevalar. 2 sinfga: ajrashib 1 ta bolasi borlar. 3 sinfga: oilalilar, agar bittasi ishlasa (ikkalasi ishlasa) ularning 1 tasi 5 sinfga o'tkaziladi. 4 sinfga: oilada er-xotin 1 vaqtda ishlasa daromadlari alohida soliqqa tortilganda. 5 sinfga: oilada ikkalasi ham ishlab ularning umumiy kelishuvga asosan 3 sinfga o'tkazilgan bo'lsa. 6 sinfga: 1 nechta ish joylarida daromad oluvchilar. Germaniya soliq tizimining O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtirma tahlili. Germaniya mamlakatini O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtiradigan bo'lsak bir qancha o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud. Ularni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin: O'zbekistonda soliqlar respublika va mahalliy soliqlarga bo'linsa, Germaniyada federal yerlar (hudud) va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Germaniyada qo'shma soliqlar, ya'ni bir vaqtning o'zida bir necha budgetga tushadigan soliqlar mavjud. O'zbekistonda esa yo'q, xar bir soliq turi to'lig'icha bitta budgetga tushadi. Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha rivojlangandir va soliq turlari ham O'zbekistondagidan bir muncha ko'p. Germaniyada O'zbekistonda bo'lmagan, o'ziga xos hususiyatga ega 254 bo'lgan soliqlar: cherkov solig'i, it solig'i va boshqalar mavjuddir. Shu bilan birga O'zbekistonda mavjud mol-mulk solig'i Germaniyada yo'q. Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha murakkab tuzilishga ega. Buni yer solig'i, jismoniy shaxslar daromadiga soliq misolida ko'rishimiz mumkin. Germaniyada korporatsiyalar daromadiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar bor. Korporatsiyalarni daromadini soliqqa tortishda daromadlar ikkiga bo'linadi; taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan. O'zbekistonda bu

solliq yuridik shaxslar daromadiga solliq deb yuritiladi. Yuridik shaxslarni faoliyatidan kelib chiqib kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yagona solliq va qolgan yuridik shaxslar umumiy tartibda solliq to'laydilar. Germaniyada mol-mulk solliq'i o'rniga jismoniy shaxslarga meros va sovg'aga solliq joriy qilingan. U qarindoshlik darajasiga qarab 3%dan 70% stavkagacha qo'llaniladi. O'zbekistonda meros va sovg'aga solliq bir martalik yig'im sifatida joriy qilingan. Germaniyada yer solliq'i ulardan foydalanish turi hamda u yerda yashovchi oilalar soniga qarab qo'llaniladi. O'zbekistonda esa yer solliq'i yuridik shaxslarga alohida va jismoniy shaxslarga alohida qo'llaniladi. Solliq stavkasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har yili qayta belgilaydi. Germaniyada QQS solliq'ini pasaytirilgan stavkasi mavjud. O'zbekistonda esa QQS Yagona stavkada qo'llaniladi. Germaniya solliq tizimi bilan O'zbekiston solliq tizimi o'rtasidagi o'xshashlikka to'xtaladigan bo'lsak, har ikki davlatda ham bir qancha mohiyati jihatidan bir xil solliqlar mavjud. Masalan: QQS, jismoniy shaxslar daromad solliq'i, aksiz solliq'i.

### **3. Fransiyada solliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi solliq tizimi bilan solishtirma tahlili**

Hozirgi kunda Fransiyadagi solliqni uch xil guruhga ajratish mumkin: daromad solliq'i, shaxslarni daromad olganda keyingi to'lanadigan solliq'i (ish haqi), iste'mol solliq'i. Solliq tizimi asosan iste'mol yo'nalishiga qaratilgan bo'lib uning asosiy ko'rsatkichi olingan foyda (daromad)dir. Hozirda qo'shilgan qiymat solliq'i ustida gap ketganda barcha ishlab chiqarish va iste'mol uchun qilingan barcha sarf harajatlari ko'zda tutilib barcha yo'nalishlar bo'yicha solliqqa tortilishini tushuniladi. Tashqi bozor 42Chet mamlakatlar solliq tizimi bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalar qo'shilgan qiymat solliq'idan ozod etiladi. Import bo'yicha bajariladigan barcha operatsiyalar QQS tortiladi. QQS bajariladigan ishning turlariga bog'liq bo'lib, u solliq to'lovchining moliyaviy holatiga bog'liq bo'lmaydi. Solliq stavkasi tovarni bahosiga bog'liq bo'lmaydi. Qo'shilgan qiymat solliq'i obyektini sotilgan tovarlarni qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar tashkil etadi. Bundan tashqari boshqa qilingan harajatlari ham hisobga olinadi (yuklarni tashish, ortish, tushirish, boj va h.k.). Qo'shilgan qiymat solliq'ini hisoblaganda, xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi. 2004 yilgi ma'lumotga ko'ra solliqni asosiy stavkasi - 18,6% tashkil etib eng yuqori stavka esa (22%) bu stavka asosan ayrim tovar turlariga (avtomobil, kinofotovarlar, tamaki mahsulotlari, atrupa, qimmatbaho mo'yna) qo'llaniladi. Eng past solliq stavkasi ya'ni (5,5%) oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, kitoblar, dori-darmonlar uchun qo'llaniladi. Xuddi shunday past stavkalar ayrim xizmat ko'rsatish sohalari mehmonxona turisti yuk tashish, passajir transportlari, ishlab chiqarish korxonalarida ovqatlanishlarni tashkil etish va h.k.da qo'llaniladi. QQS dan ozod etiladi: ma'muriy ijtimoiy, tarbiyaviy, madaniy, sport sohalari bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi davlat muassalari; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar; yakka tadbirkorlik, yakka faoliyat ko'rsatuvchi shifokorlar; diniy yo'nalishda xizmat qilayotganlar. Qo'shilgan qiymat solliq'i ayrim bojlar bilan to'ldiriladi. (boj, aksiz) bular ham iste'mol qiymatiga ega bo'lgan iste'mol solliq'ini vujudga keltiradi. Bularni ayrimlari davlat hisobiga ayrimlari maxalliy budjetga o'tkaziladi. Qo'shilgan solliqqa tortiladigan tovarlarga quyidagilar kiradi: spirtli ichimliklar, tabaki mahsulotlari, gugurt, zanjigalki, qimmatbaho toshlardan tayyorlangan mahsulotlar, shakar, konditer mahsulotlar, uchuvchi apparatlar, pivo va shifobaxsh suvlar, ayrim turdagi avtomobillar. Bilvosita solliqqa qo'shimcha ravishda elektrenergiyadan foydalanganlik, televizion reklama qilinganlik uchun tortilishi. Ayrim hududlarda dam olish maskanlarini tashkil etish imkoniyatlari bo'lsa u holda mahalliy hokimiyat turistik yig'imlar yig'ib olishni joriy etadi. Bojxona boji ham iste'mol solliq'i hisoblanib, uning asosiy maqsadi ichki bozorni, ishlab chiqarishni, qishloq xo'jaligini himoyalashdan iborat. Bojxona boji davlat siyosati bo'lib, uning asosiy yo'nalishini ichki bozorni himoyalash. Bojxona boji keltirilgan tovarlarni bahosini ichki bozor bahosiga tenglashtirishdan iborat. Bojxona boji tovar bahosiga qarab olinadi. Ayrim hollarda boj olishda tovarni og'irligi, hajmi hisobga olinadi. Bunday boj, ichimliklar, tamaki mahsulotlari, kinofilmlar uchun ham 256 qo'llaniladi. Korxonani sof foydasi daromad solliq'iga tortiladi. Olinadigan solliq miqdori daromad



va harajat o'rtasidagi farq tenglashtiriladi. Daromad solig'iga asosiy o'rinlardan birini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etadi. Jismoniy shaxs barcha oladigan daromadlarini hisobga olgan daromad deklaratsiyasini soliq organlariga taqdim etadi. Daromad bu yil davomida olingan foyda tushumidir. Hisobotda yana har xil daromadlar ham hisobga olinadi, (maqsadli nafaqalar, ayrim ijtimoiy guruhlar, qariyalar va nogironlar) qilingan sarf harajatlari umumiy foydadan chegirib tashlanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv xarakterga ega bo'lib, daromadlari ma'lum belgilangan chegaradan oshsa, soliq to'lanadi. Fransiyada ko'chmas mulk, qimmatbaho qog'oz va boshqa mulklar buyicha qilingan operatsiyalardan olingan daromadni soliqqa tortishning boshqacha qoidalari mavjuddir. Agar ko'chmas mulk qancha narxda sotilgan bo'lsa shu baho miqdorida sotilgan yilda soliqqa tortiladi. Uy joyini sotishdan olgan daromad (foyda) soliqdan ozod etiladi. Agarda uy joyga egalik qilish muddati 32 yildan ortiq bo'lsa. Shunday qilib muddatlar bo'yicha har xil stavkalar qo'llaniladi. Agarda mulk sotuvchini qo'lida ikki yildan oshiq tursa u holda stavka kamaytiradi xatto 0% ham kamaytiriladi. Ko'chmas mulk bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalardan hosil bo'lgan foyda soliqqa tortiladi. Agar uning miqdori 20 ming frankdan ortiq bo'lsa. Bu holatda uch xil soliq stavkasi qo'llaniladi 4%, 5%, 7% - san'at asarlari uchun, 7,5% qimmatbaho metallar bilan ish qilinganda Fransiyada xususiy mulk solig'i budjetga ko'p daromad keltiradi. Mahalliy soliq tizimini to'rtta asosiy yo'naliga ajratish mumkin: - yer solig'i qurib bitirilgan uchastkalar uchun; - yer solig'i qurib bitirilmagan uchastkalar uchun; - turar joy solig'i; - mutaxassislik solig'i. Bu soliq stavkalari mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi (bosh kengash va mahalliy kengash). Bu soliq stavkalari davlat tomonidan belgilangan stavkadan o'tib ketmasligi kerak. Soliq mulkning hamma turiga binolar, inshootlar, suv xavzalari, suv yig'uvchi qurilmalar va ishlab chiqarish va tijorat maqsadlarida foydalanish uchun ajratilgan yer uchastkalarga taalluqli. Soliqqa tortilgan qism ijaraga berilgan uchastka qiymatini yarmini tashkil etadi. Bu soliqdan shahardan tashqarida bo'lgan qishloq xo'jalik maqsadlaridan foydalanilgan davlat mulki binolar ozod etiladi. Yoshi 75 dan yuqori bo'lgan jismoniy shaxslardan, maxsus nafaqa oluvchilardan va nogironlardan soliq olinmaydi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida yaratilgan su'niy o'rmonzorlar va ularda band bo'lib turgan yer uchastkalar - ma'lum muddati soliqdan ozod etilishi mumkin. Turar joy xususiy mulk kabi soliqqa tortiladi. Kam ta'minlangan shaxs butunlay yoki qisman bu soliqdan ozod etilishi mumkin. Doimiy mutaxassislik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq joriy etilgan. Mahalliy boshqaruv organlari yuqorida keltirilgan soliq turlariga qo'shimcha ravishda soliqlar va yig'imlarni joriy etishi mumkin ya'ni: maydonlarni tozalash solig'i; qishloq xo'jalik palatalarini ta'minlash boji; hunar ta'lim palatalarini ta'minlash boji; konlarni o'zlashtirishdagi mahalliy yig'imlar; elektr yoritkichlar o'rnatganlik uchun maxalliy yig'imlar; uskunalardan foydalanganlik uchun olinadigan boj; binolarni sotishdan olinadigan soliq; transport vositalari uchun olinadigan boj; limit darajasidan oshib ketgan qurilishlar uchun soliq; maydonni band qilish chegarasi limit darajasidan oshib ketganligi uchun to'lanadigan soliq.<sup>43</sup>

Fransiya mamlakati soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimining solishtirma tahlili. Fransiya soliq tizimini O'zbekiston soliq tizimi bilan o'xshashliklari juda ko'pdir. Bu o'xshash jihatlarni quyidagi soliq turlarini mavjudligi, ularni budjetga to'lanish tartibi jihatlaridan solishtirma tahlil qilamiz: Fransiya soliqlari umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi O'zbekiston Respublikasining bo'linishiga o'xshashdir. Fransiyada markaziy hukumat budjet daromadlarining asosiy 93 % ni soliq to'lovlari tashkil etadi. Budjet daromadlarining qolgan qismini maxsus daromadlar tashkil qiladi. Maxsus daromadlar asosan ijtimoiy fondlarga to'lovlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida markaziy hukumat budjet daromadlarining asosiy qismini 93-95 % ni soliq to'lovlari tashkil etadi. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra Fransiya va O'zbekiston Respublikasini soliq tizimi to'g'ri soliqlar va egri soliqlarga ajratiladi. To'g'ri soliqlar o'z navbatida yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlardir. Bu soliq turlari quyidagilar: yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar: korporatsiya foydasidan soliq;

korporatsiya mol-mulkiga soliq; sug'urta jamiyatlarining daromad solig'i; yuridik shaxslardan mahalliy yig'imlar va boshqa soliqlar ham undiriladi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; turar joyga soliq; kasb-hunarga soliqlar; mahalliy yig'imlar va boshqa yig'imlar. 43Chet mamlakatlar soliq tizimi.T.Toshmurotov. Soliq Akademiyasi. – 2004. 258 Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar: qurilish qilinadigan yerlarga soliq; qurilish qilinmaydigan yerlarga soliq; reklama solig'i; mahalliy yig'imlar va boshqa to'lovlar. Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlari kiradi. Bu soliqlarni tarkibi Fransiyaga taaluqli bo'lib, egri soliqlar tarkibi O'zbekiston Respublikasini egri soliqlari tarkibi bilan bir xildir. O'zbekiston Respublikasining to'g'ri soliqlar tarkibiga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqa soliqlar kiradi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i Fransiya davlatidagi fuqarolardan olinadigan daromad solig'i bo'lib, tarixiy xususiyatga ega. Fransiyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining xususiyati quyidagicha: - davlat tomonidan ijtimoiy siyosat yurgizishga ta'sir etadi; - har bir kishining daromadidan emas balki oila daromadiga nisbatan hisoblanadi. Ushbu soliqning to'lovchilari 18 yoshga to'lgan va undan kattalar hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i Fransiya davlat budjetidagi ulushi 20 % ni tashkil etadi. Daromad solig'idan tushgan mablag'larni kam ta'minlangan oilalarga, ta'lim, maorif, sport va boshqa sohalarga yo'naltiriladi. Bundan tashqari jismoniy shaxslarning daromad solig'iga aholining omonat kassalariga, ko'chmas mulkka pul qo'yishini, aksiyalar sotib olishni rag'batlantirish funksiyalari yuklatilgan. Soliq miqdori progressiv harakterga ega. Fransiyada istiqomat qiluvchilarning barchasi mamlakat ichida yoki chet elda olgan daromadlaridan daromad solig'i to'laydilar. Yil davomida olingan barcha pul tushumlari daromad deb tushuniladi. Bunga asosan quyidagilar kiradi: ish xaqi, mukofotlar, pensiya va nafaqalar, renta, harakatlanuvchi molmulkdan olingan daromad, qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan daromad, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha olingan daromad va boshqa daromadlar kiradi. Fransiya davlatida aholidan olinadigan daromad solig'i yalpi daromadga nisbatan hisob-kitob qilinadi va fuqarolar yiliga bir marta topshiriladigan deklaratsiya asosida soliq hisob-kitob qilinadi. Daromad solig'ini hisoblashda soliq to'lovchining daromadi yettita kategoriyaga bo'linadi: yollanma ish uchun mehnatga haq to'lash; yerdan olinadigan 259 daromad; aylanma mablag'lardan olinadigan daromad; qayta sotishdan olinadigan daromad; hissadorlik jamiyati hisoblanmagan korxonalarining sanoat va savdo operatsiyalaridan olingan daromad; notijorat daromadlari; qishloq xo'jaligi faoliyatidan olingan daromadlar. O'zbekiston jismoniy shaxslaridan undiriladigan soliq Fransiya jismoniy shaxslaridan olinadigan soliqqa mohiyatan o'xshab ketadi. Ularning biroz farqi stavkalaridadir. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida quyidagi guruh stavkalari belgilangan: - jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlar va boshqa daromadlarining differensial stavkalari; - jismoniy shaxslarning dividend va foizlarga stavkalar; - manbalar to'langan norezidentlarning daromadlariga stavkalar. Soliq obykti bo'lib yillik jami daromad bilan soliq qonunchiligi bo'yicha chegirilib tashlanadigan chegirmalar orasidagi farq sifatida aniqlangan miqdor soliqqa tortiladigan daromad hisoblanadi. Demak, soliqqa tortiladigan daromad – bu jami daromaddan chegirmalar va soliqqa tortilmaydigan daromadlar chiqarib tashlangan summadir. Fransiya budjetiga mol-mulkka solinadigan soliq ham katta daromad keltiradi. Mol-mulk solig'ining obykti bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi: mol-mulk, mulkiy huquq, qimmatli qog'ozlar. Mol-mulk tarkibiga binolar, inshootlar, sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari xarakterlanadi. Molmulk, chorva mollari va ko'p yillik daraxtlar kiritiladi. Ushbu soliq progressiv xarakterga ega bo'lib, tabaqalashtirilgan. Fransiyada shu narsaga alohida e'tibor berilganki daromad solig'i bilan mol-mulkka solinadigan soliqning birgalikdagi umumiy summasi jami daromadning 85 foizidan ortib ketmasligi kerak. O'zbekistonda mol-mulk solig'i Fransiyadagi mol-mulk solig'i bilan deyarli bir xil ahamiyatga ega bo'lib, ular soliq stavkalari va hisoblanishi jihatidan farq qiladi. QQSning vatani Fransiya bo'lib, 1954 yilda Lore tomonidan joriy qilingan. QQS birinchi bo'lib markaziy budjetga kelib tushadi. Uning 10 %i

esa bevosita mahalliy budjetga borib tushadi. QQSning asosan 3ta stavkasi mavjud: - pasaytirilgan stavka – turistik otellar, pansionat, korxonada tayyorlangan oziq-ovqatlar uchun, shakar, yog', sut mahsulotlari, murabbo, ximikatlar, o'g'itlarga nisbatan 2,1 % ni tashkil etadi; 260 - o'rtacha stavka – import mahsulotlariga, savdo-sotiq operatsiyalariga, gaz, elektr, issiq suvga, choy, kofe, mo'zqaymoqlar va restorandagi xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. Uning stavkasi 4-5.5 % ni tashkil etadi. - yuqori stavka - qimmatbaho toshlarga, hayvonlar terisiga, mo'ynalar, kinoapparatura, audio, video apparaturalar, avtomobillar, tamaki mahsulotlari va gugurtlarga nisbatan 18,6% qilib belgilangan. O'zbekistonda QQS tovarlarni ishlab chiqarish, sotish va O'zbekiston xududiga tovarlar import qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini budjetga ajratishni bildiradi. QQS oborotdan olinadi. QQS stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 20% li proporsional stavka qilib belgilangan. O'zbekistonda tovar, mahsulot, ko'chmas mulk, imoratlar va inshootlar qo'shilib elektrenergiya, issiqlik energiyasi, gaz, suv, bajarilgan qurilish montaj, ta'mirlash, ilmiy tekshirish, tajriba-konstruktorlik, texnologik, loyiha qidiruv, ta'mirlash va boshqa ishlarga QQS solinadi. Fransiya soliq tizimida mahalliy soliqlar ham ahamiyatli bo'lib, mahalliy idoralar 80000 dan ortiq mustaqil budjetlarni birlashtiradi. Mahalliy soliqlar va yig'imlar 4 ta asosiy guruhga bo'linadi: qurilish qilingan yerlarga solinadigan soliq - obyekt bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi: bino va inshootlar, minoralar, sanoat va tijorat maqsadlarida ishlatilishga mo'ljallangan maydonlar; qurilish qilinmaydigan yerlarga solinadigan soliq obyekt bo'lib dalalar, o'rmonlar, yaylovlar, botqoqliklar sho'r yerlar, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishni rivojlantirishga mo'ljallangan yerlar, qo'riqxonalar va boshqalar; turar joylarga soliq - obyekt turar joy egalari va ijarachilar mol-mulki; kasb-xunarga soliq - erkin kasb bilan shug'ullanadigan lekin ish haqi olmaydigan shaxslar tomonidan to'lanadi. O'zbekiston mahalliy soliqlari Fransiyalikidan bir muncha farq qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: yer solig'i, mol-mulk solig'i, transport vositalarigi benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

**AMALIY MASHG'ULOT  
MAVZULARIGA OID MATERIALLAR**

## **1-modul. Soliq huquqining asosiy tamoyillari (IV semestrning 1-3 haftalari)**

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI**

#### **1-mavzu. Soliq huquqi fanining predmeti , tizimi va uni boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

##### **Reja:**

- 1. Soliq tushunchasi va jamiyatdagi ahamiyati**
- 2. Soliq huquqi predmeti, usuli va manbalari**
- 3. Soliq huquqiy munosabatlari**

##### **1. Soliq tushunchasi va jamiyatdagi ahamiyati**

Eramizdan oldingi 140 yilda Yunon-Makedon mamlakati barham topdi. I asrning oxiridan boshlab to hozirgi eramizning IV asr o'rtalarigacha Markaziy Osiyoda Kushon podsholigi hukmronlik qildi. Bu davrda soliqlarni hisoblash va undirish tartibi haqida yetarli ma'lumot bo'lmasa ham, lekin ayrim arxeologik topilmalar soliqlar oltin bilan hisoblanishini, undagi hujjatlar soliqlarni qabul qiluvchi xazinabon lavozimi bo'lganligidan darak beradi. 651 yildan boshlab mamlakatimiz hududida arablar hukmronligi o'rnatildi. Soliqqa tortish tizimi bir muncha murakkablashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq - zakot (mol-mulkdan 2,5 foiz miqdorida) ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo'ljallangan, kambag'allar, yetimlar va yo'lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan. Bundan tashqari, quyidagi soliqlar mavjud edi, vazifa - o'lpon, 21 juzya - jon solig'i, xiroj - yer solig'i. Xiroj quyidagi shakllarda undirilgan: Misaha - ishlov beriladigan maydon birligidan qat'iy stavkalarda; Muqota - qat'iy belgilangan summada; Muqosama - hosilning muayyan ulushida (1/3 qismi). Xiroj Navro'z bayrami arafasida yig'ib olingan. Juzyani musulmon bo'lmagan fuqarolar (ozod erkaklar) to'laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, kambag'allar va qullar bu soliqni to'lashdan ozod qilingan. Juzyani hisoblashda o'ziga to'qlik darajasi hisobga olingan va soliq pul yoki natura shaklida undirilgan. Yuqoridagi soliqlardan tashqari chorvadorlardan, hunarmandlardan va savdogarlardan soliqlar olingan. Movaraunnahrda IX-X asrlarda yerlarni soliqqa tortish ular kimga tegishli ekanligiga bog'liq edi. Yerlar uch toifaga bo'lingan: Birinchi toifa yerlar - sultonga tegishli bo'lib (mulki sultoniy), bunday yer ustidan nazorat keyinchalik "Mulki devoniy" deb nomlangan devon (mahkama) amaldorlari tomonidan amalga oshirilib, ushbu toifadagi yerlar haddan tashqari ko'p edi. Bunday yerlarga asosan dehqonlar yerlari kirgan. Ikkinchi toifa yerlar - shaxsan hukmron sulolaning ayrim a'zolari, qadimiy dehqon zodagonlar, shunchaki boy dehqonlarga, sayyidlar (Muhammad (s.a.v.) payg'ambar xonadoni avlodlari), ayrim ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo'lgan xususiy mulk yerlar. Uchinchi toifa yerlar - musulmon diniy muassasalariga, ya'ni masjid, madrasa, xonaqoh maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun berilgan vaqf yerlar. Xiroj uchala toifa yerlaridan ham olingan bo'lib, ular "mulki xiroj" deb atalgan, lekin bunda oliy musulmon ruhoniylarga, avvalo sayyidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan to'liq yoki qisman ozod qilingan. X asr boshlarida Movaraunnahrda "iqta" soliq yig'ishning asosiy manbaiga aylangan. "Iqtadorlar" o'z navbatida dehqonlarning oddiy jamoatchiga aylanishiga zamin yaratdi. Yerlar muayyan muddatga "Iqtadorlar" foydasiga muayyan daromadni to'liq yoki qisman olish huquqi bilan sovg'a qilingan. "Iqta" sohiblari dehqonlardan maxsus qaror bilan belgilangan soliqlarnigina olishi mumkin edi. "Iqta"ga nafaqat yerdan, balki soliqqa tortishning boshqa obyektlaridan (tegirmon, hammom, bozordagi do'konlar) olinadigan soliqlar va daromadlar ham berilishi lozim edi. 1221 yilda O'rta Osiyoda mo'g'ullar hokimiyati o'rnatildi. Bu hududlarda soliq siyosatini olib borish maqsadida ular tomonidan qurultoyda taklif etilgan tadbirlar hayotga tatbiq

etila boshlandi va Mahmud Yalavoch boshchiligida o'lkadagi xalqlardan turli xildagi soliqlarni undirar edilar. "Kalon" solig'i dehqonlardan yig'iladigan asosiy soliq bo'lib, u hosilning o'ndan bir qismini tashkil etgan. Chorvadorlardan "ko'pchur" solig'i olingan bo'lib, uning miqdori har yuz bosh qoramoldan birga teng edi. Bundan tashqari "Yaso" qonuni bo'yicha aholidan davlat foydasiga "shulsi" deb atalgan soliq undirilgan. Ushbu soliq turining miqdori har bir otardan ikki yashar qo'y va har mingotdan bir biyani (qimiz uchun) tashkil etgan. Shuningdek, mamlakatdagi savdo yo'llarida joylashgan bekat – "yom" (jom) larning xarajatlari ham aholi zimmasiga yuklatilib, ularning miqdori shu darajada ko'payib ketar ediki, ba'zi hollarda har bir "yom" uchun 20 ot-ulov, so'yish uchun qo'ylar, sog'ish uchun sog'uvchisi bilan biyalar, aravalar va boshqa sarf-xarajatlar ajratilgan. Mo'g'ullar istilosi davrida dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi, chunki yer solig'ini to'lashdan tashqari dehqonlar turli xil majburiyatlar va xizmatlarni bajarishardi. Hunarmandlar, ayniqsa, qurol tayyorlab berish kabi majburiyatlarni olgan edi. Feodal va zadogonlarga xonzoda va xon xotinlari yorliq hamda payzalar tarqatgan, bu unvonlar dehqon va hunarmandlardan turli xizmat hamda majburiyatlarni bajarishni talab qilish huquqini bergan. Payza ko'rsatilganda mahalliy aholi, masalan sayohat qiluvchini ovqatlantirishi va unga xona, otiga em berishi va boshqa qulayliklar yaratishi shart edi. Yil sayin aholining yashash sharoiti og'irlashib borishi mamlakatning ko'p joylarida qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu qo'zg'olonlar zudlik bilan bostirilgan bo'lsada, lekin mo'g'ul hukmdori Munnexon Movaraunnahrda soliq to'lovchilar amalga oshirayotgan tartibsizliklar va suiste'molliklarga tegishli farmon chiqardi. Unga ko'ra boy kishi 10 dinor, kambag'allar esa 1 dinor to'laydigan bo'ldi. Chorva solig'i 100 tuyuqdan bir bosholinishi belgilandi. Musulmon, xristian va butparastlar ro'honiylari, shuningdek, keksa va ishlashga noqobil kishilar soliq to'lamaydigan bo'ldilar. Chig'atoy ulusida yer solig'i o'ndan bir hajmda belgilangan. Soliqlar hatto sharob, guruch, go'sht hamda ot emishi tarzida ham har bir xo'jalikdan undirilgan. Yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo'g'ullar bilan yaqinlashib, katta imtiyozlarga ega bo'lganlar, har xil yorliqlar olganlar. Oliy mansabdorlar soliq to'lamaganlar. Soliq yig'ishga mas'ul etilgan Mahmud Yalavoch qo'zg'olondan so'ng o'z lavozimidan bo'shatildi va Movaraunnahrdan haydab yuborildi. Soliq yig'uvchi va noib etib uning o'g'li Mas'udbek tayinlanib, u bu lavozimda 51 yil xizmat qildi. U mo'g'ullarga o'lpon va soliqlarni o'z vaqtida to'lab turdi. Natijada mo'g'ullar Movaraunnahrni boshqarish ishiga aralashmaganlar. Bunday holat Amir Temur hokimiyati o'rnatilguncha davom etdi.<sup>36</sup>

## **2. Soliq huquqi predmeti, usuli va manbalari**

Soliq huquqining predmeti. O'zbekiston Respublikasida amaldagi holatdan kelib chiqadigan bo'lsak, soliq huquqining mustaqil soha sifatida shakllanayotganini ko'rishimiz mumkin. *Soliq huquqi* - bu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, to'lash hamda soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir. Soliq huquqining mazmunini ochib berishda u orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi (predmeti), tartibga solish uslubi, tizimi va manbalari to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish lozimdir. Soliq huquqi ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga solib, mazkur munosabatlar uning predmetini tashkil etadi. Soliq huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarga, ya'ni predmetiga (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga tayanib) quyidagilarni kiritish mumkin: 1) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 2) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy etish bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 3) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 4) Davlat budjetiga soliqlarni to'lash bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 5) Davlat maqsadli

---

<sup>36</sup> Soliq nazariyasi: O'quv o'llanma / Mual.: Jo'raev A., Meyliev O., Safarov G'. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. – 166 b.

jamg'armalariga soliqlarni to'lash bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar; 6) soliq majburiyatlarini bajarish (javobgarlikni belgilash) bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar. Qayd etilgan barcha ijtimoiy munosabatlarda davlat organi ishtirok etadi. Bu qonuniydir, chunki soliq solish davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllaridan biridir. 37 Soliq sohasida davlat nomidan harakat qiladigan va uning xohishirodasini ifodalaydigan davlat organi (mansabdor shaxs)ning ishtirokisiz, soliq huquqi predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar bo'lishi mumkin emas. Shu sababli ikki fuqaro o'rtasida vujudga keladigan, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida shartnoma munosabatlari soliq huquqi predmetiga kirmaydi. Chunki ular tegishli huquq sohalari normalari bilan tartibga solinadi.

Soliq huquqining predmeti – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tashkil etadi.

### **3. Soliq huquqiy munosabatlari.**

Soliq solish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarga boshqa barcha huquqiy munosabatlar singari umumiy xususiyatlar xosdir. Soliq solish jarayonida turli-tuman munosabatlar vujudga kelib, turli huquq tarmoqlari bilan tartibga solinadi. Jumladan soliq solish sohasidagi aksariyat huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy, ma'muriy, moliya, bank va boshqa huquq tarmoqlarining normalari asosida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar o'rtasida soliq huquqiy munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq huquqiy munosabatlari – bu soliq huquqiy normalari asosida vujudga keladigan munosabatlardir. Soliq huquqiy munosabatlari o'zining tuzilishiga ko'ra, munosabat subyekti, obyekt va mazmuniga ega. Soliq huquqiy munosabatlarning subyekti bo'lib, unda ishtirok etuvchi tomonlar, ya'ni soliq solish jarayonida ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan (davlat organlari, mansabdor shaxslar) yoki boshqacha soliqhuquqiy maqomiga ega bo'lgan shaxslar (jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar) hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabatlarning obyekt bo'lib esa, soliq huquqi munosabatlari subyektlarining harakatlari (qarorlari), ularning ijobiy yoki salbiy xulq-atvori hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabatlarning mazmunini – soliq huquqi munosabatlari subyektlarining huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, taqiqlar, cheklovlar tashkil etadi. Soliq huquqiy munosabatlarning mazmuniga yuqoridagilardan tashqari, ularni amalga oshirish, ijro etish, ularga rioya etish va himoya qilishning protsessual-huquqiy tartibini ham kiritish mumkin. Demak, soliq huquqiy munosabatlari huquqiy munosabatlarning bir turi bo'lib, o'zining mazmuni, xususiyatlari va ishtirokchilari bilan boshqa huquqiy munosabatlardan ajralib turadi. Soliq huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari (yana bir konsepsiyaga binoan) quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: a) bu munosabatlar – soliq solish sohasida vujudga keladi; b) bu munosabatlarning majburiy subyekti bo'lib davlat nomidan ommaviy-huquqiy manfaatlarni ko'zlab harakat qiluvchi davlat organlari hisoblanadi; v) bu munosabatlar - hokimiyat-bo'ysinuvining mavjudligi hamda tomonlarning yuridik teng emasligi bilan tavsiflanadi; g) bu munosabatlar - ommaviy manfaatlarni qondirish maqsadida boshqaruv vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha vujudga keladi; d) bu munosabatlar - qonuniylikni ta'minlashning alohida huquqiy tartibi va o'zining huquqiy himoyasi bilan ajralib turadi.

*Soliq huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lish asoslari:*

Harakatlar – bu huquq subyektlari tomonidan o'z xohish-irodalarini ifodalashning natijasidir. Aksariyat soliq huquqi munosabatlari harakatlardan vujudga kelib, ular subyektning faol xulq-atvori bilan bog'liq bo'ladi. Harakatlar ikkiga bo'linadi: a) qonuniy harakatlar – hamma vaqt soliq huquqi normalari talabiga mos keladi. Bunda yuridik fakt sifatida munosabat ishtirokchilarining qonunga muvofiq harakati namoyon bo'ladi. Qonuniy harakatlar o'z navbatida ikki ko'rinishga ega: - davlat organlarining huquqiy aktlari. Huquqiy aktlar normativ yoki yakka (individul, ma'muriy) aktlarga bo'linadi. Huquqiy aktlarda qonunga muvofiq harakatlar muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga

keltirishini nazarda tutib sodir etiladi. Bunday harakatlarda – huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishiga qaratilgan iroda ifodalanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni asosida soliq maslahati sohasidagi munosabatlar yuzaga keladi. Jumladan, soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga mijozga shartnoma asosida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish borasidagi munosabatlari. “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori asosida mazkur yil uchun tasdiqlangan stavkalar asosida soliq va boshqa majburiy to‘lovlar undirib olish yuzasidan munosabatlar yuzaga keladi.

### **Topshiriq variantlari.**

- 2018 yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddasi bo‘yicha 28 ta chegirilmaydigan xarajatlardan 10 tasini chegirish imkoniyati berildi, shu 10 ta xarajat turlariga oydinlik kiritib o‘tsangiz?

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-sonli qonunning 2-moddasi 9 bandiga asosan joriy yil 1 yanvardan “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddasining 2, 4, 5, 7, 8, 16, 17, 26 va 26-1 bandlari chiqarib tashlansin” deb o‘zgartirish kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddaning 2, 4, 5, 7, 8, 16, 17, 26 va 26-1 bandlariga asosan soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga 2018 yil 1 yanvargacha quyidagilar kirar edi:

- 2) xodimlarga beriladigan yoki soliq to‘lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo‘jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha narxdagi farqlar (zararlar);
- 4) nodavlat pensiya jamg‘armalariga ajratmalar;
- 5) xo‘jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;
- 7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o‘tkazish xarajatlari;
- 8) soliq to‘lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;
- 16) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan sog‘liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;
- 17) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo‘jaligiga yordam ko‘rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;
- 26) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va davlat ulushlarini boshqarish bo‘yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to‘lashga doir xarajatlar;
- 26-1) ishlatib kelinayotgan to‘liq eskirgan asbob-uskuna uchun to‘lanadigan haq.

- Faoliyatni vaqtincha to‘xtatib turish uchun qaerga murojaat etish lozim?



O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 373-moddasiga asosan, agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshirishi lozim.

Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda topshiradi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Soliqlarning davlat hayotida tutgan o'rnini yoritib bering hamda soliq va boshqa majburiy to'lovlarning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling.
2. Soliq huquqiy munosabatlarning boshqa huquqiy munosabatlardan farq qiluvchi jihatlarini izohlang. Soliq huquqi subyekti va soliq huquqiy munosabat subyektlarini farqini tahlil qiling.
3. Sirdaryo viloyati xalq deputatlari Kengashi majlisida deputatlaridan biri viloyat fuqarolari uchun yengillik o'rnatish maqsadida jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig'ini bekor qilish to'g'risida masalani ko'rib chiqishni taklif etdi. Taklif kiritgan deputatning fikricha yer solig'i mahalliy soliq hisoblanadi va mahalliy budjetga kelib tushadi, shuning uchun bu soliq viloyatda yashovchi jismoniy shaxslar uchun bekor qilish mumkin. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

## **2- mavzu. Soliq huquqining manbalari, prinsiplari hamda ularning umumiy tavsifi**

### **Reja:**

1. Ma'muriy - huquqiy normalar tushunchasi va xususiyatlari
2. Ma'muriy - huquqiy normalarning tasnifi
3. Soliq to'g'risidagi qonun elementlarining huquqiy ahamiyati va tushunchalari
4. Davlat soliq yurisdiksiyasi predmeti

### **1. Ma'muriy - huquqiy normalar tushunchasi va xususiyatlari.**

Davlat va huquq nazariyasi faniga ko'ra, huquq – ijtimoiy munosabatlarga tahsir etuvchi vosita sifatida, doimo muayyan xulq-atvor, xatti-harakat qoidasi sifatida o'zini namoyon etadi. Har qanday huquq tarmog'ining mazmun-mohiyati va ijtimoiy yo'nalishi huquqiy normalar xususiyati bilan belgilanib, ularning yig'indisi huquq tizimi u yoki bu tarmog'ining mazmunini tashkil etadi. Huquqiy norma ("norma") so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "qoida", "namuna" mahnosini anglatadi. Har bir huquq normai o'zida biron-bir xatti-harakat, xulq-atvor, muayyan yurish-turish qoidasini ifodalaydi.

Huquqning har bir tarmog'i, shu jumladan ma'muriy huquqning normalari har qanday huquq normai uchun xos bo'lgan umumiy belgilarga, shuningdek, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Ma'muriy-huquqiy normalar – muayyan xatti-harakat qoidalaridan iborat bo'lib, davlat tomonidan belgilanadi, boshqa ijtimoiy normalardan, masalan, axloq normalaridan farqlanadi. Shu sababli, ularga rioya etish majburiy bo'lib, ular buzilgan hollarda, davlatning majburlov choralari qo'llaniladi.

Boshqa huquq tarmoqlarining normalari kabi, ma'muriy-huquqiy normalar ushbu munosabatlar subyektlarining yuridik va majburiyatlarini aniqlash, shuningdek, ular tomonidan huquqlar buzilgan va majburiyatlar bajarilmagan hollarda javobgarlikni belgilash yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ma'muriy-huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlari – ma'muriy huquq predmeti hamda huquqiy tartibga solish uslubining xususiyatlari bilan belgilanadi. Ma'muriy-huquqiy normalar – O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi boshqa tarmoqlarining normalaridan farqli ravishda, maxsus qo'llanish sohasiga ega bo'lib, bu davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlardir. Shu sababli, ma'muriy-huquqiy normalarning mazmunini davlat boshqaruvi jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan xatti-harakatlar doirasi tashkil etadi. Ular yordamida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, jamoat tashkilotlari va jismoniy shaxslarning davlat boshqaruvi sohasida qachon va qanday tartibda harakat qilganlarida qonunchilik talablari aniq va maqsadga muvofiq bo'lishi belgilanadi. Shu bilan birga, ma'muriy-huquqiy normalarda qanday harakatlarni amalga oshirish mumkin va qaysilaridan o'zini tiyish kerakligi ko'rsatiladi.

Ma'muriy huquq normalarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatning birorta holatiga ko'rsatma beriladi yoki unga belgilangan shart-sharoitlarda rioya etilganida ruxsat beriladi va nihoyat, muayyan harakatlarni amalga oshirish man etiladi

## **2. Ma'muriy-huquqiy normalarning tasnifi.**

Ma'muriy-huquqiy normalar o'zining tartibga solish yo'nalishi va unga muvofiq holda yuridik mazmuni bilan nihoyatda xilma-xildir. Shu sababli davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ma'muriy-huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun ularni tasniflash katta ahamiyatga egadir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy normalarning turlicha tasnifi mavjud bo'lib, ularning ayrimlari to'la ravishda asoslantirilmagan. Masalan, huquq tarmog'i tomonidan bajariladigan funktsiyalarga qarab huquqiy normalar tartibga soluvchi va muhofaza etuvchi normalarga ajratiladi. Huquqiy normalarni huquqiy tartibga solish jarayonida qanday faoliyatni bajarishiga qarab, yahni ularni ixtisoslashuvi bo'yicha tasniflash ham jiddiy ehtirozlarga sabab bo'ladi. Ushbu tasnif bo'yicha, masalan, definitsiya-normalar va printsip-normalar farqlanadi. Ushbu tasnif huquq normaning asl mazmun-mohiyati bilan bog'liq bo'lgan obektiv reallikni aks ettirmaydi.

Aksariyat huquqshunos olimlari ma'muriy-huquqiy normalarni ikki guruhga: moddiy va protsessual normalarga bo'ladi. Bunday tasniflash mezonini sifatida ayrim hollarda ma'muriy-huquqiy normalar mazmuni, boshqa hollarda esa, ma'muriy-huquqiy tartibga solish predmetining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Moddiy ma'muriy-huquqiy normalar - davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hajmi va mazmunini, shuningdek, ularning javobgarligini belgilaydi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga binoan "Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi". Mazkur norma moddiy huquqiy norma bo'lib, O'zR Vazirlar Mahkamasining vakolatini belgilab bergan.

Protsessual ma'muriy-huquqiy normalar - tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari uchun moddiy ma'muriy-huquqiy normalarda nazarda tutilgan, davlat boshqaruvi sohasidagi yuridik huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Boshqacha aytganda, ular davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha faoliyat tartibini belgilaydi va amaldagi qonunchilik bilan belgilangan ushbu faoliyatdagi jarayon qoidalariga rioya etilishini talab qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 22-moddasiga binoan "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning strukturasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi". Ushbu norma mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari va majburiyatlarini bevosita amalga oshirishga ko'maklashuvchi protsessual huquqiy norma hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining boshqa tarmoqlaridan farqli ravishda, ma'muriy huquqda, odatda, moddiy va protsessual normalar yagona manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi moddiy va protsessual normalar yagona qonun hujjatida – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida o'z ifodasini topgan.

### **3. Soliq to'g'risidagi qonun elementlarining huquqiy ahamiyati va tushunchalari.**

Endi «soliq tizimini huquqiy tartibga solish» tushunchasining o'zini ko'rib chiqamiz. Soliq tizimini huquqiy tartibga solish – soliq munosabatlarini tartibga solishni shunday shaklidirki, uning vositasida ular ishtirokchilarining xatti-harakatlari, ya'ni soliq huquqiy sohadagi qonun me'yorlarini ko'zda tutilgan talablariga majburiy talablari va huquqqa yo'l qo'yishlari ko'rinishida namoyon bo'ladigan davlat idorasi o'z ifodasini topadigan o'z huquqi va majburiyatlarining soliq huquqi sub'ektlari tomonidan bajarilishiga muvofiqlashtirdi. Soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solish o'z ichiga huquq me'yorlari, huquqiy munosabatlar, yuridik ma'suliyat, huquqiy ong va boshqa shu kabi tarkibiy unsurlarni oladi. Soliq huquqi sub'ektlari davlat idorasining talablari va yo'l qo'yishlariga munosabat bildiradi, ya'ni ularning ijobiy munosabati belgilangan huquq-tartibotga muvofiq keladigan huquqiy xatti-harakatlarni hosil etadi. Salbiy munosabat esa huquqiga zid bo'lgan xatti-harakatni, ya'ni huquqbuzarliklarni hosil etadi. 1992 yil 8 dekabrda, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasi soliq qonunchiligi uchun yuridik baza bo'lib hisoblanib, unda shunday deyilgan: «fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburlar»; uning 123-moddasida bunday deb ta'kidlanadi: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi».

Respublikamizda soliq tizimini huquqiy tartibga solishda taraflarning huquq va burchlari bobida bir tomondan soliq to'lovchi va ikkinchi tomondan soliq idoralari o'zaro munosabatlari tizimiga alohida e'tibor berilgan. Zero soliq munosabatlarining u yoki bu ishtirokchilarining huquq va burchlarini e'lon qilish hamda yozib qo'yishning o'zi yetarli emas, balki barcha munosabatlar kafolatlanishi, burchlarini bajarish esa huquqqa zid xatti-harakatlarning oldini olish bilan ta'minlanishi ham zarurdir.

Soliq munosabatlarining har bir ishtirokchisi o'z burchlariga nimalar kirishini va u yoki bu harakatlarni qilganda qanday huquqlarga ega bo'lishini, muayyan holatlarda kiritilgan va ishlay boshlaydigan vositalar hamda rasm-qoidalar qandayligini bilish soliq to'lovchi o'z burchini bajarmagan yoki nohalol bajarganda soliq idoralari u yoki bu sanksiyalarni, ya'ni ta'sir ko'rsatishning muayyan usullarini, misol uchun bank hisobvaraqlari

bo'yicha hisob - kitob operatsiyalarini to'xtatib qo'yish mablag'larni to'lovchining hisob varaqlaridan so'zsiz hisobdan chiqarish va boshqa usullarni qo'llashi mumkin bo'lgan hollarda juda muhimdir

Soliq tizimi muvaffaqiyatli ishlashi uchun soliq qonunchiligining aniq tartibini ishlab chiqish hamda belgilash zarur. Uning hujjat va me'yorlari soliqni tartibga solishning barcha zarur unsurlarini o'z ichiga olishi kerak. Bunda bosh omillar - soliq huquqiy munosabatlari muayyan sohasining to'liq yuridik boshqarilishi va soliq amallarining batafsil tartibga solinishi hamda ular mazmunini ta'minlashdir.

#### **4. Davlat soliq yurisdiksiyasi predmeti.**

Qonuniylik jamiyat normal faoliyatining asosi, mustaqil davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishning zarur sharti va g'oyat muhim shartdir. Uning yashashi xuddi ana shunga bog'liq, qonuniylikning jamiyat hayotidagi real roli xuddi ana shundan iborat. U ijtimoiy munosabatdagi barcha ishtirokchilarning harakat birligini, intizom va huquqiy tartibni ta'minlaydiki, bularsiz iqtisodiyotni shakllantirish va mustahkamlashni tasavvur etib bulmaydi.

Demokratizm qoidalarini (mansabdor shaxslarning xalq, tomonidan nazorat qilinishini va h.k.) buzish qonunsizlik va o'zboshimchalikka, fuqarolarning demokratik huquqbuzarlari kamsitilishiga ularning tashabbuskorligi va faolligi pasayishiga olib keladi. Lekin chinakam xalq, hokimiyatini qonunlarning fuqarolar, ularning tashkilotlari va birlashmalari tomonidan bir xil tushunilishi va og'ishmay bajarilishini ham tasavvur etib bo'lmaydi. Demokratiasiz qonuniylik yuq, lekin qonunsizlik demokratiya ham yo'q.

Qonuniylikni mustahkamlashning asosiy maxsus vositalari ishontirish, oldini olish, qonunni buzuvchilarga bevosita jamoat ta'siri ko'rsatish, qonuniylikning yuridik kafolatlarini takomillashtirishchdan iboratdir. Qonuniylikni buzishlarga qarshi kurashda huquq, talablarini bajarishga davlat tomonidan majbur qilishdan ham zarur darajada foydalaniladi.

Yuridik javobgarlik - bu talablarning eng asosiy ifodasidir. U tartibbuzarlarga nisbatan qonuniy huquqiy sanksiyalarni qo'llashdan iboratdir. Jinoiy javobgarlik (jinoiyat sodir etganlik uchun), ma'muriy, intizomiy va fuqaroviy-huquqiy javobgarlik (ma'muriy huquqbuzarlik uchun, xizmatda yoki ishda intizomiy nojo'ya harakat, fuqarolik huquqbuzarligi) farqlanadi.

.Yuridik javobgarlik-murakkab huquqiy hodisa bo'lib uning mohiyati tushunchasi va mazmuni haqida huquq fanida uzoq va jo'shqin bahslar bormoqda. Ushbu bahslarning mohiyatiga chuqurlashmagan holda yuridik javobgarlik - jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqiy norma sanksiyasida nazarda tutilgan huquqbu-zarlikni sodir etganlik uchun muayyan shaxsiy yoki mulkiy nomaqbul oqibatlarini boshdan kechirishga majburligidir.

Huquqshunoslikda huquqning biron-bir sohasiga mansubligiga qarab, yuridik javobgarlikning quyidagi turlarini farqlash odat bo'lgan: a) intizomiy javobgarlik, b) yollanma mehnat kishilarining moddiy javobgarligi; v) ma'muriy; g) jinoiy; d) fuqaroviy-huquqiy javobgarlik.

#### **Topshiriq variantlari.**

- Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 2 sentyabrdagi 413-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish jismoniy shaxs yashaydigan joy bo'yicha davlat soliq inspeksiyasida shaxsan kelib yoki Internet tarmog'i orqali amalga oshiriladi.

- Oilaviy tadbirkorlik sub'ekti ishtirokchisi tarkibdan chiqqanda nima qilish kerak?

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilgan oilaviy tadbirkorlik sub'ekti ishtirokchilari tarkibida o'zgarishlar bo'lgan taqdirda, oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi ro'yxatdan o'tkazuvchi organni o'n kun muddatda bu haqda xabardor qiladi va ro'yxatga oluvchi organ tomonidan davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi yangi guvohnoma berilib, tadbirkor tomonidan eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida to'lov to'lanadi.

## Nazorat uchun savollar

1. 14 yoshli K.Rahimov Uspenskiy nomidagi Respublika musiqa maktabida o'qiydi. Yaqinda u Drezden shahrida yosh pianinotchilar o'rtasida o'tkazilgan konkursda 1-o'rinni egalladi va 5 000 yevro miqdoridagi mukofotni qo'lga kiritdi. Toshkent shahriga kelganidan so'ng K.Rahimov Mirobod tumani soliq inspeksiyasiga shaxsan kelishi va yuqorida ko'rsatilgan daromaddan soliq to'lashi kerakligi to'g'risida xabarnoma oldi. K.Rahimovning ota-onasi ularning farzandi voyaga yetmagan ekanligini aytib u moliyaviy munosabatlar subyektini bo'la olmasligi va shuning uchun daromad solig'i to'lashi zarur emasligini aytishdi. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

### 3 – Mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi, ularning mohiyati hamda o'iga xos xususiyatlari

#### Reja:

1. Soliqlarning yuridik mohiyati
2. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar
3. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar

#### 1. Soliqlarning yuridik mohiyati

Soliq to'lovlarining beg'arazliligi shuni anglatadiki, soliqlar shaklida budjetga kiritiladigan pul mablag'lari maqsadli yo'nalishga ega emas. Ular yuridik va jismoniy shaxslardan davlat mulkiga beg'araz o'tkaziladi hamda davlat tomonidan iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, mudofaani moliyalashtirish, davlat apparatini saqlash uchun yo'naltiriladi. Davlat soliq to'lovchilarga ular tomonidan budjetga kiritilgan mablag'lar uchun hech qanday bevosita kompensatsiyalarni bermaydi, ya'ni soliq to'lovchi davlatga soliq to'laganda to'g'ridan-to'g'ri hech qanday manfaat kutmaydi. Ammo soliq to'lovlarining beg'arazlilik xususiyati davlat soliqlarni olib, ularni to'lovchilarga muayyan moddiy ne'matlarni bermaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Soliqlar boshqa shaklda insonlarni o'zlariga qaytariladi. Masalan, bepul ta'lim olish, tibbiy xizmat ko'rsatish, pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy ta'minlash va h.k. uchun mablag'lar asosan davlat budjetining soliqlar hisobidan shakllantiriladigan daromad qismidan ajratiladi. Har bir soliq

to'lovchi uchun davlatga to'lanadigan soliqlar hajmi bilan undan olinadigan moddiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri, ko'zga ko'rinadigan aloqaning yo'qligi uning soliqqa go'yoki zimmasiga tushadigan bir yuk sifatida qarashi uchun sabab bo'ladi, zeroki soliq to'lovchilar ushbu mablag'lar hisobidan moliyalanadigan davlat harajatlari yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin. Ayrim to'lovchilarning soliq to'lashdan qochishi, o'z daromadlarini kamaytirib ko'rsatishga intilishi mana shundandir. Soliq yuridik mohiyatining majburiylik xususiyati shundan iboratki, soliq to'lovchilar qonun kuchi bilan muayyan shart-sharoitlarda soliqlarni to'lashi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga muvofiq soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyat konstitutsiyaviydir. Soliqlar majburiyati hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tegishli organlar orqali davlat kuchi bilan ta'minlanadi va shu sababli soliqlarni to'lash ixtiyoriy emas, balki majburiylik xususiyatiga ega. Pol Mari Godmening fikriga ko'ra, "soliq tushunchasida majburiylik elementi shunchalik buyukki, bu majburiylik xususiyatiga ega bo'lmagan tushumlarning soliq sohasidan istisno etilishiga olib keladi". Ayrim mamlakatlarning hozirgi zamon soliq tizimida qonun kuchi bilan majburiy bo'lmagan soliqlar ham mavjud bo'lib, bu - cherkov solig'i hisoblanadi. Ularni ijro etish diniy me'yorlar bilan ta'minlanadi. Masalan, musulmon davlatlari (Yaman, Saudiya Arabistoni, Pokiston va boshqalar) da davlat dini yetarlicha rivojlangan bo'lib, davlat tomonidan sanksiyalangan diniy soliq me'yorlari umumdavlat me'yorlari bo'lib qolmoqda. Xususan, bunday to'lovlardan bo'lgan islom soliqlari (zakot, zakot al fitr, ushr) Qur'onga muvofiq ravishda undirib olinadi va ular chet ellardagi musulmon jamoalarini qo'llab-quvvatlash, kam ta'minlanganlarga yordam berish va boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi.<sup>37</sup> Soliqlarning muhim yuridik belgisi ularni belgilash va joriy etish tartibi hisoblanadi. Soliqlarni belgilash hamda ularni undirib olish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan qonunchilikda nazarda tutilmagan har qanday majburiy to'lovlar soliq hisoblanishi mumkin emas. Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi yana bir belgisi shundan iboratki, ularni to'lash orqali oldindan qonunchilikda belgilangan tartibda daromadning bir qismi davlat foydasiga undirib olinadi. Davlat davlatning budjet tizimi daromad qismiga o'tkaziladigan soliqlar miqdori va ularni to'lash muddatlarini belgilaydi, qonunda belgilangan ko'rsatmalarni buzgan soliq munosabatlari subyektlariga nisbatan javobgarlik choralari qo'llaydi.

## **2. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 305-315-moddalari)**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy ta'minotga muhtoj bo'lganda, ya'ni pensiya yoshiga etganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisin yo'qotgan hollarda ijtimoiy yordam olish olish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda 1993 yil 3 sentabrda qabul kilgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida"gi Qonunida belgilab berilgan. Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritiladigan bo'ldi hamda Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash tartibi buzilganligi

<sup>37</sup> А.Козырин Налоговое право зарубежных стран: вопросы теории и практики.-М.: Манускрипт, 1993.-20- стр.

uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llanilishi, shu jumladan to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yildi. Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag'lar to'plash tartib qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrda "Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 498-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 2004 yilgacha amalga oshirilib keldi. Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qarori bilan budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni hisoblash va to'lash tartiblarini soddalashtirish maqsadida, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamg'armasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiy to'lov nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. Hozirgi kunda mazkur jamg'arma faoliyati, daromad manbanlarini shakllantirish va Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish tartibi 2010 yil 19 fevralda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

### **3. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 316-325-moddalari)**

2007 yil 2 oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq yo'llarni moliyalashtirishga doir ishlar (umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarni loyihalash, qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash) yo'l jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2003 yil 19 avgustda PF-3292-son Farmoniga binoan tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi maxsus normativ hujjat bilan tartibga solinadi. Respublika yo'l jamg'armasiga ikki turdagi majburiy to'lovlar undiriladi. Bular, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hamda Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlardir. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar (316-319- moddalar). Soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

#### **Topshiriq variantlari.**

- Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishning tartibi qanday?

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 311-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zolar oyiga eng kam ish haqidani kam bo'lmagan miqdorda, oilaning boshqa a'zolari esa eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida sug'urta badallarini to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolarining sug'urta badallarini to'lash majburiyati oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining zimmasiga yuklatiladi.

Shuningdek, ushbu Kodeksning 370-moddasiga muvofiq, yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosigina qat'iy belgilangan soliqning to'lovchisi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, tadbirkorlik faoliyati oilaviy tadbirkorlik sub'ekti tomonidan bir nechta ob'ektlarda alohida amalga oshirilgan taqdirda, har bir alohida ob'ekt uchun qat'iy belgilangan soliq hisoblanadi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qiling.
2. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar elementlarining ahamiyatini yoriting. Soliq imtiyozini boshqa elementlardan farqli jihatlarni tahlil qiling.
3. Talaba A.Ergashev "Soliq huquqi" fanidan bo'lgan seminarida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini umumdavlat solig'i va ushbu soliqning summasi to'raligicha respublika budjetiga tushishini aytib o'tdi. A. Ergashevning javobiga o'zingizni fikringizni bildiring.
4. Toshkent shahri Yunusobod tumanida joylashgan "Investor" yog'- moy ishlab chiqaruvchi korxonada tashkil etildi. Mazkur korxonada tashkil etishi va faoliyat yuritishi uchun qanday soliq va majburiy to'lovlarni to'lashi lozim? Javobingizni tegishli qonunchilik hujjatlariga asoslantirgan holda bering.

### **4-mavzu. Soliqqa oid huquqiy munosabatlar hamda soliq to'lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlari**

- 1. Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari**
- 2. Soliq majburiyati tushunchasi va amalga oshirish tartibi**

**1. Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari .** Yuridik adabiyotlarda huquq subyektlari bo'yicha turlicha fikrlar bildirilgan. Aksariyat huquqshunos olimlarining fikricha, soliq huquqi subyektlari ikkiga bo'linadi: individual subyektlar va jamoa subyektlar. Individual subyektlar – bu fuqarolar, xorijiy davlatning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, davlat xizmatchilaridir. Jamoa subyektlariga – turli ko'rinishdagi davlat va nodavlat tashkilotlari kiradi. Birinchi guruhga - davlat organlari kirsam, ikkinchi guruhga esa tijorat va notijorat tuzilmalar kiradi. Ko'pgina yuridik adabiyotlarda soliq huquqining subyektlari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: a) davlat organlari (mansabdor shaxslar); b) soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) Soliq huquqi subyekti hamma vaqt huquq subyekti hisoblanadi. Huquqning subyektlari bir vaqtning o'zida bir necha huquq munosabat subyekti sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, fuqaro bir vaqtning o'zida ma'lum bir daromadga ega bo'lib soliq, davlat boshqaruv organlari bilan munosabatga kirishib ma'muriy, fuqarolik shartnomalar tuzish orqali fuqarolik yoki ma'lum bir tashkilotda ishlab mehnat huquqi tomonidan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar subyekti bo'lishi mumkin. Soliq huquqiy munosabatlarning mohiyati – huquq layoqati tushunchasi, uning xususiyati, mazmuni va hajmi orqali yoritib beriladi. Soliq huquq layoqati va muomala layoqati – subyektlar soliqhuquqiy holatining asosini tashkil etadi. Subyektning huquq layoqati uning yuridik huquq va majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Odatda, u aniq bir shaxsning subyektiv huquq va subyektiv majburiyatga ega bo'lish qobiliyatini anglatadi.

### **2. Soliq majburiyati tushunchasi va amalga oshirish tartibi.**



Amaldagi qonunchiligimizda soliq to'lovchining majburiyati va soliq majburiyati kabi tushunchalar mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi; qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi; davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi; soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi; davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart. Yuqorida ko'rinib turibdiki, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish – bu soliq to'lovchining majburiyati hisoblanadi. Soliq majburiyati – soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatidir.

### **Topshiriq variantlari.**

*O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 18-moddasi*

- Oilaviy korxonada qanday tadbirkorlik sub'ekti hisoblanadi?

Oilaviy korxonada uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonada ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonada ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir.

«Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 4-modda.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida yettita budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga shulardan faqat uchasi kiritilgan. Bu jamg'armalarning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling.
2. “Baraka” MCHJ xodimi B.Ismoilov 50 yoshga to'ldi va o'z yubileyini nishonlashni rejalashtirdi. U firma direktoriga tug'ilgan kunini ishda nishonlash uchun 300 000 so'm ajratishni so'rab murojaat qildi. Firma direktori Ismoilovga tug'ilgan kuni munosabati bilan 300 000 so'm pul mablag'i ajratish to'g'risida farmoyish berdi. Ismoilovga tug'ilgan kuni munosabati bilan 300 000 so'm pul mablag'i berish to'g'risida buyruq rasmiylashtirildi. Pul mablag'ini berishdan oldin bosh buxgalter Ismoilovni ushbu pul mablag'laridan jismoniy shaxslardan olinadigan soliq Yagona ijtimoiy to'lov hamda sug'urta badali ushlab qolinayotganligi to'g'risida ogohlantirdi. B.Ismoilov bunga o'z e'tirozini bildirib, ushbu mablag' bayram tantanasini nishonlashga sarflanishini hamda u soliqqa tortilmasligini ta'kidlaydi. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

### **5- Mavzu. Soliq tizimini boshqarishdagi davlatning vakolatli o'rganlari**

#### **Reja:**

1. **Davlat boshqaruv organi tushunchasi va uning huquqiy holati. Davlat organlari tizimida davlat boshqaruv organlarini tutgan o'rni.**

**2. Davlat boshqaruv organlarining tizimi. Davlat boshqaruvining markaziy va mahalliy organlari.**

**3. Soliq tizimini boshqarish tushunchasi, soliq sohasini boshqarishdagi vakolatli davlat organlar va ularning vazifalari**

**1. Davlat boshqaruv organi tushunchasi va uning huquqiy holati. Davlat organlari tizimida davlat boshqaruv organlarini tutgan o‘rni.**

Davlat mexanizmining boshlang‘ich va asosiy tarkibiy elementlaridan biri – bu davlat organlaridir. Davlat organlari - davlat funksiyalarini amalga oshiradigan va hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan davlat mexanizmining bo‘g‘inidir.

Davlat va huquq nazariyasi faniga ko‘ra, davlat organlarining mazmun-mohiyatini ochib beruvchi xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

1) davlat organi – davlat mexanizmining bir bo‘lagi sifatida, ma'lum bir mustaqillikka (avtonomiyaga) egadir. Davlat organlari davlat mexanizmida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, uning boshqa qismlari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi;

2) davlat organi – turli munosabatlarda davlat nomidan harakat qiluvchi xizmatchilardan iborat bo‘ladi. Aynan davlat xizmatchilarining harakatlarida u yoki bu davlat organining faoliyati namoyon bo‘ladi;

3) davlat organlari ichki tarkibiy tuzilmaga egadir, ya'ni ular yagona maqsad atrofida birlashgan bo‘linmalardan iborat bo‘ladi;

4) davlat organlari ma'lum bir hajm va mohiyatga ega bo‘lgan davlat-hokimiyat vakolatiga egadir;

5) davlat organlarining funksiyalanishini – davlat tomonidan moliyaviy mablag‘ ajratish orqali tahminlanadi;

6) davlat organlari – davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish uchun, ma'lum bir shakl va uslublardan foydalanadi.

Davlat organi o‘zining mohiyatiga ko‘ra qandaydir tashkilotni, fuqarolarning jamoasini anglatadi. Bunday fuqarolarning jamoasi davlat faoliyatining u yoki bu turini amalga oshirish uchun davlat tomonidan tashkil etiladi.

Davlat o‘z organlarini bevosita tashkil etadi yoki ularni tashkil etish tartibini belgilaydi, ularning funksiyalanishining asosiy qoidalarini o‘rnatadi, davlat nomidan va davlat manfaatini ko‘zlab harakat qilishi uchun ularga ma'lum bir vakolatlarni berib qo‘yadi.

**2. Davlat boshqaruv organlarining tizimi. Davlat boshqaruvining markaziy va mahalliy organlari**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 8-bandiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini tahminlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi.

Har bir davlatda, uning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirilishini tashkil etilishiga qarab, vazirliklar va davlat qo‘mitalarining turlari belgilanadi.

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo‘yish, shuningdek, respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2003 yil 9 dekabrda “Respublika davlat boshqaruvi

organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga binoan, respublika davlat boshqaruvi organlariga – vazirliklar, davlat qo'mitalari, qo'mitalar, agentliklar, shuningdek, ular huzurida va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari kiradi.

### **3.Soliq tizimini boshqarish tushunchasi, soliq sohasini boshqarishdagi vakolatli davlat organlar va ularning vazifalari**

Davlat soliq xizmati organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega, yahni: Soliq to'lovchilarning (shu jumladan, soliq to'lovchi bilan bog'liq bo'lgan subhektlarning) moliyaviy hujjatlari, shartnomalari (kontrakt-lari) rejalari, smetalari, daromadlar haqidagi deklaratsiyalari va soliqlarni hisobdan chiqarish hamda to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlarini tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur tushuntirishlar, ma'lumotlar va axborotlar olish; yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to'lovchilarning faoliyatiga taalluqli axborotlar, ma'lumotnomalar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

Belgilangan tartibda: soliq to'g'risidagi qonun xujjatlarning buzilishiga yo'l qo'yayotgan yuridik va jismoniy shaxslardan daromadni (foydani) va soliqqa tortiladigan boshqa obyektlar yashirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni, shuningdek huquqbuzarlik predmetlarini olib quyish: Tadbirkorlik bilan shug'ullanish tartibini buzayotgan jismoniy shaxslardan litsenziyalarini, patentlari yoki ro'yxatdano'tganlik to'g'risidagi guvoqnomalarini olib qo'yib, so'ngra qonun buzilganligiga doir materiallarni mazkur faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat bergan organlarga topshirish;

Kassalarni va tovar moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni muqrlab qo'yish, tovarlar, buyumlar, xom ashyo materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning namunalarini, shuningdek xuj-jatlarni olib qo'yish va ularni tekshirishga, tadqiq qilishga va ekspertizaga yuborish; Savdo qoidalariga tovarlarni berish va xizmat ko'rsatish qoida-lariga rioya qilinishini tekshirish; Yuridik va jismoniy shaxslarning qaerda joylashganligidan qat'iy nazar, daromad (foйда) olish uchun foydalanadigan yoxud soliqqa tortish obyektlarini saqlab turish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish binolari, omborxonalar, savdo va boshqa binolarni hamda joylarni (shu jumladan, aloqida rejimdagi korxonalarini) tekshirish bajarilgan isharni, ko'rsatilgan xizmatlarni tekshiruv tariqasida o'lchash va tovar moddiy boyliklarni ro'yxat qilish.

#### **Topshiriq variantlari.**

- Doimiy yashash joyidan boshqa joyda faoliyat amalga oshirilganda qat'iy belgilangan soliq qaysi stavka bo'yicha hisoblanadi?

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 375-moddasiga muvofiq, agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

- Hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga nisbatan qanday imtiyoz belgilangan?

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF- 4210-sonli farmoniga asosan uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini ishlab chiqarish bo'yicha «Hunarmand» uyushmasi a'zolari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2017 yilning 1 yanvarigacha qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ozod etilgan.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Mahalliy yig'implarning mahalliy budjetni shakllantirishdagi rolini izohlang.
2. "Imkon" MCHJ xodimi B.Salimov kasal bo'lib qoldi va u shifoxonaga yotishga majbur bo'ldi. Biroq davolanish unga qimmatga tushdi va u firmaga davolanishning asosiy qismini to'lash haqida firmaga murojaat qildi. B.Salimovning arizasi asosida "Imkon" MCHJ davolanish muassasasining hisob raqamiga 700 000 so'm miqdorida pul mablag'ini 197 o'tkazib berdi. Hisobchi yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badalini ushlab qolmadi va daromad solig'ini ushlab qoldi. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

## **6 – Mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi**

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

### **1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 167-196-moddalari)**

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida budjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir. Soliq to'lovchi. Soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilardir. Soliq solish obyekti. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari; O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti bo'lmaydi. Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi. Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi: - mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar; - mulkiy daromadlar; - moddiy naf tarzidagi daromadlar; - boshqa daromadlar. Soliq stavkasi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ko'pgina mamlakatlardagi singari O'zbekistonda ham progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o'rnatilgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. Har yili belgilangan stavkalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

**2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 272-277-moddalari).** Soliq to'lovchilar – mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir. Soliq solish obyekti – O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar. Soliq solinadigan baza – ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan

taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Soliq stavkasi – Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

### **3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (O'R Soliq kodeksining 287-294-moddalari).**

Soliq to'lovchilar – mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklaridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi. Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi. Soliq solish obyekti – dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari; yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari; jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari; xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar; meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari; qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari; tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari. Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalaridan tashqari ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyekti bo'lmaydi.

#### **Topshiriq variantlari.**

- Kimlar oilaviy tadbirkorlik sub'ektining oila a'zolari bo'lib hisoblanadi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, er-xotin, ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar hamda 15 yoshdan oshgan, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalar oilaviy tadbirkorlik sub'ektining oila a'zolari hisoblanadi.

- Yakka tartibdagi tadbirkor soliq hisobotlarini taqdim etadimi?

Ha, taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 374-moddasiga asosan, yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

## Nazorat uchun savollar

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan hamda savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
2. Fuqaro A. Ismailov 2013 yil yanvar oyidan boshlab "Yakkatut" mahalla guzarida tandirda somsa yopib uni sotish bilan shug'ullanar edi. O'zining ushbu faoliyatidan kuniga o'rtacha 70 000 so'm pul topar edi. Shu vaqtga qadar uning bu faoliyati bilan davlat organlari ham qiziqmagan edi. Ammo 2013 yil sentabr oyida tuman davlat soliq inspeksiyasi xodimlari unga yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi va shundagina ushbu faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin ekanini ta'kidlashdi. Agar 30 kunlik muddat ichida davlat ro'yxatidan o'tmaydigan bo'lsa, unga 1 yillik qat'iy belgilangan soliq summasida jarima qo'llanishi to'g'risida ogohlantirishdi. Vaziyatga huquqiy baho bering.

**1-masala:** Jismoniy shaxsning egaligida 2 ta kvartira mavjud, ya'ni birinchisi 2 xonali bo'lib umumiy maydoni 54 kv.m.ni va mulk qiymati 10 000 000 so'mni hamda ikkinchisi 4 xonali bo'lib umumiy maydoni 100 kv.m.ni va mulk qiymati 20 000 000 so'mni tashkil etadi. 2017 yil uchun ushbu mulklarga mol-mulk solig'ini hisoblang.

**Javob:** Ushbu holatda 2017 yil uchun 2 xonali kvartira uchun 170 000 so'm (10 000 000 so'm\* 1,7 %) va 4 xonali kvartira uchun 340 000 so'm (20 000 000 so'm\* 1,7 %) mol-mulk solig'i hisoblanadi.

## 2-modul. Soliq huquqining amaliy holati (IV semestrning 4-6 haftalari)

### 7 – Mavzu. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi

#### Reja:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
2. Qo'shilgan qiymat solig'i
3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i
4. Boshqa soliqlarning huquqiy tavsifi

### 1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 126-166-moddalari)

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o'rniga daromad solig'ini joriy etish zarurati paydo bo'ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar "Daromad" solig'ini to'lashga o'tdilar. O'zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig'ini olishga o'tish pul qadrsizlanishi tufayli ish xaqi o'sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo'ldi.

Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum xajmi kamaygani holda, ular o'z ishlab chiqarishlari yo'nalishini o'zgartirishga, foyda olmasalar ham juda kata miqdorda ishchilarga ish xaqi to'lashga majbur bo'ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada daromad solig'ini ish haqi fondidan belgilangan stavkada to'lashga majbur edilar. 1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun daromad solig'i va yalpi daromad solig'i tartibi saqlab qolindi (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, kino-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko'ngil ochar o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar). O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibiga kiritilib, u davlat daromadining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Soliq to'lovchi – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromatlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari. Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi); soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar mazkur soliq turi bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanmaydi.

## **2. Qo'shilgan qiymat solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 197-228-moddalari)**

1) Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlabchiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi. Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

## **3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'I (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 278-286-moddalari).**

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijara berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijara olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi. Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar. Soliq to'lovchilar – mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlardir. Ko'chmas mulk ijara berilgan taqdirda, ijara beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi. Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

## **4. Boshqa soliqlarning huquqiy tavsifi**

*Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq* (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 301-304 -moddalari)

Soliq to'lovchilar – transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar oxirgi iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobillarga yoqilg'i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi; oxirgi iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. 165 Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza. Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish soliq solish obyektidir. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holdagi realizatsiya qilingan va o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi soliq solinadigan bazadir. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

### Topshiriq variantlari

- 2018 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddasi bo'yicha 28 ta chegirilmaydigan xarajatlardan 10 tasini chegirish imkoniyati berildi, shu 10 ta xarajat turlariga oydinlik kiritib o'ting.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-454-sonli qonunning 2-moddasi 9 bandiga asosan joriy yil 1 yanvardan "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddasining 2, 4, 5, 7, 8, 16, 17, 26 va 26-1 bandlari chiqarib tashlansin" deb o'zgartirish kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddaning 2, 4, 5, 7, 8, 16, 17, 26 va 26-1 bandlariga asosan soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga 2018 yil 1 yanvargacha quyidagilar kirar edi:

- 2) xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);
- 4) nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;
- 5) xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;
- 7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;
- 8) soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;
- 16) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;
- 17) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;
- 26) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar;
- 26-1) ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskuna uchun to'lanadigan haq.

- Faoliyatni vaqtincha to'xtatib turish uchun qaerga murojaat etish lozim?

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 373-moddasiga asosan, agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik



sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshirishi lozim. Bunda xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga har bir yollangan xodim uchun belgilangan tartibda berilgan hisobga olish kartochkalarini ham belgilangan muddatlarda topshiradi.

**1- masala:** «B» korxonada oddiy xodim bo'lib ishlaydigan II guruh nogironinig bir oylik ish haqi 1 000 000 so'mni tashkil etadi. Bu jismoniy shaxsga qanday tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinishini hisoblab ko'rsating.

**Javob:** Agar, jismoniy shaxs pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasini korxonada buxgalteriyasiga taqdim etsa, har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida, ya'ni 688 960 so'mga ( $172\,240 \text{ so'm} \cdot 4$ ) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi, qolgan 311 040 so'miga ( $1\,000\,000 \text{ so'm} - 688\,960 \text{ so'm}$ ) belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi. Xususan, 311 040 so'mning  $172\,240 \text{ so'm}$  gacha "0" foiz miqdorida va  $138\,800 \text{ so'm}$  gacha ( $311\,040 \text{ so'm} - 172\,240 \text{ so'm}$ ) 7,5 foiz miqdorida  $10\,410 \text{ so'm}$  ( $138\,800 \text{ so'm} \cdot 7,5\%$ ) miqdorida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi, ya'ni 1 000 000 so'm ish haqidagi 10 410 so'm miqdorida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'laydi.

*Chunki: Soliq kodeksining 180-moddasi ikkinchi qismi 5-bandiga asosan, bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinadi.*

## Nazorat uchun savollar

1. Umumdavlat va mahalliy soliqlarni belgilanishi, joriy qilinishi va kelib tushishiga qarab o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qiling.
2. "Baraka" MCHJ xodimi B.Sharipov kasal bo'lib qoldi va u shifoxonaga yotishga majbur bo'ldi. Biroq davolanish unga qimmatga tushdi va u firmaga davolanishning asosiy qismini to'lash haqida firmaga murojaat qildi. B.Sharipovning arizasi asosida "Baraka" MCHJ davolanish muassasasining hisob raqamiga 700 000 so'm miqdorida pul mablag'ini o'tkazib berdi. Ushbu operatsiya qanday soliq oqibatlarini keltirib chiqaradi? Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering

## 8 – Mavzu. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar

### Reja:

1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar
2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar
3. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar

### 1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 305-315-moddalari)

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy ta'minotga muhtoj bo'lganda, ya'ni pensiya yoshiga yetganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisin yo'qotgan hollarda

ijtimoiy yordam olish olish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda 1993 yil 3 sentabrda qabul qilgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida"gi Qonunida belgilab berilgan. Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritiladigan bo'ldi hamda Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash tartibi buzilganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llanilishi, shu jumladan to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yildi. *Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar (312-315-moddalar)*. Soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs. Soliq stavkasi – har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

## **2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 316-325-moddalari)**

2007 yil 2 oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi 33 qonuniga muvofiq yo'llarni moliyalashtirishga doir ishlar (umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarni loyihalash, qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash) yo'l jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llari qurish va ulardan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2003 yil 19 avgustdagi PF-3292-son Farmoniga binoan tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi maxsus normativ hujjat bilan tartibga solinadi. Respublika yo'l jamg'armasiga ikki turdagi majburiy to'lovlar undiriladi. Bular, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hamda Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implardir.

## **3. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 3251 -3254 modda)**

Soliq to'lovchi – yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs. Bunda quyidagilar budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarining to'lovchilari bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno; yagona soliq to'lovini va (yoki) yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar; umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno. Soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza - sof tushum budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya

qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligihuzuridagi budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish obyektlari har yili alohida belgilanadi.

#### **Topshiriq variantlari.**

- Qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badali qaysi muddatlarda to'lanadi?  
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 311 va 375-moddalariga asosan, qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badali tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda to'lanadi.

- YaTT tomonidan qanday soliq va to'lovlar to'lanadi?  
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 373-moddasiga asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlar ushbu faoliyatni amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aksiz solig'i – aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imni to'laydilar.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsa, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Chilonzor tuman davlat soliq inspeksiyasi "Lola" xususiy korxonasi xojalik-moliya faoliyatini tekshirishdan o'tkazdi. Tekshiruv davomida davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari firma buxgalteridan ayrim hisobot hujjatlari va shartnomalarning aslini talab qilishdi. Biroq direktorning yo'qligi sababli tekshiruvchilar mazkur hujjatlarni olishmadi. Soliqchilar firma ofisida o'tirib ishlashini va direktorni kutib turishini aytishdi. Direktor faqatgina 23:20 da kelishdi va shunda tekshiruvchilar o'zlarining qarorlari asosida hisobot hujjatlari va shartnomalarning aslini olib qo'yishdi. O'sha joyning o'zida 22 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 33-son, 439-modda. 95 tekshiruvchilar va firma direktori tomonidan imzolangan bayonnoma tuzishdi. 10 kundan keyin tekshiruvchi mansabdor shaxslar "Lola" XK direktoriga soliq tekshiruv hujjatini topshirishdi. Ushbu hujjat asosida Chilonzor soliq inspeksiyasi 3 600 000 so'm to'lanmagan soliq va tovarlarni realizatsiya qilishni kamaytirib ko'rsatganlik uchun 2 000 000 so'm miqdorida jarima to'lash to'g'risida qaror chiqaradi. "Lola" XK Toshkent shahar xojalik sudiga Soliq inspeksiyasi tomonidan hujjatlarni olib qo'yish tartibini buzganlik uchun qarorni haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga murojaat qilgan. Vaziyatga huquqiy tavsif bering.

#### **9 – Mavzu. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

**Reja:**

- 1. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**
- 2. Dehqon xo'jaliklari va bozorlarga hamda konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi**
- 3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari**

### **1. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar deyilganda chet davlatning fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy ravishda yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek xorijiy nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi. Yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yagona soliq to'lovini, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashdan muayyan muddatga ozod qilinadilar. Imtiyozlarning qo'llanilish tartibi. Soliq kodeksining 376-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar quyidagi hollarda qo'llaniladi: yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilanadigan ortiqcha– ishchi kuchlari mavjud bo'lgan mintaqalar va qishloq aholi punktlarida joylashtirilganda; chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy– xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda; yuridik shaxslarning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning– ulushi kamida 33 foizni tashkil etganda; xorijiy investitsiyalar erkin almashtiriladigan valyuta yoki– yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar– berilganligi natijasida ularning qo'llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida 50 foizi yuridik shaxsni yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirilganda. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat tugaganidan keyin bir yil o'tmasdan faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning summalari budjetga undirilganidan keyin amalga oshiriladi.

### **2. Dehqon xo'jaliklari va bozorlarga hamda konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi**

Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslar - soliq to'lovchilar uchun nazarda tutilgan tartibda soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar to'laydi. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda dehqon xo'jaliklari quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi: 1) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i; 2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 3) jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq; 4) bojxona to'lovlari; 5) davlat boji; 6) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydi. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan

taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart.

### **3. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari.**

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi va u mahalliy budjet daromadlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imning to'lovchilari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi xududida ushbu tovarlar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda chakana savdoni amalga oshiradigan va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ushbu yig'im ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

#### **Topshiriq variantlari**

- 2018 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddasi bo'yicha 28 ta chegirilmaydigan xarajatlardan 10 tasini chegirish imkoniyati berildi, shu 10 ta xarajat turlariga oydinlik kiritib o'tsangiz?

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-454-sonli qonunning 2-moddasi 9 bandiga asosan joriy yil 1 yanvardan "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddasining 2, 4, 5, 7, 8, 16, 17, 26 va 26-1 bandlari chiqarib tashlansin" deb o'zgartirish kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 147-moddaning 2, 4, 5, 7, 8, 16, 17, 26 va 26-1 bandlariga asosan soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga 2018 yil 1 yanvargacha quyidagilar kirar edi:

2) xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

4) nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

5) xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

8) soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

16) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

17) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;

26) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar;

26-1) ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskuna uchun to'lanadigan haq.

## Nazorat uchun savollar

1. Oltiariq tumani davlat soliq inspeksiyasidan fuqaro I.Komilovga 2012 yil davomida tomorqasida etishtirgan 5 tonna bodring va 10 tonna turpni sotishdan tushgan daromaddan jismoniy shaxslarlardan olinadigan daromad solig'ini to'lamaganligi hamda joriy yilda "Sportlotto" lotereyasidan 100 million so'mlik jekpot yutib olganligi va bu haqda butun respublikada ma'lum ekanini, yuqoridagi lotereya yutug'idan xam jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lashi zarur ekani to'g'risida xabarnoma oldi. Bundan tashqari davlat soliq inspeksiyasi xabarnomada fuqaro I.Komilov o'zi yashab turgan hovlidagi uylardan bir qismini qo'shnisi yakka tadbirkor A.Ikromovga ijaraga bergani uchun 143 mol-mulk solig'i qayta hisoblangani va mol-mulk solig'i uchun stavka yuridik shaxslr uchun belgilangana stavkada, ya'ni 3,5 % qilib belgilangani va qo'shimcha 400 000 so'm miqdorida mol-mulk solig'i hisoblanganini bildirib o'tishgan. Davlat soliq inspeksiyasining fikricha Oltiariq shahri Alisher Navoiy ko'chasida joylashgan unga tegishli omborxonaga uchun ham 2012 yil uchun mol-mulk solig'i to'lashi zarur ekanini aytib o'tishgan. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos jihatlarini va soliq imtiyozlarini tahlil qiling.

### 10 – Mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi

#### Reja:

1.Soliq solishning soddalashtirilgan tizimining o'ziga xos xususiyatlari

2.Yagona soliq to'lovi

3.Yagona yer solig'i

4.Qat'iy belgilangan soliq

#### 1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

#### 2. Yagona soliq to'lovi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 350-361-moddalari)

Soliq to'lovchilar – mikrofirmalar va kichik korxonalar, xodimlarning sonidan qat'i nazar: savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari; lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar; oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yakka tartibdagi tadbirkor. Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga tatbiq etilmaydi: aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalariga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno; yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalariga; mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalariga. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar hamda oilaviy korxonalardan tashqari yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

### **3. Yagona yer solig'i (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 362-368-moddalari)**

Mazkur soliqning amalga kiritilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni tasarrufidagi yerlaridan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'iy nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ining joriy etilishi soliqa tortish tizimida uning amal qilishi jarayonini yanada takomillashtirishdan dalolat beradi. Soliqa tortishning ushbu tizimi xo'jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to'lash borasidagi ishlarni keskin kamaytirdi.

### **4. Qat'iy belgilangan soliq (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 370-375-moddalari)**

Soliq to'lovchilar – faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar; yakka tartibdagi tadbirkorlar. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosigina qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi bo'ladi. Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas. Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki ushbu bo'limda belgilangan soliqlarni to'lashlari shart. Asosiy faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno.

### **Topshiriq variantlari**

- YaTT bir vaqtda bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanish mumkinmi?

Mumkin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 375-moddasiga muvofiq, faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

- YaTT faoliyatning qaysi turlari bilan shug'ullanish mumkin?

Yakka tartibdagi tadbirkorlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ro'yxatga muvofiq 76 ta hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3588- sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 25 ta faoliyat turi bilan shug'ullanishlari mumkin.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Tadbirkorlik subyektlari uchun soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llashning o'ziga xos jihatlarini tahlil qiling.
2. Fuqaro A. Rahimov o'z uyida yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishi rejalashtirdi. U o'zining hovlisining bir qismida temirchilik ustaxonasi ochib turli xil ro'zg'or anjomlari va qishloq xhjaligi qurollarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchi. Bundan tashqari u o'zining qo'shni ko'chada joylashgan va hozirda foydalanilmayotgan yana bir uyini "Rohat" MCHJga ijaraga berdi va ushbu uydan ijarachi oziq-ovqat do'koni sifatida foydalanmoqda. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering. Bu holatda soliq solish masalasi qanday hal qilinadi?

## **11 – Mavzu. Soliq nazoratining huquqiy asoslari**

### **Reja:**

#### **1.Soliq nazoratining o'ziga xos jihatlari**

#### **2.Soliq nazoratining shakllari**

#### **3.Soliq nazoratini amalga oshirishda soliq tekshiruvlarini o'ziga xos jihatlari**

#### **1. Soliq nazoratining o'ziga xos jihatlari.**

*Soliq nazorati bu* – soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga to'liq rioya etishi, soliqlar va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq undirilishi, to'g'ri hisoblanishi ustidan soliq organlari tomonidan olib boriladigan nazoratdir.

Davlatning moliyaviy nazorati davlat moliya siyosatini amalga oshirish, moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar yaratish uchun mo'ljallangandir. Hamma davlatlarda, ular qurilishining o'ziga xosligiga qarab, moliya nazoratining o'z tizimi tarkib topgan. Shunga qaramasdan, chet davlatlarda nazorat-taftish tarmog'ining tashkil etilishi va ish-faoliyati u yoki bu jihatdan ko'p yillik xalqaro tajribada ifodalangan umumiy prinsiplarga asoslanadi. Masalan, har qanday yirik dasturni amalga oshirish albatta kichik nazorat tizimini o'z ichiga qamrab oladi. Bu maqsadlarga, odatda, qandaydir muhim davlat dasturi uchun ajratilgan mablag'lar umumiy hajmidan bir-ikki foiz ajratiladi. Soliq nazorati davlat moliyaviy nazoratining bir turi bo'lib, soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat. Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi. So'nggi vaqtlarda respublikamiz hukumati tomonidan



tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilish hamda moliyaviy jazolarni qo'llashni erkinlashtirish borasida juda muhim qarorlar qabul qilinmoqda.

## **2. Soliq nazoratining shakllari.**

Soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: soliq to'lovchilarni hisobga olish; soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish; budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish; kameral nazorat; naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji; soliq tekshiruvlari; fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash; aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish; davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish; boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

## **3. Soliq nazoratini amalga oshirishda soliq tekshiruvlarini o'ziga xos jihatlari.**

Soliq tekshiruvi soliq nazoratining eng asosiy shakllaridan bo'lib, 1998 yil 24 dekabrda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonunga ko'ra soliq tekshiruvi orqali amalga oshiriladigan davlat nazoratining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan, soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi. Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir. Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

Masalan, bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig'imlar, ijara haqi to'liq tushishi va ularning topshirilishi hisobga olinishiga, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan, to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanilishiga, shuningdek savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishiga oid qisqa muddatli tekshiruvlar o'tkaziladi.

### **Topshiriq variantlari.**

- Yakka tartibdagi tadbirkor kim?

Yakka tartibdagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

- Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik faoliyati qanday amalga oshiriladi? Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

«Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 3-modda.

## Nazorat uchun savollar

1. Soliq qonunchilik hujjatini buzganlik uchun qo'llaniladigan ma'muriy va jinoiy javobgarlikni o'ziga xos jihatlarini tahlil qiling.
2. Jizzax shahar Ittifoq mahallasida yashovchi YATT Siddiqova Mahsudaga qarashli savdo do'konida 2013 yil 25 avgust kuni Davlat soliq xizmati xodimlari tomondan xolislar ishtirokida kisha muddatli tekshirish o'tkazildi. Tekshirish natijasida do'kon sotuvchisi Amirova Sh. xaridor Kamolov M.ga 14000 so'mlik oziq ovqat mahsuloti uchun NKM xarid cheki va unga tenglashtirilgan patta kvitansiyasi bermaganligi holati aniqlangan. Xazinadagi jami 75000 so'm naqd pul NKM xotirasiga kirim qilinmagan. Bundan tashqari do'konda sotuvda bo'lgan 5 turdagi jami 125500 so'mlik tovarlarning sifat sertifikatini va ishlab chiqarish markasini tasdiqlovchi hujjatlari mavjud emasligi holati aniqlangan va DSX xodimlari tomondan tegishli hujjatlar rasmiylashtirib olib qo'yilgan. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

### 12-Mavzu. Davlat boji va bojxona to'lovlarini huquqiy tartibga solish

#### Reja:

1. Davlat boji
2. Bojxona to'lovlari
3. Erkin iqtisodiy zonalar

#### 1. Davlat boji (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 326-342-moddalari)

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lovdur O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig'imi tariqasida undiriladi. Davlat bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Davlat bojini to'lovchilardir – yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

#### 2. Bojxona to'lovlari (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 343-344-moddalari)

Bojxona organlari bojxona ishini amalga oshirishda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to'lovlarini undiradi. Bojxona to'lovlarini to'lovchilar, bu to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash, qaytarish va undirish tartibi, shuningdek bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar, agar soliq qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi. Tovarlarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishda aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksida belgilanadi. Bojxona to'lovi O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda eksport-import operatsiyalarining bajarilishi munosabati bilan undiriladigan to'lovdur. Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda hamda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda bojxona to'lovlarining quyidagi turlari to'lanadi: - boj; - qo'shilgan qiymat solig'i; - aksiz solig'i; - bojxona yig'implari. Boj – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lovdur. Bojlarning stavkasi butun O'zbekiston Respublikasining barcha hududida yagona bo'lib, tovarlarini bojxona hududidan olib o'tuvchi shaxslar, bitimlarning turlari va boshqa omillarga qarab o'zgarishi mumkin emas. Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan, O'zbekiston

Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plami boj tarifi, deb ataladi.

### **3. Erkin iqtisodiy zonalar**

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 3 may kuni mamlakatda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yettita erkin iqtisodiy zona (EIZ) tashkil etish to'g'risidagi farmonni tasdiqladi. Tuproq va iqlim sharoitlari noyobligini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish to'g'risida kiritilgan taklifga binoan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo'stonliq-farm» va «Parkent-farm» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishga qaror qilindi. Bugungi kunda O'zbekistonda 146 ta mahalliy farmatsevtika korxonasi tomonidan 2000 xildan ortiq dori-darmon vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 2016 yil yakunlari bo'yicha mamlakat farmatsevtika bozorida mahalliy dori-darmon vositalarining ulushi 55 foizni tashkil etdi.

### **Topshiriq variantlari**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1050-son qarorida belgilangan imtiyozlar amaldami?*

JAVOB: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1050-son qarorining 2-ilovasida qayd etilgan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mikrofirmalar va kichik korxonalar 2018 yil 1 yanvariga qadar foyda solig'i va mulk solig'i, yagona soliq to'lovlari, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etish ko'rinishida imtiyoz belgilangan edi.

Mazkur imtiyozni amal qilish muddati 2018 yil 1 yanvardan boshlab tugadi.

2. *Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovi bo'yicha imtiyozlar kimlar uchun bekor qilingan?*

JAVOB: O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda «Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-454-sonli qonuniga asosan Soliq kodeksining 208 va 211- moddalariga o'zgartirishlar kiritilgan.

Xususan, 2018 yil 1 apreldan boshlab Soliq kodeksining 208-moddasi "Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti" quyidagi bandlar chiqarilgan:

17) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

18) geologiya va topografiya ishlari;

20) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

26) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo'linmalari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari.

Shuningdek, 19-band yangi tahrirda bayon etilib, unga asosan bosma mahsulotlar, jumladan milliy valyuta (kupyura), kitob mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarining davriy bosma nashrlari (reklama tusidagibosma nashrlar bundan mustasno), daftarlar hamda rasm va chizmachilik albomlariga soliq imtiyozi joriy etilgan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. "Kamolot" OAJ hisobotlari o'rganilganda 2013 yil birinchi choragi uchun foyda solig'idan 3 500 000 so'm miqdorda ortiqcha to'lagani ma'lum bo'ldi. "Kamolot" OAJ direktori B.Hakimov hisobot

taqdim etilganidan 15 kun o'tgandan so'ng davlat soliq inspeksiyasiga ushbu ortiqcha to'langan summani qaytarib olish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda, davlat soliq inspeksiyasi ushbu summa "Kamolot" OAJning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarzini uzish uchun hisobga olinganini ma'lum qildi. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

2. Kameral nazorat soliq nazoratining shakllaridan biridir. Kameral nazoratni o'ziga xos jihatlarini soliq nazoratining boshqa shakllaridan ajralib turadigan jihatlarini tahlil qiling.

### **3-modul. Soliq huquqining xususiy holatlari (IV semestrning 7-9 haftalari)**

#### **13-Mavzu. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik sub'ektlarini me'yoriy huquqiy tartiblash**

**1. Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar**

**2. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining huquqiy- me'yoriy asoslari**

**3. Bozorlar faoliyatining huquqiy me'yoriy asoslari**

#### **1. Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar**

Soliq kodeksining 387-moddasiga muvofiq bozorlar daromadlarining umumiy summasidan, bozorlar daromadidan to'lanadigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangandan keyin qolgan mablag'larning 50 foizi bozorlar joylashgan joydagi tegishli mahalliy byudjetlarga belgilangan tartibda o'naltiriladi. Qolgan 50 foizi bozorlar ma'muriyati tasarrufida qoladi va ulardan joriy xarajatlarni qoplash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash uchun foydalaniladi.

**2. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining huquqiy- me'yoriy asoslari.**

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining huquqiy- me'yoriy asoslarini Chakana savdo qoidalari bilan tanishish orqali davom ettiramiz. Bu boradagi qonuniy asos Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 [fevraldagi](#) 75-son qaroriga ilovalar hisoblanadi unga ko'ra:

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi hududida chakana savdo bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar: yuridik shaxslar; qonun hujjatlariga muvofiq, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar. Umuman chakana savdo — savdo sohasida pirovard iste'molchi uchun, tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz aholiga naqd pulga donalab yoki uncha ko'p bo'lmagan miqdorda tovarlar sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish;

vositachilik savdosi — chakana savdo faoliyatining vositachilar tomonidan vositachilik shartnomalari bo'yicha sotish uchun ularga berilgan tovarlar sotilishini nazarda tutuvchi turi;

savdo obyekt — mulkchilik shakllaridan, sotuv hajmidan, inshootning o'lchamidan va hokazolardan qat'i nazar, tovarlar va xizmatlarni sotishga mo'ljallangan (moslashtirilgan) joy yoki inshoot.

**3. Bozorlar faoliyatining huquqiy me'yoriy asoslari**

Bozor hududida obodonlashtirishga, obyektlarni joylashtirishga va bozorni jihozlashga qo'yiladigan umumiy talablar. Bozor hududi dehqon (oziq-ovqat) bozori, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori, ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori bir-biri bilan yondosh bo'lmasligi sharti bilan aniq ajratib qo'yilgan bo'lishi kerak. Bozor hududi savdo kompleksi bilan yondosh bo'lishi mumkin.

## Topshiriq variantlari

- Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirish muddati qancha etib belgilangan?

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007 yil 3 sentyabrda 1712- son bilan ro'yxatga olingan «Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishlarni tashkillashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasida bir kun davomida rejadan tashqari qisqa muddatli, muqobil yoki nazorat tartibida tekshirishlar shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Istisno tariqasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlarning moliyaviy va tovar hujjatlarini tekshirish zarurati bo'lgan hollarda, kameral nazorat natijasida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilishi holatlari asosida, Kengash qarori bilan yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini bundan ko'proq, lekin 5 ish kunidan oshmagan muddatda tekshirish o'tkazish ko'zda tutilishi mumkin.

- Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari ham xodimlarni yollashi mumkinmi?

Mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizom yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etilgan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga tatbiq etilmaydi.

## Nazorat uchun savollar

1. Soliq majburiyati jismoniy shaxs vafot etganda, yuridik shaxs tugatilganda yoki qo'shib olinganda tugaydi. Mazkur holatda ushbu shaxslar tomonidan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash tartibini tahlil qiling.
2. Soliqning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish va qaytarish tartibini izohlang.
3. 2011 yilda fuqaro A.Halimov uzoq kasallikdan so'ng vafot etdi. Mirobod tuman soliq inspeksiyasi 2013 yil fevral oyida A.Sobirovning rafiqasi G.Sobirovaga uning marhum erini nomiga rasmiylashtirilgan va hozirda G.Sobirova va farzandlari yashab turgan Mirbod tumani Glinka ko'chasi 29 uy, 15- xonadon uchun mol-mulk solig'ini va unga qo'shilgan penyani to'lash to'g'risida talabnoma taqdim etdi. Bundan tashqari soliq inspeksiyasi marhum A.Sobirov yakka tadbirkorlik faoliyatini olib borgani uchun qat'iy belgilangan soliqdan 2012 yil uchun 230 000 so'm miqdorda qarzi borligini, ushbu summani ham G.Sobirova to'lashi zarur ekanini aytishdi. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

## 14-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari

### Reja:

1. Soliq huquqbuzarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatalari
2. Soliq qonunchiligi bo'yicha javobgarlik
3. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik.
4. Soliq qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik

### **1. Soliq huquqbuzarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatalari**

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi, tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi bilan iqtisodiyot sohasida yangi ko'rinishdagi qonun buzilishlarining sodir etilishiga ham sabab bo'ldi. Bu, birinchi navbatda, davlat va mahalliy pul jamg'armalarini (budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarni) shakllantirishning asosiy manbasi hisoblangan – soliq solish tizimi bilan bevosita bog'liq qonun buzilishlarini, uning turli ko'rinishlarini keltirib chiqardi. Huquq nazariyasida umume'tirof etilgan qoidadan kelib chiqadigan bo'lsak, har qanday yuridik javobgarlikning asosida davlat majburlov choralari bilan himoya qilinadigan va ta'minlanadigan, huquqiy normalarning talablarini buzishga qaratilgan huquqqa xilof qilmish yotadi.

### **2. Soliq qonunchiligi bo'yicha javobgarlik**

Soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o'n olti yoshdan boshlab vujudga keladi. Hech kim soliqqa oid huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo'yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari bo'lmasa, bu huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan javobgarlik kelib chiqadi. Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslarini ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikdan ozod etmaydi. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

### **3. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik.**

Yuridik adabiyotlarda ma'muriy javobgarlikni qo'llashning ikki asosi ko'rsatib o'tilgan: birinchidan, qonun – huquqiy (me'yoriy) asos sifatida; ikkinchidan, ma'muriy nojo'ya xatti-harakat, faktik asos sifatida. Bu ikkala asos ham O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasiga tayanadigan bo'lsak, soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning huquqiy asosini – O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonun va boshqa qonun va qonunosti hujjatlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari) tashkil etadi.

### **4. Soliq qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik**

Har qanday jinoyat to'g'risida so'z yuritganda, birinchi navbatda uning ijtimoiy xavfiga e'tiborni qaratish lozim. Soliq jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash vaqtida, birinchi navbatda uning ijtimoiy zararini, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari bilan belgilangan, soliq va boshqa to'lovlarni to'lashda ifodalangan - ommaviy-huquqiy majburiyatga tajovuz qilinishini e'tiborga olish lozim. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 14-moddasiga binoan Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyatdeb topiladi. Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi. Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar; uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar; og'ir jinoyatlar;

o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha a'loatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

### **Topshiriq variantlari**

- YaTT tomonidan xodimlar qanday tartibda yollanadi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, yakka tartibdagi tadbirkor yollangan xodimni hisobga qo'yish to'g'risida xodim bilan mehnat shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ariza taqdim etadi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1) yakka tartibdagi tadbirkor va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasining nusxasi;
- 2) xodimning 3x4 sm hajmdagi 2 dona fotosurati;
- 3) yollangan xodim pasportining nusxasi.

- Yakka tartibdagi tadbirkor xodim yollashi mumkinmi?

Mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldagi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan, chakana savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 1 nafar, hunarmandchilik faoliyatini amalga oshiruvchilar 3 nafargacha, maishiy xizmat ko'rsatuvchilar 3 nafargacha, faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 2 nafargacha xodimlarni yollashi mumkin.

Bunda, Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, ta'mirlash va ulardan foydalanish, Kontsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish, Veterinariya faoliyati, Yuklarni avtomobil transportida tashish, O'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xom ashyoni etishtirish, yig'ishtirish, tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish, Rieltorlik faoliyati, Ekskursiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha turizm faoliyatini amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining asosiy turi bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish uchun bir nafar xodimni yollashi mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Soliq huquqbuzarligi uchun qo'llaniladigan moliyaviy jazolarni qo'llanilishini va o'ziga xos jihatlarni izohlang.
2. "Otchopar dehqon bozori" MCHJ hududida 2013 yil 4 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 407-sonli Qarori talabini bajarish yuzasidan bir guruh Davlat soliq xizmati xodimlari tomondan o'tkazilgan tadbir natijasida bozor hududida tegishli xujjatsiz, davlat ro'yxatidan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqaro Sobirova S.dan savdo faoliyati uchun tegishli xujjatlar so'ralganda hech qanday hujjat taqdim qila olmadi. Shundan so'ng Davlat soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan sotuvda bo'lgan 3 turdagi umumiy narxi 306000 so'mlik jami 102 kg guruch mahsuloti tegishli tartibda hujjatlashtirib olib qo'yildi. Fuqaro Sobirova S. qanday tartibda javobgarlikka tortiladi.

### **15-mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy amaliyotni yuritish tartibi**

#### **Reja:**

1. Ma'muriy huquqiy munosabatlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ma'muriy huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi
3. Soliqda ma'muriy huquq sub'ektlari va ularning huquqiy maqomi tushunchasi
  - 1.Ma'muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari.

Huquqiy munosabat, bu birinchi navbatda tomonlar o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettirishdir. Munosabat tomonlari bir-biri oldida tegishli sub'ektiv huquq va majburiyatlarni o'taydilar. Tomonlarning huquq va majburiyatlari bir-biri bilan o'zaro mutanosib tarzda bog'liq bo'lib, ya'ni bir tomonning huquqiga ikkinchi tomonning majburiyati yoki ikkinchi tomonning huquqi birinchi tomonning majburiyatiga muvofiq keladi.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabatlarning tabiati masalasi ancha munozarali. Bir guruh olimlar huquqiy munosabatlarni ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi sifatida ko'rsatib o'tishadi. Ikkinchi guruh olimlari esa, huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi hisoblanmasligini, ular faqatgina ijtimoiy munosabatlarning yuridik shakli, ifodasi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. huquqiy munosabatlar – ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan munosabatlardir. Chunki, ular jamiyatda insonlar o'rtasida vujudga keladi, insonlarning faoliyati, xulq-atvori bilan bog'liq bo'ladi. Huquqiy munosabat har qanday ijtimoiy munosabat singari insonlar ongli faoliyatining natijasidir; huquqiy munosabatlar – huquq normalarining insonlar xulq-atvoriga tahsiri natijasida vujudga keladigan munosabatlardir. Huquqiy norma va huquqiy munosabat o'zaro bog'liq bo'lib, biridan ikkinchisi vujudga keladi. Huquqiy normalar bilan tartibga solingan munosabatlarga, huquqiy munosabat hisoblanadi.

## **2.Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi.**

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar ma'muriy-huquqiy normalarda nazarda tutilgan sharoitlar mavjud bo'lganida vujudga keladi. Ma'muriy-huquqiy normalar o'z-o'zidan bevosita ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Balki, ma'muriy-huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shartlarini, holatlarini va mezonlarini belgilab beradi. Bu – yuridik faktlar bo'lib, norma talabidan kelib chiqqan holda tomonlar o'rtasida mahlum bir huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi holatlardir.

Yuridik faktlar ma'muriy-huquqiy munosabatlarning zaruriy sharti, aniq talabi sifatida maydonga chiqadi.

Jamiyatda turli-tuman holatlar va shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ularning hammasi ham yuridik fakt bo'lib hisoblanmaydi. Muayyan hodisa va holatlarni yuridik fakt deb ehtirof etish, davlatning xohish-irodasiga bog'liqdir.

Yuridik faktlar nafaqat ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, balki o'zgartirishi yoki bekor qilishi ham mumkin.

Yuridik faktlar ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda katta ahamiyatga egadir.

Yuridik faktlar huquqiy norma bilan huquqiy munosabat o'rtasidagi bog'lovchi vositadir.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar harakatlar va hodisalar singari yuridik faktlardan vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi mumkin.

qonuniy harakatlar – hamma vaqt ma'muriy-huquqiy normalar talabiga mos keladi. Bunda yuridik fakt sifatida munosabat ishtirokchilarining qonunga muvofiq harakati namoyon bo'ladi.

## **3.Soliqda ma'muriy huquq sub'ektlari va ularning huquqiy maqomi tushunchasi.**

Har bir huquq tarmog'i o'zining sub'ektlariga ega bo'lib, ular tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

“Huquq sub'ekti”dan “huquqiy munosabat sub'ekti”ni farqlash lozim. Oldingi MAVZUlardan mahlumki, huquqiy munosabat sub'ekti – bu aniq bir huquqiy munosabatning ishtirokchisidir. Huquq sub'ekti esa, bu huquqiy munosabatlarda ishtirok eta oladigan hamda sub'ektiv huquqlar va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslardir.

Huquq sub'ektlari huquqiy munosabatlarga kirishganida, huquqiy munosabat sub'ektiga aylanishi mumkin. Lekin huquqiy munosabatda ishtirok etayotgan huquq sub'ektlari o'zlarining oldingi holatini yo'qotmaydi. Huquq sub'ektlari bir vaqtning o'zida bir necha huquqiy munosabatlarning



ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan olganda, huquq sub'ekti huquqiy munosabat sub'ektiga qaraganda kengroq tushunchadir.

### Topshiriq variantlari

1. *Angrendagi iqtisodiy erkin zonadagi yerlar imtiyozga egami, ya'ni yagona soliq to'lovi va qo'shilgan qiymat solig'idan ozodmi?*

JAVOB: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-sonli Farmoniga asosan "Angren" erkin iqtisodiy zonasi ishtirokchilari yer solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslar mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi va byudjetdan tashqari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalaridan to'lashdan ozod etilgan.

2. *"MAN Avto-Uzbekistan" qo'shma korxonasi yo'l jamg'armasiga ajratmalardan imtiyozga ega. Belgilangan Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar birlashtirilib 3,2%ga kamaytirilganligi munosabati bilan ayrim ajratmalar bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan korxonalar ajratmalarni qanday miqdorda to'laydi?*

JAVOB: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'ratkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-3454-sonli qarorining 24-ilovasining izohiga muvofiq Respublika yo'l jamg'armasiga va byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalardan imtiyozga ega korxonalar 1,5% foiz byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'laydi.

3. *Tibbiy xizmat ko'rsatish klinikasida ishlovchi nafaqaho'r shifokor nafaqasini 100% pensiya ta'minot bo'limidan yoki ishlayotgan joyidan oladimi?*

JAVOB: O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 53-moddasiga asosan «ishlab turgan pensionerlarga pensiyalar ularning ish joyida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi».

4. *Bir gektardan ortiq yer maydoniga ega yagona soliq to'lovchi 2018 yil 10 yanvarda yoki 10 aprelda hisobot topshirishimiz kerakmi?*

JAVOB: Hisobot topshirish va to'lash muddati- 2018 yilning 10 aprelegacha.

### Nazorat uchun savollar

1. Fuqaro Azizov A. o'zining Yashnarobod tumani Zebiniso ko'chasida joylashgan 3-uy 4-xonadonini "Ozod" xususiy firmasiga ijaraga berdi. Joriy yilning mart oyida Yashnarobod tuman soliq inspeksiyasidan fuqaro Azizov A. ning mazkur soliq solish obyekti bo'yicha mol-mulk solig'i yuridik shaxslarning stavkasi bo'yicha hisoblanganligi haqida to'lov xabarnomasi keldi. Lekin Azizov A. soliq stavkasi noto'g'ri qo'llanilganligidan norozi bo'ldi. Bundan tashqari u 1- guruh nogironligini asos qilib, o'zini nomida bo'lgan ikkita xonadonni soliq to'lashdan ozod qilinishi lozimligini aytib, soliq to'lashdan umuman bosh tortdi. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlariga soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos jihatlarini tahlil qiling.

## **16-Mavzu. Soliqqa oid nizolarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari**

### **Reja:**

- 1. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi**
- 2. Jinoiy javobgarlik asoslari**
- 3. Nazorat kassa mashinalaridan foydalanishda huquqiy omillar**

#### **1. Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi**

Jinoyat huquqining Umumiy qismi ikkita asosiy tushuncha bilan bog'liq bo'lib, ular jinoyat va jazo tushunchalaridir. Shunga ko'ra jinoyat tushunchasi jinoyat huquqining eng muhim va asosiy kategoriyasidir.

O'zR JKning 2-moddasida Jinoyat kodeksining vazifalari belgilanar ekan, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratligi ko'rsatilib, jinoyatlarning doirasi umumiy tarzda bayon qilinadi. O'zR JKning 14-moddasida esa jinoyat tushunchasi beriladi. Unda Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi, deyiladi. Demak, jazolash bilan qo'rqitib, jinoyat qonunida taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni (harakat yoki harakatsizlikni aybli sodir etish jinoyat deb topiladi. Jinoyat — insonning ongli faoliyati, alohida kishining ongli qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishidir.

#### **2. Jinoiy javobgarlik asoslari**

Jinoiy javobgarlik huquqiy javobgarlikning maxsus turi bo'lib, Jinoyat kodeksida taqiqlangan qilmish sodir etilgan taqdirdagina qo'llanadigan javobgarlikning eng og'ir turidir.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 16-moddasi birinchi qismida jinoyat uchun javobgarlikning tahrifi berilgan bo'lib, jinoyat uchun javobgarlik jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy tahsir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir. Jinoiy javobgarlik shaxsning Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan qilmishning sodir qilganligi uchun shaxs va davlat o'rtasida vujudga keladigan jinoyat-huquqiy munosabatdir.

#### **3. Nazorat kassa mashinalaridan foydalanishda huquqiy omillar**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 72-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish Nazorat-kassa mashinalarining davlat reyestriga kiritilgan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari majburiy qo'llanilgan holda amalga oshirilishi (bundan naqd pul bilan hisob-kitob qilishni, faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirishi mumkin bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslar mustasno) belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 17 noyabrdagi 306-sonli qarori bilan «Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalarini qo'llash tartibi to'g'risida»gi nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizom talablari barcha yuridik shaxslarga, shuningdek, fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalaridan (keyingi o'rinlarda – NKM) foydalanib aholi bilan naqd pulli hisob-kitob qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga joriy etiladi.

### **Topshiriq variantlari**

1. Korxonalar Toshkent viloyati Chirchiq tumanidan ro'yxatdan o'tgan. Korxonaning faoliyati binolarni ijaraga berish. Chirchiqda 1 gektar yer maydoniga ega va Toshkent shahri Sergeli tumanida 30 sotix yer maydoni mavjud. Yer solig'i qaysi yer uchun qaysi stavkada to'lanadi?

JAVOB: Umumiy yer maydoni bir gektardan ortiq yer uchastkalariga ega yagona solik tulovchilari uchun yagona solik tulovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona solik tulovini hisoblab chiqarish va tulashtirish tartibi bekor qilingan holda yer solig'ini to'liq maydondan kelib chiqib to'lash tartibi 2018 yil 1 yanvardan joriy etildi.

2018 yilda Chirchiq shahri uchun yer solig'i bir gektar uchun 17 374 711 so'm kilib belgilangan. Sergeli tumani bo'yicha yer solig'ining stavkasi qaysi zonada joylashganligiga qarab belgilanadi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'ratkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-3454-sonli qarorining 19 -ilovasidagi 5-jadvalga asosan)

2. Savdo komplekslari va bozorlar yer solig'i ham to'lashadimi?

JAVOB: Savdo komplekslari va bozorlar yer solig'i to'lamaydi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Soliq tekshiruvining rejali, rejadan tashqari va muqobil kabi turlari mavjud. Qisqa muddatli tekshiruv yuqorida sanalgan soliq tekshiruvlarining qaysi turida o'tkaziladi va uni tartibini tahlil qiling.

3. «Atlant» MCHJ «Chilonzor buyum bozori» hududida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanadi. 2014 yil 20 mayda korxonaga davlat soliq xizmati organlari vakillari kelishdi va «Atlant» MCHJga nisbatan savdo qoidalariga rioya qilishni tekshirish bo'yicha qisqa muddatli tekshiruv tayinlanganini e'lon qilishdi. Davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslari qisqa muddatli tekshiruvni tayinlash bo'yicha davlat soliq xizmati organlarining qonun hujjatlarida vakolat berilgan bo'linmasi boshlig'ining buyrug'ini taqdim etishdi. Ammo «Atlant» MCHJ xodimlari tekshiruvchilarni nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori mavjud bo'lmaganligi sababli tekshiruv o'tkazish uchun qo'ymadilar. Vaziyatga huquqiy jihatdan baho bering.

## **17– Mavzu. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati o'rganlarining huquqiy maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari**

### **Reja:**

1. Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo'lgan davlat boshqaruv organlari
2. Davlat bojxona xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi
3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati

### **1. Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo'lgan davlat boshqaruv organlari.**

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek soliq huquqiy munosabat subyektlari bo'lib soliq to'lovchilar va vakolatli davlat organlari hisoblanadi. Soliq huquqiy munosabat sohasida vakolatli bo'lgan davlat organlari quyidagilardir:

- 1) Davlat soliq xizmati organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi soliq inspeksiyalari;
- 2) Bojxona organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;

- 3) Moliya organlari – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari;
- 4) Boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.

**2. Davlat bojxona xizmati organlari va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi.** Davlat bojxona xizmati organlarining huquqiy maqomi 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilab berilgan. Davlat bojxona qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o‘tkazilishini, bojxona ishlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi. DBQ o‘ziga yuklatilgan vazifalarni muvofiq bojxona qonunchiligiga va o‘z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;bojxona tartibga solish vositalari qo‘llanilishini ta‘minlaydi, bojxon-tarif mexanizmi ham shu jumlag kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashadi;bojxona to‘lovlarni davlat budjetiga o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishini ta‘minlaydi.

**3. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati.** Soliq to‘lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash, shuningdek Soliq kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo‘lgan 69 taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati deb hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida yetarlicha pul mablag‘lari bo‘lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash uchun bankka to‘lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e‘tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to‘lov naqd pul mablag‘lari bilan to‘langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e‘tiboran bajarilgan deb hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati qo‘shimcha hisoblangan solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvaraqlariga o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjatlarining ko‘chirma nusxalari soliq to‘lovchi tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan taqdirda ham bajarilgan deb hisoblanadi. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasini o‘tkazish uchun to‘lov topshiriqnomasi soliq to‘lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to‘lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to‘lovchi bankka to‘lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga qo‘yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo‘lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo‘lsa hamda soliq to‘lovchi barcha talablarni qanoatlantirish uchun hisobvaraqda yetarlicha pul mablag‘lariga ega bo‘lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to‘lov to‘langan deb hisoblanmaydi.

### **Topshiriq variantlari**

1. *Korxonalar ulgurji savdo faoliyati bilan shug‘ullanadi. Korxonalar ta‘sischisi korxonaga zaymni tovar ko‘rinishda berib pul ko‘rinishida qaytarib olishi mumkinmi?*

JAVOB: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 732-moddasi birinchi qismiga asosan «qarz shartnomasi bo‘yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki turga xos alomatlar bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, o‘shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi».

Yuqoridagilarga asosan, korxonaga ta'sischi tovar ko'inishda korxonaga berilgan zayomni pul ko'inishida qaytarib olishi mumkin emas, ya'ni tovar ko'inishida olingan zaym tovar bilan, pul ko'inishida olingan zayom pul ko'inishida kaytariladi.

2. *O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 147-*

*moddasi bo'yicha 28 ta chegirilmaydigan xarajatlardan 10 tasini chegirishimkoniyati berildi deb ta'kidlab o'tildi, ushu xarajat turlariga oydinlik kiritib o'tsangiz?*

JAVOB: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 147-moddasida soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar tarkibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrda «Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-454-sonli qonunning 2-moddasi 9-bandiga asosan 2018 yil 1 yanvardan Soliq kodeksining 147-moddasidan 9 ta band chiqarib tashlangan va bitta o'zgartirish kiritilgan

Hususan, quydagi bandlar chiqarib tashlangan:

2) xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiy ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

4) nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

5) xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

7) yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

8) soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

16) ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;

17) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni (xizmatlarni) (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdagi ishlar) bajarishga sarflangan xarajatlar;

26) investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilari va davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar;

26-1) ishlatib kelinayotgan to'liq eskirgan asbob-uskuna uchun to'lanadigan haq.

Shu bilan birga 12)bandidagi "pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga beryo'la to'lanadigan nafaqalar" degan so'zlar chiqarib tashlanmoqda.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq undirib olish uslubiga ko'ra egri soliq hisoblanadi. Mazkur soliqni to'g'ri soliqlardan farqli jihatini tahlil qiling.

2. Fuqaro F.Sulaymonov o'ziga qarashli Chilonzor tumani "Oqtepa" ko'chasi 35 uyini nabirasi 6 yoshli B.Salimovga hadya qildi. B.Salimovga nisbatan qanday soliqlar bo'yicha majburiyat yuzaga keladi. Tahlil qiling.

### **18-Mavzu. O'zbekiston Respublikasining soliq sohasidagi xalqaro hamkorligi**

**Reja:**

**1. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari**

**2. AQSH va Germaniya soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili**

**3. Fransiyada soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili**

### **1. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari**

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari<sup>38</sup>. Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy xususiyatlari va belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Ularni biz shartli ravishda bir necha turlarga bo'lishimiz mumkin: - amerika modeli; - yaponiya modeli; - Yevropa modeli; - noandozaviy model. Bu modellarning umumiy belgilari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz: - rivojlangan qonunchilik bazasining mavjudligi, vujudga keladigan munozaralar, vazifalar hamda turli xil holatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari; - soliq organlari tashkil etilishining yuksak darajasi (texnika vositalari bilan ta'minlanganligi, yuqori ish haqi, zamonaviy aloqa vositalari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish darajasi); - soliq idoralarning soliq to'lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro'ga ega ekanligi; - vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralanib qo'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo'qligi; - hukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorining) katta ahamiyatga va obro'ga ega ekanligidadur.

### **2. AQSH va Germaniya soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili**

Barcha rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy hususiyatlarga ega va ayni paytda bir-biridan farq qiladi. Hozirgi kunda Amerika Qo'shma Shtatlari soliq tizimi takomillashgan bo'lib, bunda soliqlar faqatgina budjetni to'ldirish, ya'ni fiskal funksiyani bajaribgina qolmay, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy tayanch elementlariga aylanadi. AQSH soliq tizimi uch darajali bo'lib, ular: federal, shtat va shahar soliqlariga bo'linadi. AQSH moliya tizimining asosiy bo'g'ini federal, hukumatning budjet mexanizmi hisoblanadi. Yirik va doimiy tushumga ega bo'lgan soliqlar federal budjetga yo'naltiriladi. AQSHning 70% daromad va harajatlari federal budjet hissasiga to'g'ri keladi.

### **3. Fransiyada soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili**

Hozirgi kunda Fransiyadagi soliqni uch xil guruhga ajratish mumkin: daromad solig'i, shaxslarni daromad olganda keyingi to'lanadigan solig'i (ish haqi), iste'mol solig'i. Soliq tizimi asosan iste'mol yo'nalishiga qaratilgan bo'lib uning asosiy ko'rsatkichi olingan foyda (daromad)dir. Hozirda qo'shilgan qiymat solig'i ustida gap ketganda barcha ishlab chiqarish va iste'mol uchun qilingan barcha sarf harajatlari ko'zda tutilib barcha yo'nalishlar bo'yicha soliqqa tortilishini tushuniladi. Tashqi bozor 42Chet mamlakatlar soliq tizimi bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi. Import bo'yicha bajariladigan barcha operatsiyalar QQS tortiladi. QQS bajariladigan ishning turlariga bog'liq bo'lib, u soliq to'lovchining moliyaviy holatiga bog'liq bo'lmaydi. Soliq stavkasi tovarni bahosiga bog'liq bo'lmaydi. Qo'shilgan qiymat solig'i obyektini sotilgan tovarlarni qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar tashkil etadi. Bundan tashqari boshqa qilingan harajatlari ham hisobga olinadi (yuklarni tashish, ortish, tushirish, boj va h.k.).

#### **Topshiriq variantlari**

*1. Xorijiy ishlab chiqarish korxonasi 2018 yil 1 yanvariga qadar PQ-1050-sonli qarorga asosan imtiyozga ega edi. Korxonamiz PQ-2687-sonli qarorga asosan 2020 yil 1 yanvarigacha yagona soliqdan imtiyozga egami?*

JAVOB: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 dekabrda "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2687-son qarorining 7-ilovasida qayd etilgan to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ining nooziq-

<sup>38</sup> Chet mamlakatlar soliq tizimi. A.Jo'raev – T.: TMI, 2005. 183-b.

ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalariga 2020 yilning 1 yanvariga qadar soliq hamda bojxona imtiyozlari va preferensiyalari berilgan.

Ushbuga asosan, korxonangiz qarorning 7-ilovasida qayd etilgan to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog'ining nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar hisoblansa, 2020 yil 1 yanvarga qadar yagona soliqdan imtiyozga ega bo'ladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Rivojlangan mamlakatlardagi soliq tizimi modellarining asosiy belgilarini izohlang?
2. Amerika modeli va Yaponiya modelining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
3. Yevropa modeli va noandazaviy modelning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
4. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining jahon soliq tizimi modellari bilan farqli va o'xshashlik jihatlarini tahlil qiling.
5. Amerika soliq tizimini O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtirma tahlil qiling.
6. Germaniya va Fransiya soliq tizimlarini O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtirma tahlil qiling.

# MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI



## **I. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Ushbu fan bo'yicha mustaqil ta'lim alohida olingan mavzular yuzasidan mustaqil loyiha tayyorlash o'rqali tashkil etiladi. Mustaqil talimning mavzularga oid loyiha asosida amalga oshirish texnologiyasi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar quyida keltirilgan.

*O'quv loyihasi:* o'quv rejasida belgilangan mavzular doirasida  
Mustaqil talimni mavzuga oid loyiha asosida amalga oshirishga

### **PEDAGOGIK ANNOTATSIYA**

**Fanning nomi:** "Soliq huquqi".

**Mavzuning nomi:** o'quv rejasida belgilangan mavzular doirasida.

**Ishtirokchilar:** bakalavriat bosqichi "Soliqlar va soliqqa tortish" talim yo'nalishi talabalari.

**O'rganishning maqsadi:** o'quv kursi bo'yicha egallangan bilimlarni chuqurlashtirish maqsadida mazkur mamlakatdagi soliq siyosati elementlarini tahlil qilish bo'yicha malaka ko'nikmalarini shakllantirish.

**Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari:** Soliq huquqi va soliq siyosatining maqsadi va vazifalarini anglab yetiladi; mazkur davlatning soliq siyosati va tizimidagi o'ziga xos jihatlarni ajrata oladi; soliq siyosati elementlarini o'zlashtiradi; soliq siyosatiga o'zgartirish kiritish yo'llarini bilib oladi; soliq siyosati elementlarini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Soliq tizimlarini o'rganish faoliyati bo'yicha quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi: muammoni shakllantirish va vazifalarni aniqlash; vazifalarni amalga oshirishdagi usullarni tanlash va ulardan foydalanish; o'z faoliyatini rejalashtirish; ma'lumot manbalarini aniqlash, tizimga keltirish va tahlil etish; natijalarni talab darajasida rasmiylashtirish va kerakli ko'rinishda taqdim etish.

*Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo'lgan tayanch bilim va ko'nikmalar quyidagilardan iborat:*

*Quyidagi tayanch bilimlarni bilishi kerak:* mamlakatlar soliq siyosati borasidagi me'yoriy hujjatlar; soliq siyosati tarkibini tashkil etuvchi har bir elementning nazariy asoslari; davlatning soliq siyosatini olib borishiga doir o'ziga xos umumiy jihatlarni tahlil etish va baholash.

*Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:* mamlakat soliq qonunchiligini, soliqqa tortish tizimini, soliq mexanizmini, soliq turlarini, stavkalarini, to'lov muddatlarini, hisobotlarni taqdim etish; soliq siyosatidagi asosiy elementlarni tahlil etish; guruhda faoliyat yuritish, hamkorlikda o'qish, tartib va qoidalari.

*Turlanish belgilari bo'yicha loyihaga tavsif:* turi - amaliy; predmet va mazmun jihatdan ko'lami - bir fan bo'yicha foydalaniluvchi monoloyiha; talabalar o'quv loyiha faoliyatlarini muvofiqlashtirish xarakteri - bevosita; ishtirokchilar soni - guruh talabalari 3 ta ishchi guruhga bo'linib ham ishlashlari mumkin, har bir ishchi guruhda 8 tadan 10 tagacha ishtirokchi bo'lishi mumkin (talabalar ko'proq bo'lsa, loyiha yo'nalishlarini ko'paytirish mumkin); bajarish muddati - uzoq muddatli o'quv

semestri yakunigacha; semestr davomida tanlangan mamlakatga oid Soliq huquqiga doir soliq siyosatini tashkil etuvchi har bo'lim tayyorligi darajasida taqdimot etib boriladi.

Loyihani bajarish tartibi: Talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatlarida bajariladi, amaliy mashg'ulotda taqdim etib boriladi.

Loyiha asosida ish olib borish bosqichlari.

*Tayyorlov bosqichi:* loyiha bilan tanishish; auditoriyadagi mashg'ulot vaqtida talabalar faoliyatini tashkil etish.

*Loyihani bajarish bosqichlari:* auditoriyadan tashqari faoliyat davrida.

*Yakuniy bosqich:* loyiha taqdimoti, loyiha va auditoriya mashg'ulotida talabalarning loyihalashtirish faoliyatini baholash.

*Loyiha asosida ish olib borishni boshqarish:* auditoriyadan tashqari faoliyatda.

Mustaqil talimning ushbu modeliga qisqacha tavsifnoma.

Loyiha asosida ish olib borish jarayonida quyidagilar qo'llaniladi:

ish olib borish *usullari:* loyihalashtirish usuli, matn va axborot manbalari bilan ishlash, taqdimot; ish olib borish *shakllari:* ommaviy, alohida, guruhlarga bo'lingan holda; ish olib borish *vositlari:* loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatmalar, kompyuter texnologiyalari.

Mustaqil ravishda ish olib borish LOYIHASI: O'quv rejasidagi belgilangan mavzular tanlanadi.

## I. LOYIHA TOPSHIRIG'I

Soliq huquqi va har bir shaxsning belgilangan soliqlar va yig'implarni davlat byudjetiga to'lashi shartligi, adolatli soliqqa tortish, soliq tizimining yagonaligi va soliq qonunchiligining oshkoralik tamoyillariga asoslanadi. Soliq siyosati davlat va jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi, chunki uning vositasida davlat oldida turgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy-moliyaviy resurslar jamlanadi.

Soliq siyosati - bu soliq tizimidagi davlatning uzoq davrga rejalashtirilgan soliq qonunchiligini tashkil qilishdagi istiqbolli tadbirlar yig'indisidir. Soliq siyosatining strategiyasi va taktikasi davlat tomonidan tayyorlanib amalga oshiriladi. Soliq siyosatining strategiyasi - bu 10-15 yillarga mo'ljallangan soliq qonunchiligidagi tadbirlar yig'indisidir. Soliq siyosatining taktikasi - bu davlatning soliq siyosatining strategiyasini qisqa davr(yil, chorak) mobaynida soliq tizimiga tadbir qilish yo'nalishidir.

Davlatlar soliq qonunchiligi vositasida soliq sohasidagi siyosatni amalga oshiradilar. Soliq qonunchiligi davlat faoliyatining yo'nalishlaridan biri sanaluvchi davlat ichki daromadlarini shakllantirishga oid bo'lgan moliyaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tarmog'idir. Soliq qonunchiligining asosiy vazifasi belgilangan soliq va yig'implarni o'z vaqtida, belgilangan hajmda yig'ilishini ta'minlash yo'li bilan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdan iborat.

Davlat byudjeti (davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi)ni majburiy tashkil etadigan mamlakat hududida joriy etilgan umumdavlat soliqlari,

federal soliqlar, mahalliy soliqlar va yig'implar hamda majburiy to'lovlar turlarining yig'indisiga soliq tizimi deb ataladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy sohaları globallasuvi sharoitida juda tez sur'atlar bilan dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar soliq siyosatini ham shunga mos ravishda optimallashtirish va iqtisodiyot sohalarida soliq yukini kamaytirishni talab qiladi.

Bugungi kunda soliq to'lovchilar nima uchun soliq to'layotganliklari, ularning miqdori nima sababdan oshgan yoki kamaytirilganligini yaxshi tushunishlari kerak. Eng muhimi – soliqlar talim, sog'liqni saqlash tizimlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish orqali oxir-oqibat soliq to'lovchilarning o'ziga qaytishi va ularning manfaatlariga xizmat qilishini anglashlari lozim.

Soliq siyosatining asosiy elementi bo'lgan soliq yukini optimallashtirish maqsadida, uni iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tahlil qilish va tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni bugungi kunda talab qilinmoqda. Bu masalalarni rivojlantirishda chet mamlakatlar tajribasini o'rganish juda muhim sanaladi.

## **II. Mustaqil ta'limning bajarilishi**

Fan bo'yicha mustaqil ta'lim alohida olingan mavzular yuzasidan loyiha tayyorlash o'rqali tashkil etilganda Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo quyidagilardan iborat: Tanlangan mamlakatda soliq huquqi va soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda soliq yuki va boshqa elementlarini tahlil qilish va uning natijasida mamlakatimizda joriy qilish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat va quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Tanlangan mamlakatdagi iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soliq yukini aniqlash makroiqtisodiy darajada.
2. Tanlangan mamlakatdagi korxonalar misolida soliq yukini aniqlash mikroiktisodiy darajada.
3. Soliq siyosatining soliq yuki va boshqa elementlarini tahlili natijasida aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Loyihaning maqsadi (nima uchun yaratilayapti) soliq siyosati doirasida soha, tarmoq va korxonalar misolida mamlakatimizdagi holat bilan qiyosiy tahlil qilish.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija (loyiha mahsuli) soliq yukining bugungi kundagi optimal varianti.

Loyihadan foydalanuvchilar: tegishli fan o'qituvchisi, mazkur fanni o'rganayotgan o'quvchilar, o'rganayotgan mutaxassislar.

Loyiha tarkibiy bo'limlarining namunaviy nomlarini quyidagi jadvalda keltiramiz.

## Loyiha tarkibiy bo'limlarining namunaviy nomlari

№	Loyiha tarkibiy bo'limlarining namunaviy nomlari	Tayyorlanish muddati
1.	Huquq manbalarining yuridik tartibga solinishi va asosiy tamoyillari.	
2.	Soliq huquqi manbalarining tushunchasi, ularning ahamiyati va turlari.	
3.	O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi: tushunchasi, tarkibi va xususiyatlari.	
4.	Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik muammolari.	
5.	Ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi va uni rivojlantirish masalalari.	
6.	Soliq huquqbuzarliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortishning asoslari.	
7.	O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmatini bosqichma-bosqich rivojlantirish muammolari.	
8.	Soliqqa oid munosabatlarda kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish masalalari.	
9.	O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati.	
10.	Nazorat tekshiruvlarini o'tkazishda soliqqa oid qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash masalalari.	
11.	Soliq to'lovchilarning huquq va manfaatlarini sud tomonidan himoya qilinishi.	
12.	Soliq huquqining boshqa turdosh fanlar bilan o'zaro aloqasi.	
13.	O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar.	
14.	Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlarning umumiy tavsifi.	
15.	Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari.	
16.	Soliq organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorligi.	
17.	Moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida soliq imtiyozlarining ahamiyati.	
18.	Soliq huquqi printsiplari tushunchasi, turlari va yuridik ahamiyati.	
19.	Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari tushunchasi hamda ularning mazmuni.	
20.	Moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.	
21.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish masalalari.	
22.	Soliq huquqiy munosabatlarda soliq maslahati xizmatini ko'rsatishning zarurati va uning vazifalari.	
23.	Soliq maslahati faoliyatini tartibga soluvchi qonun xujjatlarini takomillashtirish masalalari. 24. Moliyaviy javobgarlik bo'yicha xorijiy mamlakatlar qonunchiligi: (tajriba va amaliyot).	
24.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi, alomatlari va ijtimoiy xavfi	

Loyihaning tarkibi: Sizga taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish soliq huquqi va soliq siyosati elementlarining namunaviy shakldagi ko'rinishi bo'lib, uning shakllanishida har bir tanlangan yo'nalishda mamlakat va sohaning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topmog'i lozim.

bajarilish muddati: semestr davomida (yakuniy nazoratgacha taqdimot qilinadi), loyiha qismlari belgilangan grafik asosida;

ishtirokchilar soni: talabning o'zi, guruh talabalari 3 ta ishchi guruhga bo'linib, har bir ishchi guruhda 5 tadan 10 tagacha ishtirokchi bo'lishi ham mumkin.

Mustaqil loyihani bosqichma-bosqich bajarish uchun ko'rsatma

- *Tayyorlov bosqichi.*

1.1. Loyiha mavzusini tanlang, dolzarbligini asoslang va yechishingiz kerak bo'lgan muammoni shakllantiring.

1.2. Loyiha maqsadi, predmeti, ob'ekti va vazifalarini belgilang.

1.3. Loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tayyorlang. Ularni yechish usul va vositalarini tanlang.

1.4. Loyiha mavzusiga doir axborot manbalari bilan tanishing (me'yoriy hujjatlar, o'quv adabiyotlari, moliyaviy hisobotlar va boshqalar).

2. *O'quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.*

2.1. Maqsadga erishish ketma-ketligini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo'yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlang, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilang).

Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatma

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z bilan) asoslang.

3. Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasi (jadval) ni bayon eting.

6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

9. Baholang:

- loyiha sifatini;

- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llari.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko'ra).

Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. MS Power Point da taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;
- slaydlarni belgilashni tanlash;
- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Slaydlarni *texnik namoyish etish* quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

Ø Slaydlar *miqdori* (8-12).

Ø *Slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari*:

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, -o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
- oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

Ø Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. *Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi*

Ø Agar matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:

- yuqori axborotli;
- bog'lovchili;
- aniq va qisqa;
- oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi)- bularning barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'zni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;
- (asosan termin va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.

Ø Ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozini eshitib bo'lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachining jonli ovozi hisoblanadi.

Ø *Rasmlar* aniq va etarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarning o'lchamini katta qilishga urinmang, faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.

Ø *Videotasmalar* taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

Ø *Jadvallarda* ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi. Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

Ø *Chizmalar* bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan qoidalar.

*Taqdimot nimadan iborat bo'lishi lozim?*

- loyiha muammosi, maqsadi va vazifalari tushunchasini namoyish etish; ishni rejalashtirish va amalga oshira olishni bilish;
- yechimlarni izlash jarayoni tahlili;
- topilgan yechim;
- muammoni muvaffaqiyatli va foydali hal etishni mustaqil tahlil qilish natijalari.

Shu jumladan:

Tartibga rioya qilish: guruh chiqishining umumiy davomiyligi – 7-10 daqiqadan kam va 15 daqiqadan ko'p bo'lmasligi lozim.

Guruh a'zolari chiqishlarining navbatma-navbatligiga rioya qilish va ularning harakatini kelishtirish Barcha jadvalli axborotlarga sharhlar.

*Taqdimotda nima bo'lmasligi lozim?*

Loyiha ishining to'liq yoritilishi va loyiha mahsulotining mazmunini gapirib berish.

Ishtirokchilarning chiqishlaridagi qarama-qarshiliklar.

Noto'g'ri, tushunarsiz, noaniq ifodalar.

Mustaqil talimga oid talabalar uchun qo'shimcha uslubiy tavsiyalar.

Muammo: Mazkur mamlakat soliq tizimining soliq huquqi sohasida o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini o'rganish.

Vazifalar:

- Soliqlarni guruhlashtirish va xususiyatlarini o'rganib chiqish.
- Soliqda hisob siyosati va soliq qonunchiligiga binoan hisoblash usullarini o'rganish hamda aniqlash.
- Soliq summasini xarajatlarga to'g'ri belgilanganligini tekshirish.
- Soliq turlaridagi hisobot to'g'ri shakllanganligini o'rganish.
- Soliq turlaridagi hisobot to'g'ri shakllanganligini tahlil qilish, soliq hisoboti va xulosasida asosiy jihatlarga doir fikrni shakllantirish.

*Bajarish ketma-ketligi*

1. Berilgan vaziyatni o'rganish va masalani yechish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash? Mamlakatdagi holatlarni oydinlashtirish: nima yuz berayapti?
2. Berilgan vaziyatni tahlil qiling, muammoni yechish ketma-ketligidan ko'zlangan maqsad bayon qilinadi.
3. Tavsiya qilingan jadvallarni berilgan ma'lumotlar asosida to'ldirib, xulosa berishga tayyorlanadi.
4. Oxirgi xulosalar beriladi.

### **III. Mustaqil ta'limni baholash tartibi**

Mustaqil ta'limni baholash tartibiga ko'ra yuqorida ta'riflangan Loyiha mahsuli semestr oxirida, talabalar va pedagog o'rtasida belgilangan kunda amalga oshiriladi.

Loyihaning baholanishi ham amalga oshiriladi – ishchi guruhlar tomonidan bajarilgan loyiha quyidagicha baholanadi (guruhning har bir a’zosi uchun): Talabalarlar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida qismlari (maks. ball – 5); hisobot (maks. ball – 5); loyiha taqdimoti va himoya etish jarayoni (maks. ball – 10).

Talabalarning reyting asosida baholash tizimida mustaqil ta’limning bajarilishi yakuniy sinov sifatida xizmat qiladi. Albatta, mustaqil ta’limning talabalar tomonidan bajarilish muddati, yozma yoki Ilmiy loyiha ishlariga qo’yilgan talabga qay darajada javob berilishi, tavsiya etilgan adabiyotlardan qanday foydalanganligi baholash me’zonida nazarda tutiladi.

Mustaqil ta’limning bajarilishini nazorat qilish va baholash tizimi o’quv guruhi darajasida tashkil etilayotgan ilmiy seminarda, amaliy mashg’ulotlarda, joriy va oraliq nazoratlarda olib boriladi. Mustaqil ta’limlarning baholash me’zoni quyidagicha tashkil etish mumkin: barcha ta’lim yo’nalishidagi talabalar uchun - oraliq nazoratga ishchi dastur bo’yicha maksimal 34 (24/10) ball belgilangan bo’lib, shundan mustaqil ta’lim soatlarida bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda iqtisodiy tahlil bo’yicha berilgan qo’shimcha topshiriqlarni bajarishi uchun maksimal 10 ball ajartilgan. Bu maksimal 10 ball oraliq nazorat o’tkaziladigan vaqtlarda ikki marta maksimal 5 ballga ajratilgan holda rasmiylashtiriladi.

**Mustaqil ta’lim bo’yicha talabaning ballarda ifodalangan o’zlashtirishi quyidagi mezonlarga asosan aniqlanadi:**

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
8,6-10,0	A’lo	Mustaqil ta’lim talablari 86-100% bajarilgan, mustaqil ta’lim bo’yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mushohada yuritish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo’lish.
7,1-8,5	Yaxshi	Mustaqil ta’lim talablari 71-85% bajarilgan, mustaqil ta’lim bo’yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, amalda Soliq huquqi uslubiyatlarini qo’llay olish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo’lish.
5,5-7,0	Qoniqarli	Mustaqil ta’lim talablari 55-70% bajarilgan, mustaqil ta’lim bo’yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, tasavvurga ega bo’lish.
0-5,4	Qoniqarsiz	Mustaqil ta’lim talablari 54% bajarilgan, mustaqil ta’lim bo’yicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilishda aniq tasavvurga ega emaslik, bilmaslik, shuningdek belgilangan muddat va tartibda mustaqil ta’limni bajarmaslik.

**MUSTAQIL TA’LIM UCHUN QO'SHIMCHA  
MATERIALLAR**

Mustaqil takrorlash uchun savollarga atroflicha javob bering:



- Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni tarkibini keltiring
- Iqtisodiy rivojlangan davlatlar iqtisodni boshqarishda soliqdan qanday foydalanadilar?
- Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimining asosiy uchta xususiyatlarini ko'rsating
- «Soliq bosqinchiligi» va xufyona sektor aylanmasini keskin o'sishi tushunchalarini tasniflang
- Jismoniy va xuquqiy shaxslardan to'g'ri soliqlar olinmaydigan yurisdiksiyalar, past darajada to'g'ri soliq olinadigan yurisdiksiyalar va yuqori soliq stavkali yurisdiksiyalar tavsifini berin.
- Milliy soliq tizimlarining bir-biriga moslashishining kelajagi qanday?

### Jadvalni to'ldiring

Dunyo mamlakatlarining ba'zilaridagi soliqlar darajasini tahliliy kuzating va mamlakatimizdagi holatni qiyoslang

	Korporatsiya foydasiga solinadigan soliqni yuqori stavkasi, %	Shaxsiy daromad solig'ini yuqori stavkasi, %
Buyuk Britaniya		
Italiya		
AQSh		
Frantsiya		
Germaniya		
Yaponiya		
Shveysariya		
Finlyandiya		
Kanada		

Mustaqil talimga oid talabalar uchun uslubiy qo'llanmalar.

Muammo:

Mazkur mamlakat soliq tizimining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini o'rganish.

Vazifalar:

- Soliqlarni guruhlashtirish va xususiyatlarini o'rganib chiqish.
- Soliqda hisob siyosati va soliq kodeksiga binoan hisoblash usullarini o'rganish hamda aniqlash.
- Soliq summasini xarajatlarga to'g'ri belgilanganligini tekshirish.
- Soliq turlaridagi hisobot to'g'ri shakllanganligini o'rganish.
- Soliq turlaridagi hisobot to'g'ri shakllanganligini tahlil qilish, soliq hisoboti va xulosasida asosiy jihatlarga doir fikrni shakllantirish.

*Bajarish ketma-ketligi*

1. Berilgan vaziyatni o'rganish va masalani echish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash? Mamlakatdagi holatlarni oydinlashtirish: nima yuz berayapti?

2. Berilgan vaziyatni tahlil qiling, muammoni echish ketma-ketligidan ko'zlangan maqsad bayon qilinadi.
3. Tavsiya qilingan jadvallarni berilgan ma'lumotlar asosida to'ldirib, xulosa berishga tayyorlanadi.
4. Oxirgi xulosalar beriladi.

## GLOSSARIY

**Asosiy ish joyi** – ish beruvchi mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo‘lgan ish joyi.

**Asosiy faoliyat turi** – yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo‘icha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi so‘v tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati.

**Bojxona organlari** – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari.

**Budjetdan ajratiladigan subsidiya** – davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun budjet hisobidan beriladigan pul mablag‘lari.

**Grant** – davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg‘araz asosda beriladigan molmulk.

**Davlat soliq xizmati organlari** – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari.

**Dividendlar** – aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o‘rtasida (ishtirokchilari, a‘zolari o‘rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalar bo‘yicha) taqsimlanadigan sof foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda molmulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a‘zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a‘zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi; taqsimlangan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish uchun yo‘naltirgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a‘zosining) qo‘shimcha aksiyalari qiymati, aksiyalar nominal qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari.

**Ijara (lizing) to‘lovi** – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to‘laydigan summa.

**Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi** – buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to‘lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o‘rtasidagi farq ko‘rinishidagi ijara (lizing) to‘lovining bir qismi.

**Insonparvarlik yordami** – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo‘llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg‘araz ko‘maklashish. Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish – ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) joyidan qat‘i nazar O‘zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish.

**Kameral nazorat** – soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazorat.

**Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar** – buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo‘lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi.

**Kredit tashkilotlari** – tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan banklar, mikrocredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

**Kurs bo‘yicha farq** – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o‘zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq.

**Moliya organlari** – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo‘limlari.

**Moliyaviy ijara** – mol-mulkni (moliyaviy ijara ob‘yektini) shartnoma asosida egalik qilish va foydalanishga o‘n ikki oydan ortiq muddatga topshirishda vujudga keladigan hamda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga javob beradigan ijara munosabatlari.

**Mol-mulk** – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari bo‘la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy obyektlar.

**Norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi** – norezident O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e’tirof etiladi.

**Notijorat tashkilotlari** – foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar.

**Operativ ijara** – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish.

**Realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlar** – hisobvaraqfakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko‘rsatilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo‘natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi kvitansiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar.

**Realizatsiya qilish** – sotish, ayirboshlash, beg‘araz berish maqsadida tovarlarni jo‘natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek garovga qo‘yilgan tovarlarga bo‘lgan mulk huquqini garovga qo‘yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish.

**Royalti** – fan, adabiyot va san‘at asarlaridan, shu jumladan elektronhisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar obyektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun; sanoat mulki obyektiga, tovar belgisiga (xizmat ko‘rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomad) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun to‘lovlar.

**Soliq bo‘yicha imtiyozlar** – amaldagi qonunchilik asosida yuridik va jismoniy shaxslarni soliqlarni to‘lashdan to‘liq yoki qisman ozod etish.

**Soliq siri** – davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchi to‘g‘risida olingan har qanday ma’lumot.

**Soliq solinadigan baza** – soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

**Soliq solish obyekti** – soliq to‘lovchida soliq yoki boshqa majburiy to‘lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to‘lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasi.

**Soliq munosabatlarining subyektlari** – soliq to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar.

**Soliq tekshiruvi** – davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirish.

**Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami** – muayyan soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganda unga beriladigan raqam.

**Soliq huquqi** – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish, to‘lash hamda soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir.

**Soliq huquqiy munosabatlari** – soliqlar va yig'implarni joriy etish va undirish, soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan va soliq huquqi normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar.

**Savdo faoliyati** – qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

**Soliq agentlari** – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar.

**Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi** – soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

**Soliq davri** – u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davr.

**Soliq qarzi** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan Soliq kodeksida belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

**Soliqqa oid huquqbuzarlik** – soliq to'lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi).

**Soliq majburiyati** – soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati.

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Soliq to'lovchilar** – Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari.

**Soliq to'lovchining vakillari** – qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslar.

**Soliq hisoboti** – soliq to'lovchining soliq va boshqa majburiy to'lovning har bir turi bo'yicha yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisobkitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan hujjati.

**Soliq huquqi predmeti** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga (bundan buyon matnda budjet deb yuritiladi) va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlar.

**Soliq huquqi subyektlari** – davlat tomonidan o'rnatilgan va muhofaza etiladigan soliq huquqiy normalar harakatidan soliq huquqiy majburiyat va huquqlarga ega bo'lish hamda ularni amalga oshirish uchun yuridik javobgarlikka tortilish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxslar.

**Soliq huquqi tizimi** – soliq munosabatlar obyektiv asoslangan tizimining ichki tuzilishi, soliq huquqiy normalarining tegishli tartibda birlashishishi va joylashuvi.

**Soliq huquqi uslubi** – soliq huquqiy munosabatlar ishtirokchilari xulq-atvoriga huquqiy ta'sir ko'rsatish usul va vositalari.

**Soliq huquqiy normalari** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga (bundan buyon matnda budjet deb yuritiladi) va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xulq-atvor qoidalari.

**Soliqlar** – Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari.

**Sof tushum** – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.

**Sof foyda** – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

**Stavka** – soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

**Tannarx** – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi.

**Tovar oboroti** – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog‘ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo‘lgan), pulda ifodalangan mablag‘lar.

**Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum** – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo‘lgan) mablag‘lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to‘lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

**Tovarlarni eksport qilish** – O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**To‘lov manbai** – soliq to‘lovchiga to‘lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

**Umidsiz qarz** – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da‘vo qilish muddati o‘tishi oqibatida uzish mumkin bo‘lmagan qarz.

**O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining Yagona reestri** – soliq to‘lovchilarga oid davlat ma‘lumotlar bazasi tizimi.

**O‘zbekiston Respublikasining rezidenti** – O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxs; O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o‘n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O‘zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

**Favqulodda holatlar** – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chkilar, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko‘zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar.

**Foizlar** – har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, shuningdek depozit qo‘yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

**Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar** – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

**Egri soliqlar** – bahosiga yoki tarifiga qo‘shimcha ravishda o‘rnatiladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun soliqlar.

**Yuridik shaxs** – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo‘lgan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan hamda ularni

amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

**Yutuq** – lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holida yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar.

**Yakka tartibdagi tadbirkor** – tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashvoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxs.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**



### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2017. – 76 b.
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi Farmoni.
4. “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi qarori.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
9. Anufrieva L.P. Mejdunarodnoe chastnoe pravo. V trex tomax. T.2. Osobennaya chast. M. 2010. - 656 s.
10. Aliev B. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya. Uchebnoe posobie. – M.: “Vuzovskiy uchebnyk”, 2011 g. – 240 str.
11. Malikov T., Haydarov N., “Moliya: umumdavlat moliyasi” o'quv qo'llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y. 556 b.
12. Perov A. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 899 str.
13. Srojiddinova Z.X. Byudjetnaya sistema Respubliki Uzbekistan. Uchebnyk. T.: info COM. UZ nashriyoti., 2010. - 480 s.
14. Romanovskogo M. V., Vrublevskoy O. V. Finansi. Uchebnyk dlya bakalavrov. 2012. - 590 s.
15. Kolchina N. V. Finansi organizatsiy (predpriyatiy). uchebnyk. - Moskva: YuNITI, 2011. - 407 s
16. Jeff Madura. International financial management. 6th ed. South-Western College Publishing. Cincinnati. 2000
17. Jo'rayev A.S., Artikov N.A..Soliq huquqi.-T.”Iqtisod-Moliya”.2010.-144s.
18. Jo'rayev A.S., Artikov N.A..Soliq huquqi.-T.”Yangiyol Poligraf Servis” 2011. -144s.
19. Jo'rayev A.S., Artikov N.A..Soliq huquqi asoslari.-T.”Ilm-ziyo”.2012y
20. Public finance. Harvey S. Rosen, Ted Gayer. 10 th ed.United States.2013
21. Marcia Cornett, Troy Adair, Finance: Applications and Theory, 2014

22. Jean-Pierre Danthine, John B. Donaldson, Intermediate Financial Theory, Third Edition, 2014

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

23. Shog'iyosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012 y. – 280 bet.

24. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “Noshir”, 2012 y.

25. Malikov T.S., Sh. K. Jalilov Moliyaviy tizim. O'kuv-uslubiy ko'llanma.- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016 y. ,116 b.

26. Nuritdinova V.Sh. ,. M. A. Sharapova Moliyavi nazorat. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014 y. ,344 b.

27. Xusainov R.R. Moliya va soliqlar. II qism (Soliqlar): o'quv qo'llanma. T.: "Voris - nashriyot", 2014. - 336 b.

28. [Journal of International Accounting, Auditing and Taxation](#). AQSH. Massachusetts universiteti ilmiy nashri

### **Elektron ta'lim resurslari**

29. <http://www.lex.uz>

30. <http://www.norma.uz>

31. <http://www.soliq.uz>

32. <http://www.soliqinfo.uz>

33. [www.cnfp.ru](http://www.cnfp.ru)

34. [www.ft.com](http://www.ft.com)

35. <http://www.ibfd.org>

36. [www.wsj.com](http://www.wsj.com) – Wall Street Journal.

37. [www.wp.com](http://www.wp.com) – Washington Post.

38. [www.nyse.com](http://www.nyse.com) – New York Stock Exchange.

39. [www.tax.com](http://www.tax.com) – Tax organization.

40. [www.marketwatch.com](http://www.marketwatch.com) – Market Watch newsletter.

41. [www.nalog.ru](http://www.nalog.ru) – Налог.ру

42. [www.review.uz](http://www.review.uz) – Экономическое обозрение

43. [www.referat.ru](http://www.referat.ru) – Коллекция рефератов

44. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – Информационное агентство Узрепорт.

45. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – Министерство Финансов Республики Узбекистан.

46. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – Центр экономических исследований.

# ILOVALAR

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

# TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“TASDIQLANDI”

O’quv ishlari bo’yicha prorektor

I.Qo’ziyev

2018 yil “ ” \_\_\_\_\_

## SOLIQ HUQUQI FANINING ISHCHI O’QUV DASTURI

**Ta’lim sohasi:** 230000 -Iqtisod

**Ta’lim yo’nalishi:** 5230800 -Soliqlar va soliqqa tortish

**Umumiy o’quv soati –126 soat**

**Shu jumladan:**

Ma’ruza – 36 soat

Amaliy mashg’ulotlar – 36 soat

Mustaqil ta’lim soati – 54 soat

**TOSHKENT – 2018**

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 201\_\_ yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ -sonli buyrug'i (buyruqning \_\_\_\_ -ilovasi) bilan tasdiqlangan "Soliq huquqi" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fan dasturi Toshkent moliya instituti Kengashining 201\_\_ yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_\_" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:**

Jo'rayev A.S. Toshkent moliya instituti Soliqlar va soliqqa tortish kafedrasini mudiri, i.f.d. professor

Artikov N.A. Toshkent moliya instituti Soliqlar va soliqqa tortish kafedrasini katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Abdurahmonov H.T. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, pedagog kadrlarni malakasini oshirishni nazorat qilish bo'limi boshlig'i. i.f.n. dotsent

Shirinov S.E. –Toshkent moliya instituti, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasini dotsenti, i.f.n.

**Sug'urta**

**fakulteti dekani:**

2018 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ **G'. Safarov**  
(imzo)

**"Soliqlar va soliqqa tortish"**

**kafedrasini mudiri:**

2018 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ **A. Jo'rayev**  
(imzo)

## **I. O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

Oxirgi yillarda mamalakatimizda amalga oshiriliyotgan islohatlar natijasida soliq qonunchilik hujjatlari takomillashib bormoqda. Har yilning oxirida soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, shuningdek soliq ma'murchiligini soddalashtirishga, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirishga, soliq yukini kamaytirishga, soliq tekshirishlarini yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali tadbirkorlik subyektlariga keng shart sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur holatlar "Soliq huquqi" fanini o'rganishning zaruratini keltirib chiqaradi. Soliq huquqi me'yorlari mamlakatda ro'y berayotgan bozor iqtisodiyoti rivojlanishi hamda mulkchilikni turli shakllaridagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar bilan bog'liq o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Ushbu me'yorlar davlat organlari, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining soliq sohasidagi huquq va majburiyatlarini mustahkamlaydi. Soliq huquqi me'yorlarini bilish va ularni amaliyotga qo'llay olish yuqori malakali soliqchi kadrlarni tayyorlashda qo'yiladigan majburiy talablardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartlariga asosan "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik blokida "Soliq huquqi" fani o'qitiladi. Ushbu fanni o'qitish jarayonida soliq huquqi tushunchasi, soliq sub'ektlarining qonuniy asoslari, soliq idoralari ma'muriy boshqaruvining qonuniy asoslari, nazorat tekshiruvlarini o'tkazishda qonunlarning soliqqa oid hukmlari, soliqqa tortish masalalaridagi yuzaga keladigan kelishmovchiliklarning sud tartibida hamda sudgacha bo'lgan jarayoni kabi mavzular yoritib beriladi. Xususan, yuridik va jismoniy shaxslarning soliq to'lovlari yuzasidan byudjet bilan munosabatlarining qonuniy asoslari, undiruvchi hamda to'lovchi sifatida qatnashuvchi tomonlarning yuridik maqomi ko'rilishi bilan birga xalqaro doirada hamkorlik munosabatlarida yuzaga keladigan soliq qonunchiligi masalalari amaliyotga bog'langan holda chuqur o'rganiladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida soliqqa tortish usullari juda keng qo'llanilmoqda. Shu sababli, yetuk iqtisodchilarni tayyorlashda soliqqa tortish usullaridan foydalanishni o'qitish bo'lajak iqtisodchilarni o'z faoliyatida uchraydigan iqtisodiy masalalarni hal qilishda to'g'ri va asosli qarorlar qabul qilishlarida muhim ahamiyatga egadir. Amaliy va nazariy iqtisodiyot masalalar turli-tuman bo'lib, bunda amaliy ma'lumotlarni tahlil qilish usullari, iqtisodiy jarayonning rivojlanish holatini baholash va prognoz qilish masalalari dolzarb hisoblanadi.

## **II. O'quv fanning maqsadi va vazifasi**

"Soliq huquqi" fanini o'qitishdan maqsad, talabalarni O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliq qonunchiligi va soliqqa tortish tizimini huquqiy tartibga solish bilan yaqindan tanishtirib, ularning soliq qonunchiligi sohasidagi

huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgandir.

Fan oldiga qo'yilgan vazifalar asosan talabalarni soliq qonunchiligi elementlarini, to'lovchi va undiruvchi o'rtasidagi huquqiy mezonlarni, soliqqa tortishda qo'llaniladigan unsurlarning qonunchilik nuqtai nazaridan mohiyatini, soliqqa oid tekshirishlarning turlari hamda o'tkazilish jarayonini ularning moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'rgatishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, moliyaviy-huquqiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- mikro va makro darajada soliq huquqi tizimining amal qilishi, tizim rivojlanishining qonuniyatlari, soliq huquqi tizimining holati, korxonalar va byudjet tashkilotlarining soliq huquqidagi o'rnini tashkil etish tamoyillari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi;**

- moliyaviy resurslar xususan soliqlarni boshqarishning asosiy usullarini, soliqqa oid faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini, soliqni rejalashtirish, soliq siyosati strategiyasi va taktikasini, soliqning huquqiy bazalarini tadqiq etish usullarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- talaba jismoniy shaxslar, korxonalar va tashkilotlar faoliyatida soliq yukini aniqlash va baholash usullarini qo'llash, mahalliy soliq, byudjetdan tashqari fondlar hozirgi zamon holati va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish, soliq tizimi rivojlanishi tendentsiyalarini aniqlash maqsadida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, soliq organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarini tashkil etish bo'yicha **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

“Soliq huquqi” fanining o'qitilishidan pirovard natija – talabalarda soliq huquqining asosiy institutlari, soliq huquqiy munosabatlarining mazmuni va tuzilishi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar tizimi, soliq huquqbuzarliklari uchun yuridik javobgarlik, xalqaro soliq munosabatlarining huquqiy asoslari to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishi, shuningdek huquqiy tamoyillar asosida soliq islohotlarini amalga oshirish zaruriyati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari doirasida huquqiy shakl va vositalarni qo'llash, davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita sifatidagi soliqlarning yuridik mohiyatini tushunib olish va amaliyotiga ega bo'lgan yuqori professional darajadagi mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-modul. Soliq huquqining asosiy tamoyillari (IV semestrning 1-3 haftalari)**

## **1-Mavzu. Soliq huquqi fanining predmeti , tizimi va uni boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

Davlat tuzilishi shakllari. Soliqlarning ilk ko'rinishi. Soliqlar tarixda inson sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Soliqlarning iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'ringa chiqishi va insonlar ma'lum moliyaviy manbaga ehtiyoj sezishlari. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning shakllari hamda o'zgarib borishi. Agarda bugungi kunga kelib soliqlar asosan pul shaklida undirilayotgan bo'lsa, ular qadimda bir qancha ko'rinishlarda, jumladan, mehnat shaklida, natura shaklida undirilgan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti yuksalishiga mos ravishda soliqlarning pulli shaklda undirilishi ham tobora rivojlanib bordi. Soliqlarning rivojlanish tarixi. Ularning har biri u yoki bu xususiyatlari hamda afzalliklari bilan ajralib turadi. Soliq tizimi, huquqi va predmeti.

Soliq huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar. Soliq huquqiy munosabatlarining mazmuni, soliq huquqi munosabatlari subyektlarining huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, taqiqlar, cheklovlar. Soliq huquqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari.

## **2- Mavzu. Soliq huquqining manbalari, prinsiplari hamda ularning umumiy tavsifi**

Ma'muriy - huquqiy normalar tushunchasi va xususiyatlari. Ma'muriy - huquqiy normalarning tasnifi. Soliq to'g'risidagi qonun elementlarining huquqiy ahamiyati va tushunchalari. Davlat soliq yurisdiksiyasi predmeti. Soliq huquqiy tartibga solinadigan munosabatlar tizimini tahlil qilish. Soliq munosabatlarini tartibga solish metodining o'ziga xos tomoni. Hokimiy bo'ysinish asosiga qurilgan va huquqning boshqa tomonlariga ham xosligi.

Soliqlar korxonasi, birlashma va tashkilotlar hamda aholining har xil guruhlariga daromadlarini qayta taqsimlashning iqtisodiy vositasiligi. Soliqlar orqali davlat bozor infrastrukturasi rivojlanib, xilma-xil mulk shakldagi korxonasi va tashkilotlar yaratilsa, soliqlardan byudjetga tushumlar ko'p bo'lishi va davlatning o'z funktsiyalarining bajarishga keng imkoniyat yaratadi. Soliqdan kompleks foydalanish xalq xo'jaligi strukturasi qayta qurishga, xo'jaliklar va alohida tovar sotib olish qobiliyatini boshqarib turishga va inflyatsiya jarayonini jilovlab turish imkoniyati. Huquqshunoslikda javobgarlik. Yuridik javobgarlik.

## **3 – Mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi, ularning mohiyati hamda o'ziga xos xususiyatlari**

Soliqlarning yuridik mohiyati. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar. Soliqlar hisobiga davlat moliyaviy resurslarining asosiy qismi shakllantirilishi. Soliqlar davlat budjetining daromad qismiga o'tkazilishi, yuqori qonunchilik hokimiyat organlarining hujjatlariga asosan yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan beg'araz, muayyan miqdorda va belgilangan muddatlarda umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun to'lanadigan majburiy to'lovligi. Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi xususiyatlar. Soliq to'lovlarning beg'arazligi, bu to'lovlarning majburiyligi, ularni joriy etish va undirib olish tartibi, soliqning aniq miqdorini hamda uni amalga kiritishning aniq muddatini belgilash. Soliqlar boshqa shaklda insonlarni o'zlariga qaytarilishi.

## **4-Mavzu. Soliqqa oid huquqiy munosabatlar hamda soliq to'lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlari**

Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari. Soliq majburiyati tushunchasi va amalga oshirish tartibi. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning hisobini yuritish. Soliq huquq layoqati va muomala layoqati. Subyektlar soliq huquqiy holatining asosi. Subyektning huquq layoqati. Soliq huquq layoqati. Huquqiy normalarni buzish va qonun bilan o'rnatilgan



talablarga rioya etmaganlik. Soliq huquqiy munosabatlari. Qonunchilik hujjatlari. Soliq huquqining subyekti. Soliq majburiyati – soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatligi. Soliq majburiyatini bajarish. Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari. Mol-mulk va majburiyat. Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash choralari qo'llanilishi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari bajarilishini ta'minlash choralari.

Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli orqali yuritilishi. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning alohida alohida hisobini yuritish usuli yuridik shaxsning butun kalendar yilga mo'ljallangan hisob siyosati bilan belgilanib yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emasligi. Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar realizatsiya qilishdan olingan sof tushumning umumiy summasidagi faoliyatning muayyan turlari bo'yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turiga kiritilishi. To'g'ridan-to'g'ri hisobga olish usuli qo'llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obyektlari yoki soliq solish bilan bog'liq obyektlar faoliyati.

#### **5- Mavzu. Soliq tizimini boshqarishdagi davlatning vakolatli o'rganlari**

Davlat boshqaruv organi tushunchasi va uning huquqiy holati. Davlat organlari tizimida davlat boshqaruv organlarini tutgan o'rni. Davlat boshqaruv organlarining tizimi. Davlat boshqaruvining markaziy va mahalliy organlari. Soliq tizimini boshqarish tushunchasi, soliq sohasini boshqarishdagi vakolatli davlat organlar va ularning vazifalari. Turli huquq sohalari mutaxassislarining davlat organlari va xususan davlat boshqaruvi organlari tushunchasi, mazmuni va ahamiyati. Vazirlik Soliq tizimini boshqarish tushunchasi, soliq sohasini boshqarishdagi vakolatli davlat organlar va ularning vazifalari. Davlat soliq xizmati organlari davlat statistika, axborot, arxiv, ma'lumot va boshqa tashkilotlarning soliq to'lovchilar haqidagi ma'lumotlarni berish yuzasida ko'rsatadigan xizmatlari. Soliq organlarining majburiyatlari. Davlat soliq xizmati organlarining faoliyatida muhim o'zgarishlar.

#### **6 – Mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i. Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida budjet tushumlaridan salmoqli va o'rni. Soliq solinadigan daromad. Soliq solish obyekti. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari; O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti. Soliq solinadigan baza.

### **2-modul. Soliq huquqining amaliy holati (IV semestrning 4-6 haftalari)**

#### **7 – Mavzu. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi**

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i. Boshqa soliqlarning huquqiy tavsifi. Soliq to'lovchi – O'zbekiston

Respublikasining rezidentlari; O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari. Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi). Soliq solish obyekti. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari. Soliq solinadigan baza. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi. Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1958 yildan boshlab joriy etildi. XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.

#### **8 – Mavzu. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar**

Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar. Budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar. O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirilganligi.

#### **9 – Mavzu. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Dehqon xo'jaliklari va bozorlarga hamda konsert-tomoshfa faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibi. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilari. Yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini, yagona soliq to'lovini, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashdan muayyan muddatga ozod qilinadi. Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushadigan, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangan holdagi sof tushum bilan realizatsiya qilingan birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq tarzida aniqlanishi. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Bozorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi. Bozorlarning daromadlariga quyidagilar kiradi: patta to'lovi tushumlari; boshqa tushumlar. Patta to'lovi. Ayrim turdagi tovarlar

bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi. Yig'img'lar o'rnatilgan minimal ish haqi miqdoriga nisbatan belgilanishi.

#### **10 – Mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi**

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Yagona soliq to'lovi. Yagona yer solig'i. Qat'iy belgilangan soliq. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob kitob qilish. Amaldagi soliq qonunchiligida mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona soliq to'lovini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan yagona soliq to'lovini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Yagona soliq to'lovini to'lagan hisobot davri uchun amalga oshirish. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar; qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari. Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki ushbu bo'limda belgilangan soliqlarni to'lashlari shart. Asosiy faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijaradan olingan daromadlar.

#### **11 – Mavzu. Soliq nazoratining huquqiy asoslari**

Soliq nazoratining o'ziga xos jihatlari. Soliq nazoratining shakllari. Soliq nazoratini amalga oshirishda soliq tekshiruvlarini o'ziga xos jihatlari. Soliq nazorati davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari vositasida hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshirishi. Soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: soliq to'lovchilarni hisobga olish; soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish; budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish; kameral nazorat; naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji; soliq tekshiruvlari; fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash; aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish; davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish; boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

#### **12-Mavzu. Davlat boji va bojxona to'lovlari huquqiy tartibga solish**

Davlat boji. Bojxona to'lovlari. Erkin iqtisodiy zonalar. Davlat boji turlari. Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tish hamda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda bojxona to'lovlari turlari. Boj. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalari. Tovar nomenklaturasi. Erkin iqtisodiy zonalar. Respublikamizning farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo'yicha yanada samarali chora-tadbirlar ko'rish zarurligi.

### **3-modul. Soliq huquqining xususiy holatlari (IV semestrning 7-9 haftalari)**

#### **13-Mavzu. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik sub'ektlarini me'yoriy huquqiy tartiblash**

Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjatlar. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining huquqiy- me'yoriy asoslari. Bozorlar faoliyatining huquqiy

me'yoriy asoslari. Bozorlardagi savdo o'rinlari jismoniy shaxslarga faqat ularning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgani to'g'risidagi guvohnomasi mavjud bo'lgan taqdirdagina berilishi, o'zi etishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini, shuningdek iste'molda bo'lgan tovarlarni sotish hollari. Sotib olingan tovarlar va xizmatlar uchun xaridorlarga beriladigan kassa cheklarida soliq to'lovchining nomi va individual raqami (INN), xarid qilingan vaqti va sanasi, tovarning nomi, uning qiymati, kassa apparatining raqami to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi. Bozorlarning hududida (qonun hujjatlariga muvofiq dehqon (ozuq-ovqat) bozorlari hududida zamonaviy savdo komplekslarini qurish uchun er uchastkalarini ajratish istisno qilingan holda) er uchastkalari ajratib berilishiga, shuningdek bozorga tegishli ko'chmas mulk ob'ektlarini jismoniy va yuridik shaxslarga mulk qilib topshirilishiga yo'l qo'yilmasligi.

#### **14-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari**

Soliq huquqbuzarligi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatalari. Soliq qonunchiligi bo'yicha javobgarlik. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik. Soliq qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik. Huquq nazariyasida umume'tirof etilgan qoidalar. Soliq qonunchiligini buzish ham huquqqa xilof qilmishning alohida bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Javobgarlik asosida qanday soliq qonunchiligi buzilishi turganligiga qarab, bu huquqqa xilof qilmishni moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik asoslari sifatida ko'rib chiqish mumkin. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning asosini aniqlash - soliq solish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solishda katta nazariy va amaliy ahamiyatga egaligi. Soliqlar va yig'imlar haqidagi qonun hujjatlarini buzish hamda uning xavfli shakllaridan biri bo'lgan soliq jinoyatlarini sodir etish davlatning iqtisodiy xavfsizligiga zarar yetkazishi. Soliq xavfsizligi - soliq tizimining holatini belgilab, soliqlar va yig'imlarni undirish orqali davlat va mahalliy tuzilmalarni to'liq va to'xtovsiz moliyalashtirishni ta'minlaydi.

#### **15-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy amaliyotni yuritish tartibi**

Ma'muriy huquqiy munosabatlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari. Ma'muriy huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi. Soliqda ma'muriy huquq sub'ektlari va ularning huquqiy maqomi tushunchasi. Yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabatlarning tabiati masalasi. Bir guruh olimlar huquqiy munosabatlarni ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi sifatida ko'rsatib o'tishi. Ikkinchi guruh olimlari esa, huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi hisoblanmasligini, ular faqatgina ijtimoiy munosabatlarning yuridik shakli, ifodasi sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatishi. Huquqiy munosabatlar – ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan munosabatlar. Huquqiy munosabatlar – huquq normalarining insonlar xulq-atvoriga tahsiri natijasida vujudga keladigan munosabatlar ekanligi. Huquqiy norma va huquqiy munosabat o'zaro bog'liq bo'lib, biridan ikkinchisi vujudga keladi. Huquqiy normalar bilan tartibga solingan munosabatlar

#### **16-Mavzu. Soliqqa oid nizolarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari**

Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi. Jinoiy javobgarlik asoslari. Nazorat kassa mashinalaridan foydalanishda huquqiy omillar. Kishining huquqqa xilof qilmishi faol harakat yoki harakatsizlikda ifodalanishi mumkin. Insonning har bir harakati yoki harakatsizligi uning ongi bilan boshqarilgan bo'lishi. Ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat hisoblanishi. Insonning har bir yaxshi yoki, huquqqa xilof yoxud jinoiy qilmishi, avvalo, uning muayyan qilmishni sodir qilish fikri. Inson har bir harakatni bajarishdan oldin uni ongida shakllantirib olishi. Jinoyat sodir qilish haqidagi fikrning mavjudligi jinoiy qilmish hisoblanmasligi. Chunki qilmishni jinoyat deb hisoblash uchun qilmishda qonunda nazarda tutilgan shartlar bo'lishi kerakligi, ya'ni jinoyat tarkibining barcha alomatlarini bo'lishi. Jinoyat sodir qilish. Ya'ni jinoyat tarkibini ifodalovchi belgilar yuz bermagan va qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga xavf solinmaganligi. Jinoyat. Jinoyat huquqiy munosabatlarning sub'ektlari bir tomondan davlat bo'lsa, ikkinchi tomondan jinoyat sodir qilgan

shaxs ekanligi. Shaxs tomonidan jinoyat sodir qilinishi munosabati bilan davlatda jinoyat huquqida nazarda tutilgan majburlov choralarini shaxsga nisbatan majburiy tarzda qo'llash, surishtiruv va tergov harakatlarini olib borish majburiyati vujudga keladi.

### **17– Mavzu. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati o'rganlarining huquqiy maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari**

Soliq huquqiy munosabatlar sohasida vakolatli bo'lgan davlat boshqaruv organlari. Davlat bojxona xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining huquqiy maqomi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati. Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilab berilgan davlat soliq xizmati organlari – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning budjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari. Davlat soliq xizmati organlari faoliyati. Davlat soliq xizmati organlarining o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari barcha soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiyligi. Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash, shuningdek Soliq kodeksida nazarda tutilgan holatlar bo'lgan taqdirda, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlarini. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati soliq to'lovchining hisobvarag'ida yetarlicha pul mablag'lari bo'lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e'tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to'lov naqd pul mablag'lari bilan to'langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirilgan paytdan e'tiboran bajarilgan deb hisoblanishi.

### **18-Mavzu. O'zbekiston Respublikasining soliq sohasidagi xalqaro hamkorligi**

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va ularning belgilari. AQSH va Germaniya soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili. Fransiyada soliq tizimi va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi bilan solishtirma tahlili. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tizimi modellari va bu modellarning umumiy belgilari, rivojlangan qonunchilik bazasining mavjudligi, vujudga keladigan munozaralar, vazifalar hamda turli xil holatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari; - soliq organlari tashkil etilishining yuksak darajasi (texnika vositalari bilan ta'minlanganligi, yuqori ish haqi, zamonaviy aloqa vositalari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish darajasi); - soliq idoralarining soliq to'lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro'ga ega ekanligi; - vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralanib qo'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo'qligi; hukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorining) katta ahamiyatga va obro'ga ega ekanligi; kadrlarni tahlil etish, o'rganish, oldidan belgilash, o'qitish, soliq to'lovchilar (jamoatchilik) bilan aloqalar bo'yicha institutlarning mavjudligi; soliqqa tortish tizimini tashkil qilish, rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti yuksak darajada o'zaro bog'liqligi, qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligi; soliq idoralarining, ayniqsa, axborot almashinish sohasida moliya organlari va bank tizimi bilan chambarchas bog'liqligi.

#### **IV. Amaliy mashg'ulotlar**

##### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Ushbu fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-Mavzu. Soliq huquqi fanining predmeti , tizimi va uni boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro bog'liqligi
- 2- Mavzu. Soliq huquqining manbalari, prinsiplari hamda ularning umumiy tavsifi
- 3 – Mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi, ularning mohiyati hamda o'iga xos xususiyatlari
- 4-Mavzu. Soliqqa oid huquqiy munosabatlar hamda soliq to'lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlari
- 5- Mavzu. Soliq tizimini boshqarishdagi davlatning vakolatli o'rganlari
- 6 – Mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi
- 7 – Mavzu. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi
- 8 – Mavzu. Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar
- 9 – Mavzu. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari
- 10 – Mavzu. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi
- 11 – Mavzu. Soliq nazoratining huquqiy asoslari
- 12-Mavzu. Davlat boji va bojxona to'lovlarini huquqiy tartibga solish
- 13-Mavzu. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik sub'ektlarini me'yoriy huquqiy tartiblash
- 14-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari
- 15-Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy amaliyotni yuritish tartibi
- 16-Mavzu. Soliqqa oid nizolarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari
- 17– Mavzu. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati o'rganlarining huquqiy maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari
- 18-Mavzu. O'zbekiston Respublikasining soliq sohasidagi xalqaro hamkorligi

## **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim mavzulari tegishli kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi va fanning ishchi o'quv dasturida keltirib o'tiladi. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Huquq manbalarining yuridik tartibga solinishi va asosiy tamoyillari.
2. Soliq huquqi manbalarining tushunchasi, ularning ahamiyati va turlari.
3. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi: tushunchasi, tarkibi va xususiyatlari.
4. Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik muammolari.
5. Ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi va uni rivojlantirish masalalari.
6. Soliq huquqbuzarliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortishning asoslari.
7. O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmatini bosqichma-bosqich rivojlantirish muammolari.
8. Soliqqa oid munosabatlarda kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish masalalari.
9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati.
10. Nazorat tekshiruvlarini o'tkazishda soliqqa oid qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash masalalari.
11. Soliq to'lovchilarning huquq va manfaatlarini sud tomonidan himoya qilinishi.
12. Soliq huquqining boshqa turdosh fanlar bilan o'zaro aloqasi.
13. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar.
14. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlarning umumiy tavsifi.
15. Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish masalalari.
16. Soliq organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorligi.
17. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida soliq imtiyozlarining ahamiyati.
18. Soliq huquqi printsiplari tushunchasi, turlari va yuridik ahamiyati.
19. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari tushunchasi hamda ularning mazmuni.
20. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.
21. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish masalalari.
22. Soliq huquqiy munosabatlarda soliq maslahati xizmatini ko'rsatishning zarurati va uning vazifalari.
23. Soliq maslahati faoliyatini tartibga soluvchi qonun xujjatlarini takomillashtirish masalalari.
24. Moliyaviy javobgarlik bo'yicha xorijiy mamlakatlar qonunchiligi: (tajriba va amaliyot).
25. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi, alomatlar va ijtimoiy xavfi

## **VI. Fan bo'yicha kurs ishi mo'ljallanmagan.**

## VII. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2017. – 76 b.
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi Farmoni.
4. “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi qarori.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
9. Anufrieva L.P. Mejdunarodnoe chastnoe pravo. V trex tomax. T.2. Osobennaya chast. M. 2010. - 656 s.
10. Aliev B. Teoriya i istoriya nalogooblojeniya. Uchebnoe posobie. – M.: “Vuzovskiy uchebnyk”, 2011 g. – 240 str.
11. Malikov T., Haydarov N., “Moliya: umumdavlat moliyasi” o'quv qo'llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y. 556 b.
12. Perov A. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 899 str.
13. Srojiddinova Z.X. Byudjetnaya sistema Respubliki Uzbekistan. Uchebnyk. T.: info COM. UZ nashriyoti., 2010. - 480 s.
14. Romanovskogo M. V., Vrublevskoy O. V. Finansi. Uchebnyk dlya bakalavrov. 2012. - 590 s.
15. Kolchina N. V. Finansi organizatsiy (predpriyatiy). uchebnyk. - Moskva: YuNITI, 2011. - 407 s
16. Jeff Madura. International financial management. 6th ed. South-Western College Publishing. Cincinnati. 2000
17. Jo'rayev A.S., Artikov N.A..Soliq huquqi.-T.”Iqtisod-Moliya”.2010.-144s.
18. Jo'rayev A.S., Artikov N.A..Soliq huquqi.-T.”Yangiyol Poligraf Servis” 2011. -144s.
19. Jo'rayev A.S., Artikov N.A..Soliq huquqi asoslari.-T.”Ilm-ziyo”.2012y



20. Public finance. Harvey S. Rosen, Ted Gayer. 10 th ed. United States. 2013
21. Marcia Cornett, Troy Adair, Finance: Applications and Theory, 2014
22. Jean-Pierre Danthine, John B. Donaldson, Intermediate Financial Theory, Third Edition, 2014

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

23. Shog'iyosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012 y. – 280 bet.
24. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “Noshir”, 2012 y.
25. Malikov T.S., Sh. K. Jalilov Moliyaviy tizim. O'kuv-uslubiy ko'llanma.- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016 y. ,116 b.
26. Nuritdinova V.Sh. ,. M. A. Sharapova Moliyavi nazorat. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014 y. ,344 b.
27. Xusainov R.R. Moliya va soliqlar. II qism (Soliqlar): o'quv qo'llanma. T.: "Voris - nashriyot", 2014. - 336 b.
28. [Journal of International Accounting, Auditing and Taxation](#). AQSH. Massachusetts universiteti ilmiy nashri

### **Internet saytlari**

29. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
30. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
31. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
32. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
33. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
34. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
35. [www. http://el.tfi.uz](http://el.tfi.uz) - [Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi](#).
36. <https://www.sciencedirect.com>- Massachusetts universiteti ilmiy nashrlari sayti.
37. <https://www.scopus.com/sourceid/28062>